

DAMINOV OYBEK OLIMOVICH

KASBIY PEDAGOGIKA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

DAMINOV OYBEK OLIMOVICH

KASBIY PEDAGOGIKA

*–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etgan*

**“Adabiyot uchquni”
Toshkent 2018**

УДК: 811.14

ББК: 84.06(36)М-5

Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. – T.: “Adabiyot uchquni”, 2018, 256 bet.

ББК: 84 06(36)М-5

Darslikda kasbiy ta'lim pedagogikasi, o'quv muassasasi o'qituvchisining faoliyati, kasbiy o'qitish mohiyati, funksiyalari, prinsiplari va mazmuni, kasbiy o'qitish jarayoni, kasbiy o'qitish metodlari va shakllari, kasbiy o'qitishni tashkil qilish shakllari, kasbiy o'qitishning didaktik vositalari, o'qiyotganlarning bilim, mahorat va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash, kasbiy-texnikaviy ta'lim pedagogikasining umumiy asoslari, kasbiy-texnikaviy ta'limda samarali o'qib-o'rganish va o'qitish metodlari masalalari zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanilgan holda bayon qilingan.

Darslik 5111000 – “Kasb ta'limi (5310600 – Yerusti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi)”, 5111000 – “Kasb ta'limi (5310200 – Elektr energetikasi)”, 5111000 – “Kasb ta'limi (5320300 – Texnologik mashinalar va jihozlar)” ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Magistratura talabalari va ilmiy tadqiqotchilarni o'qituvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Taqrizchilar: p.f.d. Tojdiyev M.
(O'zR O'QMTV huzuridagi OQMKHTRM);

f.f.n., ps.f.d., prof. Samarov R.S (ToshDTU)

ISBN-978-9943-987-57-9

© Daminov Oybek - 2018
© “Adabiyot uchquni” - 2018

ANNOTATSIYA

Darslikda kasbiy pedagogikaning zamonaviy muhim masalalari – kasbiy ta’lim asoslari, kasb-hunar kolleji o’quv muassasasi o’qituvchisining faoliyati, kasbiy o’qitish mohiyati, funksiyalari, prinsiplari va mazmuni, kasbiy o’qitish jarayoni, kasbiy o’qitish metodlari masalalari O‘zbekiston kasbiy ta’limi tizimidagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan holda bayon qilingan, ular talabalarga o‘zlarining bo‘lajak kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim va malakalarni egallashda yordam beradi.

АННОТАЦИЯ

В учебнике раскрыты современные важные вопросы профессиональной педагогики – основы профессионального образования, деятельность преподавателя среднего специального учебного заведения, сущность, функции, принципы и содержание профессионального обучения, методы профессионального обучения раскрыты с учетом изменений в системе профессионального образования Узбекистана, они способствуют необходимые для приобретению обучающимися знаний и умений, необходимых для своей будущей профессиональной деятельности.

THE SUMMARY

In the manual modern important questions of professional pedagogics – vocational training bases, activity of the teacher of average special educational institution, essence, functions, principles and the vocational training maintenance are opened, vocational training methods are opened taking into account changes in system of vocational training of Uzbekistan, they promote necessary for acquisition trained knowledge and the abilities necessary for the future professional work.

KIRISH

Kasbiy pedagogika ta'lim qonuniyatlarini o'rganadi, o'qitish va tarbiyalash prinsiplarini, informatsion va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi, pedagogik nazariyalar, innovatsion ta'limiy tizimlarni loyihalash usullarini, kasbiy ta'limni yanada rivojlantirish yo'llarini umumlashtiradi. Bu insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash haqidagi, yosh mutaxassislarning yangi avlodini kasbiy tarbiyalash haqidagi fan. Bu holatlar ushbu darslikda aks ettirilgan, u pedagogik jamoani gumanistik tarbiyaviy maqsadlarga, tashkillashtirilgan tajribani yaratishga yo'llaydi, pedagogik ijodiyot istiqbollari va kasbiy ta'lim jabhasidagi innovatsion jarayonlarning mohiyatini yoritadi. Darslikda kasbiy ta'limda va ishlab chiqarishda o'qitish va tarbiyalash mazmuni, pedagogik faoliyatning metodlari va shakllari yoritilgan.

Kasbiy pedagogika umumiy pedagogikaning tarmog'i sifatida kasbiy ta'lim tizimi takomillashishi bilan birga shakllanmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin kasbiy ta'limning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Darslikda kasbiy ta'lim asoslari, kasb-hunar kolleji o'quv muassasasi o'qituvchisining faoliyati, kasbiy o'qitish mohiyati, funksiyalari, prinsiplari va mazmuni, kasbiy o'qitish jarayoni, kasbiy o'qitish metodlari masalalari kasbiy ta'limdagi ushbu o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan holda bayon qilingan.

Darslikda bayon qilingan materiallar talabalarga o'zlarining bo'lajak kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashga yordam beradi, ularni yangi ta'limiy texnologiyalar va innovatsion faoliyat natijalari bilan boyitadi. Bu esa ularga kelajakda o'zlarining ishlariga ijodiy yondashish va uni mumkin qadar mahsuldor qilish imkonini beradi deb umid bildiraman.

I-QISM. KASBIY TA'LIM PEDAGOGIKASI

1- BOB. KASBIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING ASOSLARI

Tayanch so'zlar va iboralar: kasbiy ta'lim, o'qitish nazariyasi, bilish yo'llari, texnikaviy eksperimentlar, integratsiya, kompetentlik, kreativ tavsiflik, gumanistik yondashuv, kasbiy ta'lim modellari.

1.1. Kasbiy ta'lim pedagogikasining falsafiy-metodologik asoslari

Kasbiy ta'limning uch asosiy maqsadi mavjud. Ular:

- shaxs rivojlanishi – *ma'naviy rivojlanish*;
- ijtimoiy hayotda ishtirok etish – *ijtimoiy rivojlanish*;
- o'zining bo'lajak kasbiy faoliyatida bajarishi kerak bo'ladigan ishlarni bajarishga qodirlik – *kasbiy rivojlanish*.

Kasbiy pedagogika – bu nazariy va amaliyotga yo'nalgan bilimlarning jabhasi bo'lib, u insonni kasbiy tayyorlashning butun tizimiga taalluqlidir.

Har bir insonga qachondir o'zining kasbini yoki mutaxassisligini aniqlashga to'g'ri keladi. Mehnatning zamonaviy taqsimoti yuzlab kasb va mutaxassislik bo'yicha bo'lajak kichik mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kasbiy faoliyat turlarining bunday ko'pligi inson kasbiy kamolotga yetishishining har bir bosqichida o'qiyotganni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni ilmiy asoslash muammosini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Kasbiy ta'lim va kasbiy pedagogika rivojlanishining ustuvor strategiyasini izlash uchun biz kasbiy pedagogika statusini aniqlashning falsafiy-metodologik darajasiga murojaat qilishimiz, kasbiy ta'limning boshqa hamma muammolari asosida yotgan ushbu soha bilimlarining samaradorligini oshiruvchi eng umumiy asoslarni ko'rib chiqishimiz kerak. Ko'p hollarda metodologik muammolarni ko'rib chiqish bilan cheklanishadi, bunda metodologik bilimga asosan ta'limning ham nazariyasi va ham amaliyotida istalinayotgan (me'yoriy belgilangan) natijalarga erishish uchun qay tarzda harakat qilish kerakligini ko'rsatuvchi me'yoriy bilim tavsifini berishadi.

So'zsiz, pedagogika uchun umuman, kasbiy pedagogika uchun xususan, bunday me'yoriy bilim juda katta ahamiyatga ega, chunki u ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil qilishga yo'nalgan metodik ko'rsatmalar bilan bevosita bog'langan. Lekin, ma'lumki "*kerakli narsalar haqidagi bilim*"dan oldin me'yoriy rostdash zonasiga kiritilishi mo'ljallangan obyektlarning sifatii, mohiyatii xususiyatlari haqidagi,

va'ni "mohiyat haqidagi bilim" kelishi kerak. Aynan shuning uchun, u yoki bu pedagogik vaziyatda "qanday" harakat qilish lozim degan savolga javob berishdan oldin, pedagogik boshqaruvning mos obyektlarining o'zi 'nima'ligi haqida barafsilroq tasavvurga ega bo'lish lozim. Mohiyat haqida bilimga ega bo'lish esa pedagogik faoliyatning voqelik va obyektlarini atroflicha, tizimiy, o'quv fanlariaro o'rganishni, ko'rilayotgan voqelik va jarayonlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy, invariantli parametrlar va xarakteristikalarini ajratib olishni nazarda tutadi. Kasbiy pedagogikada tizimning aynan prinsipial, umumiy xossalarni ajratib ko'rsatish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Aynan shu xususiyatlar, ular haqidagi bilimlar eng asosiy narsani – muayyan ta'lim tizimining u yoki bu juz'iy xususiyatlaridan qat'iy nazar, mos nuammlarni yechishga bo'lgan yondashuvni belgilayci. Shuning uchun oxirgi paytda ta'lim falsafasi – eng umumiy ta'lim nuammlarining mohiyati va xarakteri haqida bir butun tasavvur beradigan ilmiy bilimlarning integrativ, o'quv fanlariaro jabhasiga katta e'tibor berilmoqda.

Kasbiy pedagogika faqat u yoki bu muayyan kasb yoki ixtisoslik bo'yicha kichik mutaxassisni to'g'ri profilli, tayyorlashgagina olib keladigan emas, balki unga "keng diapazonli" o'quv fanlariaro ilmiy bilimlarning izimi sifatida qarash kerak. Kasbiy pedagogikada ishlab chiqilgan g'oyalalar, metodlar va yondashuvlar yagona uzluksiz ta'lim tizimining hammasi bosqichlari, hammasi zvenolariga "singib" o'tishi kerak.

Pedagogik faoliyat ikkita asosiy aspektga ega. Bir tараfdan, bu faoliyat alohida amaliy faoliyat bo'lib, u pedagogning kundalik o'quv-tarbiyaviy ishi bilan bog'langan. Faoliyatning bu turini tavsiflovchi tayanch so'z – *jarayondir*. Aynan pedagoglar va o'qiyotganlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida *ta'limning asosiy vazifasi* – ularni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish, ularning har birining mos bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashi, shaxsning dunyoqarash va xulq-atvor sifatlarini egallashi *vazifasi* – yechiladi. Pedagogikaning vazifasi – bu jarayonni imkon qadar samarali, ta'lim sifatini esa yuqoriroq qilishdir. Shu bois, fan sifatida pedagogikaning predmeti bo'lib, birinchi nabvatda, *ta'lim jarayoni*, uning "*texnologik uskunasi*", ya'ni o'qiyotganlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning muayyan metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari xizmat qiladi. ular ta'limning kutilayotgan natijalariga erishishga ko'maklashadi.

Demak, kasbiy pedagogikaning *predmeti* – bu u yoki bu daraja va profildagi kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Pedagogikada, amaliy pedagogik faoliyat janri bilan bir qatorda, pedagogik tizimni loyihalash va kostruktsiyalash bo'yicha, ta'lim maqsadlari va mazmunini asoslash bo'yicha ko'p tarmoqli (ilmiy-tadqiqot, metodik) faoliyat janri ham mavjud, o'z navbatida ular ta'lim faoliyatining metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini asoslangan holda tanlash uchun asos yaratadi. Demak, kasbiy pedagogika predmeti ikki aspektli, bir butun: shaxsning talab qilingan kasbiy sifatlarini shakllantirish pedagogik jarayoni hamda bunday shakllantirishning maqsadlari, mazmuni va protsessual (texnologik) komponentlarini belgilovchi pedagogik tizim tavsifiga ega bo'ladi.

Qisqacha xulosa:

Pedagogik jarayon va pedagogik tizim – o'zaro bir-biri bilan organik bog'lanishda bo'ladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy ta'limning uch asosiy maqsadini bayon qiling.
2. «Kasbiy pedagogika» iborasining ta'rifini aytib bering.
3. Biz kasbiy pedagogika statusini aniqlashning falsafiy-metodologik darajasiga nima sababdan murojaat qilamiz?
4. «Kerakli narsalar haqidagi bilim»dan oldin qanday bilim kelishi kerak? Savolning mohiyatini asoslab bering.
5. Mohiyat haqidagi bilimga ega bo'lish nimalarni nazarda tutadi?
6. Kasbiy pedagogikaga qanday bilimlarning tizimi sifatida qarash kerak?
7. Pedagoglar va talabalarning birgalikdagi faoliyati jarayonida ta'limning qaysi vazifalari yechiladi?
8. Fan sifatida pedagogikaning predmeti bo'lib nimalar xizmat qiladi va ular nimaga ko'maklashadi?

1.2. Kasbiy pedagogika tarixi

Dunyoning pedagogik fikri tarixida o'sib yetilayotgan avlodni kasbiy va mehnat tayyorgarligi alohida o'rin egallaydi, chunki o'zining tarixining hamma bosqichlarida odamzod o'zi uchun muhim bo'lgan vazifa mehnat va kasb tajribasini bir avloddan keyinga avlodga uzatish masalasini yechgan.

Qadimgi zamonda kasb-hunarmandlik san'atga tenglashtirilgan. Kasbga bo'lgan bunday munosabat jamiyatning mehnat ma'naviyatini tashkil etgan. O'rta asrdagi shaharda hunarmand va savdogarlarning farzandlari uchun usta ustaxonasidagi shogirdlik kasbiy o'qitishning asosiy shaklini tashkil etgan. O'rta asrlardagi usta o'zining shogirdiga nafaqat

bilim va mahoratlarini, balki o'zining o'zligining bir qismini, o'z obrazlari dunyosini, o'z ir dividualligini gap bilan, amalda bajarish bilan uzatgan.

XI asrda "mexanik san'atlar" mohiyatini ko'taruvchi asarlar paydo bo'ldi. Parij maktabining tashkilotchisi Gugo Sen-Viktor (1096-1141) o'zining "Didaskalikon" asarida mexanikani "narsalarni tayyorlashda kerak bo'lgan san'at" deb atadi va ularning san'atning 7 turini – movut ishlab chiqarish, asboblarda va qurollarni ishlab chiqarish, navigatsiya, qishloq xo'jaligi madaniyati, ovchilik, meditsina, teatr san'atini ajratdi. Lekin u antik davr mutafakkiri sifatida texnik san'atni "nochor ota-onalar bolalarning qismati" deb hisoblagan.

Birinci gumanist-utopistlar T.Mor (1478-1535) va T.Kampanelli (1568-1639)larning asarlarida mehnatda hammaning ishtiroki, adolatsizlik va ekspluatatsiyani qabul qilmaslik g'oyalari asos solingan. Ular hunarni bilishni, mehnatning turli sohalari bilan tanishishga fuqaroning qadr qiymati va hurmatga sazovorligi sifida qarashgan, kasbni-mehnat turini erkin tanlashni, nazariya va amaliyotning uyg'unligini qo'llab-quvvatlashgan, kasbga tor hunar sifatida qarashga qarshi chiqishgan. Ya.A.Komenskiy (1592-1670) hunar roliga demokratik qarashni, jamiyat hayotida kasb muhimligini ta'kidladi. U yoshlarni mehnat hayotiga tayyorlash zarur deb hisoblagan. Uning "tasvirlarda hissiy narsalar dunyosi" asarida bolalarning diqqat e'tiborini o'z davrining ko'p hunarlari, mehnat qurollari, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan tanishtirishga katta e'tibor qaratilgan. Ingliz iqtisodiyotchisi va pedagogi Dj.Bellersning (1634-1725) "Ishlab chiqarish hamkorligini tashkil etish bo'yicha taklif" traktati (1695) kasbiy ta'lim haqidagi loyihalarning birinchisi bo'ldi. u kasbni egallash, yaxshi tarbiya va atroflicha ta'lim olish yo'li bilan kambag'allikdan qutulishning ijtimoiy-iqtisodiy masalasini yechishni taklif etdi. U o'qitishni ishlab chiqarish bilan birlashtirishni taklif etdi, keyinchalik bu taklif BMT tomonidan qabul etildi.

Kapitalistik munosabatlar, industrial ishlab chiqarish, fan hamda texnika va san'atning rivojlanishi bolalar va o'smirlarni ishlab chiqarishga ommaviy jalb etilishini keltirib chiqardi kasbiy maktab va shogirdlikning rivojlanishi zarurligini namoyon etdi. XVIII asr boshlarida yangi tendensiya paydo bo'ldi, unda avvalgi bilimlarga asoslangan o'qitish o'rniga texnologiyalar, jihozlar va asboblarga urg'u berilgan o'qitishga e'tibor qaratildi.

XIX asrning birinchi yarmidagi utopistlar K.A Sen-Simon (1770-1825), Sh.Furye (1772-1837), R.Ouen (1771-1858), E.Kabe (1788-1856) va boshqalar inson jamiyatini qayta qurish loyihalarida bo'lajak jamiyatning kasbiy tayyorgarligiga, mehnatning hamma uchun umumiyliigi, bolalikka gumanistik yondashuv, har tabaqaga oid bolalarning

har taraflama rivojlanishi va bolalarning “industrial qiziqishi rivojlanishi”, ta’limning umumiy tizimida kasbiy maktablarning teng huquqligi bo’lgan yondashuvlar taqdim etildi. Ular nazariy izlanishlar bilan cheklanmadilar. R.Ouen birinchi bo’lib unumdor mehnatni va o’smirlarning o’qishi bilan bog’liqlikni birinchi amalga oshirdi va kasbiy o’qitishni mantiqqa muvofiq tashkil qilishning misolini keltirdi. Fransiya ishchisi va arbobi K.A.Korbon (1808-1881) o’zining ishchilarning bolalariga maxsus bag’ishlangan va shogirdlik tizimi – “Kasbiy ta’lim haqida”gi dastlabki asarlaridan birida shaxs va jamiyat uchun kasbni erkin tanlash muhimligiga urg’u bergan, umumkasbiy kasbiy tayyorgarlik va kasbiy maktablar yaratilishi zarurligini, aqliy va jismoniy mehnat o’zaro bog’liqligini umumiy va kasbiy ta’limda birgalikda olib borish maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan. Chartizmning taniqli arbobi Ernest Jons (1819-1869) shogirdlik tizimini “zamonaviy industriyaning asosiy la’natlaridan biri” deb atadi.

Kasbiy ta’lim muammolariga bo’lgan yondashuv Yevropa buyuk mutafakkirlaridan birining asarida qayd etilgan va unda ishchilarni kasbiy tayyorlashning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ta’limiy-tarbiyaviy funksiyalarining integratsiyasi taklif etilgan. O’zidan oldingi mutafakkirlarning g’oyalari tayanib va ularni rivojlantirib, bu mutafakkir texnikaviy o’qitishni o’sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning eng muhim aspektlaridan biri deb hisobladi, u “ishlab chiqarishning hamma jarayonlarining asosiy prinsiplari bilan tanishtiradi va shu bilan birga o’smirlarga ishlab chiqarishning oddiy jihozlari bilan ishlashning ko’nikmalarini beradi”. Unda yoshlarning unumdor mehnatini umumiy (aqliy va jismoniy) ta’lim bilan birlashtirishga asoslangan masalasi qo’yilgan, u tor ixtisoslikni keng texnologik (politexnik) ta’lim bilan birgalikda ko’radi va, oxir oqibatda, nafaqat ishchini mavjud mehnat taqsimotiga moslashishini, balki uning o’zgarayotgan sharoitga moslashuvchanligini, faoliyatga ijodiy yondashuvini ta’minlaydi va bu texnika rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Bu g’oyalar XIX oxiri va XX asr boshlarida pedagoglar davrasida o’z aksini keng topdi. Shu bilan birga bu davrda pedagoglar o’zlarining diqqat e’tiborlarini shaxsni shakllantirishga, bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda mehnatning roliga qaratishdi. Bu davrda mustaqil ilmiy bilimning bir sohasi sifatida kasbiy ta’limning nazariyasi va metodikasi shakllana boshladi.

U ishlab chiqarish va kapitalizm rivojlanishi, maktab ta’limidagi islohotlar, kasbiy o’quv muassasalari tarmoqlarining kengayishi bilan shartlangan edi.

Ishlab chiqarishga bolalar va o'smirlar ommaviy jalb etilayotgan sharoitda bolalar mehnatini himoya qilish va shogirdlikni reorganizatsiya qilish ijtimoiy masalalar birinchi planga chiqq boshladi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida G'arbiy Yevropa pedagogikasida mehnat maktabini tashkil qilishga yo'nalgan reformatorlik harakati vujudga keldi. Germaniyalik Georg Kershenshteyner (1854-1932) – kasbiy ta'lim reformatori, uning atoqli tashkilotchisi bo'ldi. Kasbiy faoliyatga tayyorlashni u xalq maktabining muhim vazifasi deb hisobladi. U ishlab chiqarishda mashg'ul bo'lgan yosh ishchilar uchun qo'shimcha maktablarni yaratdi, bu maktab o'smirlar kasbi bilan bog'liq bo'lgan umumta'limiy tayyorgarlikni berar edi. Fabrika va ustaxonalarning egalari ishchi o'smirlarni, ularning oyliklarini saqlagan holda haftasiga maktabda o'qish uchun 8-10 soatga ishdan ozod qilar edilar. Kershenshteyner fabrika-zavod shogirdligining yangi tizimiga asos soldi, u ishlab chiqarishdagi amaliy ishni nazariy o'qish bilan birga olib borar edi. Bu tizim kasbiy ta'limning Germaniya tizimi sifatida G'arbiy Yevropada keng tarqaldi.

AQShda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi yangi texnologiyalar joriy etilishi, mehnatni konveyerli tashkil etish, mehnat unumdorligini va raqobatbardoshlikni oshirish zaruratiga bog'liq mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishga ilmiy yondashuv vujudga kelishi bilan bog'langan. F.U.Teylor (1856-1915) mehnatni ilmiy tashkil qilishga asos soldi, mehnatni tashkil etish va ishchilarni o'qitishda yangi metodlarni qo'llash "teylorizm" nomini oldi. Ish vaqtini zichlash bo'yicha tadbirlar bilan birga Teylor ishlab chiqarish madaniyatini tarbiyalab shakllantirish, mehnat va dam olishni ratsionallashtirish, ishlayotgan odanning psixofiziologiyasini mehnat faoliyatida hisobga olish g'oyalarini taklif etdi. Teylor mehnat operatsiyalari va uslublarini tahlil qilish va tanlab olishni taklif etdi. Teylor yozma instruksiyalashga asos soldi, instruksion (yo'riq) xaritasini nafaqat ishlab chiqarish, balki pedagogik instrument sifatida ko'rdi. Teylorning shogirdlari F.Djilbret, G.L.Gantt, R.V.Selvidj, fransuz A.Fayol va boshqalar ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha ishchi tashabbuskorligini tarbiyalash zarurati g'oyasini ilgari surishdi. Ommaviy ishlab chiqarish va konveyerda mehnatning operatsiya bo'yicha taqsimlanishi sharoitida teylorizm mehnat unumdorligining ortishiga ko'maklashdi. lekin shu bilan birga mehnatda zo'riqib ishlashga, toliqishga, kasbiy kasalliklarning ko'payishiga olib keldi, buning uchun teylorizm ishchilar harakati arboolari tomonidan tanqidga uchradi.

Avtomobilsozlik asoschilar dan biri Genri Ford (1863-1947) o'zini kasbiy o'qitishni tashkil etish va uning metodikasining reformatori sifatida namoyon etdi. Ommaviy konveyerli ishlab chiqarishni amalga tatbiq etib, u mehnatni operatsiyalar bo'yicha taqsimlash asosida ishchilarni o'qitishning operatsion-potokli tizimini ishlab chiqdi. Bu mehnat intensivligi va unumdorligini oshirdi, lekin shu bilan birga ishchilar asosiy

qismining malakasini soddalashtirishga va o'qish muddatini qisqartirishga olib keldi. Keyinchalik konveyerda mehnat qilishni gumanitarlashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. XIX asr oxirlarida G'arbda amaliy pedagogika kabi kasbiy o'qitishning metodikasi vujudga keldi. U korxonalarda o'ziga xos o'quv ustaxonalarining yaratilishi bilan bog'langan edi, shu tufayli zavod ustaxonadan ajralib chiqdi va unga pedagogik funksiyalar qo'shildi. Ishlab chiqarish o'qitishi uchun shogirdlik tizimi epoxasiga nisbatan ancha o'ylab pishiqlangan, murakkablashib borayotgan ishlar majmuini tanlab olishga, qarab o'rganishga emas, balki usta ko'rsatib bajaradigan ishga asoslangan tizim boshlandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada milliy markazlar va xalqaro markazlar urush paytida kasbiy pedagogika bo'yicha to'xtab qolgan tadqiqotlarni qayta tiklashdi. Ular YuNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qo'llab quvvatlandi. Oxirgi o'n yilliklarda kadrlarni tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik kuchayib bormoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qadimgi zamonda kasb-hunarmandlik nima sababdan san'atga tenglashtirilgan?

2. O'rta asrdagi shaharda kasbiy o'qitishning asosiy shaklini nima tashkil etgan?

3. T.Mor va T.Kampanelli asarlarida qanday g'oyalarga asos solingan.

4. XVIII asr boshlarida qanday tendensiya paydo bo'lganligini batafsil bayon eting.

5. XIX asrning birinchi yarmidagi utopistlar K.A.Sen-Simon, Sh.Furye, R.Ouen, E.Kabe va boshqalar inson jamiyatini qayta qurish loyihalarida bo'lajak jamiyatning kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan yondashuvlarni bayon eting.

6. XIX asrda qaysi masalalar birinchi o'ringa chiqa boshladi?

7. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida G'arbiy Yevropa pedagogikasida mehnat maktabini tashkil qilishga yo'nalgan reformatorlik harakati vujudga keldi. Bu reformatorlik harakatining g'oyalarini bayon eting.

8. AQShda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi nimalar bilan bog'langan edi?

9. Avtomobilsozlik asoschilaridan biri Genri Ford o'zini kasbiy o'qitishni tashkil etish va uning metodikasining reformatori sifatida nmaoyon etdi. U nimalarni ishlab chiqdi?

10. Oxirgi o'n yilliklarda kasbiy ta'lim sohasida qanday hamkorlik rivojlanib bormoqda?

1.3. Kasbiy ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalari

Hozirgi paytda kasbiy ta'lim tizimi rivojlanishining quyidagi tendensiyalarini farqlash mumkin:

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- kasbiy ta'limni tashkil qilishga kompetentli yondashuv;
- kasbiy ta'lim kreativ xarakterining rivojlanishi;
- kasbiy ta'limni tashkil qilishga gumanistik yondashuv;
- mehnat bozori (iste'molchilar) ehtiyoqlarini nobatga oluvchi amallarni bajarishga yo'nalgan o'qitish;
- kasbiy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish.

Bu tendensiyalarning hammasi o'zaro bog'liq va bir-biriga singib ketgan.

1.3.1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayoni kasbiy ta'lim muassasalarining faoliyatida tobora ahamiyatliroq o'rin egallamoqda. Kasbiy ta'lim rivojlanishining tendensiyasi sifatida ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, uning sifati rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari orasida kompetentli mutaxassisni tayyorlashni ta'minlovchi ma'him o'zaro bog'lanishlar (tizimiylik, mahsuldorlik, o'zaro manfaatdorlik, uzluksizlik) o'rnatildi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida kompetentli mutaxassisni tayyorlash – o'qiyotgan shaxsining kasbiy yetukligi jarayoni bo'lib, u ilmiy-pedagogik kadrlar kasbiy yetukligining yuqori darajasi, o'qitish va tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari, o'qiyotganlarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faolligi bilan shartlangan va kasbiy kompetentlikni, mehnat bozorida o'z-o'zini tashkil qilish va raqobatli bo'lish qobiliyatini shakllantirishga yo'nalgan.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining qonuniyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin

- *integratsiyaning mahsuldorligi* – ta'lim, fan muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro munosabatlarining sifati yuqori darajada bo'lganda erishiladi;
- *integratsiya samaradorligi* – uning strukturaviy tarkibi o'sganda ortadi;
- *mutaxassislar tayyorlash sifatining yuqori darajasi* – ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integrativ o'zaro ta'siri subyektlarining talablari bajarilgan holda erishiladi;
- *bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligi* – ta'lim, fan va ishlab chiqarishlarning integratsiyasi mutaxassis tayyorlash mazmuniga kiritilgan taqdirda ta'minlanadi.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining *pedagogik prinsiplari*:

- kasbiy ta'limning uzluksizligi va diskretligi (vaqt bo'yicha cheklanganligi);

• ta'lim mazmunining standartlashtirilganligi, variativligi, fundamentallashtirilganligi va amaliyotga yo'nalganligi;

• fan va ishlab chiqarishning zamonaviy yutuqlarida tuzilgan o'quv fanlari mazmunining muammoli-mavzuli va maqsadli integratsiyasi;

• ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirib tashkil qilinishi;

• «ta'lim – fan – ishlab chiqarish» tizimini bo'lajak mutaxassislarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish.

Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi pedagogik prinsiplarining majmui kasbiy ta'limni bo'lajak mutaxassisning shaxsiy qiziqishlariga yo'nalishini, uning eruditsiyasi, kompetentligining shakllanishini, ijodiy imkoniyatlari va umumiy madaniyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimi va ishlab chiqarish, real biznesning hamkorlikdagi faoliyati ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy o'sishini rag'batlantiradi, bitiruvchilarga o'zlari tanlagan mutaxassislik bo'yicha ishga joylashishni kafolatlaydi, buyurtmachiga esa – kasbiy ta'lim muassasalari bazasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

1.3.2. Kasbiy ta'limni tashkil qilishga kompetentli yondashuv

Uzoq vaqt davomida kasbiy maktab «bilimli» yondashuv deb ataluvchi gnostik pozitsiyada bo'ldi. Bunday yondashuvda *o'qiyotganlarda mustahkam tizimiy lashtirilgan bilimlarni shakllantirish ta'limning asosiy vazifasi* deb (amaliy malaka va ko'nikmalar ikkinchi darajali komponent deb) hisoblanardi. Bugungi kunda *o'qiyotganning shaxs sifatida o'zining taqdirini o'zi belgilashga, mustaqil ta'lim olishga, o'zini dolzarblashtirishga, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga qodir bo'lgan real (kasbiy, ijtimoiy, metodik) kompetentligi* shior qilib olingan. Bu bilimlarning ahamiyati kamayganligini bildirmaydi. Lekin ular ta'limning asosiy maqsadidan o'qiyotgan shaxsini rivojlantirish vositasiga aylanishdi. O'qiyotganning shaxsi kasbiy ta'limni modernizatsiya qilishning tizimini tashkil qiluvchi sifat bo'lib qoldi.

O'zlashtirish jarayonini tashkil qilish shunday kechadiki, unda o'qiyotganlar, nazariy mazmun ulushining katta bo'lishiga qaramasdan, metodik mazmun va mehnat bozori bilan muayyan aloqa yoki amaliyot orqali nazariy mazmunni amalda qo'llash doimiy amalga oshiriladi.

O'zlashtirishda bir tarafdin *mehnat bozori bilandoimiy aloqaga*, ikkinchi tarafdin esa *o'qiyotganlarning hozirgi va bo'lajak tajribasiga* alohida e'tibor beriladi.

Kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy bilim malaka, ko'nikmalar takomillashadi, kompetentlik shakllanadi, shaxsiy sifatlari rivojlanadi.

Shaxsiy o'qitish jarayonining modeli

O'zlashtirish predmetlari/obyektlari	Shaxs sifatlari	Faoliyatda shaxs xossalarning funksiyalari	Namoyon ho'lish shakllari
<p>O'zlashtirishning bayoni/diskriptiv obyektlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • tushunchalar • mulohazalar • nazariyalar • g'potezalar • ... <p>O'zlashtirishning instruktiv obyektlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • qoidalar • metodlar • algoritmlar • prinsiplar • ... <p>O'zlashtirishning me'yoriy obyektlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • me'yorlar • talablar • buyruqlar • ... 	<ul style="list-style-type: none"> • bilimlar • zakovat • ko'nikmalar • qobiliyatlar • o'z-o'zini boshqarish • inonganlik • nuqlar-nazar • ... <p>Mutaxassislik</p> <p>Ma'lum kasbiy faoliyatga yo'nalgan shaxs xossalarning dispozitsiyasi</p>	<p style="text-align: center;">Rekonstruksiyalash va konstruksiyalash qobiliyatlarining ko'p funksiyali dispozitsiyasi</p> <p>Bilimlar</p> <ul style="list-style-type: none"> • kasbiy amallar uchun informatsion asos sifatida <p>Uddalay olish</p> <ul style="list-style-type: none"> • kasbiy amallarning subyektiv imkoniyati sifatida <p>Xohish</p> <ul style="list-style-type: none"> • kasbiy amallarning subyektiv zarurati sifatida 	<p style="text-align: center;">Bajarilgan ish</p> <p>Amallar tarzining natijasi sifatida</p> <p>Mavjud kasbiy kompetensiya bazasida</p>

1.3.3. Kasbiy ta'lim kreativ xarakterining rivojlanishi

Kreativlik (lotincha *creatio* – yaratish) – bu ijodiy, yaratuvchilik, novatorlik faoliyatidir. Kreativlikni yangilikni qabul qilishga, oldingidan farq qiladigan yangini yaratishga, dunyoni bilishga ijodiy yondashish va uni o'zgartirishga bo'lgan qobiliyat bilan bog'lashadi. Umuman olganda kreativlik pedagogikaning o'ziga xosligini, ijod tushunchasi belgilaydi.

Zamonaviy industriallashtirishdan keyingi jamiyatda ommaviy umumli mehnat informatsiyaga va xizmatchining o'zining funksional vazifalariga ijodiy yondashuviga tayanadi. Bu sharoitda kreativ fikrlashning roli sezilarli darajada ortadi.

Hozirgi jamiyat o'quv muassasalarining hamma turlari, va birinchi navbatda, kasbiy maktab oldiga quyidagilarga qodir bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash vazifasini qo'yadi:

- zaruriy bilimlarni mustaqil ravishda egallab, vujudga kelayotgan har xil muammolarni yechish uchun ularni amaliyotda qo'llab, o'zgarib turgan hayotiy vaziyatlarda oriyentir olish, bundan maqsad – butun umr davomida hayotda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'lishdir;
- mustaqil ravishda tanqidiy fikrlash, vujudga kelayotgan muammolarni ko'ra olish va ularni yechishning ratsional yo'lini izlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish; egallanayotgan bilimlar qayerda va qay tarzda qo'llanilishi mumkinligini aniq anglash, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga qodir bo'lish, ijodiy fikrlash;
- informatsiya bilan savodli ishlash (ma'lum muammoni yechish uchun zarur bo'lgan faktlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, zarur bo'lgan umumlashtirishlarni, o'xshash yechishlar yoki yechishning alternativ variantlari bilan solishtirish, statistik va mantiqiy qonuniyatlarni o'rnatish, argumentlangan xulosalarni chiqarish, olingan tajribani yangi muammolarni aniqlash va ularni yechish uchun qo'llash);
- turli ijtimoiy guruhlarda kommunikabelli va kirishib ketishli bo'lish, har xil jabhalarda, turli vaziyatlarda, istalgan nizoli vaziyatlarning oldini olib yoki ulardan mohirona chiqib, hamjihatlikda ishlay olish;
- o'zining ma'naviyati, intellekti, madaniy darajasini rivojlantirish ustida mustaqil ishlash.

Ko'p olimlar ijodni muammoni yechish qobiliyati sifatida tushunishadi. Bu bilan birga uning yana bir ahamiyatli vazifasi – muammoni qo'yish qobiliyatidir. Qaysidir muammoni yechishdan oldin uni oldin topish zarur. Bu esa ancha qiyin masala. Ko'p hollarda

nuammoni topish va uni yechish uchun asoslab qo'yish, uni yechishdan ahamiyatliroq bo'ladi. Tabiatdan ijodiy faoliyatga berilgan qobiliyatga qaramasdan, faqat maqsadga yo'nalgan o'qitish tabiatdan berilgan ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlash imkonini beradi.

Kasbiy ta'limning kreativ tavsifga egaligi – bu bitiruvchi kasbiy kamolotga yetishishining asosi, tizimiy didaktik qonuniyatlarning biridir. Bitiruvchining kasbiy kamolotga yetishishi – bu ijtimoiy ta'sir, kasbiy faoliyat, o'z-o'zini takomillashtirishga yo'nalgan faollik ta'sirida shaxsning progressiv o'zgarish jarayonidir. Kasbiy ta'limda ijodning rivojlanishi alohida psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, u ham o'qiyotganlar va ham o'qitayotganlarning ijodiy faoliyatga, yangilikka ega bo'lgan va amaliyotga yo'nalgan ixtirolar qilishga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirishga yo'nalgan.

Insonning ijodiy potensialini rivojlantirish – jamiyat gullab-yashnashining eng muhim ma'riba va ko'rsatkichlaridan biridir. Shaxs o'zini ijodiy namoyon qilishi muammosi gumanistik tavsifga ega. U inson hayotining ma'nosi, inson ichki potensialining ochilishi masalalari bilan uzviy bog'langan. Ijod predmetga yangicha qarashni, vujudga kelayotgan nuammoli-nizoli vaziyatlarni yangicha yechishni nazarda tutadi, xulq-atvor, idrok qilish va fikrlashning odat tusiga kirib qolgan stereotiplaridan voz kechishga hozirlikni belgilaydi. Aristotel inson uchun eng ulug' nematni rohatlanishda emas, moddiy boylikda emas, himmatda emas, balki insonning *vazifasida* ko'rgan, u ongli faoliyatni ajoyib (ijodiy) bajarilishida mujassamlashadi.

Bilimlar, ma'horatlar, ko'nikmalar, g'oyalar, nazariyalar, kashfiyotlar, ixtirolar *ijodiy faoliyatning maqsadi* bo'lishi mumkin.

Kreativlik – shaxsning integrativ sifati bo'lib, u shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilashi va o'z-o'zini takomillashtirishiga, faoliyatini ijodiy tavsifga ega bo'lishiga ta'sir qiladi, bu ma'lum masalalarni yechishga prinsiplar yangi yondoshuvlarni qidirishga, ham kasbiy jabha va ham boshqa sohalarida prinsiplar yangi masalalarni qo'yish va ularni yechishga bo'lgan qobiliyatdir.

Kasbiy ta'limning kreativ xarakterini ta'minlovchi *prinsiplar* majmuri:

- *umiylik prinsipi*, ya'ni o'quv materialining zamonaviy fan darajasiga mosligi, o'qitish va ilmiy tadqiqotning o'zaro bog'liqligi;
- *fundamentallashtirish prinsipi*, ya'ni o'qiyotganlarning umumnazariy, umumta'limiy, umumilmiy va umumkasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish;
- *uzumiylik va ketma-ketlik prinsipi*, ya'ni o'qiyotganlarning bilim olish imkoniyatlari, ularning oldingi tayyorgarligi, o'quv fanlaridano

bog'lanishlarni hisobga olgan holda mazmuniy-mantiqiy bog'lanishlarning aks etishi;

- *subyekt integratsiyasi prinsipi*, ya'ni o'qiyotganlarga o'z ta'limining maqsadini aniqlash, uni rejalashtirish, tashkil qilish, tuzatishlar kiritishda ishtirok etishga inkon beruvchi faoliyatiy rivojlanishi, o'quv va ijodiy faoliyatni bajarishga ijobiy motivatsiyalarni shakllantirish;
- *emotsional ijodni rivojlantirish prinsipi*.

Pedagogik amaliyotga ushbu prinsiplarning realizatsiya qilinishi kasbiy ta'lim xarakterining kreativligini, ma'noga ega bo'lgan ijodiy yashashga qodir raqobatbardosh shaxsni shakllantirilishini ta'minlaydi.

1.3.4. Kasbiy ta'limni tashkil qilishga gumanistik yondashuv

Ta'lim vaziyatida mavjud bo'lishning gumanistik usuli shunday narsaki, unga inson singib ketadi. Bu qadriyatlar to'plami bo'lib, unda asosiy e'tibor inson qadri-qimmatiga, shaxsiy tanlashning ahamiyatiga, mas'uliyatning ahamiyatiga, ijod quvonchiga qaratiladi

Gumanistik yondashishda mashg'ulotlarda:

- o'quv maqsadlari hamkorlikdagi rejalashtirish davomida o'qituvchi va o'qiyotganlar tomonidan qo'yiladi;
- o'qituvchi asosiy urg'uni baholashga emas, balki mahsuldorlik va ijodga qaratadi.

O'qituvchi yuqori empatiyani namoyon qiladi va quyidagi bir qancha muhim sifatlarni namoyish qiladi:

- o'qiyotganlarning hissiyotlariga javob qaytaradilar;
- joriy o'quv o'zaro ta'sirida o'qiyotganlarning g'oyalari bilan ko'proq foydalaniladilar;
- o'qiyotganlar bilan ko'proq dialogga kirishadilar;
- o'quvchilarni ko'proq maqtaydilar;
- o'quvchilar bilan samimiy munosabatda bo'ladilar;
- ko'p hollarda o'quv mazmunini alohida o'qiyotganlarning muayyan tajribasi bilan bog'laydilar (o'qiyotganlarning bevosita ehtiyojlarini qondirishga yo'nalgan tushuntirishlar);
- o'qiyotganlarga ko'proq kulumsirab qaraydilar.

Gumanistik yondashuv asosiy bo'lgan joyda o'qiyotganlar quyidagi sifatlarga ega bo'ladilar:

- o'qishga mehr qo'yadilar
- tiniq fikrlaydilar;
- chuqur hissiyotlarga qodirlar;
- o'ylab ish qiladilar.
- komandada ishlashga qodirlar;

- muammoni yechishga qodirlar;
- oʻzga madaniyatlarni hurmat qiladilar;
- asosiy koʻnikmalarni egallagan boʻladilar;
- oʻz-oʻzini tartibga solishga qodirlar;
- maʼnaviy qadriyatlarni egallagan boʻladilar.

Demak, gumanistik yondashuv oʻqitishda va tarbiyalashda samarali boʻladi.

1.3.5. Kasbiy taʼlim sifatini oshirish

Sifat – murakkab falsafiy, iqtisodiy, sotsial va ijtimoiy tizimiy kategoriyadir. Taʼlim sifati butun dunyoda davlat sifatining eng muhim kategoriyasi boʻlib bormoqda.

“*Taʼlim sifati*” tushunchasiga ijtimoiy muhim xarakteristikalar, parametrlarning ierarxiyasini hisobga olgan holda taʼlim jarayonining subyektlari pozitsiyasida qaraladi. Taʼlim sifati rivojlanishining zamonaviy bosqichi yangi ijtimoiy funksiyalarning oyoqqa turishida oʻz aksini topmoqda, bu yerda inson sifati taʼlim sifati tushunchasining markazida boʻladi. Shu sababli “*taʼlim sifati*” tushunchasidan keng va tor maʼnoda foydalanish mumkin.

Taʼlim sifati keng maʼnoda taʼlimni milliy xavfsizlik kafolati, jamiyat barqaror rivojlanishi, davlatning raqobatdoshligining omillaridan biri sifatida taʼriflanadi.

Taʼlim sifati tor maʼnoda bitiruvchilarning umumnazariy bilimlari, amaliy malaka va koʻnikmalari shakllanganligining, ularning intellektual rivojlanganligini va maʼnaviy sifatlarining darajasini aks ettiruvchi taʼlim jarayonining natijasini tavsiflovchi kategoriya sifatida qaralishi mumkin.

Tor maʼnoda taʼlim sifati quyidagi komponentlardan tarkib topadi:

- taʼlimiy (oʻquv) dasturning sifati;
- oʻquv jarayoniga jalb etilgan pedagogik va ilmiy potensialning sifati;
- oʻqiyotganlarning sifati;
- taʼlim jarayoni vositalarining (moddiy-texnikaviy, eksperimental baza; oʻquv-metodik taʼminot; uzatilayotgan bilimlar va h.k.larning) sifati; taʼlim texnologiyasining sifati.

Kasbiy taʼlim sifati – bu taʼlim muassasasining taʼlim xizmatlari bozorida raqobatdoshlik omilidir. *Taʼlim muassasasining raqobatbardoshligi* – bu uning oʻziga oʻxshash obyektlarga nisbatan afzalligidir, u aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar majmui hisobiga uning taʼlimga boʻlgan ehtiyojini qondirish, amaldagi huquqiy, informatsion, psixologik-pedagogik va boshqa taʼminotga mos rvaishda oʻz faoliyatini aktuallashtirish mahorati bilan tavsiflanadi. Taʼlim xizmatini koʻrsatish

bozorida kasbiy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining asosiy omili – bu ta'lim sifati va uning natijasi sifatida muayyan korxonalar va butun jamiyatga bitiruvchilarning kerakli bo'lishidir.

Amalda kasbiy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi odatda quyidagi mezonlar bilan baholanadi:

1. Mutaxassis tayyorgarligiga ta'sir qiluvchi sharoitlarning sifati. Quyidagilarni bularga kiritish mumkin:

- o'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi va uning ta'lim sifati ta'minlanishiga ta'siri;
- o'quv muassasasining informatsion, ilmiy-metodik, me'yoriy-huquqiy va moddiy-texnikaviy ta'minlanganligining darajasi;
- kasbiy muassasa faoliyatini boshqarish darajasi va rahbar xodimlarni tayyorlash sifati.

2. Davlat ta'lim standarti (DTS)ni realizatsiya qilish sifati. Davlat ta'lim standartlarini realizatsiya qilish jarayoni – bu mutaxassislarni DTS talablariga mos ravishda tayyorlash jarayonidir.

3. Mehnat bozorida talab qilinganligini ta'minlovchi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifati. Bu yo'nalishdagi monitoringning mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) kasbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari malakasi/kompetentligining darajasi. Malaka – bu kasbiy faoliyatning darajasi va turi bo'lib, u mutaxassisning ma'lum ishlab chiqarish masalalarini yechish imkoniyatini tavsiflaydi

b) mutaxassisni keng profilli tayyorlash – uning mehnatidan foydalanishning har xil imkoniyatlari

Profil kengligining mazmunini bir necha aspektlar bo'yicha baholash mumkin:

- maxsus texnikaviy ta'limli mutaxassis: malakali yosh mutaxassis – ishchi, operator; rahbar – brigadir, usta (master), uchastka boshlig'i (boshqaruv faoliyati ko'nikmalarining egallanganligi); texnik – muhandis yordamchisi (muhandislik-texnikaviy faoliyat elementlarining egallanganligi) kabi turli vazifalarni bajarishi mumkin;
- mutaxassis mehnatining bitta obyekt va uni yaratish va ekspluatatsiya qilishning xususiyatlari bilan yaxshi tanish (obyektni konstruksiyalash; obyektni ishlab chiqarish; obyektni sozlash va sinash; obyektni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash).

Faqat bitta obyektni bilish mutaxassisning bir sohadan boshqa sohaga o'tishini qiyinlashtiradi;

- mutaxassis faqat bitta vazifani (konstruksiyalash, dasturlash, ta'mirlash, haydash va h.k.ni) chuqur egallagan, o'zining bilim,

amaliy malaka va ko'nikmalarini mehnatning turli jabhalarida qo'llashga qodir.

Mehnatning yangi obyektlarini tez egallash imkoniyati. Bir sohadan boshqa sohaga o'tish uchun yaxshi sharoitlar;

- bitiruvchida ma'lum ixtisoslikning bo'lishi. Ixtisoslik – bu ishlab chiqarishning cheklangan jabhasida qo'llashga mo'ljallangan bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning muayyanlashtirilgan majmuidir; xalq xo'jaligi sohalaridan biri uchun muayyan mutaxassislariga ehtiyoj bo'lganda katta ahamiyatga ega.

Qisqacha xulosa:

Ta'lim xizmatini ko'rsatish bozorida kasbiy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining asosiy omili – bu ta'lim sifati va uning natijasi sifatida korxonalar va butun jamiyatga bitiruvchilarning kerakli bo'lishidir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Hozirgi paytdagi kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy tendensiyalarini bayon qiling.
2. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining qonuniyatlarini aytib bering va izohlang.
3. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining pedagogik prinsiplarini aytib bering.
4. Shaxsiy o'qitish jarayonining modelini ifodalang.
5. Hozirgi jamiyat kasbiy maktab oldiga qanday sifatlarga ega bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash vazifasini qo'ydi?
6. Kreativlik tushunchasining ta'rifini bayon qiling.
7. Ta'limning kreativ xarakterini ta'minlovchi prinsiplarni birma-bir sanab chiqing va izohlang.
8. Gumanistik yondoshuvdagi mashg'ulotlarda o'qituvchi qanday muhim sifatlarni namoyish qiladi?
9. Gumanistik yondoshuv asosiy bo'lgan joyda o'qiyotganlar qanday sifatlarga ega bo'ladilar?
10. Tor ma'noda ta'lim sifati qaysi komponentlardan tarkib topadi?
11. Kasb profili kengligini baholash mumkin bo'lgan aspektlarni bayon qiling.

1.4. Kasbiy ta'limdagi asosiy tushuncha va modellar

1.4.1. Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari

Kasbiy pedagogikaning ***asosiy kategoriyalari*** – kasbiy ta'lim, kasbiy o'qitish, kasbiy tayyorlash va ***asosiy tushunchalari*** – kasb, mutaxassislik, malaka, kompetentlik.

Kasbiy pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Kasbiy ta'lim – u yoki bu kasb doirasida mulakali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni, hamda ma'lum kasbiy muhitda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish jarayoni, mahsuli va natijasidir.

Kasbiy o'qitish – bu o'qiyotganning kasb bo'yicha ilmiy-texnikaviy bilimlar tizimini hamda kasbiy masalalarni yechish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirish bo'yicha muhandis-pedagog va o'qiyotganning hamkorlikdagi faoliyatidir.

Kasbiy tarbiya – bu o'qiyotganning ma'lum kasbiy muhitda qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini o'zlashtirish, hamda unda kasbiy muhim va ijtimoiy ahamiyatli shaxs sifatlarini shakllantirish bo'yicha muhandis-pedagog va o'qiyotganning hamkorlikdagi faoliyatidir.

Endi kasbiy pedagogikaning asosiy nushunchalarini ko'rib chiqamiz.

Kasb – mehnat faoliyatining mahsuli bo'lib, uning yo'nalishi – kasbiy tayyorgarlik va shakllanib bo'lgan va uzluksiz rivojlanayotgan bilimlar, mahoralar va ko'nikmalar, hamda maxsus qobiliyalar va kasbiy muhim shaxsiy sifatlar majmuidir. ular insonga daromadning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi va uning rivojlanishini va ijtimoiy mavqeini amqlaydi.

Kasb – bu mehnatning ijtimoiy taqsimoti bilan belgilangan doimiy faoliyat turi bo'lib u umuminsoniy axloqiy me'yorlar bilan muvofiqlashtirilgan bo'ladi.

“Kasb” tushunchasi va unga mos atama juda oldin paydo bo'lgan. Mehnat differensiallashib borgan sari bir kasb doirasida mehnat taqsimotini aks ettiruvchi atamaga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, chilangan kasbi chilangar-yig'uvchi, chilangar-ta'mirlovchi, chilangar-asbobchi va h.k. kabi qator turlarga bo'linadi.

Shu sababli bir qator kasblarda mehnat taqsimoti natijasi sifatida alohida mutaxassisliklarni ajratishadi. Masalan: asbi – chilangar, mutaxassisligi – chilangar-asbobchi; kasbi – vrach. mutaxassisligi – xirurg, terapevt va sh.k.

Mutaxassislik – bu maxsus tayyorgarlik va ishda ortirgan tajriba orqali egallangan bilimlar, mahoralar va ko'nikmalar majmui bo'lib, ular ma'lum kasb doirasida faoliyatning muayyan turini bajarish uchun zarurdir.

Mutaxassislik – bu kasbiy mehnatda ishlarning nisbatan tor doirasini qamrovchi kasbiy faoliyat turidir.

Mutaxassislikdan tashqari kasbiy faoliyatning alohida turlarida ixtisoslikni ajratishadi. Masalan, kasbi – vrach, mutaxassisligi – xirurg, ixtisosligi – neyroxirurg (bosh miyada operatsiya qiladi).

Ixtisoslik – mutaxassislikning bir qismi bo'lib, bu mutaxassislik doirasida u yaratiladi va ushbu ixtisoslik profili bo'yicha faoliyatning turli jabhalarida chuqurlashtirilgan kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalar olinishini ta'minlaydi.

Malaka – bu xodim kasbiy tayyorgarligining darajasi va turi, ma'lum ishni bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning unda bo'lishidir. Kasbiy tayyorgarlik malakasi Davlat ta'lim standarti (DTS)ning malakaviy talablarida aniqlanadi.

Ushbu kasb, mutaxassislik bo'yicha xodim mehnatining mazmuniga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining talablari mutaxassisning malakaviy tavsiflari bilan belgilanadi. Ular DTSda bitiruvchi kasbiy faoliyatining maqsadlari, vazifalari, kasbiy faoliyat obyektlari va turlari, hamda zaruriy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning majburiy minimumi va ta'limni davom ettirish imkoniyatlari bilan berilgan.

Demak, **malakaviy tavsifnoma** – davlat hujjati bo'lib, unda ushbu kasb bo'yicha mutaxassis egallashi kerak bo'lgan bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarga qo'yilgan talablarning ro'yxati keltirilgan bo'ladi.

Demak, **malaka** – bu:

- kasbiy tayyorgarlik natijasida olingan mutaxassis statusi;
- kasbiy tayyorgarlik darajasi;
- kasbiy faoliyat murakkabligining darajasidir.

Oxirgi yillarda “malaka” tushunchasining ma'nosi ancha kengaydi. Hozirgi paytda xodim malakasiga, yuqorida keltirilgan malakaviy tavsifnomadan tashqari, kasblarning ancha keng doirasi uchun zarur bo'lgan *shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatleri* qo'shildi. Bu sifatlar “tayanch malakalar” nomini oldi.

Tayanch malakalar – bu umumkasbiy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalar, hamda shaxs qobiliyati va sifatleri bo'lib, ular kasblarning ma'lum guruhi bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarurdir.

Tayanch malakalar – faoliyatning integrativ turlarini samarali amalga oshirilishini taqozo qiladi va professionallar uchun xarakterlidir. Kognitiv bilim berishga yo'nalgan akademik ta'lim doirasida tayanch malakalarning rivojlanishini qiyin, chunki bilim, amaliy malaka va ko'nikmalardan tashqari ularning tarkibiga kognitiv qobiliyatlar, shaxsning sifati va kasbiy xulq-atvorning shakllari ham kiradi. Tayanch malakalarning rivojlanishi – shaxsга yo'nalgan ta'limning imtiyozidir.

Tushunchaning ma'nosi tayanch malakalar xodim shaxsining kasbiy muhim sifatlariga taalluqli ekanligini bildiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar 60 ga yaqin tayanch malakalarni aniqlash imkonini berdi.

Amaliyot esa muayyan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun, odatda, 5...7 ta kasbiy muhim universal sifatlar talab qilinishini ko'rsatdi, ularga quyidagilar kiradi:

- mas'uliyatlilik;
- ishonchlilik;
- kommunikativlik;
- hamkorlikka bo'lgan qobiliyat;
- kreativlik;
- mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan qobiliyat va b.lar.

Dresden-Bank, Mercedes, Opel, Siemens, Volkswagen va boshqa mutaxassislarni tayyorlash germaniya o'quv markazlari tashabbusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, quyidagilar mutaxassislarning eng talab qilingan xarakteristikalarini tashkil qiladi:

- mustaqillik;
- moslanuvchanlik;
- maxsus bilimlar;
- kommunikativ mahoratlar;
- operativlik;
- punktuallik;
- ijodiy qobiliyatlar (kreativlik).

Tayanch malakalar -- mutaxassislar tayanch kompetensiyalari rivojlanishining muhim shartidir

Kompetensiya (lotincha *competo* -- erishmoqdaman, mos kelaman, yaqinlash-moqdaman) -

1) qonun, ustav yoki boshqa me'yoriy hujjat bilan muayyan tashkilotga yoki mansabdor shaxsga taqdim etilgan vakolatlar doirasidir;

2) u yoki bu jabhadagi bilim va tajribadir.

Kompetensiyalarning ma'nolari:

- Kompetensiya (lotincha *competere* -- mos kelish) -- bu mutaxassis (xodim)ning kasbiy vazifalarning ma'lum sinfini yechishga bo'lgan shaxsiy qobiliyatdir;
- Kompetensiya -- bu ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda bilim, amaliy malaka va tajribani qo'llash qobiliyatidir;
- Kompetensiya -- muayyan organ yoki mansabdor shaxsning yuridik o'rnatilgan vakolatlari, huquqlari va majburiyatlarining majmuidir; davlat organlari (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari) tizimida uning o'rnini belgilaydi;

- Umumiy kompetensiya – faoliyatning umumiy turi masalalarini yechishda amaliy tajriba, mahorat va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir;
- Kasbiy kompetensiya – faoliyatning kasbiy turi masalalarini yechishda amaliy tajriba, mahorat va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir.

“Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar” simpoziumining (Bern, 1996 y.) materiallari kompetensiyaga quyidagi ta’rifni berishga imkon tug’diradi: **Kompetensiya** – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatda o‘zining bilim va amaliy ko‘nikmalarini qo‘llashga bo‘lgan umumiy qobiliyati hamda amallarni bajarishning umumlashgan usullaridir.

Tayanch kompetensiyalar – bu turli kasbiy hamjamiyatlarga moslashish va mahsuldor faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, amaliy malakalar va qobiliyatlardir. Tayanch kompetensiyalar kasbdan yuqori turuvchi alohida tavsifga ega.

“Kasbiy o‘qitishning zamonaviy o‘qituvchisi” profili uchun mumkin bo‘lgan jabha misoli

	Bilmi	Xulq-atvori	Mahorati
Kasbiy kompetensiya	Mehnat bozori talablarni hisobga olgan holda o‘z fanining mazmunini biladi va tushunadi	O‘quvchilarga nisbatan halol va adolatli	Yakuniy natijaga yo‘nalgan o‘qitishni muvaffaqiyatli o‘tkazadi
Ijtimoiy kompetensiya	O‘z o‘quvchilari-ning har xil qobiliyatlari va hissiyotlarini tushunadi	O‘quvchilarga va hamkasblariga tushunish bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi	O‘qiyotganlar, hamkasblar, rahbarlar, ota-onalar hamda firmalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlikda bo‘ladi
Shaxsiy kompetensiya	O‘zining kuchli va bo‘sh tomonlarini va ularning sabablarini biladi	O‘zining kuchli taraflarini qadrlaydi va xatolaridan saboq oladi	O‘z qobiliyatlarini tan oladi va o‘z potensialini rivojlantirishda davom etadi

Kasbiy ta'limda alohida ahamiyatga ega bo'lgan beshta tayanch kompetensiyalarni farqlashadi.

1. *Ijtimoiy kompetensiya* -- o'ziga mas'uliyatni olish, qarorlarni birgalikda ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ishtirok etish qobiliyati, turli elatlar va dinlarga nisbatan tolerantlik, o'zining manfaatlarini ishlab chiqarish va jamiyat ehtiyojlariga mos kelishini namoyon qilishdir.

2. *Kommunikativ kompetensiya* – har xil tillarda og'zaki va yozma, jumladan kompyuterh dasturlashdan foydalanib, muloqot qilish texnologiyalarini egallash, xususan, Internet orqali muloqot qilish

3. *Ijtimoiy-informatsion kompetensiya* –informatsion texnologiyalarni egallaganlik va Internet orqali tarqatilyotgan ijtimoiy informatsiyaga tanqidiy munosabatda bo'lish.

4. *Kognitiv kompetensiya* – ta'lim darajasini doimiy ravishda orttirib borishga hozirlik, o'zining shaxsiy potensialini dolzarblashtirish va realizatsiya qilishga ehtiyoj, yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil egallash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati.

5. *Maxsus kompetensiya* – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorlanganlik, o'z mehnati natijalarini baholash

“Ichki yonuv dvigatellariga texnik xizmat ko'rsatish” mutaxassisligi uchun jabha misoli

	Bilimi	Xulq-atvori	Mahorati
Kasbiy kompetensiya	Dvigatel qismlarini biladi va uning vazifasini tushunadi	Dvigatelga saranjom – servishta xizmat ko'rsatish	Dvigatelga savodli (malakali) xizmat ko'rsatadi
Ijtimoiy kompetensiya	Mijoz muammolarini tushunadi va uning hissiyotlarini sezadi	Mijozlarga nisbatan xushmuomalada bo'ladi	Mijozning ko'nglini topadi
Shaxsiy kompetensiya	O'zining kuchli va bo'sh tomonlarini va ularning sabablarini biladi	O'zining kuchli taraflarini qadrlaydi va xatolaridan sahoq oladi	O'z qobiliyatlarini tan oladi va o'z potensialini rivojlantirishda davom etadi

Demak, *tayanch kompetensiyalar* – bu muayyan kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lgan amaldagi bilimlar, amaliy malakalar, hamda qobiliyatlardir. Ular faoliyat subyektlarining shaxsiy xarakteristikalari emas (tayanch malakalardan prinsipial farqi ham ana shunda), balki shaxs sifatlarini realizatsiya qilishga ko'maklashadi, faoliyat subyektlari kasbiy mahorat va obyektiv ijodiyotning yuqori pog'onalariga chiqishganida ularning raqobatbardoshligi va ijtimoiy-kasbiy mobilligini belgilaydi. Ular turli ijtimoiy va kasbiy hamjamiyatlarda muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi. Umumlashganlikning yuqori darajadagi ijtimoiy-kasbiy tuzilmasi sifatida ular subyekt maqsadli (ijtimoiy-kasbiy va kasbiy-ijodiy) funksiyalarining tahlili bilan aniqlanadi. Bu maqsadga muqim va kafolatlangan erishish mutaxassisda kasbiy-ijodiy potensial shakllanganda *kreativ kasbiy ta'lim* doirasida erishish mumkin.

1.4.2. Kasbiy ta'limda modellar

1.4.2.1. Kasbiy ta'limning umumiy tavsifi

Kasbiy ta'limning bir necha darajalarini farqlashadi.

Kasbiy ta'limning quyi darajasi:

- boshlang'ich maktab bazasida quriladi – u Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'piga xarakterlidir. Bu mamlakatlar o'zining sanoatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligini zamonaviy ilmiy va texnologik asosga qo'yish uchun malakali ishchilarga katta ehtiyoj sezadi. Lekin mablag' va kompetentli o'qituvchilarning yetishmasligi kasbiy-texnikaviy bilim yurtlarning rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda;
- to'liqmas o'rta (asosiy) maktab bazasida quriladi – yevropa davlatlarida, hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalashda katta yutuqlarga erishgan Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida ancha keng tarqalgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida *o'rta kasbiy o'quv muassasalari* (texnikum, o'rta kasbiy-texnikaviy yurtlari, kollejlari va h.k.) anchadan beri mavjud. Ular o'rta malakali mutaxassislarni tayyorlashadi.

Kasbiy profildagi o'quv muassasalari ham tayyorlashning yo'nalishi va darajasi bo'yicha va ham o'qish muddatlari bo'yicha har xildir:

- yevropaning bir qator mamlakatlarida (Buyuk Britaniya, GFR, Niderlandiya va b.) korxonalarda shogirdlik tizimi an'anaviy ravishda tarkib topgan va samarali ishlarida, o'quvchi-shogirdlar

bir vaqtring o'zida maktabda qisqartirilgan umumta'lim dasturi bo'yicha ham o'qishadi;

- boshqa mamlakatlarda (Xitoy, Rossiya, Polsha, Chexiya va b.) bu funksiyani 2-3 yillik kasbiy bilim yurtlari (texnikaviy va qishloq xo'jalik)ning rivojlangan tarmog'i bajaradi. Ularda asosiy maktabni bitirganlarning 30.. 50% o'qiydi

G'arb mamlakatlarida o'zida o'rta va kasbiy ta'limni qamragan o'quv muassasalarining salmog'i tobora ortib bormoqda, buning sababi

- mehnat faoliyatining murakkablashganligi ;
- xizmat ko'rsatish (bo'sh vaqt, turizm, transport), informatika va bank ishi sohalarining sezilarli darajada kengayganligi.

Ijtimoiy mehnatning turli sohaları uchun malakali kadrlarni tayyorlash jamiyat va individ farovonligining zamonaviy talablari darajasida iqtisod tezkor rivojlanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli kasbiy ta'limning rivojlanish darajasi, uning strukturalarining moslanuvchanligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy progressining ko'rsatkichi hisoblanadi.

1.4.2.2. Kasbiy ta'limdagi modellar

Modellar real voqelikni aks ettirish uchun konstruksiyalanadi. Modellar asosiy mohiyatga urg'u beradi. O'zining murakkabligi yoki kompleksligi bo'yicha ular aks ettirilayotgan real voqelikka yaqinlashishga intilishadi. Lekin ularga voqelikni to'liq aks ettiruvchi deb qarab bo'lmaydi. Modelda real voqelik ko'rilayotgan fragmenti strukturasining xususiyatlari aks ettiriladi. Ular real voqelikda farqlanadigan elementlar orasidagi ichki bog'lanishlarni ko'radi. Ularni aniqlash shuning uchun kerakki, ularning namunalari bo'yicha funksiyalar namoyon bo'ladi, ya'ni elementlar bir guruhining ta'sir darajasi va ishlash prinsipi ko'rgazmali bo'ladi, chunki model real voqelikda harakatni tushuntirish uchun, ya'ni rivojlanish va o'zgarishlarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. kuzatilishi yoki anglanishi lozim bo'lgan o'zgarishlar kutilinayotgan yoki istalinmayotgan pedagogik o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Pedagogik nuqtai-nazar o'z e'tiborini o'qitish va o'qishning mazmuniy jarayoniga qaratadi. Tashkiliy yeclimlar o'qitish va o'qish uchun uning funksionalligida ko'riladi.

Modellarni shakllantirish maqsadlari:

1. Bilish maqsadlari yetarlicha yuqori ilmiy-texnikaviy darajada aniqlangan: bu – tadqiqot nazariyasining maqsadidir. Bunda turlarni shakllantirish va tasniflash katta ahamiyatga ega.

2. Qo'llash maqsadi quyidagi pozitsiyalar afzalliklari/kamchiliklari va modellar bilan ishlash, ya'ni, misol uchun, alohida elementlar variantlarini

topish pozitsiyalari bo'yicha modellar va ularning elementlarini baholashga imkon beradi. Bunda modellar bilan ishlashdagi oliy maqsad – vazifa hajmi va bajarilishining ahamiyatini hisobga olgan holda kasbiy ta'lim vazifasining bajarilishini hisobga olish bo'ladi.

3. Qo'llash maqsadida modellarni konstruksiyalash kasbiy ta'lim faoliyati alohida pedagogik jabhalarining mahsuldorligini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Demak biz real voqelikka ijobiy ta'sir qilish uchun modellarni shakllantiramiz. Model bu masala qanday yaxshiroq bajarilishi mumkinligini ko'rastishi kerak.

Sof nazariy model real voqelikni bilish uchun, amaliy model esa – real voqelikni yaxshilash/topshiriqni bajarish uchun mo'ljallangan.

Modellarni solishtirish ularning xususiyatlarini ko'rinishli qiladi va bitta yagona modelga e'tiborni jamlaganga nisbatan ularning kamchilik va afzalliklarini yaxshiroq baholash imkonini beradi. Taqqoslashda taqqoslash alohida elementlargacha olib boriladi va ularning afzallik va kamchiliklarini namon qiladi. Shu bilan taqqoslash modellar bilan ishlash amaliyotini aniqroq tushunish imkonini beradi.

Tasniflash kasbiy ta'limda modellarni yaratishning asosi sifatida.

1. Pedagogik nuqtai-nazardan kasbiy ta'limda modellarning yaratilishi va keyingi bosqichda ularni o'zaro solishtirish mumkin bo'lishi uchun, oldin tasnif/klassifikatsiyalar yaratiladi. ular keyingi bosqichlarda kerak bo'ladi. Birinchi navbatda mazmunning asosiy turlari ko'riladi, ular bilan o'qiyotganlar o'quv mashg'ulotlari, o'qish va o'qitish davomida uchrashadilar. Shu bilan yaratilayotgan modelning zaruriy murakkabligi kafolatlanadi.

Kasbiy o'qitishda o'quv mashg'ulotlarining to'rtta asosiy turini ajratish mumkin, ular kasbiy o'qitishni bayon qilish uchun modelni emas, balki matritsani hosil qiladi va oxir-oqibatda modelni shakllantirish ulardan kelib chiqadi.

Mazmun bo'yicha tasniflash

Kasbiy ta'lim mazmunining turlari

Nazariy, gumanitar va umumta'lim o'quv fanlari

Maxsus o'quv fanlari yoki kasbiy o'quv maydonlari

Ustaxonalardagi o'quv mashg'ulotlari yoki kasbiy-amaliy o'qitish

Ish jarayonida o'z tajribasida o'qitish

Ushbu tasniflashdan shuni ko'rish mumkinki, kasbiy ta'lim – bu umumta'lim yoki umummaktab o'qitishdan mehnat jarayonida kompetentli ishtirok etishga o'tishdir. U umumiy maktab ta'limidan kelib chiqadi, uni to'ldiradi va kasbiy-nazariy va kasbiy-amaliy mazmun yordamida o'qiyotganda ishchi jarayonda ishtirok etish qobiliyatiga olib boradi, natijada ishchi jarayonga o'z ulushini qo'radi.

Bu yerda hali o'quv mashg'ulotlarining mos turlari va o'qitish qayerda o'tkazilishi haqida, hamda o'quv mashg'ulotlari va o'qitishning u yoki bu turi qancha vaqt olishi haqida gap bormayapti.

2. Ikkinchi tasniflash kasbiy muassasalarga taalluqli.

Farqlar mazmun turlaridan kelib chiqadi. Asosiy farq kasb-hunar kollejlari amaliy o'qitishni mustaqil o'tkazadilar va/yoki o'qitish ustaxonadami yoki ish joyida olib boriladimi degan savoldan kelib chiqadi. Agar kasb-hunar kollejlari nafaqat umumta'lim predmetlaridan va kasbiy maxsus predmetlardan dars berishadi, balki ham kasbiy-amaliy o'qitishni va/yoki ustaxonada o'qitishni o'zlarida o'tkazishsa, ular o'zlariga kasbiy o'qitishga ajratiladigan vaqtning katta qismini o'zlariga oladilar va shu bois to'liq o'quv haftali kasbiy maktab deb nomlanadilar.

Agar kasbiy-amaliy o'qitish ishlash joyining vazifasi sifatida qaralsa, hamda o'qitishga ajratilgan vaqtning bir qismi ishlash jarayonida o'z tajribasini orttirishga sarflansa, u holda to'liq bo'lmagan o'quv haftali kasbiy maktab haqida gap ketadi.

Mazmun turi bo'yicha tasniflash

Mazmunga nisbatan masalalarni yechish nuqtai-nazaridan kasbiy maktabning ikki turi

O'quv haftasi to'liq bo'lmagan kasbiy maktab

O'quv haftasi to'liq bo'lgan kasbiy maktab

3. Keyingi tasniflash mazmun masalasi doirasidan tashqariga chiqsa ham, unga taalluqli bo'lgan masalalarga yetarli darajada taalluqli bo'ladi. Bu – davlatning kasbiy ta'lim modelidagi roli haqidagi masaladu. Davlatning ishtiroki yorqin ifodalangan yoki sezilarli namoyon bo'lmastigi mumkin.

Kasbiy ta'limda davlat ishtiroki bo'yicha tasniflash

Kasbiy ta'limda davlat ishtiroki darajasi

Davlat kasbiy maktabni moliyalovchi va ma'muriy vakili

Davlat qonunchilik me'yorlari va farmoyishlar yordamida kasbiy ta'limni
reglamentlash bilan kifoyalanadi

Davlat kasbiy ta'lim muassasalari uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga
olmaydi

4. Bu tasniflash mos modeldagi kasbiy ta'lim mazmunining strukturasi boshqa tasniflash bilan bevosita bog'langan. Bu – kasbiy ta'lim modelida intililadigan yaxlitlik va tugallanganlik darajasi haqidagi masaladir.

Kasbiy ta'limda yaxlitlik darajasi bo'yicha tasniflash

Kasbiy ta'limda istaloyotgan yaxlitlik darajasi

Davlat kasbiy ta'lim (va akademik litseylarga) yoshlarni <i>to'liq</i> jalb qilishga intiladi.	Davlat o'ziga yoshlarni <i>to'liq</i> jalb etishga mas'uliyatni o'z bo'yniga oluvchi instansiya sifatida <i>qaramaydi</i>
--	---

Kasbiy ta'limning ikki modelini taqqoslash

Kasbiy ta'limning ikkita kompleks tuzilgan modellari – bu *kasbiy ta'limning Dual tizimi* va *to'liq o'quv haftali maktabdagi kasbiy ta'limdir*. Ular kompleks tuzilgan, chunki ularning ikkalasi ham davlat ishtirokiga asoslanadi. Bu jihatdan ular bir-biriga o'xshaydi.

Kasbiy ta'limning *dual tizimida* davlat ishtiroki, bir tarafdan, qonunchilik va ma'muriy boshqarishda, ikkinchi tarafdan esa, o'quv haftasi to'liq bo'lmagan kasbiy maktablarni moliyaviy ta'minlashda ifodalanadi. Lekin kasbiy ta'limning katta qismi, jumladan korxonada o'qitish ham, birinchi navbatda korxonalar tomonidan, jumladan sarf-xarajatlar ham, birinchi navbatda korxonalar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Kasbiy ta'limning mazmunini rejalashtirishda davlat korxonalar tomonidan yaratilgan orgnalar sifatida iqtisodiyot organlari bilan hamkorlik qiladi. Bu – kasbiy ta'limning eng muhim qismi – korxonalarda o'qitishga taalluqlidir. O'qitishning katta qismi korxonalarda o'tkazilishi sababli, ularning organlari, to'liq o'quv haftali kasbiy maktablarga nisbatan, kasbiy ta'limga ta'sir o'tkazish uchun ancha ko'proq imkoniyatlarga egalar.

To'liq o'quv haftali kasbiy ta'limda esa davlat maktablardagi o'quv dasturlarini boshqaradilar hamda bitiruv imtihonlarida muhim rol o'ynaydi. Kasbiy ta'limning bu modelida davlat o'ziga katta moliyaviy mas'uliyatni oladi, chunki o'qitish asosan kasbiy maktablarda olib boriladi.

To'liq o'quv haftali kasbiy maktab modeli kasbiy ta'lim doirasida dual tizimga nisbatan bosqichli o'qitishni amalga oshirish, ya'ni tugallangan o'qitishning darajasi har xil bo'lgan bosqichlarni ta'sis etish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega. Masalan, to'liq o'quv haftali kasbiy maktablarda o'qitishni ham «Malakali ishchi/kichik mutaxassis» va ham «Yetuklik attestati» darajasida bitirish murakin. Bu tufayli bitiruvchilar o'qishni oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish imkoniga ega bo'ladilar.

1.4.3. Dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlarida malakali ishchilarni tayyorlash tajribasi

Dunyoning bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida kasbiy-texnikaviy ta'limning *ikkita* asosiy modeli mavjud:

- *shogirdlik tizimi*, unda ishlab chiqarishda amaliy o'qish va kasbiy maktab, kollej, o'quv markazlarida mos nazariy o'qitish mujassamlashgan, ya'ni bu – tayyorlashning *dual* shaklidir;
- *to'liq o'quv haftali maktablar* (kasb-hunar kollejlari)ida kasbiy tayyorlash.

Lekin ko'p mamlakatlarda bu modellar bunday «toza» ko'rinishda kam uchraydi. Har bir mamlakatda o'zining kasbiy ta'lim milliy tizimlari yaratilgan.

Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniya kasbiy ta'lim tizimi uch: quyi (boshlang'ich), o'rta va oliy bosqichlardan iborat.

Kasbiy ta'limning quyi bosqichi, asosan, sanoat va tijorat firmalari tomonidan tashkil qilinadi. Kasbiy-texnikaviy ta'lim bevosita korxonalaridagi shogirdlik tizimiga asoslanadi. Shogirdlik deganda korxonalarda *boshlang'ich kasbiy tayyorlash* tushuniladi, u 4-5 yil davom etadi. Kasbiy-texnikaviy ta'lim sohasidagi Angliyalik mutaxassislarning fikriga ko'ra bunday muddat shuning uchun talab qilinadiki, shogird kasbiy bilim, amaliy malaka va ko'nikmalardan tashqari, kasbiy muhitda zarur bo'lgan xulq-atvorni egallay olsin, turli ishlab chiqarish vaziyatlarida yetarlicha yetuk mustaqil qarorlarni qabul qilishni o'rgansin.

O'rta zveno kadrlarini kasbiy tayyorlash strukturasi o'qitish («keyingi o'qitish») turli markazlarda amalga oshiriladi, ularni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

- *davlat kollejlari*, ulardagi kunduzgi kurslar bilan birga politexnika oliy o'quv yurtlari;
- *mintaqaviy kollejlari*, ular texnik va ishchilarni tayyorlashadi;
- *mahalliy kollejlari* – ular shogirdlik tizimida o'qiyotgan xodimlar uchun kurslarni tashkil qilishadi (kurslar malakali ishchi statusiga imtihon topshirish imkoniyatini beradi).

Angliyada kasbiy ta'limdan oldin grammatika, texnika, zamonaviy, ijtimoiy o'rta maktablarda o'qiladi.

Buyuk Britaniyadagi kasbiy ta'lim tizimi malakali ishchilarni tayyorlashning ikkala modelining elementlarini o'zida qamraydi.

Mamlakatda kasbiy tayyorlashning yetakchi shakli – dual tizimi bo'lib, uni bitirgan o'quvchi malakali ishchi statusini oladi.

Dual shaklining asosiy elementi – ishlab chiqarishdagi shogirdlikdir. U korxonaga egasi va shogird orasidagi ishlab chiqarish o'qitishi haqidagi kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada o'quvchi/shogird holatining o'ziga xosligi shundaki, u yuridik nuqtai-nazardan ishchi bo'lib, kasbiy tayyorgarlikni ishlab chiqarishda oladi.

Buyuk Britaniyada kasbiy tayyorgarlik dual shaklining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi/shogirdlarni ishlab chiqarishda o'qitish korxonalar rahbariyati tomonidan tashkil va nazorat qilinadi, umumiy yoki maxsus ta'lim kollejlari va o'quv markazlarida tashkil qilinadi va davlat tomonidan nazorat qilinadi, bunda bu ishlab chiqarishdagi ta'limga yo'ldosh ta'lim hisoblanadi va ahamiyati bo'yicha ikkinchi darajali hisoblanadi. Amalda u yoshlarga o'zining nazariy darajasi bo'yicha past bilimlarni minimal hajmda xabar qilishdan iborat bo'ladi. U yerda ishlab chiqarishdagi o'qitish kasbiy maktab yoki markazlardagi o'qitishga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega deb hisoblanadi. Bularga shogird tayyorlashga sarf-xarajatlarning kamligi (o'qitishga bo'ladigan sarf-xarajatlarning sezilarli qismi o'quvchi/shogirdlar ishlab chiqaradigan mahsulot bilan qoplanadi), zamonaviy jihozlarning mavjudligi, bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib mehnat ko'nikmalarini egallash inkoniyatining mavjudligi kiradi.

Kasbiy-texnikaviy ta'limning dual shakli bilan bir qatorda uning boshqa shakli – ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'quv markazlari kurslarida kasbiy-texnikaviy tayyorlash keyingi ta'lim ham rivojlangan.

Keyingi ta'lim Angliya tizimining xususiyati shundaki, ko'p hollarda bir kollejning o'zi ham umumta'lim va ham kasbiy-texnikaviy ta'lim amalga oshiriladi, o'qish ham ishlab chiqarishdan ajralgan holda va ham ajralmagan holda tashkil qilinadi.

Kollej o'quvchilarining asosiy qismi oddiy darajadagi kurslarda o'qishadi, ya'ni ishchi mutaxassisligini olishadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda chuqurlashtirilgan kurslarni tashkil qilish, ularning moddiy ta'minoti, o'qiydiganlar sonini ta'lim va fan vazirligi bilan kelishni va vazirlik tomonidan tasdiqlashni talab qiladi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida Buyuk Britaniya kasbiy-texnikaviy ta'lim tizimi strukturasi quyidagi asosiy elementlarini ajratish mumkin:

- *ikki yillik "Yoshlarni kasbiy tayyorlash dasturi" doirasidagi kurslar*, u yerda bo'lajak ishchilar yarim malakali ishchilar sifatida ishlash uchun boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni oladilar. Bu kurslar ko'p hollarda ular uchun kasbiy tayyorgarlikning yagona va oxirgi shakli bo'lib qoladi;
- *kasbiy-texnikaviy ta'limning dual shaklida tayyorlash*, uning mazmuni va tashkil qilinishi keyingi yillarda sezilarli darajada modifikatsiyalandi, lekin mohiyati ilgari qoldi: malakali ishchilarni o'qitishning katta qismi korxonalar rahbariyati nazorati ostida bevosita ishlab chiqarishda amalga oshiriladi;
- keyingi ta'lim tizimi o'quv muassasalaridagi *ishlab chiqarishdan ajralgan kasbiy kurslar*, ular oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish imkonini beradi.

Oliy kasbiy ta'lim o'qish muddati uch yil bo'lgan universitetlarda beriladi.

Germaniya Federativ Respublikasi. Germaniyada kadrlarni ommaviy tayyorlash korxonalarida o'quvchi/shogirdlik tizimida amalga oshiriladi. O'quvchilik/shogirdlik tizimiga *xalq maktabining* (boshlang'ich maktabdan keyin o'qish muddati 9 yil) va *real maktabning* (o'qish muddati 10 yil) bitiruvchilari qabul qilinadi. Kasbiy o'qitishning bu tizimi ishlab chiqarishda o'qitish bilan birga davlat kasbiy maktabida haftasiga 10 soat o'qitishni nazarda tutadi. Germaniyadagi kasbiy ta'limning bu tizimi *dual* (ikkilangan) deb ataladi.

Davlat kasbiy maktabdagi, savdo-sanoat palatasi va hunarmandlar palatasi esa ishlab chiqarishdagi o'qitishni nazorat qiladi. Ishlab chiqarish egalari va o'qiyotganlarning huquq va vazifalari kasbiy ta'lim haqidagi qonun bilan belgilanadi.

O'qiydiganlar tanlovini korxonalar egalarining o'zlari o'quv markazlarida amalga oshiradilar. Bunda testlar natijalari, attestat baholari hamda psixolog bilan suhbat natijalari inobatga olinadi. O'qitish ishlab chiqarishdagi shogirdlik haqidagi bitim asosida amalga oshiriladi. Muayyan kasbga o'qitish mazmuni va jarayonini yo'riqlar belgilaydi, ular *kasbiy ta'lim Federal institutida* ishlab chiqiladi va mos tarmoq vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarishda o'quv jarayonini usta-murabbiylar boshqaradilar, ular 24 yoshdan katta, hayotiy va kasbiy tajribaga ega, mos imtihonlardan o'tgan bo'lishlari kerak.

Kasbiy tayyorgarlik uch bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich – boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik yili (u yoki bu kasbiy yo'nalish-larning asoslari haqida nazariy ma'lumotlar);

2-bosqich – turdosh kasblar guruhining nazariy va amaliy asoslari bilan tanishish (tugallangandan keyin birinchi imtihon o'tkaziladi);

3-bosqich – ixtisoslashish, u imtihon bilan tugallanadi.

Agar 1- va 2-bosqichlar eng oddiy mehnat operatsiyalarini bajarish uchun ishchilarni tayyorlasa, 3-bosqich esa texnik qurilma va jihozlar uchun malakachilarni (sozlovchilarni) tayyorlaydi.

O'qitish hunarmand-texnika, tog'-kon, tijorat, uy-xo'jaligi, meditsina profillari bo'yicha amalga oshiriladi. Nazariy tayyorgarlikka o'qish vaqtining 25%, amaliy tayyorgarlikka esa – 75% ajratiladi.

Hozirgi paytda GFRda kasbiy o'quv muassasalarining quyidagi *asosiy turlari* mavjud:

- kuzatib qo'yuvchi kasbiy maktablar;
- kasbiy-texnikaviy maktablar;
- kasbiy (ustqurma) maktablar;
- kasbiy bilim yurtlari.

Germaniyaning ba'zi federal yerlarida kasbiy maktab tizimiga kasbiy gimnaziya va oliy kasbiy bilim yurtlari ham kiradi. O'zining mavqei bo'yicha oliy kasbiy bilim yurtlari o'quv muassasalari va oliy o'quv yurtlari orasidagi o'rta holatni egallaydi. Oliy kasbiy bilim yurtlarida o'qitish mazmuni ishlab chiqarishdagi amaliy ishga yo'nalgan. Oliy o'quv yurtlaridan farqli ravishda ularda tadqiqot ishlari olib boriladi. O'qish muddati 3 yil. Oliy kasbiy bilim yurtini bitirganlarga "diplomsiz muhandis" unvoni beriladi. Ular muhandislik lavozimlarini egallashlari, ishlab chiqarishda o'rta texnik hodim lavozimida ishlashlari mumkin.

Oliy kasbiy bilim yurtiga o'qishga kirish huquqiga faqat kasbiy va texnikaviy gimnaziyalarning bitiruvchilari, hamda kasbiy ober-maktabni muvafaqqiyatli bitirib, "fakultet yetukligi" attestatiga ega bo'lganlar ega bo'ladilar. Kasbiy ober-maktabda o'qish gimnaziyaning 11- va 12-sinllari darajasida amalga oshiriladi, unda ma'lum "kasbiy maydon"ning nazariy asoslari o'rganiladi va muayyan mutaxassislik amalda egallanadi. Oliy kasbiy bilim yurtiga o'qishga kirish huquqiga ega bo'lish faqat kasbiy ober-maktab orqali bo'lish mumkin. Bunday holatda kasbiy ober-maktabni oliy kasbiy bilim yurtining boshlang'ich pog'onasi deb hisoblash mumkin.

Oliy kasbiy ta'limni universitetlarda va maxsus institutlarda olish mumkin, u yerga o'qishga gimnaziyani bitirgan shaxslar qabul qilinadi.

Fransiya. Boshlang'ich ta'limni bolalar 6 yoshdan 11 yoshgacha olishadi. So'ngra ular kollejga o'qishga kirishadi, u yerda o'qish 4 yil davom etadi. Kollej ikkita – umumiy va yo'naltiruvchi sikllarga ega.

So'ngra o'smirlarning ko'p qismi o'qishni yoki ijtimoiy, yoki kasbiy litseylarda davom ettirishadi. Uni bitirgandan keyin bitiruvchiga ma'lum profil bo'yicha bakalavr darajasi berilishi mumkin. Bakalavrlarning hammasi o'qishni oliy o'quv yurtlarida davom ettirish huquqiga ega bo'ladilar. Davlat va xususiy litseylar mavjud. Bakalavr darajasini beradigan kurs umumta'lim tayyorgarligining ancha yuqori darajasini o'ziga qamragan. Qolgan o'quvchilar texnologik ta'limni oladilar.


Kasbiy va umumta'lim litseylaridagi o'qitish dasturlari yetarli darajada moslashuvchanlikka ega. *Umumta'lim litseylarining kasbiy bo'limlarida* (uch yillik o'qish) yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi, ularga texnik darajasidagi murakkab kasblar bo'yicha ishlashga kasbiy yaroqliligi haqidagi guvohnoma beriladi. *Kasbiy litseylarda* texnikaviy bakalavr kategoriyasi kiritilgan, u umumta'lim bilimlarining mos hajmi bilan bir qatorda kasbiy tayyorgarlikning to'liq kursini ham nazarda tutadi.

O'qish muddati ikki yil bo'lgan davlat yoki xususiy shogirdlik *markazlari* quyi kasbiy ta'limning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. O'quvchilar dastlab ketma-ket bir necha ustaxonalarda shug'ullanadilar, keyin tanlangan profil bo'yicha ishlaydilar. O'quvchilarning deyarli yarmi kasbiy tayyorgarlikni kichik yoki o'rta korxonalarda o'tishadi, lekin Fransiyada kadrlarni ishlab chiqarishdan tashqarida tayyorlash tizimi ko'proq rivojlangan. O'qishni bitirgandan keyin o'qiganlar tor ixtisoslik bo'yicha kasbiy yaroqliligi haqida guvohnoma oladilar.

Oliy kasbiy ta'lim universitetlarda va oliy zveno uchun boshqaruvchilarni tayyorlovchi oliy maktablarda amalga oshiriladi. Bu maktablarga murakkab tanlovlardan muvaffaqiyatli o'tgan eshituvchilar qabul qilinadi.

AQSh, Angliya va Germaniya davlatlaridan farqli ravishda Fransiya ta'lim tizimi qat'iy reglamentlangan. Davlat va xususiy litseylarda kadrlarni tayyorlashni davlat nazorat qiladi. Kasbiy o'qitish sohasidagi yagona strategiya kasbiy ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi. Kasbiy litseylarni moliyalash mas'uliyatini davlat o'z bo'yniga olgan, diplomlarni berish monopoliyasi ham davlatga tegishli.

Fransiya kasbiy ta'limi tizimi



Umumiy va kasbiy ta'lim -- tekis va dunyoviydir. Ta'lim masalalari bo'yicha qonun farmoyish va boshqa hujjatlar davlat darajasida qabul qilinadi va Fransiya 26 o'quv okruglaridagi hamma kasbiy maktablar uchun majburiy hisoblanadi.

AQSh. Amerika qo'shma shtatlarida ta'lim va xususan kasbiy ta'lim sohasidagi ishlar holati uchun mas'uliyat alohida shtatlar hukumatlarning bo'ynida bo'ladi. Har bir shtatdagi ta'lim boshqarmasida *kasbiy ta'lim masalalari bo'yicha direktor byurosi* mavjud. Shtatlar kasbiy ta'lim rivojlanishining bir yillik va besh yillik rejalarini ishlab chiqishadi. Har bir shtatda *kasbiy ta'lim Kengashlari* mavjud.

Federal darajada *kasbiy ta'lim va yoshi kattalar ta'limi Byurosi* mavjud, unga *Kasbiy ta'lim Milliy ilmiy-tadqiqot markazi* bo'ysunadi. *Kasbiy ta'lim bo'yicha Milliy maslahat kengashi* faoliyat ko'rsatadi. O'xshash maslahat qo'mitalari har shtatda tuzilgan.

12 yillik o'rta maktab bazasida (10-sinfdan keyin) dastur (profil)larning uch:

- umumiy;
- akademik;
- kasbiy


yo`nalishlar turi ishlab chiqilgan.

Kasbiy profil ma`lum kasb yoki kasblar guruhi bo`yicha tayyorgarlikni beradi, kasbiy martabasining boshlang`ich bosqichi bo`ladi.

O`rta ta`limdan keyingi struktura – AQSh kasbiy ta`lim tizimi strukturasi 2-sxemada keltirilgan.

2-sxema

AQSh kasbiy ta`limi tizimi



Yaponiya Kasbiy ta`lim har xil turdagi maktablarda amalga oshiriladi.

Maktablarning asosiy qismi – xususiy, pullik, tor ixtisoslikka ega.

O`qish muddati – majburiy maktab bazasida bir necha oydan 1...2 yilgacha.

O`quvchilarning 50%ini qizlar tashkil qiladi.

O`quv muassasalarining turlari:

- 1962 yildan beri majburiy maktab bazasida 5 yillik *texnik kollejlilar* (ko`p qismi davlat tasarrufida) mavjud, ular muhandislik profili mutaxassisliklari bo`yicha tayyorgarlik beradilar;
- 1976 yildan beri ikki:
 - majburiy maktab bazasida 1...3 yillik;
 - katta o`rta maktab bazasida 1...2 yillik

turdagi maxsus kasbiy tayyorlash maktablari mavjud.

Bu maktablarning 87% xususiy firma va korporatsiyalarga tegishli.

- malakali ishchilarni, umumta`lim maktab tayyorgarligi asosida intensiv individual – guruhliy o`qitish yo`li bilan ma`lum ish joyi yoki operatsiyani bajarish uchun, *firmalardagi o`quv markazlarida* tayyorlashadi. Kadrlarni tayyorlash ma`suliyatini firmalar o`zlariga oladilar.

Shunday qilib, kasbiy ta`lim tizimini tuzish chet el tajribasi bo`yicha quyidagi *xulosalarni* chiqarish mumkin:

1. Har bir mamlakatda kasbiy ta'lim mazmuni va uni tashkil qilishda o'ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda umumiy xususiyatlar ham mavjud.

2. Chet ellarda kasbiy ta'lim tor mutaxassisni tayyorlashga emas, balki ma'lum profil bo'yicha professionalni tayyorlashga yo'nalgan. U umumiy ta'lim bilan bog'langan va uzluksizlikka intiladi.

3. Kasbiy ta'lim ishlab chiqarish bilan integrallasigan va moslanuvchan tavsifga ega.

4. O'quvchilik/shogirdlik tizimi yaxshi rivojlangan, u boshlang'ich kasbiy maktab vazifasini bajaradi.

5. Rivojlangan mamlakatlarda ham davlat va ham xususiy kasbiy o'quv muassasalari mavjud.

6. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan kasbiy ta'lim tizimlari mavjud.

Qisqacha xulosa:

Kasbiy ta'lim – umumta'lim yoki umummaktab o'qitishdan mehnat jarayonida kompetentli ishtirok etishga yo'nalgan o'qitishdir. U umumiy maktab ta'limidan kelib chiqadi, uni to'ldiradi hamda kasbiy-tazariy va kasbiy-amaliy mazmun yordamida o'qiyotganni ishchi jarayonga ishtirok etish qobiliyatiga olib boradi, natijada ishchi jarayonga u o'z ulushini qo'shadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. «Kasbiy ta'lim», «kasbiy o'qitish», «kasbiy tarbiya» iboralarining ta'rifini keltiring.
2. Kasb, mutaxassislik, ixtisoslik, malaka iboralarining ta'rifini bayon qiling.
3. Muayyan kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun muhim bo'lgan sifatlarni aytib bering.
4. Kasbiy ta'limda alohida ahamiyatga ega bo'lgan tayanch kompetensiyalarni sanab chiqing va ularning har birini izchlang.
5. Kasbiy ta'lim darajalarini tavsiflang.
6. Kasbiy ta'lim modellarini shakllantirish maqsadlarini aytib bering.
7. Kasbiy ta'limning ikki modelini taqqoslang.
8. Dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlarda malakali ishchilarni tayyorlash tajribasini tahlil qilib bering.

1.5. Kasbiy ta'lim muassasalarining O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'rni

1.5.1. O'zbekiston Respublikasi kasbiy ta'limi tizimi

Umumiy holatlar

Zamonaviy jamiyat insonlar oldiga mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradigan arziqli ta'lim olish masalasini qo'yadi. Ijtimoiy sertifikatlash qonunlariga muvofiq insonning jamiyatdagi mavqei to'rtta ko'rsatkich bilan aniqlanadi, ta'lim va kasbning obro'liligi ular orasida markaziy o'rinni egallaydi. Aynan shu sababli ham yoshlar va ham yoshi kattalar o'zlarining ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yo'llarini izlashadi.

Ta'lim – bu inson, jamiyat, davlat manfaatlarini yo'lida tarbiyalash va o'qitishning maqsadga yo'nalgan jarayoni bo'lib, u o'qiyotganlar davlat tomonidan o'rnatilgan ta'lim darajasiga erishganligini qayd etish bilan birga sodir bo'ladi.

Ta'lim olinganligi davlat namunasi hisoblangan mos hujjat – attestat yoki diplom bilan tasdiqlanadi.

Ta'limni – ta'limiy faoliyat jarayonida vujudga kelgan va ta'lim jabhasi mahsulotining hamma iste'molchilari – davlat, jamiyat va har bir insonning iqtisodiy, ma'naviy va intellektual holati uchun ahamiyatli bo'lgan hamma qadriyatlarining davlat, jamiyat va shaxsiy o'zlashtirishning natijasi sifatida ko'rish mumkin.

Ta'limning davlat uchun qadrliligi – bu fuqarolarning ma'naviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, madaniy va iqtisodiy potentsiali bo'lib, u davlatning hamma jabhalariga ta'sir qiladi. SHu sababli davlat manfaatlarini realizatsiya qilish ta'lim jabhasi progressiv o'sishining holati va imkoniyatlariga bevosita bog'liq.

Ta'limning jamiyat uchun qadrliligi ham har bir insonning potentsialiga bog'liq.

Ta'limning shaxs uchun qadrliligi insonning o'z ta'limiga, uning darajasi va sifatiga bo'lgan individual – motivatsiyali munosabatiga bog'liq bo'lib, u tashqi vaziyat va ichki qiziqishlar bilan belgilanadi. Masalan, tashqi holat – bu u yoki bu ta'lim muassasasida ta'lim olishning obro'liligi, insonning moddiy manfaatdorligi. U: “U yoki bu darajadagi ta'limni olish ushbu jamiyatda menga nima berishi mumkin?” degan savolga javob izlaydi. Insonning ichki ehtiyoji/qiziqishlari, uning bioijtimoiy ehtiyojini qondirish sifatida, uning bilim olishga bo'lgan tabiiy intilishini aks ettiradi, lekin bu bioijtimoiy ehtiyojlar ko'p jihatdan u tushib qolgan ta'lim muhitidagi psixologik-pedagogik muhitga bog'liq.

Shaxsning ichki ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiruvchi vektor va ushbu ehtiyojlarni qoniqtirishning pedagogik asoslangan usullari yo'nalisni bo'yicha bir-biriga mos kelib, bir-birini kuchaytirishi kerak.

Ta'lim – bu ta'lim jarayoni davomida pedagog va o'qiyotganlarning subyektiv-obyektiv amallar orqali berilgan maqsad sari harakatlanishidir.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanishi jabhasining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingani. Ta'lim olish huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy Konstitutsion huquqlaridan biridir.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining realizatsiya qilinishi "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida amalga oshirilmoqda. Milliy dastur maqsadi, vazifalari va amalga oshirish bosqichlari aniqlangan.

Maqsad – ta'lim jabhasini tubdan qayta shakllantirish, g'oyaviy cheklanganlikdan to'liq voz kechish, yuqori ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning Milliy tizimini yaratishdir.

Maqsadni realizatsiya qilish quyidagi *vazifalarni* yechishni nazarda tutadi:

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari asosida yagona o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatbardosh muhitni shakllantirish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda o'tkazilayotgan o'zgarishlar, rivojlangan demokratik huquqiy davlatni qurish bilan bog'lash;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning obro'li va ijtimoiy mavqeiini oshirish;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlashning strukturasi va mazmunini qaytadan tashkil qilish;
- o'qiyotganlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ma'rifat ishlarining samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini baholash, ta'lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiya qilishning obyektiv tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilingan darajasi va sifatini kadrlar tayyorlash tizimi funktsiya qilishi va barqaror rivojlanishining kafolatlanishini, ustuvorligini ta'minlovchi me'yoriy, moddiy-texnikaviy va axborot bazasini yaratish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlar soni va sifatiga bo'lgan davlat ehtiyojlarini hamda nodavlat strukturalar, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- uzluksiz ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'larni, jumladan xorijiy investitsiyalarni, jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;
- kadrlarni tayyorlash jabhasida o'zaro foydali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Dasturni amalga oshirish bosqichlari. Milliy dastur maqsadi va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich (1997-2001 y.y.) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadroviiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 y.y.) – Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozori rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari (3-sxema) quyidagilardan iborat:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;


davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatni tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

3-sxema

Kadrlarni tayyorlash Milliy modelining asosiy komponentlari



ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish *prinsiplari* quyidagilardan iborat:

ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning demokratlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qandirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi.

ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Ta'limning zamonaviy tizimi – u o'zini bilish miqdoriy va sifatiy boyish, o'zgarishga qodir bo'lgan tizimdir. U kelib chiqishi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy bo'lgan tashqi sharoitlarga bog'liq, ma'lum ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy muhitda vazifasini bajaradi va rivojlanadi. Ular bir tarafdin ta'lim maqsadlarini belgilaydi, ikkinchi, tarafdin esa – ularni amalga tatbiq etish va yanada rivojlantirish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi, insonni davlat, jamiyat, shaxsning turli jabhalarida faol faoliyat qilishga jalb qilishning asosiy masalalarini amalga oshirishga yo'nalgan.

O'zbekiston Respublikasi *ta'lim tizimining strukturaviy komponentlari* quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

1.5.2. Kasbiy ta'lim

O'rta maktab bazasidagi, o'qish muddati 2 yilgacha bo'lgan kasb-hunar ta'limi O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil turi hisoblanadi. Kasbiy ta'limning yo'nalishlarini o'rta maktabning bitiruvchilari ixtiyoriy tanlaydilar

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida kasb-hunar ta'limini beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibining tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Kasbiy ta'lim – mehnat faoliyatining ma'lum jabhasidagi bitim, amaliy malaka va ko'nikmalar tizimidir.

Mehnat faoliyati, odatda, **kasbiy faoliyat** bo'lib, u funksiyalar, amallar, operatsiyalar majmuidir, unda mutaxassisga o'z kasbiga muvofiq egallagan amaliga mos vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi.

Kasb – bu mehnat ijtimoiy taqsimoti natijasida ajralib chiqqan, muayyan faoliyatning barqaror turi bo'lib, u maxsus tayyorgarlikni (malakani) talab qiladi, insonni doimiy yoki nisbatan doimiy ish bilan ta'minlanishi, yashash uchun mablag' topish imkonini beradi.

Kasbiy ta'lim mutaxassisligi bo'yicha malaka – bu olingan mutaxassislik bo'yicha faoliyatning ma'lum turini kompetentli bajarishga bo'lgan tayyorgarlik darajasidir.

Mutaxassislik – bu:

- 1) kasb doirasida mehnatning ichki taqsimlanishi natijasida ajralib chiqqan, doimiy bajariladigan mehnat faoliyati (masalan, matematika o'qituvchisi, vrach-pediatr);
- 2) ta'lim natijasida egallangan bilim, mahorat va ko'nikmalarining majmui bo'lib, u kasbiy masalalarning ma'lum sinflarini qo'yish va ularni yechishni ta'minlash;
- 3) o'quv muassasasidagi tayyorlash yo'nalishidir.

Muayyan mutaxassislik doirasida kasbiy tayyorlashning cheklangan jabhasini, ya'ni ixtisoslikni, ajratishadi, unda mutaxassis ushbu mutaxassislik doirasida inson kasbiy faoliyatining muayyan jabhasida

qo'llashga mo'ljallangan bilim, mahorat va ko'nikmalarning muayyanlashtirilgan majmuini egallaydi.

Qisqacha xulosa:

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi insonni davlat, jamiyat, shaxsning turli jabhalarda faol faoliyat yuritishga jalb qilishning asosiy masalalarini amalga oshirishga yo'nalgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Ta'limning davlat uchun, jamiyat uchun va shaxs uchun qadriligini asoslang.
2. Kadrlarni tayyorlash milliy dasturining maqsadlarini realizatsiya qilish qanday masalalarni yechishni nazarda tutadi?
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlarini aytib bering.
4. Uzlüksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplarini bayon qiling.
5. «*Akademik litsey*» iborasining ta'rifini bering.
6. «*Kasb-hunar kolleji*» iborasining ta'rifini bering.
7. «*Kasbiy ta'lim*» iborasining ta'rifini bering.
8. «*Kasb*» va «*mutaxassislik*» iboralarining tahlilini keltiring.

2- BOB. O'QUV MUASSASASI O'QITUVCHISINING FAOLIYATI

Tayanch so'zlar va iboralar: faoliyat, pedagogik faoliyat, kasbiy-pedagogik faoliyat, maqsad, mo'hiyat, struktura, mazmun, vazifa, funktsiya, mahorat, xususiyat.

2.1. Kasbiy-pedagogik faoliyatning mohiyati va strukturasi

«*faoliyat*» ushunchasini turli falsafa, psixologiya, tarix, pedagogika fanlari ko'rib chiqadi. Faoliyat deganda faollik tushuniladi. Psixologiyada faoliyat deganda atrof-muhitdagi voqelik bilan faol o'zaro ta'sir tushuniladi, bu jarayonda inson subyekt sifatida obyektga maqsadga yo'nalgan ta'sir qiladi, bu esa uning ehtiyojlarini qondiradi

Pedagogik faoliyat – ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, u insoniyat tomonidan to'plangan bilim, tajriba, madaniyatni yosh avlodga uzatish uchun va yosh avlod shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda ma'lum ijtimoiy rollarni bajarishi uchun sharoitlarni yaratishga yo'nalgan. Maxsus tashkil etilgan ta'lim muassasalarida kasb sifatida pedagogik faoliyatning o'z o'rnini bor. Istalgan kasbiy faoliyatning *maqsadi* – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqishdir. Pedagogik faoliyat o'qiyotganlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'nalgan

Kasbiy-pedagogik faoliyat – integrativ faoliyat bo'lib, u o'z ichiga psixologik, pedagogik va ishlab chiqarish-texnologik komponentlarni qamraydi. Faoliyatning turli tasniflari mavjud, ularning asosiga har xil belgilar qo'yilgan. Shu bois ma'naviy va amaliy, reproduktiv va ijodiy, individual va jamoaviy kasbiy faoliyatlar ajratiladi.

Psixologiyada faoliyatni ko'p darajali tizim sifatida tushunishadi; maqsad, motivlar, amallar va natija uning komponentlari hisoblanadi. Faoliyat tahlil qilinganda motivlar va maqsad markaziy o'rinni egallaydi.

Maqsad – bu anglangan istal nayotgan natijadir.

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy rivojlanishning aks etishi sifatida ishlab chiqiladi, bunda shaxsning ma'naviy va tabiiy imkoniyatlari hamda jamiyat/mehnat bozorining malakali/kompetentli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj inobatga olinadi. Unda, bir tarafdin, turli ijtimoiy guruhlilar va jamiyatning manfaatlar va ehtiyojlari va, ikkinchi tarafdin, alohida shaxsning ehtiyojlari qiziqishlari qamrab olingan.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning *asosiy maqsadi* – o'qiyotganlarni kasbga o'qitish hamda kasbiy va shaxsiy rivojlantirishdir.

Kasbiy faoliyatning *asosiy obyektlari* – tarbiyaviy muhit, tarbiyalanuvchilar faoliyati, tarbiyalanuvchi jamoa va tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlaridir. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish tarbiyalanuvchi jamoani shakllantirish, shaxsning individualligini rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik masalalarni yechish bilan bogʻlangan.

Kasbiy-pedagogik faoliyatda munosabatlarning ikki turi mavjud:

- *subyekt-obyektli* munosabatlar, ular pedagogning pedagogik taʼsir predmeti, vositalari bilan munosabatlari;
- *subyekt-subyektli* munosabatlar, ular pedagogik oʻzaro taʼsir jarayonida pedagoglar va oʻqiyotganlar orasida vujudga keladi.

Pedagogik faoliyatning oʻziga xos xususiyati shundaki, unda hamkorlikdagi faoliyatning «*motiv – maqsad*» vektori ham pedagoglar va ham oʻqiyotganlar uchun bir xil boʻladi. Lekin har bir ishtirokchi (hamkorlikdagi faoliyat subyekti) uchun u individual, yaʼni hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilari (pedagoglar va oʻqiyotganlar)ning motivlari har xil boʻladi. Bu holda motivlar pedagogik faoliyatga individual xarakter beradigan shaxsiy asos vazifasini oʻtaydi. Shunday qilib, hamkorlikdagi pedagogik faoliyat maqsadlari bir xil, motivlar esa har xil va individual boʻladi.

Pedagogik oʻzaro taʼsir maqsadini amalga oshirish oʻqiyotganlarning mavjud bilimlariga tayangan holda ular bilan oʻzaro taʼsirning vositalari va usullarini qoʻllashga taalluqli boʻladi, pedagog – vositalar va oʻz faoliyatining nazarda tutilayotgan natijasini nazariy solishtirib chiqadi. Pedagogik masalalarni yechish usul (uslub, metod)larini tanlayotganda oʻqituvchi alohida oʻquvchining individual xossalari va xususiyatlarini, pedagogik jarayon jihozlanganligi darajasini va uning vaqtini hisobga olishi kerak.

Pedagogik jarayonlar (xotira, fikrlash va b.lar) faoliyatda tanlash va kasbiy yoʻnalganlik sifatlarini egallaydi. Didaktik loyihalar (darslar, mashgʻulotlar, pedagogik texnologiyalar, jihozlar, texnik qurilmalar va sh.k.lar) va faoliyatning psixologik mahsulotlari (individual tajriba, psixologik yangi tuzilmalar, qobiliyatlarning rivojlanishi va sh.k.lar) kabi faoliyatning funksional mahsulotlari kasbiy-pedagogik faoliyatning *natiyasi* boʻladi.

Qisqacha xulosa

Kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi – oʻqiyotganlarni kasbga oʻqitish hamda kasbiy va shaxsiy rivojlantirishdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Istalgan kasbiy-pedagogik faoliyatning maqsadi nimada? Pedagogik faoliyat nimaga yo'nalgan?
2. Kasbiy-pedagogik faoliyatning ta'rifini bering. Qanday kasbiy-pedagogik faoliyatlarni ajratishadi?
3. Kasbiy faoliyatning asosiy obyektlarini bayon qiling.
4. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish qanday ijtimoiy-pedagogik masalalarni yechish bilan bog'langan?
5. Kasbiy-pedagogik faoliyatda mavjud bo'lgan ikki turdagi munosabatlarni aytib bering va izohlang.
6. Hamkorlikdagi pedagogik faoliyat maqsadlari va motivlari qanday bo'ladi?
7. Pedagogik o'zaro ta'sir maqsadini amalga oshirish o'qiyotganlar uchun va pedagog uchun qanday bo'ladi?
8. Kasbiy-pedagogik faoliyatning natijasi nimalar bo'ladi?

2.2. Kasbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mahoratlarda namoyon bo'ladigan mos qobiliyatlar zarur. O'qituvchi va ishlab chiqarish ustasining pedagogik faoliyatida quyidagi *faoliyat komponentlarini* ajratishadi:

- konstruktiv;
- tashkilotchilik;
- kommunikativ;
- gnostik (izlanuvchi, tadqiqotchi).

Konstruktiv faoliyat pedagogda analitik, bashorat qilish va projektiv mahoratlar bo'lganda amalga oshirilishi mumkin

Analitik mahorat pedagogik voqelikni tarkibiy elementlar (shart-sharoitlar, sabablar, motivlar, stimullar, vositalar, shakllar)ga ajratish; har bir pedagogik voqelikni pedagogik jarayonning boshqa elementlari bilan o'zaro bog'lanishda anglash; pedagogik voqeliklarni to'g'ri diagnostika qilish; asosiy pedagogik masalani ajratib olish va uni optimal yechish usullarini aniqlash mahorati kabi juz'iy mahoratlardan tarkib topadi.

Pedagogik ***bashorat qilish mahorati*** asosida pedagogik jarayonning mohiyati va mantiqini, o'quvchilarning yoshiga varasha individual rivojlanishini bilish yotadi. Pedagogik bashorat u yoki bu vaqt oralig'ida shakllanishi mumkin. U o'quvchilarning mos sifatleri va jamoaning xususiyatlarini ko'ra bilishni ham nazarda tutadi.

Proyektiv mahoratlar ta'lim maqsadi va maznunini muayyan pedagogik masalaga aylantirish o'qiyotganlar qiziqishi va ehtiyojlarini, moddiy baza imkoniyatlarini inobatga olish, qo'yilgan masalaga mos faoliyat turini tanlab olish: birgalikdagi ijodiy ishlar tizimini rejalashtirish; o'qiyotganlar bilan individual ishni rejalashtirish; mazmunni saralash; ularning optimal birikmasida pedagogik jarayonning shakllar, metodlari va vositalarini tanlab olish; o'qiyotganlar faolligini rag'batlantirish tizimini rejalashtirish; shaxsiy rivojlantiruvchi muhitni yaratish usullarini rejalashtirish mahoratini nazarda tutadi

Pedagogning *tashkilotchilik faoliyati* – o'qiyotganlarni faoliyatning har xil turlarida ishtirok etishini ta'minlash va janoaviy faoliyatni tashkil qilish mahoratini nazarda tutadi. Pedagogda *mobilizatsion, informatsion, rivojlantiruvchi* va *yo'naltiruvchi* mahoratlar bo'lganda u tashkilotchilik faoliyatini amalga oshira olishi mumkin.

Mobilizatsion mahorat o'qiyotganlar diqqatini jalb qila olish va ularda bilim olish, mehnat qilish va faoliyatning boshqa turlariga qiziqishni uyg'otish va rivojlantirish: ularda bilimga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; o'qiyotganlarni o'quv mehnati ko'nikmalari bilan qurollantirish; o'qiyotganlarda atrof'dagi voqe'lklarga faol, mustaqil va ijodiy munosabatlarni shakllantirish va boshqa mahoratlarni o'ziga qanraydi.

Informatsion mahorat nafaqat o'quv informatsiyasini bevosita bayon qilish, balki uni olish va unga ishlov berish metodlariga ham bog'liq. Ular nashriy manbalar bilan ishlash mahorati va ko'nikmalarini, informatsiyani boshqa manbalardan qidirib topish va uni ta'lim jarayonining maqsad va vazifalariga moslab qayta ishlab chiqish, ya'ni informatsiyani didaktik o'zgartirish mahoratlarini o'ziga qanraydi. Pedagogik jarayonda informatsion mahoratlar fanning o'ziga xosligini, o'qiyotganlarning tayyorgarlik darajasini, ularning yoshi va tajribasini hisobga olgan holda o'quv materialini tushunarli bayon qilish; har xil metodlardan foydalanib o'quv informatsiyasini uzatish jarayonini mantiqan to'g'ri tuzish; savollarni tushunarli, qisqa va ifodali shakllantirish; o'qitish vositalaridan samarali foydalanish; zarurat tug'ilganda materialni bayon qilish usulini o'zgartirish va h.k.larda informatsion mahorat namoyon bo'ladi.

Rivojlantiruvchi mahoratlar alohida o'quvchilar va o'quv guruhining ma'lum "yaqin rivojlanish zonalarini"; bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni yaratishni; bilim olish faolligini, mustaqilligini va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishni; individual xususiyatlar rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratishni va o'qiyotganlarga individual yondashuvni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Yo'naltiruvchi mahoratlar tarbiyalanuvchilarda axloqiy qadriyatlarni, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga, o'quv va ilmiy faoliyati, ishlab chiqarishga, ratsionalizatorlikka hamda o'qiyotganlarning shaxsiy moyilliklari va imkoniyatlariga mos kasbga bo'lgan qiziqishga singdirishga; hamkorlikdagi ijodiy faoliyatni tashkil qilishga yo'nalgan.

Pedagogning *kommunikativ faoliyati* strukturasi bo'yicha *perseptiv mahorat, pedagogik muloqot mahorati va pedagogik texnika mahorati* kabi o'zaro bog'langan guruhlar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Perseptiv mahoratlar eng umumiy mahoratlar – boshqalar (o'qiyotganlar, o'qituvchilar, ota-onalar)ni tushunish mahoratiga keltiriladi. Perseptiv mahoratlar majmuiga V.A Slastenin boshqalarning shaxsiy mohiyatiga chuqur singish; insonning individual o'ziga xosligini bilish; odamning tashqi xarakteristikalarini va o'zini tutishini tez baholash asosida u shaxsning qaysi turiga taalluqli ekanligini va temperamentini aniqlash kabi juz'iy mahoratlarini ham kiritadi.

Pedagogik muloqot mahoratlari diqqatni taqsimlash va uni shu holda ushlab turish; o'qiyotganlar bilan psixologik aloqani o'rnatish, bu o'quv informatsiyasini samarali uzatish va qabul qilishga ko'maklashadi; ko'pchilikning orasida o'zini tabiiy va izchillik bilan tutish; guruh va alohida o'quvchilarga nisbatan o'zini qanday tutish va ular bilan muomala qilishning eng munosibini tanlash; tarbiyalanuvchilarning hatti-harakatlarini tahlil qilish, ularning ortida qanday motivlar borligini ko'ra bilish; emotsional qayta bog'lanishni o'rnatish mahoratlariga bog'liq.

Pedagogik texnika mahoratlari tarbiyalanuvchilar bilan muloqot qilishning to'g'ri stili va muomaladagi tovush ohangini to'g'ri tanlash; ularning diqqatini boshqarish; sur'atni sezish hissi; o'qituvchi nutqi madaniyatini rivojlantirish; o'z badanini boshqarish, ta'lim jarayoni davomida muskullardagi zo'riqishlarni yo'qotish; o'zining psixik holatini boshqarish; hamsuhbatining ko'ngligini topish; informatsiyani obrazli uzatish va boshqalar tashkil qiladi.

Qisqacha xulosa

Faoliyatning eng asosiy natijasi – shaxsni kasbiy va shaxsiy rivojlanishidir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Analitik mahorat qanday juz'iy mahoratlardan tarkib topadi?
2. Bashorat qilish mahorati asosida nimalar yotadi?
3. Proyektiv mahoratlar qanday mahoratlarini nazarda tutadi?

4. Pedagogda qanday mahoratlar bo'lganda u tashkilotchilik faoliyatini amalga oshira olishi mumkin?
5. Mobilizatsion mahorat qanday mahoratlarni o'ziga qanraydi?
6. Informatsion mahorat tushunchasining batafsil tahlilini bayon qiling
7. Yo'naltiruvchi mahoratlar nimaga yo'nalgan?
8. Perseptiv mahoratlar tarkibiga kiruvchi eng umumiy va juz'iy mahoratlarni bayon qiling.
9. Pedagogik muloqot mahoratlari qanday mahoratlarga bog'liq?
10. Pedagogik texnika mahoratlarini nimalar tashkil qiladi?

2.3. Kasbiy-pedagogik faoliyat vazifalari

Faoliyat maqsadi vazifalarda amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi vazifalarning ikki turini: pedagogik va funksional vazifalarni bajaradi

Pedagogik vazifa masala o'qiyotganlarni bir holatdan ikkinchi holatga: ularni ma'lum bilimlarni olishga jalb etish, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish yoki noto'g'ri shakllangan bilimlar, ko'nikmalar tizimini boshqasiga o'tkazish zarurati tug'ilganda vujudga keladi. Yechim bir emas, bir nechta bo'lganda va istalinayotgan natijaga erishishning afzalroq usulini topish talab qilingan holda ham pedagogik masala vujudga keladi.

Pedagogik masalalarning muhim *xususiyatlari* :

Birinchidan, o'qitishning ma'lum bosqichi oxirida o'qiyotganing idrok qilishida qanday o'zgarishlar uyg'otilishi istalinayotganini pedagog aniq tasavvur qilishi kerak. Pedagogik amaliyot esa, aksincha, o'qituvchi bunday masalalarni o'quvchi rivojlanishining imkoniyatlari va istiqbolini tahlil qilishdan emas, balki o'quv materialini bayon qilish ketma-ketligining mantiqidan kelib chiqib qo'yadi.

Ikkinchidan, pedagogik vazifa/masala xulq-atvor bo'yicha o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lgan, o'quv jarayonining faol, teng huquqli ishtirokchisi sifatida o'qiyotganga bo'lgan munosabaddan kelib chiqishi kerak. Bu masala amalda ma'lum darajada o'zgarib turadi, sababi – o'qiyotganing shaxsiy uning motivatsiyasi, da'volarining darajasi va h.k.lardir. bundan tashqari talaba doimiy o'zgarish, rivojlanish jarayonida bo'ladi va bitta vazifa/masalalarning o'zi o'qishning turli davrlarida uning tomonidan har xil qabul qilinadi.

Pedagogik masalalarni muvaffaqiyatli yechish uchun o'qituvchilarga bu masalalarni funksional masalalardan farqlash lozim. Bu farq shundaki,

pedagogik masala natijani talaba shaxsidagi yangi tuzilmalar ko`rinishida yoki uning faoliyati ko`rinishida olishni nazarda tutadi. Pedagogik masala o`qish va tarbiya subyekti sifatida talabalarning bilimi, mahorati, ko`nikmasi, motivlarida, uning xulq-atvorida sodir bo`ladigan o`zgarishlar bilan tavsiflanadi

Funksional vazifa masalalar pedagogik ta`sir instrumentariyiga bog`liq. Bu yerda ma`ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg`ulotlari, suhbatlar, maslahatlar (bu jarayonda o`qiyotganga ta`sir o`tkaziladi va uning faoliyati boshqariladi) kabi funksional mahsulotlar o`qituvchi faoliyatining natijasi bo`ladi.

Shuni ta`kidlash lozimki, funksional masalalarning bir ma`noli klassifikatsiyasi mavjud emas, shu bois, agar "*vaqt*" belgisi asos uchun qabul qilinsa, u holda *strategik, taktik va operativ* masalalar haqida gapirish mumkin. Strategik masalalar ta`limning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, taktik masalalar esa strategik masalalarni amalda sodir bo`layotgan pedagogik jarayonga o`zgartiradi, operativ masalalar muayyan sodir bo`layotgan pedagogik vaziyatda, pedagog yechadigan joriy masala bo`ladi.

Funksional masalalarni turlarga bo`lib, biz *didaktik* hamda *tarbiyalash va rivojlantirish* masalalarini oldik.

Didaktik masalalar o`qiyotganlarning o`quv-bilim olish faoliyatini boshqarish jarayonini tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Tarbiyalash masalalari o`qiyotganlarda g`oyaviy qadriyatlarni, estetik xulq-atvorni va boshqa odamlarga bo`lgan munosabatlarni shakllantirishga yo`nalgan, rivojlantiruvchi masalalarni yechish orqali o`qiyotganlar shaxsining asosiy psixik sifatleri o`zgaradi.

Kasbiy faoliyat jarayonida *o`qituvchining asosiy vazifalarini* ko`rib chiqamiz.

1. O`qiyotganning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil qilish, uni bilimni mustaqil izlab topish va uni amaliyotda qo`llashga o`rgatish. Bu masalani yechish o`qituvchi o`qitishning shunday texnologiyalarini tanlab olishni nazarda tutadiki, ular nafaqat tayyor bilimlarni o`zlashtirish imkonini bersin, balki o`qiyotganlar ularni turli manbalardan mustaqil egallashsin, o`zlarining shaxsiy fikrlarini shakllantirishsin, o`z fikrlarini asoslay olishsin, oldin egallagan bilimlaridan yangi bilimlarni olish uchun metod sifatida foydalanishsin. Faqat shunday o`qitishni rivojlantiruvchi o`qitish deb hisoblash mumkin. Kasb-hunar kolleji o`qituvchisi ushbu vazifani unda turli kasbiy sifatlarning majmui bo`lganligi tufayli bajaradi. Ularga ham pedagogik faoliyatning individual stili, va ham shaxsiy

o'sishga bo'lgan qobiliyat, va ham mustaqil tarbiyalanish va mustaqil ta'lim olish, va etik savodlilik, va barqaror pedagogik pozitsiya, va pedagogik texnika, va pedagogik madaniyat kiradi.

2. O'qiyotganning o'z-o'zini tarbiyalash. mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini rivojlantirish subyektiga aylantirish, unda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojining ishlab chiqilishiga erishish, uning masalalarni mustaqil regulirovka qilish va ularni yechishga o'rgatishga erishish. O'qituvchi pedagog maqsadlarni o'qiyotganning psixologik maqsadlariga o'zgartiradi. Bunday murakkab vazifani o'qituvchi faqat shu holda yechishi mumkin, agar u umumiy maqsadni anglasa, uni bir qator juz'iy (asosiy maqsadga bo'ysungan) maqsadlarga ajratsa va so'ngra bu juz'iy maqsadlarni pedagogik masalalarga aylantirsa keyin esa bu masalalar o'qiyotganlarga yechish uchun taqdim etiladi.

3. Yosh avlod tarbiyasini, ijtimoiy tajribani bir avlodda keyingi avlodga uzatilishini ta'minlash.

4. Mamlakat ijtimoiy hayotining hamma jabhalari uchun mutaxassislarni tayyorlash.

Qisqacha xulosa

Kasbiy faoliyat vazifa masalalari o'qituvchi funksiyalari bilan uzviy bog'langan.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi qanday vazifalarni bajaradi?
2. Pedagogik vazifa/masala qaysi hollarda mavjudga keladi?
3. Pedagogik masalalarni muhim xususiyatlarini aytib bering.
4. Pedagogik masalalarni muvaffaqiyatli yechish uchun o'qituvchiga bu masalalarni nimalardan farqlash lozim? Bu farq nimalarni nazarda tutadi?
5. Strategik, taktik va operativ masalalarning tahlilini keltiring.
6. Didaktik masalalar nimalarning imkoniyatini beradi?
7. Tarbiyalash masalalari nimalarga yo'nalgan?
8. Kasbiy faoliyat jarayonida o'qituvchining asosiy vazifalarini batafsil bayon qiling.

2.4. Kasbiy-pedagogik faoliyat funksiyalari

Kasbiy-pedagogik faoliyat *funksiyasi* deganda maznuni bo'yicha bir turdagi faoliyatning barqaror takrorlanadigan turlarining guruhi

tushuniladi, ularni bajarish ushbu kategoriyadagi kasbiy-pedagogik xodimlar uchun xarakterli bo'ladi.

Pedagogik faoliyat funksiyalarining ikkita: *maqsadli* va *operatsion* guruhlarini ajratishadi. *Maqsadli* funksiyalarga asosiy kasbiy maqsad – kasbga o'qitish va mutaxassisning shaxs sifatida kamolotga yetishishiga yo'nalgan funksiyalar kiradi. O'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish funksiyalari an'anaviy ravishda ularga kiradi, motivatsiyalovchi funksiyani ham maqsadli funksiyaga kiritishadi.

Konstruktivlik, tashkiliy, kommunikativ, diagnostik va ishlab chiqarish – texnologik funksiyalarni *operatsional* funksiyalar tizimiga kiritishadi. Dastlabki to'rttasi istalgan o'quv muassasasining pedagogi uchun xarakterli, oxirgisi esa – faqat kasbiy o'qitish pedagogi uchun xarakterlidir.

O'qitish funksiyasi – pedagog faoliyatida yetakchi funksiyalardan biridir. Uning ma'nosi – o'qiyotganlarda kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Bunda o'qituvchi va ustaning o'qitish funksiyalari orasida farq mavjud: umumkasbiy tsikl o'qituvchisining faoliyati asosan kasbiy – texnologik bilim va mahoratlarni shakllantirishga yo'nalgan; ishlab chiqarish o'qitish ustasining faoliyati o'qiyotganlarda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'nalgan.

Pedagogik xodimlarning *tarbiyalash funksiyasi* o'qiyotganlarni ijtimoiy-kasbiy (ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, mehnat, estetik va jismoniy takomillashtirish) tarbiyalashni nazarda tutadi. Lekin o'qituvchi va usta tarbiyaviy ishidagi eng asosiysi – bu o'qiyotganlar shaxsining kasbiy yo'nalganligi: kasbiy mehnatga ehtiyoj, mehnatga bo'lgan ijobiy motivlarning barqarorligi, kasbiy faoliyatga moyillik va qiziqishni shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi funksiya o'qiyotganlar shaxsining psixik: sensomotor, intellektual va emotsional-irodaviy jabhalarining rivojlanishidan tarkib topadi. Pedagog oldida nafaqat psixik rivojlantirish kabi murakkab vazifa, balki uni korreksiyalash ham turadi. SHu bilan bir qatorda kasbiy muhim xossa va sifatlarni shakllantirish muammosi ham turadi.

Ishlab chiqarish-texnologik funksiya ishlab chiqarish-o'qitish ustasining ishida ishlab chiqarish-texnologik vositalarni murakkab bo'lmagan ta'mirlash, ularni sozlash va rostlash kabi ishlarni bajarish, texnik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, o'qiyotganlarning texnikaviy ijodini boshqarish, ishlab chiqarish ishlarini bajarishlardan iborat bo'ladi. O'qituvchining ishlab chiqarish-texnologik funksiyasi

o'quv-namoyish qilish jihozlarini sozlash, hisobiy-analitik ishlarni bajarish, ratsionalizatorlik, nazariy o'qitish jarayonida ish uslublari va operatsiyalarini namoyish qilishdan tarkib topadi

Konstruktivlik qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish tajribasi sifatida ushbu holda nizo va muammolardan qochish, to'qnashish va kelishmovchiliklardan o'zini chetga olishni emas, balki ularni zo'ravonlikni ishlatmasdan konstruktiv yechish mahoratini bildiradi, chunki nizo va qarama-qarshiliklar insonning butun umri davomida uchrab turadi. Murosali kimdir yoki nimagadir mehrlil bo'lishni nazarda tutadi. Murosali inson bo'lish qobiliyati – bu narsalarning mohiyatini anglash, voqeliklar qonuniyatlarini ko'ra bilish va har xil qarama-qarshiliklarni evolyutsiya sharoiti sifatida, ijobiy omil sifatida qabul qilish qobiliyatidir; bu buzg'unchilik energiyasini yaratuvchilikka yo'naltirib yuborish mahoratidir. Konstruktiv hatti-harakatlar muayyan o'qiyotganlar va vaziyatlar, ularning o'quv predmeti, bir-biri bilan pedagoglar bilan, o'zi bilan o'zaro ta'sir rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilangan, ichki va tashqi, yashirin va ochiq nizolarning o'ziga xosligi va turli-tumanligini tushunishda o'z ifodasini topadi.

Tashkiliy funktsiya kasbiy ta'lim jarayoni va tarbiyaviy ish davomida amalga oshiriladi. U darslarni o'tkazishda, o'qiyotganlarning bilim olish faoliyatini tashkil qilishda, o'qishdan tashqari vaqtda guruhni boshqarishda, o'qiyotganlar mehnati va dam olishi rejimini, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilishda va o'qiyotganlarning ilmiy-texnikaviy ijodiga rahbarlik qilishda amalga oshiriladi.

Bu mahoratlar:

- o'qiyotganlarning guruhiy va individual ishini ko'p omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish mahorati;
- o'quv mashg'ulotlarida o'qiyotganlarning psixik holatini boshqarish mahorati;
- o'qiyotganlarning bilim olish imkoniyatlari va bilim olish faoliyati natijalarini bashorat qilish mahorati;
- o'quv ishi natijalarini, o'quv materialim o'zlashtirish bo'yicha erishilgan natijaning dasturiy talablar va o'qiyotganlarning potensial imkoniyatlariga mosligini baholash mahorati;
- o'quv faoliyatiga tuzatishlar kiritish mahorati.

Kommunikativ funktsiya o'qituvchida kasbiy faoliyatga o'z-o'zini motivatsiyalash yuqori bo'lganligi tufayli amalga oshiriladi. O'qituvchining pedagogik jarayonning hamina subyektlari bilan o'zaro ta'sirining empatik va kongruentli bo'lishini nazarda tutadi. Ushbu

funksiya real bo'lishi uchun, o'qituvchida o'qiyotganlarga qanday yordam ko'rsatish lozimligi haqida yetarli informatsiya bo'lishi va bu yordamni qaysi metodlar yordamida amalga oshirilishi kerakligi haqida bilim bo'lishi kerak. Pedagog kommunikativ madaniyatni egallagan bo'lishi hamda eruditsiya, yuqori darajali madaniyat, ruhiy sezgirlik, empatiyalik, tolerantlik, adolatlilik, mehr, releksivlik kabi shaxsiy-kasbiy sifatning ma'lum to'plamiga ega bo'lishi lozim. Bulardan tashqari o'qituvchi yetarli darajada transsendentlik, konstruktivlik hamda hamkorlikda amallarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Transsendentlik o'zining Men-konsepsiyasini o'rganish tajribasi sifatida o'z shaxsini boshqalar uchun informatsiya manbai sifatida anglashni aks ettiradi. Shu nuqtai-nazardan shaxs o'zini nafaqat alohida va takrorlanmaydigan rakursda, balki boshqalar bilan ko'p sonli bog'lanishlarda ko'radi. «Transsendentli» odam o'zining ma'naviy, estetik, etik, axloqiy boyishi zaruratini nafaqat «o'zi uchun», balki «boshqalar uchun» ham kerakligini tushunadi. O'qituvchining transsendent amallari o'quv vaziyatiga bo'lgan munosabatda ifodalanadi, bunda u o'qiyotganlar uchun o'zining foydaliligi va zarurligini anglagan holda ularga o'z bilimlarini uzatadi, shu sababli u doimiy izlanishda bo'ladi, o'z faniga qiziqadi, unga talabalar oldida o'z eruditsiyasini namoyish qilish emas, balki o'qiyotganlar bilan birga bilimlar egallash muhimroq bo'ladi.

Diagnostik funktsiya kasbiy maktab pedagogi faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. Bu ikki sabab:

birinchidan, diagnostikani juda qisqa muddatda o'tkazish zarurligi;

ikkinchidan, hali ko'p o'qiyotganlarda bilim olish ehtiyojlari va o'quv amallarining usullari shakllanmaganligi *bilan belgilanadi*.

Tadqiqot funksiyasi. Kasb-hunar kollejining zamonaviy o'qituvchisi, oliy o'quv yurti o'qituvchisi kabi, pedagogik va ilmiy ishini birgalikda olib boradi. Tadqiqot faoliyati o'qituvchi ichki dunyosining boyishiga ko'maklashadi. mashg'ulotlarning ilmiy darajasini oshiradi, uning ijodiy potensialini rivojlantiradi, materiallarni boyitishga va tizimiylashtirishga, asosiy g'oya va xulosalarni pishiqroq shakllantirishga, aniqlashtiruvchi savollarni qo'yishga, o'quv mashg'ulotining didaktik maqsadlarini realizatsiya qilish jarayonida unda yangi gipotezalar paydo bo'lishiga uni undaydi.

Qisqacha xulosa

Kasbiy pedagogik funktsiya – bu mazmuni bo'yicha bir turdagi faoliyatning barqaror takrorlanadigan turlarining guruxidir, ularni bajarish ushbu kategoriyadagi kasbiy – pedagogik xodimlar uchun xarakterli bo'ladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy-pedagogik faoliyat funktsiyasi deganda nima tushuniladi, ularni bajarish kimlar uchun xarakterli bo'ladi?
2. Maqsadli funktsiyalarga qanday funktsiyalar kiradi?
3. Operatsion funktsiyalar tizimiga qanday funktsiyalar kiradi?
4. O'qitish funktsiyasining ma'nosi nimada? Bunda o'qituvchi va ustanining o'qitish funktsiyalari orasida qanday farq mavjud?
5. Pedagogik xodimlarning tarbiyalash funktsiyasini batafsil bayon qiling.
6. Rivojlanish funktsiyasi shaxsning qanday psixik rivojlanish jabhalaridan tarkib topadi?
7. Ishlab chiqarish – texnologik funktsiya qanday ishlarni bajarishdan va nimalarni boshqarishda iborat bo'ladi?
8. Konstruktivlik nimalarning mahoratini bildiradi?
9. Tashkiliy funktsiya qanday amallarni bajarishda amalga oshadi?
10. Transsendentlik nimani bildiradi?

2.5. Kasbiy-pedagogik faoliyat turlari

Kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy turlari: dars berish o'qitish va tarbiyalash ishlari, hamda ilmiy-metodik, ijtimoiy-pedagogik, madaniy-ma'rifiy ishlar va ishlab chiqarish-texnologik faoliyat.

O'qitish – faoliyat turi bo'lib, u bilim olish faoliyatini boshqarishga yo'nalgan. O'qitish bilan odatda nazariy o'qitish o'qituvchisi ham o'qitish jarayonida va ham darsdan tashqari pay'da shug'ullanadi. O'qitish har xil tashkiliy shakl doirasida amalga oshiriladi. Odatda vaqti qat'iy belgilanadi, belgilangan maqsad va bu maqsadga erishish usullarining variantlariga ega bo'ladi. Dars berish mantiqini qat'iy dasturlashtirish mumkin. Ishlab chiqarish o'qitishining ustasi o'qiyotganlarni ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning zamonaviy texnologiyalarining hamma talablariga rioya qilgan holda har xil operatsiya va ishlarni ratsional bajarish bilimi, mahorat va ko'nikmalari bilan qurollantirish vazifasini bajaradi.

Tarbiyaviy ish – pedagogik faoliyat bo'lib, u kasbiy rivojlantirish masalalarini yechish maqsadida tarbiyaviy muhitni tashkil qilish va

tarbiyalanuvchilar faoliyatining har xil turlarini boshqarishga yo'nalgan. Tarbiyaviy jarayon mantiqini oldindan aniqlab bo'lmaydi. Tarbiyaviy ishda faqat maqsadga yo'nalgan muayyan masalalarni ketma-ket yechishni oldindan ko'ra bilish mumkin. Tarbiyalash va o'qitishni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Ishlab chiqarish o'qitishining yaxshi ustasi nafaqat o'zining bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarini o'qiyotganlarga uzatadi, balki ularni fuqaro va kasb egasi sifatida kamolotga yetishishga yo'naltiradi. Yoshlarning kasbiy kamolotga yetishishining mohiyati ham shunda.

Metodik ish *o'quv-tarbiyaviy jarayonni tayyorlash, ta'minlash va tahlil qilishga yo'nalgan.* Kasbiy o'qitishni amalga oshirayotgan pedagoglar ilmiy-texnikaviy informatsiyani mustaqil tanlab olishlari, uni metodik jihatdan qayta ishlab chiqishlari, o'quv jarayoniga moslashtirib tatbiq etishlari, o'qitishning samarali vositalarini tanlay olishlari kerak. Ko'p o'qituvchilar va ustalar o'zlarining o'quv fanlari bo'yicha o'quv jarayonini loyihalovchilari bo'ladilar. Metodik ish pedagoglarda kasbiy faoliyatlarini doimiy takomillashtirishga intilish tuyg'usini uyg'otadi.

O'qituvchi metodik faoliyatining turlari:

- o'quv-dasturiy hujjatlarni, o'quv-uslubiy majmualarni tahlil qilish;
- o'quv materialini tahlil qilish;
- nazariy va amaliy o'qitishning o'quv mashg'ulotlari tizimini rejalash;
- o'quv mashg'ulotida o'quv informatsiyasini taqdim etish shakllarini modellar va konstruksiyalash;
- o'quv fanining asosiy ilmiy tushunchalarini va amaliy mahoratlarni shakllantirish bo'yicha o'qiyotganlar faoliyatini konstruksiyalash;
- o'qiyotganlar bilimi, amaliy malaka va ko'nikmasini nazorat qilish turlari va shakllarini ishlab chiqish;
- o'qiyotganlarning o'quv mashg'ulotidagi faoliyatini boshqarish va baholash;
- o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikda va uning natijalarini tahlil qilishda o'z faoliyatini refleksiya qilish.

Metodik mahoratlar tizimi – o'qituvchi metodik faoliyatining asosidir.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat *o'qitish va tarbiyalash jarayonida ijtimoiy profilaktika bo'yicha pedagogik tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazishni, hamda o'qiyotganing ijtimoiylashuvida unga yordam berishni nazarda tutadi.*

Madaniy-ma'rifiy faoliyat o'qiyotganlarning umumiy madaniyatini shakllantirishga yo'nalgan.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyat. Ishlab chiqarish o'qitishining ustasi texnik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi. Bu ishlarni bajarish kasb y maktab o'qituvchisida mashg'ulotlarni rejalashtirish va ularga tayyorgarlik ko'rishda, kabinet va ustaxonalarni jihozlashda, ilmiy-texnikaviy informatsiya bilan tanishishda, texnik ijodiyotga rahbarlik qilishda sezilarli o'rinni egallaydi.

O'qituvchilar uchun *kompetensiyalarning* 4 jabhasini farqlashadi, ulardan 11 kompetensiya strukturlangan.

Kompetensiyalarning 1-jabhasi: Dars berish.

O'qituvchilar o'qitish va bilim/dars berish jabhasida:

- a) O'qituvchilar mashg'ulotni o'quv fani va uning o'ziga xosligiga yarasha loyihalashadi va shunga mos ravishda mashg'ulotning belgilangan rejasini amalga oshiradilar.
- b) O'qituvchilar mashg'ulotlarda mos o'quv vaziyatlarini yaratish orqali o'z o'quvchilarini bilimlarni o'zlashtirishga rag'batlantiradilar. Ular o'qiyotganlarni motivatsiyalaydilar va ularni o'rganganlarini amalda qo'llashga qodir qiladilar.
- c) O'qituvchilar o'z o'quvchilarini mustaqil o'qish va mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadilar.

Kompetensiyalarning 2-jabhasi: Tarbiyalash.

O'qituvchilar o'zlarining tarbiyaviy funksiyalarini bajaradilar.

- a) O'qituvchilar o'z o'quvchilari hayotining ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan tanishlar va ta'lim muassasasi doirasida ularning har birining individual rivojlanishiga ta'sir o'tkazadilar.
- b) O'qituvchilar o'quvchilarga qadriyatlar va me'yorlar haqida bilim uzatadilar va ularni o'z mulohazalari va mustaqil faoliyatlarini rivojlantirish-larida qo'llab-quvvatlaydilar.
- c) O'qituvchilar ta'lim muassasasi va mashg'ulotlardagi qiyinchiliklar va nizolarga qanday yondoshish kerakligini biladilar va ularni yechish yo'llarini topadilar.

Kompetensiyalarning 3-jabhasi: Baholash.

- a) O'qituvchilar o'z o'quvchilarining o'qishga bo'lgan layoqatlarini va bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini diagnostika qiladilar; ular o'z o'quvchilarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydilar va ularga maslahat ar beradilar.

b) O'qituvchilar o'z o'quvchilarining muvaffaqiyatlarini baholashning shaffof masshtablari (adekvat, obyektiv) asosida baholaydilar.

Kompetensiyalarning 4-jabhasi: Innovatsiyalar.

a) O'qituvchilar pedagog kasbiga bo'lgan talablar xususiyatlarini anglaydilar. Ular o'z kasbini o'zining alohida mas'uliyati va shart-sharoitlariga ega bo'lgan ijtimoiy foydali lavozim sifatida tushunadilar.

b) O'qituvchilar o'z kasblarini o'zini uzluksiz rivojlantirish (fan, texnika va texnologiyadagi zamonaviy yutuqlarni o'zlashtirish va ularni o'qish jarayoniga tatbiq etish) vazifasi sifatida tushunadilar.

c) O'qituvchilar ta'lim muassasasi loyihalari va tadbirlarining rejalarini tuzish va ularni realizatsiya qilishda ishtirok etadilar.

Qisqacha xulosa

O'qituvchi o'zining funksional vazifalarini amalga oshirishi uchun u qanday zaruriy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy turlarini aytib bering.
2. "O'qitish" iborasining mazmunini izohlang.
3. Tarbiyaviy ish nimalarga yo'nalgan, unda nimalarni oldindan ko'ra bilish mumkin?
4. Metodik ish nimalarga yo'nalgan? Kasbiy o'qitishning amalga oshirayotgan pedagoglar qanday malakalarga ega bo'lishlari kerak?
5. O'qituvchi metodik faoliyatining turlarini birma-bir sanab chiqing.
6. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat nimalarni nazarda tutadi?
7. Madaniy-ma'rifiy faoliyat nimalarni shakllantirishga yo'nalgan?
8. Ishlab chiqarish – texnologik faoliyat nimalarni nazarda tutadi?
9. O'qituvchilar dars berish jabhasida qanday amallarni amalga oshiradilar?
10. O'qituvchilarning tarbiyaviy funksiyalarini bayon qiling.
11. O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasi o'z ichiga qaysi komponentlarni qamraydi?

2.6. O'qituvchi uchun kompetensiyalar

Kasbiy kompetensiya

Shaxsning oliy komponenti – bu kasbiy kompetentlikdir. Kasbiy kompetentlik deganda mutaxassislar ishbilarmonlik va shaxsiy sifatlarining integrallashgan xarakteristikasi tushuniladi, bu sifatlar qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning ma'lum turini

amalga oshirish uchun yetarli bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar va tajriba darajasini aks ettirishi tushuniladi.

Kasbiy kompetensiyaning asosiy komponentlari:

- *ijtimoiy-huquqiy kompetentlik* -- ijtimoiy tashkilotlar va odamlar bilan o'zaro ta'sirda bo'lish sohasidagi bilimlar va mahoratlar, hamda kasbiy muloqot va xulq-atvor uslublarini egallaganlik;

- *shaxsiy (personal) kompetentlik* -- to'xtovsiz kasbiy o'sish va malakani oshirish, hamda o'zini kasbiy mehnatda realizatsiya qilish;

- *maxsus kompetentlik* -- faoliyatning muayyan turini mustaqil bajarishga tayyorlanganlik, namunaviy kasbiy masalalarni yechish va o'z mehnatining natijalarini baholash mahorati, mutaxassislig bo'yicha yangi bilimlar va mahoratlarni mustaqil egallash qobiliyati;

- *metodik kompetentlik* -- mashg'ulotlarni oldindan rejalashtirib, uzviy ketma-ketlikda materialni bayon qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik kasbiy-pedagogik mahoratlar shakllanganligining darajasi bilan baholanadi.

Kasbiy maktab pedagogining asosiy operatsion funksiyalari pozitsiyasidan kasbiy-pedagogik mahoratlarning quyidagi guruhlarini ajratish mumkin

- *gnostik mahoratlar* -- umumkasbiy, ishlab chiqarish va psixologik-pedagogik bilimlarni egallash sohasida bilish mahorati, ular yangi informatsiyani olish, unda eng asosiysi muhimini ajratib olish, o'zining pedagogik tajribasi, ishlab chiqarish novatorlari va ratsionalizatorlari tajribasini umumlashtirish va tizimlashtirish mahoratini nazarda tutadi.

- *ideologik mahoratlar* -- o'qiyotganlar orasida ijtimoiy-tarbiyaviy ishlarni o'tkazish bo'yicha ijtimoiy muhim mahorat.

- *didaktik mahoratlar* -- o'qitishning muayyan maqsadlarini aniqlash, o'qitishning adekvat shakllari, metodlari va vositalarini tanlash, pedagogik vaziyatlarni konstruksiyalash, o'quv-ishlab chiqarish materialini tushuntirish, texnik obyektlar va ish uslublarini namoyish qilish bo'yicha umumpedagogik mahoratlar;

- *tashkiliy-metodik mahoratlar* -- o'quv-tarbiyaviy jarayonni realizatsiya qilish, bilim olish motivatsiyasini shakllantirish, o'qiyotganlarning o'quv-kasbiy faoliyatini tashkil qilish, pedagogik nuqtai-nazardan to'g'ri o'zaro ta'sirlarni o'rnatish, jamoani shakllantirish, o'z-o'zini boshqarishni tashkil qilish mahorati;

– *kommunikativ-boshqaruvchilik mahorati* – umumpedagogik mahoratlar, ular oʻziga perseptiv, ekspressiv mahoratlarini qamraydi;

– *prognostik mahoratlar* – oʻquv-tarbiyaviy jarayonning muvaffaqiyatlilikini bashorat qilish boʻyicha umumpedagogik mahoratlar, u oʻz ichiga oʻqiyotganlar shaxslari va jamoasini diagnostika qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik faoliyatning alternativ variantlarini tuzish, shaxs va jamoa rivojlanishini loyihalash, jarayon va natijani nazorat qilishlarni qamraydi;

– *refleksiv mahoratlar* – oʻzini bilishga boʻlgan qobiliyat, kasbiy faoliyati va kasbiy xulq-atvorini oʻzi baholashi, oʻzini faollashtirish;

– *tashkiliy-pedagogik mahoratlar* – tarbiyalash jarayonini rejalashtirish, pedagogik taʼsir va oʻzaro taʼsirning optimal vositalarini tanlash, oʻz-oʻzini tarbiyalash va oʻz-oʻzini boshqarishni tashkil qilish, oʻqiyotgan shaxsning kasbga yoʻnalganligini shakllantirish mahorati;

– *umumkasbiy mahoratlar* – chizmalar, sxemalar, texnik diagrammalarni oʻqish va tuzish, hisob-grafik ishlarni bajarish, ishlab chiqarishning iqtisodiy koʻrsatkichlarini aniqlash mahorati;

– *konstruktiv mahoratlar* – texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va texnik qurilmalarni konstruksiyalash integrativ mahorati, u oʻziga oʻquv va texnik-texnologik xususiyatlarni ishlab chiqishni, konstruktorlik ishlarini bajarishni, texnologik xaritalar va yoʻnaltiruvchi testlarni tuzishni oladi;

– *texnologik mahoratlar* – ishlab chiqarish vaziyatlarini tahlil qilish, texnologik jarayonni rejalashtirish va ratsional tashkil qilish, texnologik qurilmalarni ekspluatatsiya qilish mahorati;

– *ishlab chiqarish – operatsion mahoratlar* – turdosh kasblar boʻyicha umummehnat mahorati;

– *maxsus mahoratlar* – ishlab chiqarishning qaysidir bitta sohasi doirasidagi tor kasbiy mahoratlar.

Pedagogik jarayonda pedagogik faoliyat strukturasi tavsiflovchi texnologik mahoratlarining funksional guruhleri: operatsional-metodik, psixologik-pedagogik, diagnostik baholash, ekspert va ilmiy-tadqiqot mahoratlari eng yorqin namoyon boʻlmoqdalar. Ularning har biri muayyan kasbiy mahoratlar majmui koʻrinishida taqdim etilishi mumkin. Ulardan baʼzilarini keltiramiz.

1. Operatsional-metodik mahoratlar majmui (bloki):

– oʻqitish texnologiyalarining samaraliligini aniqlash va maqsadlar va sharoitlarga mos ravishda adekvat metodikalarni ishlab chiqish;

– qo'yilgan masalalarni yechishda eng yuqori ko'rsatkichlarni ta'minlovchi optimal metodik sharoitlarni yaratish;

– umumdidaktik qoidalarni o'qitishning muayyan predmetiga adaptatsiyalash;

– o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari va muayyan vazifalari, ilmiy bilimlar tarkibi va strukturasi, hamda psixologik-pedagogik sharoitlarga qarab o'quv jarayonini informatsion va protsessual modellash;

– informatsion strukturalarni monologik bayon qilish va vazifa ko'rinishida bajarish texnologik ishlab chiqish, mantiqiy-strukturaviy sxemalarni tuzish va qo'llash o'quv informatsiyasini turlicha qayta o'zgartirish, o'quv informatsiyasini tahlil qilish va rivojlantirish va h.k.;

– pedagogik ta'sirning rag'batlantiruvchi uslublarini qo'llash;

– nazoratning har xil turlari: joriy, oraliq va yakuniy, yozma va og'zaki, reproduktiv va ijodiy-izlanuvchi turlarini qo'llash, mazmun va nazorat usullarini o'qiyotganlar yangi o'quv materialini o'qib-o'rganishlari bilan koorditsiyalash;

– bir o'quv mashg'ulotida va tizimda o'quv jarayonini rejalashtirish va yana ko'p boshqa mahoratlar.

2. Psixologik-pedagogik mahoratlar kompleksi:

– o'qiyotganlarda bilish ehtiyojini shakllantirish;

– refleksiv faoliyatni shakllantirish;

– ishchi bilish faolligini rag'batlantiruvchi sharoitlarni yaratish;

– subyekt-subyekt munosabatlari va subyekt-obyekt aloqalar bilan tavsiflanuvchi o'qitish jarayonida kommunikativ metodlarni amalga oshirish.

– bilim olish faoliyatining to'liq tsikli shakllantirish uchun maxsus pedagogik uslublarni qo'llash:

– o'qitishning individuallashtirilgan texnologiyalari, metodlari va uslublarini ishlab chiqish va qo'llash;

– ta'lim jaryonini amalga oshirish uchun yaxshi psixologik muhitni yaratish va boshqa mahoratlar.

3. Diagnostik mahoratlar majmui:

– diagnostik dasturlarni masala-testlar ko'rinishida tuzish, ular diagnostik funksiyalar bilan bir qatorda o'qitish vositalari rolini bajaradilar;

– diagnostik metodlarni qo'llash, ular ular quyidagi xarakteristikalar ta'pedagogik va o'quv amallari/hatti-harakatlarining kompleksligini, o'qitish muayyan texnologiyalarining o'z vaqtidaligi, o'qitish jarayonning samaraliligi, o'qitish jarayonning foydaliligi,

o'qitish jarayonining psixologik-pedagogik sharoitlarga adekvatligi, o'qitish jarayonining tushunarligi, o'qitish jaryoni natijalarining qo'yilgan ta'lim maqsadlari va vazifalariga mosligi;

– o'quv-pedagogik jarayon va uning natijalarini baholash ahvolini aniqlashga yo'nalgan metodikalarni qo'llash;

– o'qiyotganlar informatsion mazmun, ilmiy tushunchalar, ular orasidagi bog'lanishlar va nisbatlar, ilmiy nazariyalar, konsepsiyalar va amaliy bilimlarni o'zlashtirishlari darajasini aniqlash uchun maxsus metodlar va uslublarni qo'llash;

– bilish faoliyati mahoratlari va ko'nikmalari shakllanganligi darajasini aniqlash uchun mantiqiy operatsiyalar va evristik yo'l bilan diagnostika metodlarini qo'llash;

– o'qitish amaliyotiga o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini nazorat qilishni joriy etish;

– intellektuallik operatsiyalari, kreativlik va motivatsiyani testlashda an'anaviy metodlardan foydalanish.

4. O'qiyotganlarni baholash va nazorat qilish mahoratlari majmui:

– maqtash, ma'qullash, nasihat qilish, tanbeh berish, jazo berish, rag'batlantirish, solishtirish, mumkin bo'lgan erishish istiqbollari ko'rsatish va h.k. shaklidagi verbal yo'l bilan baholash;

– o'qiyotganlar erishgan o'quv yutuqlarini individual va umumiy planda kuzatib borish;

– nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy bilimlarni o'zlashtirish, bilish hatti-harakatlarini egallash, o'rganilayotgan voqelikning mohiyatini ajratib olish, bilishning mantiqiy strukturasi, o'quv informatsiyasini qayta o'zlashtirish, evristik uslublarni egallagan bo'lish, bilishning mantiqiy uslublarni egallaganlik, algoritmlashgan bilish amallarini amalga oshirish, refleksiv amallarni rivojlantirish, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish, baholash, pedagogik korreksiya va o'z-o'zini korreksiyalash va boshqalarni o'zlashtirish turi bo'yicha o'qishda oldinga siljishning individual xaritasini tuzish;

– o'rganilayotgan fanni tadqiqot qilish metodlari: nazariy tahlil, kontekstli tahlil, eksperimental metodi, kuzatish, hujjatlarni o'rganish va boshqa metodlarni o'zlashtirish.

5. Ta'lim jarayonlari sohasida ekspert funksiyalarini bajarishga asoslangan mahoratlar majmui:

– o'qitish turli tizimlarining foydaliligi va samaraliligini aniqlovchi diagnostik metodikalarni qo'llash;

– o'qitishning funktsiya qilayotgan jarayonini tahlil qilish;

– o‘qitish muayyan tizimi rivojlanish dinamikasini kuzatib borish, uning istiqbolini aniqlash, sifatini baholash, rivojlanish istiqbolini ishlab chiqish;

– metodik yordam berish va pedagogik jarayonni baholash va korrektsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatning ko‘p boshqa yo‘nalishlari;

– muhit omillari va muloqot stili va o‘qitish natijalariga ta‘sir qiluvchi shaxsiy omillarni hisobga olib o‘qitish jarayonidagi yangi original informatsion-kommunikativ strukturalarni tahlil qilish;

– o‘quv ishini chuqurlashtirish va dastur bo‘yicha o‘quv materialini o‘tish sur‘atini tezlashtirish vositasida o‘qitish jarayonini intensivlashtirish;

– o‘qitish jarayonini intensivlashtirish, informatsion va malakaviy texnologiyalarni o‘qiyotganlarning individual xususiyatlariga yo‘naltirib moslashtirish;

– o‘qitish jarayonini rivojlantiruvchi effektga kontsentratsiyalovchi pedagogik uslublarni ishlab chiqish va qo‘llash, psixik funksiyalarni rivojlantirish prinsiplarida tuzilgan nostandart intellektual masalalarni qo‘llash.

6. Ilmiy-tadqiqot ishi uchun o‘qituvchiga zarur bo‘lgan mahoratlar majmui:

– o‘qitishning yangi sintetik texnologiyalarini, hamda dars berishning alohida ushbu o‘quv fani uchun metodikalarini ishlab chiqish;

– o‘qitish jarayonida yangi informatsion-kommunikativ strukturalarni tashkil etish;

– o‘qitish metodlarini intensivlashtirish;

– tanlov fanlari uchun yangi o‘quv dasturlarini tuzish;

– ta‘lim tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini tahlil qilish;

– pedagogik texnologiyalar rivojlanishidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash;

– hamkasblarning ish tajribalarini tahlil qilish, umumlashtirish va qo‘llash va boshqalar.

Mahoratlarning keltirilgan ro‘yxati o‘qituvchi yechishiga to‘g‘ri kelayotgan kasbiy masalalarning umumiy yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy kompetentlik deganda nima tushuniladi?

2. Kasbiy kompetensiyani asosiy komponentlarini birma-bir bayon eting.

3. Kasbiy maktab pedagogining asosiy operatsion funksiyalari nazariyasidan kasbiy-pedagogik mahoratlarining qaysi guruhlarini ajratish mumkin?

4. Operatsional-metodik mahoratlarni batafsil bayon qiling.

5. Psixologik-pedagogik mahoratlar kompleksiga nimalar kiradi?

6. O'qiyotganlarni baholash va nazorat qilish mahoratlarining tarkibiga nimalar kiradi?

7. Ta'lim jarayoni sohasida ekspert bilimlarini bajarishga asoslangan mahoratlarni batafsil bayon qiling.

8. Ilmiy-tadqiqot ishi uchun o'qituvchiga qanday mahoratlar zarur?

3- BOB. KASBIY O‘QITISH MOHIYATI, FUNKSIYALARI, PRINSIPLARI VA MAZMUNI

Tayanch so‘zlar va iboralar: pedagogik jarayon, pedagogik masala, ta’lim funksiyasi, o‘qitish prinsipi, ta’lim mazmuni, ta’lim mazmuning mohiyati, mezon, o‘qitish mazmuni.

3.1. Kasbiy o‘qitish mohiyati va kasbiy ta’lim funksiyalari

Pedagogik jarayon – pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil qilingan o‘zaro ta’siri bo‘lib, u rivojlantiruvchi va ta’limiy masalalarni yechishga yo‘nalgan. Bu ta’rifdan shu narsa ko‘rinadiki, pedagoglar va tarbiyalanuvchilar pedagogik jarayonning subyektlari va bosh komponentlaridir. Bundan tashqari pedagogik jarayonning yana ikki komponenti mavjud. Ular:

- ta’lim mazmuni (tajriba, bazaviy madaniyat);*
- pedagogik vositalar:*
 - moddiy (og‘zaki, ko‘rgazmali, texnikaviy elektron);*
 - badiiy va boshqalar.*

Pedagogik jarayonning tizimini tashkil qiluvchi omil – uning maqsadidir, bunda u o‘qitish va tarbiyalashning nazarda tutiladigan ideal natijasi sifatida tushuniladi. Pedagogik tizim ta’lim maqsadiga qarab tuziladi va unga to‘lig‘icha bo‘ysunadi. Ta’lim maqsadi muayyan – tarixiy tavsifga ega. Zamonaviy sharoitda o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi – shaxsning har taraflama va barqaror rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratishdir.

Ma’lum maqsad bilan va har xil vositalardan foydalanib mazmuniy asosda pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro ta’siri – istalgan pedagogik tizimda kechadigan pedagogik jarayon mohiyatining tavsifidir.

Pedagogik jarayon ma’lum natijaga ega bo‘ladi, bu yerda natija deganda qo‘yilgan maqsadga erishganlik darajasi tushuniladi.

Pedagogik masala pedagogik jarayonning asosiy birligi, uning “hujayrasi” bo‘ladi, u pedagogik jarayonning hamma muhim belgilariga ega bo‘lishi kerak.

Qolgan hamma masalalardan pedagogik masalaning asosiy farqi shundaki, uning maqsadi va natijasi – harakat qiluvchi subyektning o‘zining o‘zgarishida bo‘ladi, u amallarni bajarishning ma’lum usullarini egallashda ifodalanadi.

Pedagogik masala– bu pedagogik faoliyat maqsadi va uni amalga oshirishning shart-sharoitlariga muvofiq muayyan pedagogik vaziyatdir. Pedagogik masala ta'lim belgilagan maqsadlarga erishishning bosqichi hisoblanadi.

Kasbiy ta'lim funksiyalari

Ijtimoiy funksiyalar:

- jamiyat va davlatning intellektual, ma'naviy va resurs potensialini shakllantirish;
- jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy-texnologik rivojlanishiga ko'maklashish.

Kasbiy kompetentlik:

- shaxsning o'zini, jamiyat va davlat manfaatlarini yo'lida shaxsni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash;
- zamonaviy ijtimoiy hayotda insonni muvaffaqiyatli va o'zgarib turuvchi faoliyatga tayyorlash.

Ta'limning quyidag *tavsiflarini* ajoyib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy-madaniy fenomen: uning maqsadlari va vazifalari jamiyat tomonidan aniqlanadi va shu bilan birga jamiyat rivojining muhim omili hisoblanadi hamda madaniyatning tarkibiy qismi vazifasini o'taydi;
- uzviy ta'lim dasturlari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim muassasalari va boshqarish organlarining ochiq, moslanuvchan va bir butun tizimi;
- ilmiy tashkil qilingan o'qitish, tarbiyalash va mustaqil ta'lim olish yo'li bilan shaxs rivojlanishining maqsadli va uzluksiz jarayoni va natijasi;
- fuqaro erishgan ma'lumatsenz, u mos hujjat bilan tasdiqlanadi.

Qisqacha xulosa

Ta'limni tobora mustaqil bo'lib bormoqda. Shaxs mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini rivojlantirishi uchun maksimal mos sharoitlarni yaratish ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi bo'lib boradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "Pedagogik jarayon" iborasining ta'rifini bering
2. Zamonaviy sharoitda o'qitish va tarbiyalashning maqsadini aytib bering
3. "Pedagogik mahorat" deganda nima tushuniladi?
4. Kasbiy ta'lim funksiyalariga nimalar kiradi?

5. Ijtimoiy funksiyalarni birma-bir aytib bering.
6. Kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini sanab chiqing.
7. Ta'limning asosiy tavsiflarini izohlang.
8. Pedagogik jarayonning asosiy birligini, uning "hujayralarini" nima tashkil qiladi? U nimalarga ega bo'lishi kerak?

3.2. Kasbiy o'qitish ta'limi prinsiplari

O'qitish prinsipi (lotincha: *principium* – asos, dastlab) – o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va ularga ta'lim berish maqsadlariga muvofiq o'qitish tavsifini belgilovchi asosiy yo'riqlardir.

O'qitish prinsiplarini shartli ravishda bir necha kategoriyalarga ajratish mumkin.

1. *Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining prinsiplari*. Ular me'yoriy mavqega ega va shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida yozilgan (3-modda).

Ta'lim sohasida davlat siyosatining *asosiy prinsiplari*:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'rta maktabning majburiyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

2. *Ta'lim mazmunini shakllantirish prinsiplari*.

Bular:

- *ta'lim mazmunining ijtimoiy rivojlanish – mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligi prinsipi*, shu tufayli ta'lim mazmuniga nafaqat bilimlar, balki insoniyot ijodiy faoliyatining tajribasining va insoniyot tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar tizimiga shaxsiy munosabatlar tajribasining aks ettirilishini ta'minlovchi fragment (parcha)lar ham kiritiladi hamda ta'lim va o'qitish mazmunining mutaxassislar tayyorlash maqsadiga mosligi hisobga olinadi;
- *o'qitish mazmuniy va protsessual taraflarining birligi prinsipi*, bu predmet mazmuni va bu mazmuni o'qiyotganlar tomonidan o'zlashtirilishi usullarining uzviy birligini bildiradi;

- *mazmuni shakllantirishning ilgarilovchi tavsifdalligi prinsipi*, bu prinsip o'qituvchining e'tiborini bo'lajak mutaxassisning shaxsiy-kasbiy si'atlari rivojlanishining istiqboliga bitiruvchi egallab olishi kerak bo'lgan bilimlar mahoratlar va ko'nikmalar tizimiga yo'naltiradi. Pedagog o'z talabalarining rivojlanishini ma'lum darajada bashorat qila bilishi, ularning kasbiy oyoqqa turishi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishi kerak;
- *ta'limning har xil darajalarida ta'lim mazmunining strukturaviy birligi prinsipi*, bu prinsip ko'p darajali va ko'p pog'orali ta'lim tizimini amalga oshirish imkonini beradi;
- *modullik prinsipi*, u mazmun quyidagilar bilan tavsiflanishini nazarda tutadi: blok-modullar ko'rinishidagi o'quv materiallari birliklarining bir butunligi, tugallanganligi, to'liqligi va tuzilishining mantiqiyliги bilan tavsiflanadi. Bu blok-modullar ichidagi material o'quv materialining tizimi ko'rinishida konstruksiyalanadi. o'quv elementlari o'zaro almashinuvchi va qo'zg'aluvchan bo'lib, o'quv faoliyati murakkabligi va qiyinligi darajalarining variativligini nazarda tutadi;
- *moslashuvchan ta'lim strukturalari prinsipi*, u zamonaviy, tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yangi omillarni hisobga olib ta'lim va o'qitish mazmunini tekzorlik bilan qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

3. *Juz'iy-metodik prinsiplar.*

Ular muayyan o'quv predmetining o'ziga xosligini hamda uni farqlovchi xususiyatlarni aks ettiradi. Bu prinsiplar predmet gnesologiyasini ko'rsatadi, ushbu o'quv fanining asosini tashkil qiluvchi voqeliklar va bilimlar ichki bog'lanishlarining xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. Kasb-hunar kolleji va oliy o'quv muassasalari *o'qituvchilarining ilmiy tadqiqotlari va o'quv faoliyatining birligi prinsipi*ni ketma-ket amalga oshiradilar.

O'quv fanlarining bir-biriga bog'tiqligi prinsipi ta'lim va o'qitish mazmunini tanlashdagi integrativ yondashuvlar asosini tashkil qiladi. U o'quv fani mazmunida tabiatda mavjud bo'lgan va zamonaviy fanlar ularni kashf etgan o'zaro bog'lanishlar ko'rsatilishi kerakligi bilan tavsiflanadi. O'quv fanlariaro bog'lanishlar fanlararo bog'lanishlarning o'ziga xos ekvivalenti vazifasini o'taydi. ularning asosida ilmiy bilim integratsiyasi va differensiatsiyasi yotadi. Tizimlararo assotsiatsiyalar tuzilmasi o'quv fanlariaro bog'lanishlarning psixologik asosi bo'lib bermoqda, ular turli-tuman predmetlarni va real dunyodagi predmetlarni qarama-qarshiliklar

birliği va kurashida aks ettirishga imkon beradi. O'quv fanlariaro bog'lanishlar prinsipi talabalarga har xil o'quv fanlaridan olgan ma'lumotlarni bir-biri bilan solishtirish, ularni bir-biri bilan bog'lash va u yoki bu pedagogik voqelikning ma'lum tasvirini yaratishga imkon tug'diradi.

O'qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirish prinsipi har xil tashkil qilinadi. Bu ham o'qitishda individual yondashuv va jamoaviylikni birgalikda olib borish prinsipi va ham shaxs va jamiyat manfaatlarining o'zaro bog'liqligi prinsipi va ham o'qitishning jamoaviy tavsifga egaligi va o'qiyotganlarning shaxsiy hayotiy tajribasi prinsipi va h.k.

O'qitishni individuallashtirish o'qituvchi o'qiyotganlarning shaxsiy xususiyatlariga tayangan holda o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini tanlashini nazarda tutadi.

Hozirgi sharoitda o'qitishni individuallashtirishning shakllaridan biri – talabalarning mustaqil ishidir, u o'qituvchiga murakkablashtirilgan tavsifdagi topshiriqlar berish, individual ishni o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integrallashtirish imkonini beradi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ham o'qitishni individuallashtirish shakliga kiradi, chunki aynan shunday ish talabalarning bilish va kasbiy qiziqishlarini to'liq qondirish imkonini beradi, ularni ijodiy izlashga yo'naltiradi, tadqiqot qobiliyatlarini namoyon qilish uchun komfortli sharoitlarni yaratadi.

Tarbiyalovchi o'qitish prinsipi o'qituvchi o'quv mashg'ulotida bo'lajak professional shaxsini tarbiyalash masalalarini qo'yadi va ularni yechishga harakat qiladi. Ham muayyan o'quv fani mazmuni va ham o'qituvchi shaxsi talabalarga tarbiyalovchi ta'sir o'tkazadi. O'quv fani mazmunining tarbiyalovchi ahamiyati shundaki, o'qiyotgan o'z ongida pedagogning ideal modelini yaratishga qodir bo'ladi. O'qituvchi shaxsi talabalar uchun o'ziga xos etalon bo'lib xizmat qiladi, unga qarab talaba shunday ideal modelni quradi.

O'qitishning tarbiyaviy potentsiali talabalarning o'quv faoliyatining har xil turlarida ishtirok etishlari yo'li bilan realizatsiya qilinadi, bunda o'qiyotganlarda mehnatga munosabat turli umumo'quv va kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish tufayli hosil bo'ladi.

4. Pedagogik faoliyatning texnologik prinsiplari.

Pedagogik texnologiyani ishlovchi ishtirokchilar o'zaro ta'sirining markaziga o'qitish va tarbiyalashning muayyan texnologiyasini qo'yadi.

Ularga *choralar, pedagogik pozitsiyaning dinamikligi ta'sir qilishning originalligi va yangiligi, kompensatorligi* va boshqa prinsiplar kiradi.

5. Umumdidaktik prinsiplar yoki pedagogik jarayonning yaxlitligi prinsipi.

O'quv mashg'ulotining mazmunini tuzatayotgan paytda, o'qiyotganlarning bilim olish faoliyatini faollashtirish usullari o'ylab chiqilayotganda, o'qitish tizimini tuzayotganda pedagog ilmiylik, tizimiylik va ketma-ketlik prinsiplari, o'quv farlariaro bog'lanishlar prinsipi; o'qitish nazariyasi va amaliyotining hayot bilan bog'liqligi prinsipi; o'qitishning kasbga yo'nalganligi, ko'rgazmaliligi, tushunarligi, differensiallanganligi va individuallashtirilganligi prinsipi; rivojlantiruvchi o'qitish prinsipi; tarbiyalovchi o'qitish prinsipi va h.k. kabi didaktik prinsiplarning umumqabul qilingan tizimiga tayanadi.

Ba'zi umumdidaktik prinsiplarning mazmunini va ularning o'rtacha kasbiy ta'lim tizimida qo'llanilishining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz.

Kasbga yo'nalganlik prinsipi. Uning mohiyati shundaki, muayyan o'quv fanini o'rganish jarayonida o'qituvchi shaxs, umumiy ta'lim va kasbiy o'qitishlarning kasbga yo'nalganligi bo'yicha ishlarni bir-biriga birlashtirishi kerak.

Uni amalga oshirishning mezonlari:

- o'quv fan mazmuni, uning birer bo'lini yoki mavzusiga kasbiy muhim materialni kiritgan holda ularning mantiqiy bir butunligini ta'minlash;
- muayyan mavzu mazmuniga faoliyatning kasbiy muhim turlarini kiritish.

Ilmiylik prinsipi. Ushbu prinsipga muvofiq o'qitishning bo'lajakka qilingan bashoratlarni inobatga olgan holda, fanning zamonaviy holatiga mos kelishi kerakligi talabi amalga oshiriladi. Ilmiylik prinsipi o'qiyotganning ilmiy dunyoqarashi, axloqiy va estetik madaniyati asoslarini shakllantiradi.

O'qitishdag ilmiylik talabalar pedagogik yo'nalgan fikrlashining rivojlanishini, bo'lajak pedagoglar har xil psixologik-pedagogik voqealar va jarayonlarni chuqur anglashlarini nazarda tutadi.

Ilmiylik prinsipi ta'sirining muhim xususiyati – o'qituvchi talabalar bilim o'lashtirish jarayonini shunday tuzsink, mustaqil bilim olishda talabalarning bilim olishga bo'lgan faolligi uzluksiz rag'batlantirib turilsin, har bir talaba ilmiy g'oyalar, faktlarni amalga oshirish sabab-oqibat

bog'lanishlarini o'rnatadi, har bir talabada psixologik-pedagogik qonuniyatlarni ilmiy tushunish tasavvuri hosil bo'lsin.

O'qish davomida kollegial yechimlarni ishlab chiqish uchun nimguruhlarga birikib, har xil jamoaviy o'quv loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar xulq-atvorining madaniyati shakllanadi.

Rivojlantiruvchi o'qitish prinsipi o'qituvchidan o'zining talabalar bilan ishlashida individual rivojlanishining qonuniyatlarini hisobga olishni, har bir talabaning darajasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga moslashishni talab qiladi. Rivojlantiruvchi o'qitishda pedagogik ta'sir shaxsning tug'ma qobiliyatlarini rivojlantiradi, rag'batlantiradi, yo'naltiradi va tezlashtiriladi. Rivojlantiruvchi o'qitishda talaba – faoliyat subyekti bo'ladi, chunki uning o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoji, ijodiy ehtiyojlari, individual shaxsiy tajribasi inobatga olinadi.

Rivojlantiruvchi o'qitish rejimida o'quv mashg'uloti o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi sifatida qaraladi. Bunda o'quv jarayoni subyektlari faoliyatiga:

- muammoli vaziyatlar;
- o'qitishning faol metodlari;
- psixologik komfort muhitini yaratish imkonini beruvchi o'quv mashg'ulotlarining noan'anaviy turlari;
- muvaffaqiyat vaziyati va boshqalar kiritiladi.

Rivojlantiruvchi o'qitish rejimi intensivmustaqil faoliyat asosida quriladi, talaba nafaqat testlarni yodlab olishi, reproduktiv tavsifdagi topshiriqlarni bajarishi, balki o'zining bilimlarini yangi, o'zgargan vaziyatda to'g'ri qo'llay bilishi, o'z faoliyatini o'ylab ko'rishi va baholashi kerak.

Ko'rgazmalilik prinsipi. Kasb-hunar kolleji o'qituvchisi ko'rgazmalilik prinsipiga nafaqat illyustratsiya vositasi sifatida, balki informatsiya manbalari turli-tuman bo'lgan mustaqil ish sifatida ham qaraydi. Kasbiy o'qitish muassasasida o'quv mashg'ulotlarida ko'rgazmalilikning har xil variantlaridan foydalaniladi.

Tabiiy ko'rgazmalilik – obyektiv reallik predmetlari bilan; *eksperimental ko'rgazmalilik* – turli tajriba va eksperimentlari bilan; *hajmiylik* – maketlar, figuralar bilan; *tasviriylilik* – slaydlar, plakatlar, suratlar bilan taqdim etiladi. *Simvollar va grafik ko'rgazmalilik* xaritalar, grafiklar, tayanch sxemalar yordamida realizatsiya qilinadi.

Muammolilik – o'qitish jarayonining asosiy qonuniyatlaridan biridir. O'qitishning *muammolilik prinsipi* o'qitish mazmunini bir qator muammolar ko'rinishida taqdim etishdan iborat bo'ladi. Yechilishi zarur

bo'lgan savollar va masalalarga duch kelgan o'quvchi izlanuvchi – bilim olish faoliyatiga kirishadi, fikriy faollikni namoyon qiladi, o'rganilayotgan materialni mustaqil mushohada qiladi, ichki bog'lanishlarni aniqlashga harakat qiladi.

O'qitishning tushunarlik prinsipi. Bu prinsipni muvaffaqiyatli realizatsiya qilish uchun pedagog o'qiyotganlarning ta'lim darajasini, ya'ni ularning tayyorgarlik darajasini; rivojlanish darajasini; fikrlash faoliyati va xotirasining individual xususiyatlarini; hayotiy tajriba xarakteri va tarbiyasining darajasini hisobga olishi zarur.

Yuqorida qayd etilgan prinsiplar kasb-hunar kolleji va oliy maktabda mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Qisqacha xulosa

O'quv-tarbiyaviy jarayonda prinsiplar qoidalar orqali realizatsiya qilinadi. Ular pedagogik jarayonni ilmiy tahlil qilish va uzoq muddatli o'quv-tarbiyaviy amaliyot asosida chiqariladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "O'qitish prinsipi" iborasining ta'rifini bering.
2. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining prinsiplarini bayon qiling.
3. Ta'lim mazmunini shakllantirishning prinsiplarini aytib bering.
4. Juz'iy-metodik prinsiplar nimalarni aks ettiradi?
5. O'quv fanlaridagi bog'lanishlar prinsipi nimalarning asosini tashkil qiladi, nimalar bilan tavsiflanadi va qanday vazifani o'taydi?
6. O'qitishni individuallashtirish prinsipi nimalarni nazarda tutadi?
7. O'qitish tizimini tuzayotganda pedagog qanday tizimlarga tayanadi?
8. Kasbga yo'nalganlik prinsipini bayon qiling.
9. Ilmiylik prinsipini aytib bering.
10. Rivojlantiruvchi o'qitish prinsipi o'qituvchidan nimalarni talab qiladi?

3.3. Ta'lim mazmuni

3.3.1. Ta'lim mazmunining mohiyati

Ta'lim inson intellektiga yo'nalgan bo'lib, unga dunyo haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai-nazardan qanday bilimlar unga kirishi ta'lim mazmuni uchun ahamiyatlidir. Ta'lim mazmunini tanlashda nimaga asoslanish kerak? Bilimlarni uzatish mexanizmini qanday qilib samaraliroq qilish mumkin?

Ta'lim mazmuni – bilim, mahorat va ko'nikmalar tizimi bo'lib, ularni egallash insonga hayotda va mehnatda o'zini realizatsiya qilish uchun asos yaratadi.

Kasbiy ta'lim mazmuni – kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta'minlovchi bilim, mahorat va ko'nikmalar tizimidir.

Ta'lim mazmuni mohiyatining tahlili turli *yondashuvlar* bilan aniqlanadi.

Bilimga yo'nalgan yondashuvda bilim butun tarixiy tajriba davomida to'plangan inson ma'naviy boyligining natijasi sifatida e'tibor markazida bo'ladi.

Bunday yondashuvning ba'zi salbiy taraflari bor. Bilim absolyut darajaga ko'tariladi, shaxs esa ikkinchi planga o'tadi. Bu akademizmga, bilimlar ilmiy yadrosining reglamentlanishiga olib keladi.

Ta'lim rivojlanishining zamonaviy bosqichi ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasini va ta'lim mazmunining mohiyatiga shaxsga yo'nalgan yondashuvni ilgari surdi. Bunday yondashuvda e'tibor markazida shaxs bo'ladi. Shaxsga yo'nalgan yondashuv realizatsiya qilinganida shaxsning ta'limiy, ma'naviy, madaniy va hayotiy ehtiyojlari qoniqtiriladi. Shaxsga gumanistik munosabatda bo'lish, shaxs individualligi va uning o'z-o'zini realizatsiya qilish imkoniyatlari birinchi o'ringa chiqadi.

Shaxsga yo'nalgan yondashuv insonning bir butunligini, uning tabiiy, ijtimoiy va madaniy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'nalgan.

Ta'lim mazmuni *tarixiy xarakterga* ega.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim mazmuni belgilangan maqsad va vazifalar bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmuni vaqt talabi, ilmiy bilim rivojining darajasi va mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda o'zgaradi.

Ta'lim mazmuni ijtimoiy voqelik sifatida vujudga keladi, u boshlang'ich bosqichda pragmatik xarakterga ega bo'lib, odamlarning bilimga bo'lgan ehtiyojini ifodalagan, bilim esa hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan.

Ijtimoiy rivojlanish ta'limning madaniyparvar funksiyalarining vujudga kelishiga olib keladi.

XVIII-XIX asrlar insonparvarlik g'oyalarining tasdiqlanishi bilan tavsiflanadi. V.de Feltre "*Quvonch maktabi*"da erkin jismoniy va aqliy rivojlanishni bayon qiladi. J.J.Russo bola rivojlanishida uning mukammal tabiatining ichki sabab tufayli namoyon bo'lishiga ergashishni taklif qiladi. I.G.Pestalotsi shakllanayotgan odamning hamma mohiyatiy kuchlarini faol

nayotiy faoliyatga jalb qilish yoʻli bilan bu kuchlarni toʻliq rivojlantirish gʻoyasini ilgari surdi.

3.3.2. *Taʼlim mazmunini shakllantirish nazariyasi*

Taʼlim mazmunining asosiy nazariyalari XVIII-XIX asr boshlarida shakllandi. Pedagogika fani taʼlim mazmunini shakllantirishning material va formal nazariyalarini ajratadi.

Taʼlim mazmunining *material nazariyasi* baʼzi manbalarda didaktik materializm nazariyasi yoki ensiklopedizm deyiladi. Bu nazariyaning asosiy maqsadi – fanning har xil sohalaridan bilimlarning murkin qadar koʻproq hajmini uzatishdir. Ya A.Kornenskiy ham shu fikrda edi, u oʻzining hayotining koʻp yillarini darslik ustida ishlashga bagʻishladi, bu darslikda u oʻquvchilarga zarur boʻlgan hamma bilimlarni joylashtirishni xohlaydi.

Formal nazariya yoki *didaktik formalizm* taʼlim mazmuniga qobiliyatlarni va bilishga qiziqishlarni rivojlantirish vositasi sifatida qaragan. Didaktik formalizمنى nazariy asosini faoliyatning bir jabhasida egallanayotgan bilim va koʻnikmalarni faoliyatning boshqa jabhasiga oʻtkazish haqidagi tushuncha tasakillat qilgan.

Qadimda didaktik formalizمنى tarafdori Geraklit boʻlgan, uning fikricha *“koʻp bilish aqлга oʻrgatmaydi”*. Sitseron ham shunga yaqin pozitsiyani egallagan.

Yangi davrda I.Kant falsafasi hamda neogumanizm didaktik formalizm nazariyasining prinsipial asosini tashkil qilgan, Pestalotsi fikricha *“oʻquvchilarning toʻgʻri fikrlashini kuchaytirish yoki formal taʼlim”* oʻqitishning bosh maqsadi boʻlishi kerak. Germaniyada A.Disterveg oʻzining *“Nemis oʻqituvchilari uchun koʻrsatmalar”* (1850 y) asarida shunga yaqin gʻoyani ilgari surgan.

Taʼlim mazmuni formal nazariyasi oʻqituvchilarining xizmati shundaki, ular oʻqiyotganlarning qobiliyatlari va bilim olishga boʻlgan qiziqishlarini, ularning diqqati, xotirasi, tasavvurlari, fikrlashi va h.k.larni rivojlantirish zarurligiga eʼtiborni qaratishdi. Bu nazariyaning zaif tomoni shunda ediki, oʻqitish dasturlarida birinchi navbatda instrumental oʻquv fanlari (tillar, matematika) aks ettirilardi.

Bu ikkala nazariyani K.D.Ushinskiy jiddiy tanqid qildi. U *“ongning formal rivojlanishi . . . uncha muhim boʻlmagan belgi. Ong faqat haqiqiy real bilimlarda rivojlanadi”* deb yozgan.

K.D.Ushinskiy maktab insonni bilimlar bilan boyitishi va shu bilan birga uni ushbu boylikdan foydalanishga ham oʻrgatishi kerak deb

hisoblagan. Didaktik materializm va didaktik formalizmlar birligig'oyasi unga taalluqli.

XIX va XX asrlar chegarasida AQShda *didaktik utilitarizm konsepsiyasi* paydo bo'ldi. Bu g'oyani amerikalik pedagog Dj.Dyui ilgari surdi.

Dj.Dyui o'qiyotganlarning individual va ijtimoiy faoliyati alohida o'quv fanlari mazmunlari orasidagi aloqalar manbaidir deb hisoblagan. Faoliyatning bu turlari optimal dasturni ta'minlaydi, u o'quvchilarda ularning tajribasi bilan bog'liq bo'lgan yangi munosabatlar va xulq-atvorning yangi turlarini shakllantirishga asoslanadi.

Polshalik olim V.Okon "*funksional materializm*" nomli ta'lim mazmunining nazariyasini ishlab chiqdi. Bilimning faoliyat bilan integratsion bog'lanish haqidagi holat bu nazariyaning asosini tashkil qildi. Bu nazariyada ham jamiyat ta'limga qo'yadigan talablarning va ham o'qiyotganlarning individual ehtiyojlarining bir butunligi ta'kidlanadi.

1950 yillarning o'rtalarida dasturiy o'qitish vujudga kelishi munosabati bilan ta'lim mazmunini *operatsional strukturlash nazariyasi* ishlab chiqildi.

Bu nazariyaning tarafdorlari o'quv fani mazmunini tashkil qiluvchi bilimlarni va ular orasidagi bog'lanishlarni chuqur tahlil qilish zarur deb hisoblashadi. Bu tahlil dasturlashtirilayotgan matnni aniq va muayyan aniqlanishini nazarda tutadi.

3.3.3. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari

Pedagogik nazariyaga muvofiq ta'lim mazmunini shakllantirishning *asosiy prinsiplari*:

1. *Ta'lim mazmunining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga muvofiqligi prinsipi*. Bu prinsip ta'lim mazmuniga zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda jamiyat, ilmiy bilim, madaniyat va shaxs imkoniyatlarining zamonaviy rivojlanish darajasini kiritishni nazarda tutadi.

2. *O'qitish mazmuniy va protsessual taraflarining birligi prinsipi*. Bu prinsip o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, uning prinsiplari, bilimlarni uzatish texnologiyalari va uni o'zlashtirish darajalarining bir butunligini aks ettiradi.

3. *Har xil darajalarda ta'lim mazmunining strukturaviy birligi prinsipi*. Uni shakllantirish nazariy tasavvur, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'qiyotganning shaxsi kabi tashkil etuvchilarning o'zaro muvofiqlashtirilganligini nazarda tutadi.

4. *Ta'lim mazmunini gumanitarlashtirish prinsipi*. Bu prinsip shaxs umuminsoniy madaniyatni fao'ljodiy va amaliy o'zlashtirishi uchun sharoitlar yaratilishini, uning ma'naviy ehtiyoj va qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

5. *Ta'lim mazmunini fundamentalashtirish prinsipi*. Bu prinsip gumanitar va tabiiy-ilmiiy bilimlarning integratsiyasini, fanlarning qabulchanlik (uzviylik) va bog'lanishlarni o'rnatishni talab qiladi.

6. *Ta'lim mazmuni asosiy komponentlarining shaxsning bazaviy madaniyatiga mosligi prinsipi*.

Zamonaviy pedagogik fan ta'lim mazmunining quyidagi komponentlarini ajratadi:

- shaxsning kognitiv tajribasi;
- amaliy faoliyat tajribasi;
- ijodiyot tajribasi;
- shaxs munosabatlari tajribasi.

Shaxsning kognitiv tajribasi. Bu komponent tabiat, jamiyat, fikrlash, texnika, texnologiya, faoliyat usullari haqidagi bilimlar tizimini o'z ichiga oladi.

U asosiy komponent hisoblanadi, chunki shaxs shakllanishining asosini bilimlar tashkil qiladi. *Bilimlar* faoliyatni, tabiat, jamiyat va fikrlash rivojlanishining qonunlarini bilish natijasi sifatida ta'riflanadi. Dunyoning umumiy kartinasini yaratish vositasi bilish va amaliy faoliyat instrumenti (qureli), bir butun ilmiy dunyoqarash asoslari bilimlarning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Ta'lim mazmunining *amaliy komponenti* o'z ichiga mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishni oladi.

Mahorat va ko'nikmalar haqida o'quv fanlari uchun umumiy va har bir o'quv fani uchun o'ziga xos bo'lishi mumkin. Mahorat va ko'nikmalar faoliyat muayyan turining asosini tashkil qiladi.

Ijodiy faoliyat tajribasi. Faoliyatning ijodiy tajribasi yangi nuqsonlarni vechishga bo'lgan hozirlikda va mavjudlikni ijodiy o'zgartirishda namoyon bo'ladi.

Shaxs munosabatlarining tajribasi. Bu – motivatsion-qadriyatli va hissiy-irodaviy munosabatlar tizimidir. Bu tajriba dunyoga, faoliyatga, odamlarga nisbatan baholovchi munosabatda namoyon bo'ladi.

Qisqacha xulosa

Ta'lim mazmuni vaqt talabi, ilmiy bilim rivojining darajasi va mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda o'zgaradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "Ta'lim mazmuni" iborasining ta'rifini bering.

2. Bilimga bo'lgan yondashuvning tahlilini bayon qiling.
3. Ta'lim mazmuni nimalarga mos ravishda o'zgaradi?
4. Ta'lim mazmunini shakllantirish nazariyalarining tahlilini keltiring.
5. Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy prinsiplarini bayon qiling.
6. Zamonaviy pedagogik fan ta'lim mazmunining qaysi komponentlarini ajratadi?
7. Shaxsning kognitiv tajribasi o'z ichiga qanday bilimlarni qamraydi?
8. Ta'lim mazmunining amaliy komponenti o'z ichiga nimalarni shakllantirishni oladi?

3.4. O'qitish mazmuni

O'qitish – ta'lim olishning asosiy yo'li bo'lib, u o'quv muassasalarida va amaliy faoliyat davomida pedagoglar rahbarligida bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallashning maqsadga yo'naltirib tashkil qilingan, reja bo'yicha va muntazam ravishda amalga oshiriladigan jarayondir.

O'qitish mazmuni – pedagogik asoslangan va mantiqiy tizimlashtirilgan, o'quv dasturlarida bayon qilingan, pedagog-o'qituvchi faoliyatining va o'qiyotganlarning bilim olish va amaliy faoliyatining mazmuni bo'lgan o'quv informatsiyasi va masalalar, topshiriqlar va mashqlar majmuidir.

O'qitishning asosiy funksiyasi – ijtimoiy madaniyat mazmunini saqlash, qayta tiklash va rivojlantirish uchun yosh avlodga uzatishdir.

Shu sababli o'qitish mazmuni ijtimoiy tajribani o'quvchi egallashi nuqtai-nazaridan kelib chiqib tuziladi.

Ular:

- a) tabiat, jamiyat, texnika, texnologiya, inson, uning faoliyati haqidagi bilimlar;
- b) faoliyatning ma'lum usullarini amalga oshirish tajribasi; bu tajriba bilimlar bilan birga shaxs ko'nikmalari va mahoratida o'z aksini topadi va shaxs tomonidan amaliy faoliyatga ko'chiriladi;
- c) o'quv-ilmiy faoliyatning alohida intellektual protseduralarida mujassamlashgan ijodiy faoliyat tajribasi;
- d) o'qituvchi va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir davomida mavjudlikka bo'lgan hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi.

O'qitish mazmuni:

- o'qitish mazmuni ijtimoiy-jamoaviy jarayonlar va jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanishini;
- bu jarayon bir butun pedagogik jarayon tarkibiga kiruvchi ta'lim, tarbiya va rivojlanish jarayonlari bilan bog'liqligini;
- o'qitish o'qiyotganlarning real o'quv imkoniyatlariga bog'liqligini;
- o'qitish jarayoni u kechayotgan tashqi sharoitlarga bog'liqligini;

- dars berish va bilim olish yagona o'qitish jarayonida o'zaro bog'langanligini;
- o'qitish mazmuni jamiyat ehtiyojlarini, fan rivoji darajasi va mantiqini, real o'quv imkoniyatlarini o'zida aks ettiruvchi masalalarga bog'liqligini;
- o'quv faoliyatini rag'batlantirish, tashkil va nazorat qilish metodlari va vositalarining o'qitish masalalar va mazmuniga bog'liqligini;
- o'qitishni tashkil qilishning shakllari o'qitish vazifalari, mazmuni va metodlariga bog'liqligini *hisobga oladi*.

Kasbiy maktabda o'qitish va ta'lim mazmuni kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy bilim mahorat va ko'nikmalarining tizimida o'z ifodasini topadi, uerda kasbiy bilimlar o'qiyotganlar ongida tushunchalar, qonunlar, qonuniyatlar, prinsiplar, nazariyalar tizimining aks etishida o'z ifodasini topadi. ular kasbiy faoliyatning ilmiy-nazariy asoslarini, uni amalga oshirish sharoitlari, omillarini hamda rivojlanish istiqbollari ochib beradi. Bilimlar dunyoqarashlarga va inonishlarga, xodinning atrofdagi borliqqa bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi. Kasbiy o'qitish mazmunining bir qismi sifatida bilimlar talabalarni kasbiy faoliyatni bajarishga yo'nalishini ta'minlaydi. *Kasbiy mahorat* deganda o'quv va ishlab chiqarish sharoitlarida mutaxassislik bo'yicha mehnat faoliyatini anglab, tez va aniq bajarish qobiliyati tushuniladi. Mutaxassislik bo'yicha muayyan mehnat faoliyatini naqsadga muvofiq rostdash uchun talabalar intellektual, bilimiy, umum-o'quv va amaliy mahoratlarning murakkab tizimini egallashlari zarur. *Kasbiy ko'nikmalar* deganda ko'p marta qayta takrorlashlar natijasida avtomatlashirilgan tarzga yetgan, kasbiy faoliyatni bajarish bilan bog'liq bo'lgan amallar tushuniladi.

Qisqacha xulosa

O'qitish mazmuni o'qiyotgan qanday bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarni, qanday insoniy sifatlar va qadriyatlarni egallash, kerakligi nuqtai-nazaridan kelib chiqib tuziladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "O'qitish" iborasining ta'rifini keltiring.
2. "O'qitish mazmuni" iborasining ta'rifini bayon qiling.
3. O'qitishning asosiy funksiyasi nimada?
4. O'qitish mazmuni qanday ijtimoiy tajribalarni o'qiyotgan egallashi nuqtai-nazaridan kelib chiqib tuziladi?
5. O'qitish mazmuni nimalarni hisobga oladi?
6. Kasbiy maktabda o'qitish va ta'lim mazmuni nimalarda o'z ifodasini topadi?
7. Kasbiy mahorat deganda nimalar tushuniladi?
8. Kasbiy ko'nikmalar deganda nimalar tushuniladi?

4- BOB. KASBIY O'QITISH JARAYONI

Tayanch so'zlar va iboralar: pedagogik jarayonni tashkil qilish, o'quv-dasturiy hujjatlar, bitimlarni shakllantirish, ko'nikmalarni shakllantirish, mahoratlarni shakllantirish, kompetensiya.

4.1. Pedagogik jarayonni tashkil qilish

Ta'lim va o'qitish jarayonining mazmuni o'rta kasbiy o'quv muassasasining o'quv faoliyatida amalga oshiriladi, u doimiy harakatda, rivojlanishda, dinamikada bo'ladi.

Pedagogik jarayon (ta'lim jarayoni) tarbiyalash va o'qitishning vagonalik va o'zaro bog'lanishdagi bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayon bo'lib, u uning subyektlarining birgalikdagi faoliyati, hamkorligi va birgalikdagi ijodi bilan tafsivlanadi va tarbiyalanuvchi shaxsining mumkin qadar to'liq rivojlanishi va o'z-o'zini namoyon qilishiga ko'maklashadi.

Pedagogik jarayon o'ziga bir nechta strukturaviy komponentlarni qamraydi.

O'qiyotganlarning o'rta kasbiy ta'limini ta'minlovchi ko'p darajali dinamik tizimni tuzish va harakatga keltirish bo'yicha *o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati* uning tizimni tashkil qiluvchi *birinchi komponenti* hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik jarayonning ham obyekti va ham subyekti bo'ladi. Obyekt sifatida pedagog uzluksiz ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ta'lim olish tizimida, o'quvchilar va ularning ota-onalari, hamkasblari, kasb-hunar kolleji ma'muriyati xodimlari bilan nuloqotda ma'lum ta'sirga uchraydi. Subyekt sifatida o'qituvchi o'zini takomillashtirishga intiladi, talabalar, jamiyat, davlat oldida o'z na'suliyatini anglaydi.

Pedagogik jarayon – bu pedagog kasbiy kompetentligining *nanbaidir*. Uni realizatsiya qilish har xil modellarning bir necha darajalari ishlab chiqilgan. Strategik darajada model o'ziga o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik tizimini to'liq'icha namda uning komponentlarini alohida qurish mahoratini qamraydi. Masalan, didaktik, tarbiyaviy, ijtimoiy-pedagogik, korreksion-rivojlantiruvchi tizim, ularning har biri o'qiyotganlar ta'limi uchun zarur bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Taktik darajada mazmuniy nuqtai-nazardan model yaratilgan pedagogik tizimni, uning funksiyalanishini ta'minlagan holda, harakatga keltirish mahorati tuziladi.

Operativ darajada obyektiv ta'lim jarayonining mazmuni:

- ta'lim jarayonida kasbiy amallarning mantiqiy tugallangan tizimini konstruksiyalash va amalga oshirish;
- ta'lim komponentlari va omillari orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rnatish;
- ularni harakatga keltirish (amalga oshirish);
- pedagogik faoliyat natijalarini hisobga olish va baholash kabi muayyan pedagogik masalalarga "aylantirish" mahoratidanamoyon bo'ladi.

Predmet darajasida o'qituvchi o'z kasbiy faoliyati predmetining ahamiyatini anglaydi. Pedagog kasbiy kompetentligi predmetli komponentning modelikasbiy mahoratlar bir necha guruhlarining majmui ko'rinishida taqdim etiladi. Strategik mahoratlar ta'lim (o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish) istiqbolini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish ko'rinishida amalga oshiriladi. Taktik mahoratlar tarbiyalanuvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini va ular ota-onalarining ta'limdan kutayotgan umidlarini aniqlash va qondirish mahoratida namoyon bo'ladi. Operativ mahoratlar – bu o'qiyotganlarning o'qib-o'rganganligi, tarbiyalanganligi, rivojlanganligi va o'qimishlilik darajasidan foydalanish mahoratidir.

Ular:

- pedagogik masalalarni qo'yish;
- tarbiyalanuvchi faoliyatining konstruktiv motivatsiyasini faollashtirish va rivojlantirish;
- o'zlashtirish va ijtimoiy tajribani o'zgartirish jarayonida talabalar bilan o'zaro ta'sirda bo'lish;
- o'qiyotganlar erishgan natijalarni va ular bilan o'zaro ta'sirni rostdash va tuzatishlar kiritishdagi pedagogik natijalarni baholash va hisobga olish.

Pedagogik jarayonning *ikkinchi va markaziy komponenti – talabadir*. Obyekt sifatida u individuallik bo'lib, u ta'lim maqsadlariga mos ravishda shakllantiriladi, rivojlantiriladi, qayta o'zgartiriladi va korreksiyalanadi. Subyekt sifatida talaba – o'zini ijodiy namoyon qilishga intilayotgan rivojlanayotgan shaxs bo'lib, u pedagogik ta'sirga labbay deb javob berishga yoki unga qarshilik ko'rsatishga qodir.

Pedagogik jarayonning mazmuni uchinchi komponent hisoblanadi. O'qitish, ta'lim va tarbiyalashning majmui sifatida u sinchiklab, saralab terib olinadi, tahlil qilinadi va shu asosda strukturlanadi, talabalar imkoniyatlariga muvofiq lashtiriladi.

Pedagogik jarayon natijalari tahlil qilinganda:

- natijalarni pedagogik vazifa/masalalar bilan solishtirish;
- mos keladigan va mos kelmaydigan zonalarni aniqlash;
- o'qituvchilar va talabalar erishgan natijalarning sabablarini tahlil qilish;
- o'qituvchilar va talabalarni faollashtirish tizimini qurish va o'zaro ta'sirning keyingi tsikllarida ularni mustahkamlash;
- muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf qilish tizimini konstruksiyalash *amalga oshiriladi*

To'rtinchi komponent -- tashkiliy-boshqaruv majmui bo'lib, tubiyalash va o'qitishning metod. shakl, texnologiyalari uning yadrosini hosil qiladi. Pedagogik jarayonni tashkil qilish va boshqarish o'qituvchilar va talabalar orasida informatsiya almashinishni rostdlashga yo'nalgan bo'ladi.

Beshinchi komponent -- pedagogik diagnostika bo'lib, u o'qiyotganlar o'zlashtirishining natijalari, ularning tarbiyalanganligining darajasi, shaxsiy va kasb y tanlash qobiliyati, mustaqil mahsulder-ijodiy faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish hamda o'qituvchining o'zining ishga tayyorgarligining darajasi haqida ma'lumotlarni taqdim etadi.

Oltinchi -- pedagogik jarayon samaraliligining mezonlaridir. Uni realizatsiya qilishning har bir epizodida pedagogika va psixologiyada tan olingan mezonlarning u yoki bu to'plami tanlanadi.

Pedagogik jarayonning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- pedagogik jarayon mazmuni va uni tashkil qilishning tubiyalash obyektiv qonunlarining asosiy talablariga va ijtimoiy hayot ehtiyojlariga mos kelishi darajasi;
 - o'quv-tarbiyaviy faoliyatning har xil turlarini tashkil qilish jarayonida o'qiyotganlarning yoshini va individual imkoniyatlarini inobatga olish;
 - pedagogik jarayon borishi davomida vujudga keladigan pedagogik va hayotiy vaziyatlarni nazorat qilish;
 - pedagogik jarayonda yetilib kelayotgan qarama-qarshiliklarni o'z paytida sezish va yechish va ish asosida har xil nizolarning oldini olish;
 - o'qituvchi pedagogik madaniyati va mahoratining darajasi.
- Tizim sifatida o'quv-tarbiyaviy jarayonni konstruksiyalashda uni strukturaviy tashkil qilishning uch darajasini hisobga olish zarur:
- *ijtimoiy-pedagogik.* Bu darajada:
 - o'qitishning ijtimoiy yo'nalganligi vektorini aniqlash;

- o‘qitishning maqsad va vazifalarini muayyanlashtirish;
- belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga o‘qituvchini tayyorlashning usullarini va uning faoliyatining strategiyasini o‘ylab chiqish;
- jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarish nuqtai-nazaridan o‘quv rejasi va dasturlarini tahlil qilib chiqish.

Ushbu daraja quyidagi *dasturiy-maqsadli funksiyalarni* bajaradi:

- *tashkiliy-didaktik*. Bu daraja o‘qitish, ta‘lim, tarbiyalash, o‘qiyotgan shaxsini rivojlantirishning hamma prinsiplari, metodlari, vositalari, strukturasi va o‘zaro ta‘sirini yoritib beradi;

- *shaxsiy-faoliyatiy*. Bu daraja ta‘lim jarayoni subyektlarining faoliyati va o‘quv materiali, jihozlari, o‘qituvchi va o‘qiyotganlarning predmet bo‘yicha amallari va ularning bilim olishning psixologik-pedagogik strukturasi va munosabatlari, pedagogik va o‘qiyotganlarning o‘qishdan tashqaridagi faoliyatini baholash va nazorat qilish motivlari, vositalari va natijalarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi.

Qisqacha xulosa

Pedagogik jarayon – pedagog kasbiy kompetentligining manbaidir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. “Pedagogik jarayon” iborasining tavsifini bering.
2. Strategik va taktik darajalarda pedagogik jarayon modellari o‘z ichiga qanday mahoratlarni qamraydi?
3. Operativ darajada obyektiv ta‘lim jarayonining mazmuni qanday mahoratlarda namoyon bo‘ladi?
4. Operativ mahoratlarda – bu o‘qiyotganlarning o‘qib-o‘rganganligi, tarbiyalanganligi va o‘qimishlilik darajasidan foydalanishdir. Ushbu mahoratlarni birma-bir sanab chiqing.
5. Obyekt sifatida va subyekt sifatida talaba kim va nimalarga qodir?
6. Pedagogik jarayonning mazmuni qanday strukturlanadi?
7. Pedagogik jarayon natijalari tahlil qilinganda qanday amallar amalga oshiriladi?
8. Pedagogik jarayonning samaradorligi bog‘liq bo‘lgan omillarni aytib bering.
9. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni strukturaviy tashkil qilishning *ijtimoiy-pedagogik* darajasini bayon qiling.
10. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni strukturaviy tashkil qilishning *tashkiliy-didaktik* darajasi nimalarni yoritib beradi?

11. O'quv-tubiyaviy jarayoni strukturaviy tashkil qilishning *shaxsiy-faoliyatiy* darajasi nimalarni aks ettiradi?

4.2. O'quv-dasturiy hujjatlarda o'qitish va ta'lim mazmuni

Ta'lim mazmuni va o'qitish mazmunini kasbiy o'quv muassasasida pedagogik jarayonda realizatsiya qilish "*o'quv-dasturiy hujjatlar*" atamasi bilan nomlangan Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va fanlarning o'quv dasturlari vositasida sodir bo'ladi.

O'quv-me'yoriy hujjatlar – bu me'yoriy hujjatlar tizimi bo'lib u muayyan mutaxassislik bo'yicha ta'lim va o'qitish maqsadi va mazmunini belgilaydi.


Kasb-hunar ta'limi standartlarining tuzilishi va mazmuni uning xususiyatlaridan, ya'ni jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shaxs talablarining chambarchas bog'liqligidan kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standarti ta'limiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosatlarining integratsiyasi va mehnat bozori ehtiyojlariga borib taqaladi. Standartlarni ishlab chiqishda hunar madaniyati sohasida yuz yillar mobaynida yig'ilib kelinayotgan eng yaxshi milliy an'analarning saqlanib qolinishi va ular shogirdlik shaklida o'tib kelayotgarligi muhim ahamiyatga ega. Ko'p mamlakatlarda kasb-hunar ta'limini standartlashtirish jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri ekanligi tan olingan. SHunday ekan, milliy standartlar dunyoviy tajribalarga tayangan holda, milliy an'analarihisobga olinib, ishlab chiqilmog'i lozim.

Kasb-hunar ta'limi standartlarning iste'molchilari:

- ish beruvchilar;
- ta'lim beruvchilar;
- shaxs (ta'lim oluvchilar);
- jamiyat.

Kasb-hunar ta'limi standartlariga mehnat bozori – iste'molchilar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda talablarni qo'yadilar. Ishlab chiqilgan standart iste'molchilar ehtiyojlarini o'zida aks ettirg'i lozim

Davlatning ehtiyoji – barkamol avlodni tarbiyalashdir. Ish beruvchilar har bir kasb bo'yicha mehnat bozorida raqobatbardoshlikka ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlab berishni so'raydilar. Shaxs – "men necha yil o'qiyman, qanday kompetensiyalarga ega bo'lsam, o'qishni bitirganimdan keyin olgan hujjatim mehnat bozorida kim bo'lib faoliyat ko'rsatish imkoniyatini beradi" – degan talabni qo'yadi



Ta'lim tizimi standartida davlat talab qilayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, ish beruvchi talab qilayotgan raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash hamda shaxs ehtiyojlarini qoniqtirish uchun ta'lim mazmunini qanday shakllantirish kerak, qancha o'qitish kerak, o'quvchilarda zarur bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarni qaysi fanlar asosida shakllantirish kerakligi ifodalanishi kerak.

Kasb-hunar ta'lim standarti – me'yoriy hujjat bo'lib, tegishli malakadagi mutaxassislar tayyorlash sifatini, kasbiy va umumta'lim tayyorgarlik darajalarini ketma-ketlikda amalga oshirishning talablari, qoidalari va tamoyillarini o'rnatadi.

O'quv reja – davlat me'yoriy hujjati bo'lib, u mutaxassislarni tayyorlashning umumiy yo'nalishi va asosiy mazmunini, o'quv predmetlarini o'rganishning ketma-ketligi, intensivligi va muddatlarini; o'qitishni tashkil qilishning asosiy shakllarini, o'qiyotganlar bilimi va mahoratlarini tekshirishning shakl va muddatlarini reglamentlaydi.

O'quv reja:

– o'quv fanlarining semestrlar bo'yicha ratsional taqsimlanishini uzviy ketma-ketlik pozitsiyasidan ta'minlashga;

– o'quv fanlarining semestrlar bo'yicha ratsional taqsimlanishini o'qiyotganlarning o'quv ishi tekis taqsimlanishiga;

– kasbiy maktabning kadr va ilmiy-texnikaviy potensialidan samarali foydalanishni ta'minlashga yo'nalgan.

Kasb-hunar kollejlari o'quv rejasi modeli

№	Fanlar	Sotlar hajmi	Umumiy yukJamaga nisbatan foiz hisobida
I	Umumta'lim fanlari	1960	42,5 %
II	Kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)	1180	25,9 %
III	O'quv amaliyoti	600	13 %
IV	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,3 %
V	Diplom ishi	76	1,7 %
VI	Kollej ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	116	2,6 %
	Jami:	4560	100 %

O'quv rejalarida ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni o'quv fanlarining dasturlarida muayyanlashtiriladi.

O'quv fani (predmet) – bu o'quv muassasasida o'rganish uchun mo'ljallangan yoki faoliyat tarmog'undan tanlab olingan, didaktik asoslangan bilim, amaliy mahorat va ko'nikmalar tizimidir.

O'quv dasturi – me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi o'rnini, ushbu o'quv fani doirasida bilim, amaliy mahorat va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablarni, o'quv fanining mazmunini va uni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi.

O'quv dasturi, o'qituvchi va talabalarni o'quv jarayoniga kiritadigan doimiy orientir kabi, o'qituvchi va o'qishdagi talaba faoliyatining o'ziga yarasha modeli hisoblanadi.

Bu model o'ziga uchta blokni qamraydi.

1. *Dasturning maqsadiy vazifasi.* O'qituvchi va talabalar “Nima uchun?” degan savolga aniq javob olishlari, ya'ni o'qish natijasida ular nimaga kelishlari kerakligini bilishlari kerak. Maqsadlar talabalarga mo'ljallangan bo'lishi kerak. O'qituvchi uchun talabalar qanday muayyan natijalarga erishishi kerakligi muhim.

2. *O'quv materialining mantiqiy strukturlanish mazmuni.* O'qituvchi va talabalar “Nima?” degan savolga aniq javob olishlari kerak. Ba'zi hollarda strukturlash o'qitilayotgan fan yoki san'at mantiqiga mos holda bajariladi, boshqa hollarda esa – u yoki bu jabha yoki kasbdagi faoliyatni strukturlash mantiqi mavjud bo'lmaydi. Istalgan holda mazmunni strukturlash fan mantiqini va uni o'zlashtirish bosqichlarini tanlash - alternativlardan tanlash bo'lmaydi va o'qituvchi bilim olish faoliyati jarayonini tushunishini va uni asoslashni nazarda tutadi.

3. *O'ylangan narsani muayyan amallarga o'tkazish.* U o'qituvchi va talabalar o'zaro ta'sirining dasturini, o'qitishni tashkil qilishning metodlari va shakllarini hamda vositalarni tanlashni, tanlangan narsalar o'qitishni samarali qilishini, rejalashtirilgan natijalarga erishishga yordam berishini nazarda tutadi. O'qituvchi va talabalar "*Qanday qilib?*" degan savolga aniq javob olishlari, ya'ni o'quv fani mazmuni qaysi pozitsiyadan amalga oshiriladigan bo'lsa, o'sha pozitsiyadan o'qitish texnologiyasi tasavvur qilinishi kerakligini nazarda tutadi.

O'quv dasturining *asosiy funksiyalari*:

- 1) *me'yoriy*, ya'ni to'liq hajmda bajarilishi shart bo'lgan hujjat;
- 2) *maqsadga yo'naltiruvchi*, ya'ni maqsad va qadriyatlarni belgilaydi, ularga erishish maqsadida ta'lim jabhasiga majburiy o'quv fanlari, tanlov o'quv fanlari kiritilgan;
- 3) *ta'lim mazmunini belgilash*, ya'ni talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan mazmun elementlari tarkibini hamda ularning murakkablik darajasini belgilaydi;
- 4) *protsessual*, ya'ni mazmun elementlarini o'zlashtirishning mantiqiy ketma-ketligini, o'qitishning shakli va sharoitlarini belgilaydi;
- 5) *baholovchi*, ya'ni mazmun elementlarini o'zlashtirish darajasini, talabalar o'qib-o'rganganlik darajasini nazorat qilish va baholash mezonlarini belgilaydi.

Ikki xil: namunaviy va ishchi dasturlarni farqlashadi.

O'quv fani mazmuni ishlab chiqilayotganda ta'lim mazmunini *optimallashtirish mezonlari* hisobga olinadi.

Mazmunning bir butunligi mezonlari:

- mazmunni ta'lim va o'qitishning zamonaviy maqsadlarini hisobga olgan holda tuzish;
- talabalarning ijtimoiy va kasbiy zarur bo'lgan bilim, mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish;
- ularda intellektual, irodaviy va hissiy sifatlarning, bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, qiziqishlar, pedagogik qobiliyatlarining rivojlanishiga ko'maklashishga imkon beradi.

Mazmunning ilmiy va amaliy salohiyati mezonlari konsepsiyalar, nazariyalar, texnologiyalarning xarakteristikalarini asosida talabalarda nazariy bilimlar va kasbiy muhim mahorat va ko'nikmalar tizimini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu mezonni hisobga olib mazmunni tuzish o'quv fanlariga bog'lanishlarni aks ettiradi, ular material takrorlanishi, turdosh o'quv fanlarining materialini yetarli darajada hisobga olinmasligi, ba'zi tushunchalar talqin qilinishidagi

nomuvofiqliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Bulardan tashqari mazmun elementlari yetarlicha bo'lishi kerak, chunki bu talabaga taqdim etilgan ilmiy faktlar, qonunlar va tushunchalarni mantiqiy tahlil qilishda yordam beradi.

Qisqacha xulosa

O'quv-me yoriy hujjatlar muayyan mutaxassislik bo'yicha ta'lim va o'qitish maqsadi va mazmunini belgilaydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Ta'lim va o'qitish mazmunini pedagogik jarayonda realizatsiya qilish qanday o'quv-dasturiy hujjatlar vositasida sodir bo'ladi?
2. Kasb-hunar ta'limi standartlarining iste'molchilarini birma-bir sanab chiqing va har birining tavsifini bering.
3. "Kasb-hunar ta'limi standarti" va "o'quv reja" iboralarining ta'rifini aytib bering.
4. O'quv reja nimalarga yo'nalgan?
5. "O'quv fani (predmeti)" va "o'quv dasturi" iboralarining ta'rifini bering.
6. O'quv dasturi o'z ichiga qamraydigan bloklarning har birining tahlilini keltiring.
7. O'quv dasturining asosiy funksiyalarini aytib bering.
8. Ta'lim mazmuni bir butunligining mezonlarini bayon qiling.
9. Ta'lim mazmuni ilmiy va amaliy salohiyati mezonni nimalarni shakllantirish imkonini beradi? Ushbu mezonni hisobga olib mazmunni tuzish nimalarni bartaraf qilish imkonini berad?

4.3. O'qiyotganlarning o'quv faoliyatini tashkil qilish

4.3.1. Bilimlarni shakllantirish

O'qiyotganlarning o'quv faoliyatining asosini bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tashkil qiladi.

U quyidagi komponentlardan strukturaviy tarkib topadi:

- o'quv materialini idrok qabul qilish;
- uni anglash va ma'nosini tushunish;
- xotirada saqlab qolish;
- umumiy lashtirish va tizimiy lashtirish;
- qo'llash.

Real o'quv jarayonida bu hamma komponentlar yaqindan bir-biriga bog'langan bo'ladi, bir-biriga singib ketadi: qabul qilish xotira bilan; xotirada saqlash qo'llash bilan; bilimlarni qo'llash ilgari qabul

qilinganlarni tizimiylashtirish va aniqlashtirish bilan. Lekin bu bir butun jarayonning alohida bosqichlarida faqat ma'lum komponentlar ustuvorlik qiladi. Shu sababli uning asosiy zvenolariga qo'llash nuqtai-nazaridan bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'quv faoliyatining mohiyatini ko'rib chiqamiz.

Idrok/qabul qilish. O'quv materialini o'zlashtirish uni idrok/qabul qilishdan boshlanadi. **Idrok qilish** – bu o'rganilayotganning mohiyatini tushunish, uni ilgari ma'lum bo'lgan bilan bog'lash, uning namoyon bo'lishlari, xossalari, qo'llash usullari va h.k.larni bilib olishdir. Muvaffaqiyatli idrok qilish o'qiyotganlarning o'quv va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Idrok qilishning samarasi qator psixologik-pedagogik omillar hamda ichki va tashqi sharoitlar bilan aniqlanadi va tavsiflanadi.

O'quv materialini muvaffaqiyatli idrok qilishning ichki sharoitlari va omillari. O'qiyotganning o'quv materialini idrok qilishga, uni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyasi muvaffaqiyatli idrok qilishning muhim sharti hisoblanadi. Motivatsiya o'zlashtirishning muddatlarini, mustahkamligini va xarakterini belgilaydi. «*Javob berguncha*» ichki motivi bilan bilim olish bilimlarni navbatdagiso'rovgacha saqlaydi: «*yakuniy nazoratgacha*» motivi – to yakuniy baholashgacha bilimlarni saqlaydi. Biroz bilsam bo'ldi motivi bilan bilim olish biroz bilim va mahoratlarni o'zlashtirish imkonini beradi. Bulardan o'qituvchining quyidagi vazifasi kelib chiqadi: *o'qituvchi bilim, mahorat va ko'nikmalarni chuqur, mustahkam va anglab o'qiyotganlar idrok qilishi va o'zlashtirishiga yo'nalgan motivlarni qo'llab-quvvatlashi lozim.*

Muvaffaqiyatli idrok qilishning boshqa sharti (omili)ni quyidagicha ta'riflash mumkin: bilib olinishi va ongli ravishda idrok qilinishi lozim bo'lgan narsalarni o'qiyotganlar boshqa hamma idrok qilinayotgan narsalardan ajratib olishlari kerak. *Qarashning o'zi kifoya qilmaydi – ko'rish kerak, quloq solishning o'zi kifoya qilmaydi – eshitib, anglash kerak.* O'rganilayotgan predmetlar, hodisalar, voqe'liklar, xossalarni ajratib olish o'qiyotganlarning auditoriya mashg'ulotlaridagi, o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishdagi barqaror e'tiborida ifodalanadi.

Idrok qilishning muvaffaqiyatliliigi ko'p jihatdan o'qiyotganlarda faoliyatning mo'ljallangan asoslari, ya'ni: «*niman*», «*qanday*», «*nima uchun?*» idrok qilish, buning uchun qanday uslub, usul, vositalardan foydalanish lozim, idrok qilish sifatida qanday talablar qo'yiladi, idrok qilish qanday nazorat qilinadi, o'z-o'zini nazorat qaysi orientirlar bo'yicha amalga oshiriladi? degan savollarga aniq javob bo'lishi kerak.

Faoliyatning moljallangan asoslari ayniqsa amaliy (ishlab chiqarish) o'qishida, laboratoriya ishlarini bajarishda, tajriba va eksperimentlarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Muvaffaqiyatli idrok qilish va o'zlashtirishning muhim omillaridan biri – o'qiyotganlarning o'rganilayotgan materialga bo'lgan qiziqishidir. Bilim olishning bu muhim motiviga tayanib qat'iy muvaffaqiyat va natijalarga erishish mumkin. *Bilim olishga yuqori qiziqish sharoitida o'qish – «pedagogik hamkorlikning» boshlang'ich holatidir.*

Idrok qilish sifati hal qiluvchi darajada o'qiyotganlarning o'rganilayotgan materialni tushunishlari bilan belgilanadi. Agar o'qiyotganlar o'quv materialini tushunishmasa, amalda idrok qilish bo'lmaydi. Tushunish doim yangi materialni hosil bo'lib bo'lgan tasavvur va tushunchalar tizimiga kiritish/qo'shishni, noma'lum bo'lgan materialni ma'lum bo'lgani bilan bog'lashni bildiradi. Idrok qilish jarayonida o'qiyotganlar faol ishlashadi: eslashadi, tahlil qilishadi, taqqoslashadi, xulosalar chiqarishadi. Idrok qilish obyektlari har xil xossalarga ega, hissiyot organlariga har xil ta'sir qiladi. Shu sababli idrok qilishda qancha ko'p hissiyot organlari (eshitish ko'rish, sezish, hid sezish) ishtirok etsa, o'quv materialini taqdim etishning shuncha ko'p metodlaridan (og'zaki bayon, ko'rgazmali, amaliy) foydalaniladi, idrok qilishni tasfiq qilish shakllari qanchalik ko'p bo'lsa (jamoaviy, kichik guruhviy, individual), o'qiyotganlarning o'quv materialini bevosita idrok qilish bo'yicha faoliyati – tushunish va ma'nosini chaqish (takrorlash, masalalarni yechish, jadval va sxemalarni tuzish va h.k.) ishlari bilan qanchalik ko'proq bog'lanisa, idrok qilish shunchalik aniq, anglangan va mustahkam bo'ladi.

Idrok qilishning tashqi omillari Idrok qilishning tashqi omillari birinchi navbatda o'quv materialning mazmuni bilan belgilanadi. O'quv materialini o'zining mazmuni bo'yicha idrok qilish uchun oson yoki qiyin bo'lishi mumkin. O'quv materialining qiyinligi uning yangiligini, texnik murakkabligini, sabab-oqibat bog'lanishlarining mavjudligini, muayyanlik va abstraktlilik darajasi, hayot va amaliyot bilan bog'liqligini bilan belgilanadi. Eng oson material – faktlar, faktlar tizimi – idrok qilish uchun qiyinroq; o'rganilayotgan voqealar, jarayonlar, mashinalar, mexanizmlarning muhim belgilari yanada qiyinroq idrok qilinadi. Idrok qilish va tushunishda eng qiyini – nazariy umumlashtirish va sabab-oqibali bog'lanishlar bo'ladi.

Boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda yangi o'quv materialini idrok qilishning qiyinligi uning o'qiyotganlarda mavjud bo'lgan tajriba, bilim va

mahoratlarga bog'liq. Bunday bog'lanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, material idrok qilish uchun shunchalik oson bo'ladi va aksincha.

Istalgan materialning strukturlangani, ya'ni uning qismlarining o'zaro bog'lanishi, ortgani sari uni idrok qilish shunchalik ortib boradi. Materialda yangilikning ilgari o'rganilganlar bilan bog'lanishlari bir predmet materialining boshqa predmetlar materiallari bilan bog'lanishlari qanchalik ko'p bo'lsa, bu bog'lanishlar qanchalik kuchli bo'lsa, idrok qilish shunchalik oson, mahsuldor va anglangan holda sodir bo'ladi.

O'quv materialini idrok qilish ko'p jihatdan uning muhimligi, ahamiyatiga bog'liq.

O'quv materialini idrok qilish sifatiga uning hajmi ham ta'sir qiladi. U o'zlashtirilishi lozim bo'lgan yangi tushunchalar va amallar miqdori, unda o'rnatiladigan bog'lanishlar soni, undagi mulohazalar miqdori bilan tavsiflanadi.

Idrok qilish muvaffaqiyatligini belgilovchi tashqi omillarga o'quv materialining hissiy xususiyatlari, mashg'ulotlarning sanitar-gigiyenik sharoitlari, o'qiyotganlar o'quv-moddiy ta'minotining mavjudligi va holati, mashg'ulotlarni tashkil qilishlar kiradi.

Xotirada saqlab qolish. Bilimlarni egallash bo'yicha faoliyatning natijasi sifatida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning eng muhim komponenti – o'rganilgan narsani eslab qolish, uni xotirada saqlab qolish, istalgan paytda o'quv va amaliy masalalarni yechish uchun ularni qo'llashdir.

Xotirada saqlab qolish beixtiyor va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Beixtiyor saqlab qolishda oldindan bu maqsad qo'yilmaydi, u irodani talab qilmaydi, go'yo o'z-o'zidan esda qoladi. Ixtiyoriy eslab qolish maxsus irodaviy intilishlarni va maxsus talab qilingan faoliyatni talab qiladi.

Ixtiyoriy eslab qolish ikki: *mexanik* yoki *anglangan* usullarda amalga oshirilishi mumkin. O'quv faoliyatida anglab eslab qolish asosni tashkil qiladi. Lekin xotirada saqlab qolinishi lozim bo'lgan narsalarning hammasi ham anglab eslab qolishni talab qilmaydi. Adreslar, xronologik sanalar, maxsus atamalar, qoidadan istisnolar, detallarning nomlari, amallarni bajarishning «qat'iy» ketma-ketligi va sh.k.lar mexanik ravishda eslab qolinadi. Demak, o'quv faoliyatida anglangan holda eslab qolinadigan va mexanik eslab qolinadigan narsalar ham mavjud bo'ladi.

O'qiyotgan uchun, uning faoliyati uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan narsalar – faktlar, hodisalar, voqeliklar, hatti-harakatlar, usullar eng to'liq va mustahkam eslab qolinadi. Va aksincha, o'qiyotgan uchun muhim bo'lmagan, anglangan ma'noga ega bo'lmagan, o'zlashtirish uchun

ijobiy motivga ega bo'lmagan narsalar yomon eslab qolinadi va tezroq esdan chiqib ketadi.

O'qiyotgan material bilan qancha ik faol ishlansa, u shunchalik yaxshi eslab qolinadi. Faoliyatning asosiy maqsadi bilan bog'langan material ham yaxshi eslab qolinadi. Yengil material o'rtacha murakkablikdagi materialga nisbatan yomonroq eslab qolinadi. Ta'riflar, bayoniy materiallar tezroq unutiladi. Qonuniyatlar va sabab-oqibat bog'lanishlarni tushunishga asoslangan bilimlar xotirada uzoqroq saqlanadi.

Esab qolish va xotiraning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'qiyotganlarning irodasiga bog'liq. Irodasi sust, dangasa, uzoq muddat davomida irodaviy zo'rliqishga qodir bo'lmagan o'quvchilar yuzaki va yomon eslab qoladilar.

Umumlashtirish va tizimiyashtirish. Tushunchalarni shakllantirish. Bilimlarni o'zlashtirish – bu, birinchi navbatda, tushunchalarni o'zlashtirishdir. Fakt, predmet, voqelik, jarayonlarning mohiyati, ya'ni ularning barcha muhim belgilarining majmui tushunchada aks ettiriladi.

Tushunchalar ikki yo'l bilan shakllantiriladi. Ulardan birinchisi bilimlarni egallashning boshlang'ich darajasini tavsiflovchi tasavvurlar orqali tushunchalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi. Tasavvurlar o'qiyotganlarning materialni o'z so'zlari bilan bayon qilish, qoida, voqeliklar, qonunlar ta'rifini shakllantirish, ularni tushuntirib berish, asoslash, mos nazariy holatlarni muayyanlashtirish uchun misollar keltirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Tasavvurlar ularning mazmuni boyigani va ularda predmet va voqeliklarning muhimroq xossalari aks etgani sari tobora umumlashgan tasavvurlar bo'lib boradilar va tushunchalarga aylanadilar. Tushunchalarni shakllantirish bunday yo'lning asosiy g'oyasi – muayyanlikdan abstraktga ko'tarilishdir. Bunda tushunchalar umumlashtirish va tizimiyashtirish jarayonining natijasi bo'ladi. Umumlashtirish jarayoni – bu o'rganilayotgan real voqelikning predmetlari, faktlari, jarayonlari, voqeliklarining muhim xossalari fikran ajratib olish va umumlashtirishdir. Tizimiyashtirish deganda fikriy/xayoliy faohyat tushuniladi, bu jarayonda o'rganilayotgan obyektlar tanlab olingan prinsip, asos asosida ma'lum tizimga birlashtiriladi.

Ya'ni tushunchalar oldin o'zlashtirilgan tushunchalarga tayanib, ular bilan ma'lum mantiqiy o'zaro bog'lanish hosil qilganda, ya'ni tushunchalar tushunchalarning ma'lum tizimiga organik birikkanda bu jarayon muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu qonuniyatlar tushunchalarni shakllantirishning mazmunini, tashkil qilishni va metodikasini belgilaydi.

Demak, tushunchalarni umumlashtirish va shakllantirish asosida abstraksiyaning mantiqiy uslubi – predmetlar yoki voqeliklarning umumiy va muhim xossalari va belgilarini fikran/xayolda ajratib olish yotadi, bunda muhim bo‘lmagan belgilar va xossalalar e’tiborga olinmaydi.

Tushunchalarni shakllantirishning boshqa yo‘li abstraktidan muayyanlikka o‘tish g‘oyasiga asoslanadi. Bunday g‘oya rivojlantiruvchi o‘qitish nazariyasiga asos qilib olingan. Rivojlantiruvchi o‘qitishda o‘qiyotganlar o‘quv faoliyatining muhim komponent – ularning o‘qituvchi rahbarligida tobora murakkablashib borayotgan o‘quv masalalarini yechish hisoblanadi, buning davomida o‘qiyotganlar muayyan masalani yechish uchun zarur bo‘lgan umumlashgan nazariy bilimlar, amallarni bajarishga umumiy yondashuvlar va usullarni egallashadi. Shu bilan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma orasidagi uzilishni bartaraf qilish uchun asos yaratiladi.

Bu yo‘l ancha samarali hisoblanadi. U o‘qiyotganlarda bilimlarning chuqurligi, to‘liqligi, kengligi, operativligi, mobilligi, anglanganligi, tizimiyliги, umumlashtirilganligi, mustahkamligiga qo‘yilgan talablarga eng ko‘p mos keluvchi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nazariy bilimlarni shakllantirishga bo‘lgan bunday yondashuvda bilimlar deduktiv kiritilishi mumkin: dastlab o‘qiyotganlar oldida ma‘lum (matematik, fizik, texnikaviy) voqeliklarning umumiy bog‘lanishlari va qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar yoritiladi. So‘ngra bu tushunchalardan u yoki bu voqelik, jarayon, usullarning muayyanlashtirilgan xossalari haqidagi tushunchalarni tahlil qilish va shakllantirish uchun ilmiy asos sifatida foydalaniladi.

Bilimlarni qo‘llash. Bilimlarni faoliyatda, o‘quv va mehnat amaliyotida qo‘llash – ular o‘zlashtirilganining mezoni bo‘ladi. Faqat bilimlarning namoyon bo‘lishi, ulardan ma‘lum faoliyatda foydalanish orqaligina ularning mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin.

Nazariy o‘qish jarayonida olingan bilimlarni qo‘llashga ikki taraflama yondashish mumkin.

Birinchi dan, bu nazariy bilimlarni amaliy (ishlab chiqarish) o‘qitish jarayonida, o‘qiyotganning ishlab chiqarish mehnatida va keyinchalik – kasbiy mehnat faoliyati jarayonida qo‘llashdir.

Agar o‘quvchilarda o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyati shakllanmasa, ularda shakllangan nazariy bilimlardan keyinchalik foyda kam bo‘lishi yoki umuman foyda bo‘lmasligi mumkin. Gap shundaki, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash jarayoni – bu o‘quvchi, talaba obyektini va faoliyat sharoitlarini, aroyishni olishni, har xil baholashlardan, obyektini o‘z faoliyati maydoniga «surishini», o‘zining

bilimlarini mavjud vaziyatga har xil darajalarda solishtirib ko'rishni faol bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonga maqsadga yo'nalgan o'qitish imkoniyatlarini oshirish o'qitishda bilimlarni amaliy faoliyatda faol qo'llashga ko'maklashuvchi maxsus metodik uslublardan foydalanish hisobiga mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, bilimlarni qo'llashning boshqa yo'nalishi - ulardan o'quv maqsadlarida foydalanishdir. o'quv jarayoni davomida olingan bilimlar «ishga tushiriladi». Ularning asosida o'qiyotganlar seminarlarda ishtirok etadilar, masalalarni yechadilar, texnologik jarayonlarni ishlab chiqadilar, laboratoriya ishlarini, kurs loyihalarini bajaradilar va h.k. bunday qo'llash jarayonida bilimlar mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va yangi bilimlarni olish vositasi bo'lib qoladi.

4.3.2. Ko'nikmalarni shakllantirish

Ko'nikmalar – faoliyatning ko'p qayta takrorlashlar (mashqlar) natijasida avtomatlashtirilgan (ya'ni ongning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan) komponentidir. Mahorat va ko'nikma bir butunlik va uning bir qismi nisbatida bo'ladi ko'nikmalar – mahoratning o'ziga xos avtomatlashtirilgan komponentidir.

Insonning istalgan faoliyati ongli ravishda amalga oshiriladi. Lekin uning tarkibiga kiruvchi alohida operatsiyalar mashq jarayonida ko'p marta takrorlanishi natijasida shunday holatga yetishadilarki, ularda ong tomonidan nazorat qilinishga hojat qolmaydi. Bunda org faoliyatni faqat umumiy boshqarishga yo'naladi. Operatsiyalarni bajarishda qandaydir qiyinchilik vujudga klsa, ong yana ularni nazorat qila boshlaydi.

Muvaffaqiyatli amallar, hatti-harakatlar, o'zini oqlagan regulyatsiya asullari tobora tanlanib va mustahkamlaradi.

Mashqlar (ya'ni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan operatsiyalar, hatti-harakatlarni o'qiyotganlar qayta-qayta bajarishi) – bu ko'nikmani shakllantirishning asosiy metodidir. Mashqlar soni avtomatlashtirilgan hatti-harakatlar shakllanishining tezligiga bog'liq.

O'qiyotganlarda avtomatlashtirilgan hatti-harakatlar asosining mavjudligi quyidagi belgilar bo'yicha aniqlanadi:

– hatti-harakatlar maqsadini aniq anglash va uni bajarish uchun motiv mavjudligi;

– hatti-harakatlarni bajarishda o'quvchi mo'ljal oladigan zaruriy va yetarli informatsion belgilar tizimining mavjudligi;

– qayta bog'lanish tizimining mavjudligi va uning asosida shakllangan amallar bajarilishini ichki o'z-o'zini nazorat qilish;

– kamchiliklarni bartaraf qilish va xatolarni tuzatish va yo‘nalgan amallarni regulyatsiya qilish tizimining «ishga tushganligi»;

– ish sifati ko‘rsatkichlarini muntazam ravishda yaxshilab borish va faoliyat sur‘atini oshirish.

Kasbiy ko‘nikmalarni samarali shakllantirish uchun mashqlar bilan birga o‘qitishning faol metodlari qo‘llaniladi.

Quyidagi uslublar ularning mahsuli hisoblanadi:

- topshiriq, uni bajarish uslublarini o‘qiyotganlar «og‘zaki gapirib turishlari»;
- amallarni bajarayotganda o‘z-o‘zini og‘zaki instruktaj qilib borish;
- xatolar, ularning sabablari va ularni to‘g‘rilash usullarini og‘zaki tahlil qilish;
- amallarni bajarishning tanlab olingan usullarini og‘zaki va yozma asoslash va h.k.

4.3.3. Mahoratlarni shakllantirish. Kompetensiyalar

Mahorat – egallangan bilimlar va ko‘nikmalar majmui bilan ta‘minlanadigan, inson o‘zlashtirgan amallarni bajarish qobiliyatidir. Mahoratlar murakkab psixik tuzilma sifatida ta‘riflanadi, o‘ziga shaxsning hissiy, intellektual, irodaviy, ijodiy, emotsional sifatlarini qamraydi, faoliyat qo‘ygan maqsadga erishishni ta‘minlaydi. Mahorat – bu oliy insoniy sifat bo‘lib, uni shakllantirish o‘qish jarayonining yakuniy maqsadi hisoblanadi.

Mahorat o‘qiyotganning oldingi tajribasida o‘zlashtirilgan bilimlar va ko‘nikmalar tizimi asosida shakllanadi. Mahoratlar shakllanishining boshlanishida o‘qiyotgan o‘zining hatti-harakatlarini qadamma-qadam asoslab boradi, u tarkib topgan hamma uslublar, operatsiyalar va nazariy holatlarni anglaydi, bular atroflicha fikrlashda namoyon bo‘ladi. Bu bosqich zarur, shu sababli pedagog – o‘qituvchi va ishlab chiqarish o‘qitishining ustasi, odatda, ularni mulohazalarni yoyishga ataylab undashadi, u nima uchun aynan shunday qilayotganini mulohaza qilishini va gapirib berishini talab qilishadi. Mahoratlarni takomillashtirish shunga olib kelishi mumkinki, erishilgan yuqori darajada mulohazalarning ba‘zi zvenolari e‘tibordan chetda qoladi, hamma operatsiyalar ham anglangan holda bajarilaverilmaydi. Bunda mahoratlar yuqori darajada rivojlanganligi hisobiga yoki o‘z amallari bajarilishini nazariy asoslay olmaslik hisobiga fikrlash cheklanganligini nazariy farqlash mumkin. Buni pedagog o‘qiyotgandan «o‘z hatti-harakatlarining ketma-ketligini aytib berishni» so‘rab doim aniqlashi mumkin. Mahoratni yangi masalalarni yechishga ongli ravishda o‘tkazish – mahorat yuqori darajada

shakllanganligining isboti bo'ladi. Ko'chirish/o'tkazish qanchalik keng bo'lsa, o'quvchi, talaba shunchalik yuqori darajadagi mahoratni namoyish qiladi.

Qandaydir amalni bajarish uchun dastlab bir qancha sharoitlarni (material yoki asbob xossalari, operatsiyalarni bajarish ketma-ketligi va b.) hisobga olish lozim, ya'ni oldindan mo'ljallash zarur. Mahoratlarni shakllantirishda pedagog tomonidan amallarni bajarishning qaysi turdagi mo'ljalga olish asoslari foydalanilganligi katta ahamiyatga ega.

Mo'ljalga olish asoslari:

- to'liqlik darajasi bo'yicha:
 - to'liq bo'lmagan;
 - to'liq;
 - ortiqcha;
- olish/qabul qilish usuli bo'yicha:
 - tayyor ko'rinishda berilishi;
 - o'qiyotganlarning o'zi mustaqil ajratib olishi;
- umumlashtirish darajasi bo'yicha:
 - muayyan;
 - umumlashtirilgan *bo'lishi mumkin*.

Shu munosabat bilan mo'ljalga olish asoslarining bir necha turlarini ajratishadi, ularning har biri mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ma'lum sharoitlarni yaratadi.

Mo'ljalga olish asosining birinchi turi shu bilan tavsiflanadiki, uning tarkibi to'liq bo'lmaydi, mo'ljallar muayyan ko'rinishda taqdim etiladi, o'qiyotganga yakuniy natija (nima qilish kerak?) va namuna (qanday qilish kerak?) ko'rsatiladi. Mo'ljalni o'qiyotganning o'zi taxminan (ko'r-ko'rona) tanlaydi, bunday mo'ljalga olish asosida mahoratni shakllantirish jarayoni juda sekin boradi, juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yiladi ("sinab ko'rish va yanglishish yo'li").

Mo'ljalga olish asosining ikkinchi turi amallarni bajarish uchun zarur bo'lgan hamma sharoitlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. O'qiyotganlarga hamma hatti-harakatlar, operatsiyalar bajarilishi ketma-ketligining to'liq dasturi (algoritm) beriladi. Lekin bu dastur tayyor ko'rinishda va muayyan shaklda beriladi, u mo'ljal olish uchun aynan shu hol uchun yaraydi. Hatti-harakatlarning shakllanishi bunday mo'ljal olish asosida ancha tez boradi va xatolarga yo'l qo'yish hollari kam bo'ladi. Shakllangan mahorat birinchi turdagiga nisbatan ancha mustahkam bo'ladi. Lekin mahoratni boshqa sharoitda qo'llash ancha qiyin bo'ladi.

Mo'ljalga olish asosining uchinchi turi to'liq mahoratlarining shakllanishiga ko'maklashadi, tarkibi to'liqligi bilan tavsiflanadi: mo'ljal/yo'llashlar obyektlar va jarayonlarning butun sinfi uchun xarakterli bo'lgan umumlashgan ko'rinishda taqdim etiladi. Har bir muayyan holda o'qiyotgan mo'ljalga olish asosi/yo'llanmani unga berilgan umumiy metod yordamida mustqil tuzadi. Hatti-harakatlar tez va xatolarga yo'l qo'ymasdan shakllanadi, juda barqaror bo'ladi va boshqa sharoitlarga ko'chirishning keng imkoni bo'ladi. Boshqa sharoitga ko'chirish istalgan yangi topshiriq uchun to'liq mo'ljalga olish asosini belgilash mahorati – yangi obyekt, jarayonning ichki strukturasi tahlil qilish mahorati tufayli mumkin bo'ladi. Odatda o'zlashtirilgan hatti-harakat/amallarni boshqa sharoit, vaziyatga ko'chirish imkoni qanchalik keng va aniq bo'lsa, u shunchalik ko'p narsaga o'rgangan bo'ladi, uning mahoratining natijalari shunchalik maqsudor bo'ladi, bu mahoratlar unga uning faoliyatida shunchalik ko'proq samarali bo'ladi.

Mahoratlar quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

- yo'nalishi bo'yicha:
 - o'quv;
 - mehnat
 - kasbiy va h.k..
- faoliyatni tashkil qilish darajalari bo'yicha:
 - *operatsion* – alohida texnologik operatsiyalarni bajarish mahorati;
 - *taktik* – to'liq texnologik jarayonni tashkil qilish va bajarish mahorati (masalan, pedagogik, quruvchilik, buxgalterlik va sh.k.);
 - *strategik* – o'z faoliyatini mustaqil loyihalash va uning asosiy, istiqbolli maqsadlariga erishish mahorati, har texnologiyalarni erkin egallar va ularga o'zgartirishlar kiritish mahorati;
- egallaganlik darajalari bo'yicha:
 - *birlamchi mahorat* -- amallarni bajarish maqsadini anglash va ilgari egallangan tajribaga tayanib, uni bajarish usullarini izlash. Sinab ko'rish va yangilish xarakteri yorqin ifodalangan;
 - *qisman mahoratlil faoliyat* -- alohida uslublar, operatsiyalarni bajarish mahoratini egallash. Zarur bo'lgan bilimlar tizimini aniqlashtirish, ushbu amallarni bajarish uchun o'ziga xos ko'nikmalarning shakllanganligi Faoliyatda ijodiy elementlarning paydo bo'lishi;

- *mahoratli faoliyat* – bilimlar va ko'nikmalardan nafaqat maqsadni, balki unga erishish usullari va vositalarini tanlash motivlarini anglagan holda ijodiy foydalanish;
- *ustalik* (masterstvo)– mehnat faoliyati strategiyasi darajasida mahoratlarni egallash, maqsadni mustaqil aniqlash qobiliyatini ijodiy rivojlantirish, har xil texnologiyalardan ijodiy foydalanish.

Kompetensiyalar. Oxirgi paytda ta'lim nazariyasi va amaliyotida umuman va kasbiy ta'limda xususan *kompetentni yondoshuv* keng tarqalmoqda.

Bu yondoshuv kompetensiya – o'qiyotganlarda o'zgargan sharoitlarda muhim amaliy masalalarni yechish qobiliyatini shakllantirish va shaxsni tarbiyalashning asosi – degan konsepsiyaga asoslanadi. "*Kompetentlik*" – bu amaliy faoliyatda, hayotiy muammolarni yechishda mustaqil realizatsiya qilinadigan qobiliyat bo'lib, u o'quvchi egallagan o'quv va hayotiy tajribasiga, uning qadriyatlarini va moyilliklariga asoslanadi.

Qisqacha xulosa

O'qiyotganlarning o'quv faoliyatining asosini bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tashkil qiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni strukturaviy qanday komponentlardan tarkib topadi?
2. "*Idrok qilish*" iborasining ta'rifini keltiring. Idrok qilishning samarasi nimalar bilan aniqlanadi va tavsiflanadi?
3. O'quv materialini muvaffaqiyatli idrok qilishning ichki sharoitlari va omillarini aytib bering.
4. Idrok qilish sifati nima bilan belgilanadi?
5. Idrok qilishning tashqi omillarini bayon qiling.
6. Bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning eng muhim komponentlarini bayon qiling.
7. Ixtiyoriy eslab qolishning mexanik va anglangan usullarining tahlilini keltiring.
8. Bilimlarni o'zlashtirish va tizimiylashtirish deganda nimalar tushuniladi?

4.4. O'qiyotganlarning bilim olishga qiziqishi -- ta'lim jarayonining natijasi sifatida

Bilim olish faoliyati haqida gapirganda, biz bir qancha: bilim olish, bilim olish faoliyati, bilishning rivojlanishi, bilish ehtiyoji, bilim olish faolligi, bilishga qiziqish kabi tushunchalarga to'qnash kelamiz.

Bilish – bu ijtimoiy-tarixiy amaliyot rivojlanishi bilan belgilangan haqiqiy voqelikni ongda aks ettirish va qayta tiklash jarayonidir; subyekt va obyektning o'zaro ta'siri bo'lib, dunyo haqidagi yangi bilim uning natijasi bo'ladi.

Falsafiy nuqtai-nazardan bilish nazariyasi deganda ongda tasavvurlar, tushunchalar, kategoriyalarning hamda subyektiv va obyektiv, hissiy va ratsional, empirik va nazariy, abstrakt va muayyan nisbatlarning shakllanishi tushuniladi. Bilish yo'li "tirik mushohada qilishdan – nazariyaga, nazariyadan – amaliyotga" formulasi bilan belgilanadi.

Lekin bilish – bu nafaqat dunyoning, uning tashqi taraflarining ongda ko'zgudagidek aks ettirilishi, balki predmetning chuqur mohiyatini anglash hamdir, bu jarayon esa o'ziga obyektga subyektiv ishlov berishni, ongda uning ideal obrazini yaratishdir. Bilish – bu nafaqat ko'zga ko'rinib turgan faktlarni idrok qilish va tajribani bevosita o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilib, alternativ xulosalar chiqarish hamdir. Bilish – bu kuchli qiziqish usobiga insonning atrofdagi voqelikka faol munosabatda bo'lishi va ijtimoiy amaliyot davomida hayotiy tajribani to'plash yo'li bilan atrofdagi nuhit bilan aloqani o'rnatishdir.

Bilish jarayonida shaxs har xil bilimlarni oladi. Masalan, *hayot faoliyati mahsuli haqidagi bilimlar* – bu qadriyatlarining shaxsiy tizimi bo'lib, ular oddiy qadriyatlardan shu bilan farqlanadiki, ular shaxs uchun shaxsiy ahamiyatga ega, ular tanlashda, qaror qabul qilishda qadriyatli no'ljal bo'lib, faoliyatda rag'batlantiruvchi kuch, shaxsiy qiziqish bo'lib xizmat qiladi. *Hayot faoliyatining tarkibi haqidagi bilimlar* esa – bu muayyan faoliyatlar va ular orasidagi nisbatlar haqidagi bilimlar – hayotning o'ziga yarasha rejasi bo'lib, u kasbni tanlash, oila qurish va h.k. ko'rinishdagi taqdir tartibini va undagi keskin burilishlarni belgilaydi.

O'quv mashg'uloti davomida o'qiyotganlar o'quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar, unda ikkita o'quv va bilish faoliyatlari birlashadi.

O'quv faoliyati – bu inson yangi bilim, mahorat va ko'nikmalarni egallash yoki eskilarini o'zgartirish jarayonidir.

O'quv faoliyati ikki xil masalani yechishga yo'nalgan:

- bir tarafdin, bu o'qiyotganlarni bilimlar va mahoratlarni qayta tiklash usullariga o'rgatish;

- ikkinchi tarafdin esa, o'qiyotganlar bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashi, ya'ni o'zining o'qishga bo'lgan qobiliyatini realizatsiya qilish.

Bilim olish faoliyati o'qiyotganlarning har xil turdagi bilimlarni olishga kirishishlari tufayli sodir bo'ladi.

O'quv-bilim olish faoliyatining komponentlari o'quv-tarbiyalash jarayoni doirasida amalga oshiriladigan bilim olishning uch turidag kelib chiqadi. Birinchidan, bu jarayonda informatsiya reproduktiv darajada amallarni bajarish algoritmi shaklida qabul qilinadi. Ikkinchidan, o'qiyotganga namuna-mo'ljallarning bir qismi taklif qilinadi, qolgan qismi esa mustaqil bajariladi. Uchinchidan, o'qiyotganga to'liq mustaqillik beriladi. Bu yerda shu narsa muhimki, samarali bilim olish faoliyati to'g'ridan-to'g'ri uning jarayonida shaxsning ijodiy qobiliyatlari realizatsiya qilinishi bilan bog'liq. Agar shaxs ijodiy faoliyati uchun sharoitlar yaratilgan bo'lsa, agar bilim olishnafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, balki ijodiy tavsifga ega bo'lsa, u holda boshlanishda faoliyat vosita vazifasini o'tagan bo'lsa, keyinchalik u o'ziga jalb qiladigan bo'lib qolishi mumkin.

Bilim olish faoliyatining quyidagi komponentlarini farqlash mumkin: texnologik, chunki bilim olishda doim ma'lum tizimiylik, faoliyat moddiy usullarining ketma-ketligi bo'ladi;

intellektual, chunki bilim olish faoliyati – bu o'ziga yarasha fikrlash instrumentidir. O'quv jarayoni davomida tahlil, sintez, umumlashirish kabi aqliy operatsiyalarning intensivligi faoliyat borishi jaryoniga ta'sir qiladi;

motivatsion, bilim olish ehtiyojini shaxsning holati sifatida belgilaydi.

Ushbu qayd etilgan komponentlarning o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, bilim olish faoliyatini *tashkil qilish va boshqarish mantiqi* quyidagicha bo'lishi mumkin:

– dastlab o'quv materiali mazmunining xarakteri, uni o'zlashtirish maqsadi (o'zlashtirish darajalari) hamda pedagogik masalaning boshqa shartlari tahlil qilinadi;

– so'ngra shunga mos o'qitish metodlari va o'qiyotganlar bilim olish faoliyatini boshqarish sxemalari aniqlanadi;

– shularga asoslanib o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi.

Shu yo'l bilan olingan o'qitish metodlari va vositalarining nimitzimi o'qitishning tashkiliy shaklini hosil qiladi.

Bilim olish faoliyati o'qiyotganlarning bilim olishining rivojlanishiga o'tadi.

Bilishning rivojlanishi – bu insonning bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishda mahoratining o'ziga xos o'sishidir.

Bilish faoliyati rivojlanishining sxemasi

– mo'ljal olish – tadqiqot refleksi (bu nima?);

– qiziquvchanlik (qayerda?);

– qiziqish (nima uchun?).

Bilishning rivojlanishi bilim olish faoliyatning har xil: perseptiv bilish, informatsiyani izlash va bilish ehtiyojini realizatsiya qilish jarayonlarida sodir bo'ladi.

Bilish ehtiyoji jamiyatning bilimlarga bo'lgan ehtiyojining subyektiv aksi bo'lib, u tufayli bilish amalga oshiriladi. Bilimlar, mahoratlar, ko'maklarning shakllanib bo'lgan hajmi va bilim olish faoliyati usullari; egallab bo'lingan tajriba va o'quv faoliyati jarayonida o'qiyotganlar oldiga qo'yilgan yangi bilim olish masalalari orasidagi qarama-qarshilik bilish faoliyatining fiziologik asosini tashkil qiladi.

Bilish ehtiyoji asosida mavjudlik va istalinayotgan orasidagi qarama-qarshilik yotadi, bu hissiy ichki kechinmalarda aks etadi, ular funksional energetik imkoniyatlarni mobilizatsiya qiladi va faoliyatni yangi bilimlarni izlashga yo'naltiradi. Bilish ehtiyoji o'qiyotganda bilish mahoratining rivojlanganligi darajasiga bog'liq va bilishga qiziqishda namoyon bo'ladi.

Bilish jarayoni intensivlik prinsipi bilimlar qay darajada tez o'zlashtirilayotganligi va yangi vaziyatga o'tkazilayotganligi asosida bilim olish jarayonida faoliyat usullarini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi; bilish faoliyatida intensivlik **bilim olish faolligi** – o'qiyotganing bilim olish jarayoni va natijasiga bo'lgan hissiy – baholovchi munosabati akti orqali ifodalanadi.

Bilim olish faolligi insonning o'qishga, bilimlarni olishga, bu yo'ldagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga va aqliy faoliyatda maksimal iroda kuchi va energiyani ishlatishga intilishda ifodalanadi.

Bilim olish faolligi ikki tarafdin jarayon: birinchidan, bu o'qiyotganing o'z ishini tashkil qilish va o'zini realizatsiya qilish shakli, ikkinchidan, pedagogning bilim olish faoliyatini tashkil qilishdagi mahorati va alohida kuch-g'ayratlarining natijasidir.

Bilim olish faolligi rivojlanishining asosida tobora o'sib borayotgan bilim olish ehtiyojlari va ularni qondirish uchun o'quvchining ushbu ondagi imkoniyatlari orasidagi qarama-qarshiliklarni u yengib o'tishi yotadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonda bilim olish faolligi faollik prinsipini realizatsiya qilish bilan uzviy bog'langan. O'zining mohiyati bo'yicha bu

prinsip o'qitish jarayonini tashkil qilishga qo'yiladigan umumiy talablarni ifodalaydi, unda bilim olish faol o'z-o'zini boshqaradigan aks ettiriluvchi-o'zgaruvchi faoliyat hisoblanadi. Faollik shaxs sifati ko'rinishida bilishga qiziqishlarning maqsadga yo'nalganligi va barqarorligida, bilimlar va faoliyat usullarini samarali egallashga intilishda, o'quv-bilim olish maqsadalariga erishishda irodani to'plashda namoyon bo'ladi va hissiyotiy, intellektual va axloqiy-irodaviy jarayonlar darajasiga ta'sir qiladi. Masalan, bilim olish faolligi mustaqillik kabi muhim shaxsiy sifat bilan bevosita bog'langan. Bilim olish mustaqilligi shaxsning boshqalar yordamisiz bilim va faoliyat usullarini egallash, atrofdagi voqelikni yanada takomillashtirish maqsadida bilim olish masalalarini yechishga intilish va uni yechish mahorati xossasi sifatida ko'riladi.

Bilim olish faolligi:

- o'qiyotgan o'z pozitsiyasini tanlab olishida,
- yechimni izlash jarayonida mustaqillikni namoyon qilish mahoratida;
- o'zlashtirilgan bilim mazmuni bo'yicha savollarni berish mahoratida;
- yangi bilish masalasini taklif qilish mahoratida;
- oldinda turgan ishni rejalashtirish, uning bajarilishini ratsional tashkil qilish qobiliyatida;
- o'z-o'zini nazorat qilish mahoratida;
- bir sur'atda ishlash mahoratida;
- bilish faoliyati jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilash mahoratida;
- bilish amallarining maqsadga yo'nalganligi va maqsadga muvofiqligida;
- bilim olish faoliyatini kengaytirish va chuqurlashtirish istagida *ifodalanadi.*

Eng umumiy nuqtai-nazardan: stabillik, ishtiyoqlilik, anglab bilim olish, standart va nostandart o'quv vaziyatlarida ijodiy yondashishlar, o'quv masalalarini yechishda o'qiyotganlarning mustaqilligi doimiy bilim olish faolligining ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Bilish faoliyati jarayonida bilim olish faolligi o'qiyotganlarda ***bilishga qiziqish*** bo'lganligi tufayli namoyon bo'ladi, u umuman olganda ta'lim mazmuni va uni egallash usullariga e'tibor qaratilishini ta'minlaydi va ta'lim jarayonining yurituvchi kuchi hamda bilim, mahorat va ko'nikmalarni anglab o'zlashtirishining muhim omili vazifasini o'taydi.

O'qitish mazmuni va bilim olish faoliyatining borishi o'quv jarayonida bilishga qiziqish shakllanishining manbai bo'ladi.

Psixologiyada epizodik va doimiy qiziqishlarni farqlashadi. Epizodik qiziqishlar faqat muayyan faoliyat jarayonida vujudga keladi va saqlanadi, bu faoliyat tugagandan keyin u so'na boshlaydi. Doimiy qiziqishlar esa muayyan sharoitlarga bog'liq bo'lmaydi. U shu bilan tavsiflanadiki, u insonni uni qiziqtirayotgan jabhada faoliyatga, hatto sharoitlar yaxshi bo'lmagan sharoitda ham, undaydi. Aynan doimiy qiziqish bilish faolligini qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u amallarni bajarish, qarshihklarni yengish bilan bog'liq.

Bilishga qiziqishning zaruriy rag'batlari – bu o'qiyotganlarda muvaffaqiyat vaziyatini yaratishdir, bu doim quvonch hissi, ruhiy ko'tarinkilik, bajarilgan ish natijasida ichki xotirjamlik hissi bilan bog'liq. Muvaffaqiyatning ahamiyati katta, chunki u o'ziga ishonch, yaxshi natijalarga yana erishish istagini tug'diradi.

O'qish jaryonida o'qiyotganlarning bilishga qiziqishning faollashishi ularning hamkorlikdagi faoliyatga kirishib ketishi, o'qiyotganlarning mustaqil ishini tashkil qilish tufayli sodir bo'ladi.

Bilishga qiziqish o'qiyotganlar o'quv faoliyatining o'ziga yarasha katalizatori vazifasini bajaradi, bu ularga ta'lim olishning ichki impulslarini rag'batlantiruvchi, axloqiy, estetik, bilim olishga munosabatlarni uyg'otuvchi voqe'liklarning ma'lum doirasini idrok qilish imkonini beradi.

Qisqacha xulosa

Bilish ehtiyoji asosida mavjudlik va istalinayotgan orasidagi qarama-qarshilik yotadi, bu hissiy ichki kechinmalarda aks etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Bilish atamasining ta'rifini bering.
2. Falsafiy nuqtai-nazardan bilish nazariyasi deganda nimalar tushuniladi?
3. O'quv faoliyati iborasining ta'rifini bering.
4. O'quv faoliyati ikki xil masalani yechishga yo'nalgan. Shu masalalarni bayon qiling.
5. Bilim olish faoliyati nimalar tufayli sodir bo'ladi?
6. Bilim olish faoliyatining komponentlarini aytib bering va tahlil qiling.
7. Bilim olish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish mantiqi qanday bo'lishi mumkin?

8. Bilish faoliyati rivojlanishining sxemasini ızoqlang.

4.5. Shaxsga yo'nalgan kasbiy ta'lim

Shaxsga yo'nalgan ta'lim an'anaviy kognitiv (bilim olishga) yo'nalgan ta'limga alternativa sifatida qaraladi va u o'qiyotganlar va pedagoglarning o'zaro ta'sirini tashkil qilishga asoslanadigan ta'limning yangi alohida turi sifatida tushuniladi. Bunda o'qish subyektlarida mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini rivojlantirish uchun optimal sharoitlar yaratiladi. *O'quvchining shaxsi* bu ta'lim tizimining yadrosi deb e'lon qilinadi.

Kasbiy ta'limda bu model tasdiqlanishini belgilovchi *ijtimoiy-psixologik shartlar*:

– malaka va kasbiylikning yuqori darajasi xodimlar ijtimoiy himoyalanganligining muhim omili bo'lib qoladi;

– mulkchilikning turli shakllaridagi kichik va o'rta korxonalar hamda xususiy mehnat faoliyatining ommaviy vujudga kelishi aholi bandligi strukturasi va turlarining o'zgarishiga olib keldi;

– kasbiy ta'lim mehnat bozorida xodim raqobatbardoshligi oshishining asosi bo'lib qoldi;

– zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining tez o'zgarishi, kasbiy faoliyatning yangi namunalari kasblarning o'zgarib turgan dunyosiga oson moslashishga qodir bo'lgan yangi turdagi kichik mutaxassislarni tayyorlash zaruratini belgiladi;

– jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi integratsiya o'zbekiston kasbiy ta'limi sifatining boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashishi zaruratini belgiladi.

Kasbiy ta'lim psixologiyasida "o'z-o'zini rivojlantirish", "o'z-o'zini nazorat qilish", "o'zining faolligi" va h.k. atamaları keng qo'llaniladi, bu o'qitishning shaxsga yo'nalgan texnologiyalarining tasdiqlanganligi haqida dalolat beradi. Ta'lim subyektining o'zi o'zining ta'lim olishi jarayonini qo'zg'ashi va tashkil qilishi ularni birlashtiradi.

Ta'lim yangi paradigmasining tizim tashkil qiluvchi omili – bu o'qiyotgan shaxsidir.

Ta'limning hamma darajalarida shaxs rivojlanishi uning prinsiplial maqsadi deb e'lon qilindi.

Xizmatchilar mehnatining mazmuni tubdan o'zgardi. "Malaka" tushunchasining ma'nosi o'zgardi. Bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalardan tashqari unga – "kompetensiya" – o'zgargan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish mahorati kabi kasbiy muhim sifatlar kirdi.

Kasbiy ta'limda shaxsga yo'nalgan yondoshuv quyidagilarni bildiradi:

- kasbiy ta'lim jarayonining hamma subyekt (ishtirokchi)lari: o'qiyotganlar, ustalar, o'qituvchilar, boshqaruv xodimlari rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish;

- kasbiy ta'lim jarayoni subyektlarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishini haqiqatda rag'batlantiruvchi (tashqi undovchilar) omillarni yaratish; e'tiborni shaxsning kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirishga qaratish;

- shaxsni rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik va texnologik texnologiyalarni kasbiy ta'lim jarayoniga kiritish: ta'lim subyektlarining hissiy komfortini va ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlash; o'qiyotganlarda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish

- ta'lim hamma subyektlari kasbiy rivojlanishining monitoringini ta'minlash, ya'ni muntazam va operativ diagnostika, u shaxs rivojlanishi jarayonida qayta bog'lanish tizimiga kiradi;

- o'qiyotganlar kasbiy o'zini belgilash va shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'nalgan variativ ta'limni rivojlantirish.

Ta'limning shaxsga yo'nalgan mazmunini texnologiyalashtirish o'quv matnlarini, didaktik materiallarni, o'qiyotganlar shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish shakllarini maxsus konstruksiyalashni nazarda tutadi.

Ta'limning shaxsga yo'nalgan mazmuni informatsion-malumot va o'quv materialidan tashqari muammoli matnlarni, qarama-qarshi ma'lumotlarni, noaniq vaziyatlarni o'z ichiga olishi kerak. O'quv materiali o'qiyotganing oldingi subyektli tajribasini qamrashi va uni qayta o'zgartirish imkoniyatini nazarda tutishi kerak.

Kasbiy maktabda shaxsga yo'nalgan ta'limning o'z o'rnini topishi pedagoglar shaxsiga va ularning kasbiy pozitsiyasiga, ta'lim mazmuni va uning o'quv-metodik ta'minlanishiga, o'quv muhitining texnologiyasi va tashkil qilinishiga, o'quv texnologiyalarini nazorat qilish va baholash, o'qiyotganlar kasbiy rivojlanishini diagnostika qilish va tuzatishlar kiritishga bog'liq.

Qisqacha xulosa

O'qiyotganlar o'quv faoliyatining asosini bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tashkil qiladi. O'qiyotgan material bilan qanchalik faol ishlansa, u shunchalik yaxshi eslab qolinadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Bilimlarni qo'llashni ikki yo'nalishining tahlilini bayon qiling.
2. "Ko'nikma" va "mashqlar" iboralarining ta'rifini keltiring.

3. O'qiyotganlarda avtomatlashtirilgan hatti-harakatlar asosining mavjudligi qaysi belgilar bo'yicha aniqlanadi?
4. "Mahorat" iborasining ta'rifini bering. Mahorat nimalar asosida shakllanadi?
5. To'liqlik darajasi, qabul qilish usuli va umumlashtirish darajasi bo'yicha mo'ljalga olishning asoslarini aytib bering.
6. Mo'ljalga olish asoslarining turlarini bayon qiling va har birining tavsifini keltiring.
7. Mahoratlarning yo'nalishi, faoliyatni tashkil qilish darajalari bo'yicha tasniflanishni aytib bering.
8. "Kompetentlik" nima va u nimalarga asoslanadi?

4.6. O'qitish jarayonini optimallashtirish va loyihalash

4.6.1. O'qitish jarayonini optimallashtirish

O'qitishni optimallashtirish pedagogik mehnatni tashkil qilishning elementlaridan biri hisoblanadi. Bunday o'qitish o'qitish masalalarini muvaffaqiyatli hal etish va o'qiyotganlar va pedagoglar vaqtini ratsional sarflash nuqtai-nazaridan mavjud sharoitlar uchun eng yaxshi o'qitishni ilmiy asoslangan holda tanlash va uni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Optimallik prinsipi o'qitish jarayoni ushbu vaziyat uchun o'zi funksiyalanishning eng yaxshi darajasiga erishishni talab qiladi. U o'quv jarayonining hamma elementlarini qo'llashda mulohazalilikni, ratsionallilikni, meyorini his qilishni talab qiladi. U vaqt va kuch-g'ayratni kam sarflagan holda imkon qadar ko'proq natijalarga undaydi.

Ushbu prinsipga muvofiq hamma holatlar uchun o'qitish turi va metodi universalligini, ularni qo'llash shartlari va chegaralarini ko'rsatmasdan metodik tavsiyalar berishni istisno qiladi. Metodikani tanlash jarayonida u eng asosiy muhimini ko'rishni talab qiladi.

Optimal variantni tanlash pedagogik fikrlashning izlanuvchi stili bilan amalga oshiriladi. Reproduktiv yondashuvda o'qituvchi o'quv-tarbiyaviy masala yechimi variantlaridan birini oddiygina kopirovka qiladi. Ijodiy-izlanuvchi yondashuvda u mumkin bo'lgan bir necha yo'ldan ushbu vaziyat uchun eng mos keladiganini tanlaydi.

Optimal qarorlarni qabul qilish o'ziga quyidagilarni qamraydi:

- qo'yilgan masala yechimining mumkin bo'lgan bir necha yechimini o'ylab chiqish;
- berilgan sharoitlar uchun optimal bo'lgan yechimni tanlash zarurligini anglash;

- bunday masalalarni yechishni mumkin bo'lgan usullarining samaraliligini qiyoslovchi ma'lumotlar bilan tanishish;
- mumkin bo'lgan variantlar sonini ikkitaga kamaytirish;
- ularning samaraliligini va ularga kutilayotgan qancha vaqt sarflanishini solishtirish;
- optimallashtirish mezonlariga eng mos keladigan bir variantni tanlash.

O'qitishni optimallashtirish uni realizatsiya qilishning bir necha asosiy usullaridan tarkib topadi. Birinchi navbatda o'qitish masalalarini loyihalashga kompleksli yondashish zarur. Keyin optimal loyihalash o'quv jarayoni kechadigan tizimning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda masalalar albatta muayyanlashtirilishini nazarda tutadi. Auditoriyadagi talabalarning hususiyatlarini maxsus o'rganmasdan o'qitish masalalarini muayyanlashtirishning imkoni bo'lmaydi. O'qitish masalalarini loyihalagandan keyin pedagog uning mazmunini tanlashga o'tadi. So'ngra o'qitish metodlari va vositalari tanlanadi. O'qitishni optimallashtirishning keyingi usuli – bu shunday tashkiliy shakllarni topish bo'ladiki, u ajratilgan vaqt oralig'ida qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli yechish imkonini bersin. Bunda bosh o'zlashtirayotgan, yaxshi tayyorlangan va boshqa hamma o'qiyotganlarga nafaqat frontal – jamoaviy, balki differensiallashgan va individual yondashuvlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'ladi.

Optimallashtirish nazariyasida qabul qilingan qarorlar optimalligi mezonida o'qiyotgan o'zlashtirish, tarbiyalanganlik va rivojlanganlikning shunday darajasiga erishishlarini nazarda tutiladiki, u uning yaqin rivojlanish zonasida uning real o'qish imkoniyatlariga mos keladi, o'qiyotganlar va pedagoglar auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ish uchun o'ralgan vaqtning gigiyenik normalariga rioya qilishadi.

"Real o'quv imkoniyatlari" – bu optimallashtirish nazariyasiga kiritilgan yangi tushuncha. U mavjud sharoitlar bilan bog'lanishda ko'rinmaydigan abstrakt imkoniyatlar yoki qobiliyatlarga o'xshamaydi. Real o'quv imkoniyatlari uning bilim olishi muvaffaqiyatli bo'lishiga bevosita ta'sir qiluvchi o'zida ichki va shaxs o'zichalik tushunadigan tashqi sharoitlarning birligini o'zida aks ettiradi.

Pedagog o'qiyotganlar real o'quv imkoniyatlarining nafaqat bugungi darajasini, balki, yaqin rivojlanish zonasini ham bilishlari muhim hisoblanadi. U o'qiyotgan uning yo'naltiruvchi yordami va ranbarligida qanday murakkablik darajasidagi, qanday topshiriqlarni bajaraolishini bilishi zarur. Yaqin rivojlanish zonasiga orientir olish o'qiyotganning

nafaqat rivojlanishining bugungi darajasiga moslashish imkonini beradi, balki uni olg'a chorlaydi, uning imkoniyatlari to'xtovsiz rivojlanib borishini talab etadi.

Har bir guruh uchun o'qiyotganlar auditoriyada bajaradigan va mustaqil bajaradigan ishlari uchun asoslangan vaqt sarflanishi rejalashtiriladi.

Natijalilik va vaqt mezonlarini birgalikda qo'llash optimallashtirishni o'qitishni oddiy faollashtirishdan farqlaydi, unda pedagog va o'qiyotganlar vaqtlarining sarflanishi inobatga olinmaydi.

Demak, o'qitishni optimallashtirishni hisobga olib pedagogik masalalarni yechishga kompleks yondashuvni amalga oshirish, dars berishning muayyan sharoitlarini hisobga olish, eng yaxshi natijani ta'minlovchi o'qitish mazmuni, metodlari, uslublari, shakllari va vositalarini tanlash amalga oshirilish lozim. o'qiyotganlar perspektiv rivojlanish zonasidagi real bilim olish imkoniyatlarini, auditoriyadagi ish va mustaqil ish vaqtlar meyorlarini hisobga olish lozim.

Shaxs nazariyasiga binoan o'qish jarayonida o'qiyotganlarning rivojlanishi bilim olishni motivatsiyalash planida. bilim olish psixik jarayonlari rivojlanishi planida, emotsional-irodaviy jabhada, o'qiyotganlar mustaqilligi, tashabbuskorligi oshishi planida amalga oshirilishi mumkin.

Muayyan o'quv jarayonida o'qiyotganlar rivojlanishi tushunchalar shakllanishi, faoliyat usullari, bilish psixik jarayonlari takomillashishi, shaxs va uning sifatlarining rivojlanishi orqali amalga oshadi. Bunda pedagog pedagogik jarayonning real sharoitlaridan kelib chiqib, o'qiyotganlarning individual xususiyatlarini inobatga olib o'z ishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi. Tanlangan ustuvor yo'nalishlar eng yaxshi natijani ta'minlashi kerak.

4.6.2. Internet muhitida o'qitish jarayonini optimallashtirish

Zamonaviy informatsiyalashgan jamiyat barcha ijtimoiy tashkilotlarni, birinchi navbatda ta'limni, o'zgarishga olib bormoqda. Agar ilgari ta'lim tizimi yosh avlodga odamzod tomonidan to'plangan bilimlarni uzatishni maqsad qilib olgan bo'lsa, ular yoshlarga o'qishni bitirganlaridan keyin u yoki bu darajada stabil (barqaror) kasbiy faoliyatga kirishib ketishlari imkonini bergan bo'lsa, informatsiyalashgan jamiyatda yoshlar to'xtovsiz o'zgarib turgan ijtimoiy sharoitda faoliyat qilishga hozir bo'lishlari kerak. Bugungi kundagi yoshlar maqsadni mustaqil aniqlash, shaxsiy va kasbiy masalalarni mustaqil yechish, qarorlarni mustaqil qabul qilish, samarali

shaxslararo muloqot qilish, juda katta hajmli informatsiya massivlarini o'zlashtirish va qayta ishlashga tayyor bo'lishlari kerak

Oliy ta'lim paradigmasining an'anaviydan global-innovatsiyaga keskin o'zgarishi kasbiy o'qitishning mos texnologiyalarini ishlab chiqishni, yangi kasbiy ta'lim muhitini yaratishni talab qiladi. Bunday kasbiy ta'lim shaxs ehtiyojlariga mos bilim olish imkonini beradi, uning qobiliyatlar rivojlanishiga, uning atroficha takomillashishiga ko'maklashadi. Bularning hammasiga, birinchi navbatda, bilim olish faoliyati tufayli erishiladi, u oliy ta'lim olish davrida yetakchi faoliyat sifatida o'qish-bilish faoliyati shaklini oladi.

Ta'limning yangi tizimida mustaqil o'qish-bilim olish faoliyatining har xil tashkiliy shakllari rivojlanishiga alohida urg'u beriladi, u o'z mohiyati bo'yicha mustaqil ta'limning markaziy zvenosi vazifasini bajaradi

Bu uzluksiz ta'lim konsepsiyasini realizatsiya qilishning majburiy shakli bo'ladi, u yosh mutaxassislariga texnologiya va bilimlardagi to'xtovsiz o'zga ishlarda tayyor holda bo'lish imkoniyatini beradi.

Informatsion jamiyatda talabalar mustaqil o'qish-bilim olish faoliyatining ko'p qismini internetda amalga oshadi. Bunda talabalarining didaktik asoslangan va maxsus tashkil etilgan mustaqil faoliyati aynan internetda bir qator omillar tufayli oliy maktabda o'qitishning istiqbolli shakli hisoblanadi. Bugungi kundagi jamiyat informatsiya hajmining eksponental o'sishiga duch keldi, bu asosan internetda beriladi. Informatsiya, bilimlar kabi, tez eskirnoqda. Aynan internet zamonaviy jamiyatning asosiy informatsiyasi muhitini tashkil etmoqda va uning dolzarb ilmiy va o'quv informatsiyasining manbasifatidagi roli oliy o'quv muassasasida orib bormoqda.

Yosh avlodimiz internetni nafaqat ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida, balki parallel, yashashning yetakchi muhiti sifatida qabul etmoqda, jumladan, mustaqil o'qish-bilim olish sifatida, u yoshlar tomonidan qiziqib qabul qilinmoqda, bu esa faoliyatning ushbu turiga bo'lgan motivatsiyani oshirmoqda. Internet o'qish va mustaqil ta'lim olishning informatsion muhiti, informatsion-ta'lim muhiti bo'lib bormoqda. Internet o'zining unikal xossalari (virtuallik, operatsiyalar takrorlanuvchanligi, fazalar ko'pligi va h.k.) tufayli shaxsning ichki va tashqi dunyosini to'ldiruvchi faoliyatining komfortli muhitini yaratmoqda.

Bilish va bilim olish faoliyati muammolari bilan pedagogika va psixologiyada ko'p olimlar shug'ullanishgan, jumladan.

A.I.Leoktev o'zining bilish faoliyati modelida bunday faoliyat ma'lum sohada yangi bilim va mahoratlarni o'zlashtirishga yo'nalgan degan g'oyaga asoslangan;

G.I.Shukena bilim olish faoliyatini bilishdagi izlanuvchan yo'nalish, bilimning turli manbalari yordamida bilishga qiziqish va uni qidirish sifatida ko'rgan;

I.F.Xarlamov – bilim olish faolligi – bu o'qiyotganning faoliyatiy holati bo'lib, u o'qiyotganning bilim olishga intilishi, bilimlarni egallash jarayonida aqliy zo'riqish va iroda kuchining vujudga kelishi bilan tavsiflanishini qayd etgan.

“O'quv-bilim olish faoliyati” tushuncha sifatida pedagogikada “o'quv faoliyati” tushunchasi bilan parallel mavjud, ko'p kontekstlarda bu ikkala tushuncha mualliflar tomonidan sinonim sifatida – ya'ni o'quv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning bilim olish faoliyati sifatida qaraladi. Olimlar ko'pincha bunday faoliyatning mustaqil turini “mustaqil ish” va “mustaqil ta'lim” tushunchasi bilan uzviy bog'lashga kirishadi. Internetning informatsion-ta'limiy muhitida mustaqil o'quv-bilim olish bir qancha omillar tufayli oliy maktabda o'qitishning istiqbolli shakli hisoblanadi. Internet informatsion-ta'limiy muhitida mustaqil o'qish-bilim olish faoliyatini tahlil va tadqiqot qilish ushbu muhitdagi bilim olish va tadqiqot qilish faoliyati bilan uzviy bog'langan. Oliy ta'lim muassasalaridagi sharoitda internetda talabaning o'quv-bilim olish faoliyatining maqsadi tashqaridan (o'quv reja, malaka talablari, fan dasturi) belgilanadi.

Talabalarining internet muhitida o'qish-bilim olishlarining asosiy turlari:

- izlanuvchi faoliyat (yo'nalgan izlanish; erkin gipermatnli navigatsiya yoki natijaga yo'naltirilgan navigatsiya, ma'lum masalani yechish);

- yangi texnologiyalarni amaliy o'zlashtirish (tayyorlanganlik sifatida va ham “ichki tuyg'u” bilan o'zlashtirish);

- yangi kontentni yaratish bo'yicha guruhij ijod;

- bilim olish maqsadida internet-texnologiyalar va internet-resurslardan foydalanib o'qitish.

Internet informatsion-ta'limiy muhitida talabalar o'quv-bilim olish faoliyatining shakllarini quyidagilar aniqlaydi:

- informatsion-kommunikatsiya o'zaro ta'sirni va informatsion bilim olish faoliyatini tashkil etish;

- auditoriya mashg'uloti, maqsadga yo'nalgan izlash, erkin gipermatnli navigatsiya, bilishga oid muayyan masalani yechish, o'yirli o'qish;

- onlayn – loyiha yoki kombinatsiyalashtirilgan loyiha;

- oflaynli tayyorlov faoliyati – oflayn informatsiyasi bilan ishlash, oflayn ijodiy ishi, loyiha doirasida oflayn tayyorgarlik ishi.

Zamonaviy sharoitlarda o'quv-bilim olish mahsuldorligi mezonlari, darajalari va boshqa ko'rsatkichlari informatsion jamiyat ta'limining yangi paradignasi bilan aniqlanadi. Eilimlar paradignasi darajasida o'qish va o'qish-bilim olish faoliyati faqat intellektual rivojlanganlik darajasi va industrial jamiyat iqtisodiyotidagi u yoki bu kasbiy, mohiyati bo'yicha reproduktiv, faoliyatda talab etiladigan muayyan bilimlar hajmi bilan aniqlanar edi. Industriyalashdan keyingi jamiyatda ham ishchi kuchiga bo'lgan talab va ham shaxs o'z-o'zini realizatsiya qilish vositasi sifatida ta'lim mohiyatini tushunish o'zgardi. Yangi paradigmada, jumladan ta'limning O'zbek modelida ham, shaxs birinchi o'ringa chiqdi. Bugungi kunda jamiyat birinchi navbatda "ta'limni tayyor bilimni olish sifatida tushunishdan voz kechishdan" va undan "shaxs boyligi sifatida, uni hayotga realizatsiya qilish vositasi sifatida" foydalanishga o'tadi.

Ta'limni bunday tushunish ta'lim doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatning hamma turlarining mahsuldorligi haqidagi tasavvurni o'zgartirmoqda. Endi talabaga uzatilganva u olgan bilimlarning qandaydir summasi natija bo'la olmaydi. Ta'limdagi faoliyatni, jumladan o'quv- bilim olish faoliyatini, baholash mezonlari tizimi o'zgararmoqda, ya'ni o'quv-bilim olish faoliyati samaradorligini baholash va nazerat qilish imkonini beradigan instrumentariylar o'zgararmoqda. Demak, talabalarning Internetdagi o'qish-bilim olish faoliyatining mahsuldorligi – bu talabalar armuqda amalga oshirayctgan faoliyat ni muvaffaqiyatlilikini ko'rsatkichlar va darajalar (motivatsion – qadriyatiy, kognitiv, faoliyatiy – xulq-atvoriy, emotsional-irodaviy, reflektiv) yaxshilash bo'lib, ular faoliyat ishtirokchilarning faoliyat natijalaridan qoniqishini va bunday faoliyatning shaxs uchun psixologik oqibatlarini aniqlaydi/belgilaydi.

Informatsion-ta'limiy muhit sifatida internet-muhit sharoitida talabalarning informatsion-kommunikatsion o'zaro ta sirga bevosita kirishib ketishi ko'rilayotgan faoliyatni optimallashtirishga xizmat qiladi. Bu internet-muhitning quyidagi xossalari bilan shartlangan:

- kreativlik (muhit individual va jamoaviy ijod uchun, shaxsning mahsuldor rivojlanishini rag'batlantirish uchun, shaxs avtonomligi rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi);

- shaxsning ichki va tashqi dunyosini boyitadi;
- u yoki bu (umumdidaktik, psixodidaktik, akmeologik) prinsiplarining internet-texnologiyalarda ham informatsiyaning strukturlanganligi va ham ularning nisbati bo'yicha bir xil emasligi, bu zamonaviy informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni o'zlashtirish sharoitida shaxs rivojlanishini determinatsiyalash imkonini beradi.

Yu.K Babarskiyga muvofiq, o'quv jarayonini, o'qish-bilim olish faoliyatini optimallashtirish o'ziga pedagog va o'qiyotganlar faoliyatini optimallashtirish, o'ziga pedagog va o'qiyotganlarning mehnatni ilmiy tashkil qilishni qamraydi va "aynan optimal, ya'ni ushbu sharoitlar uchun eng yaxshi, natijalarga erishishga yo'nalgan". Internet-muhitda talabalar mustaqil o'qish-bilim olish faoliyatini optimallashtirish darajalariga o'xshash klassifikatsiyalanishi mumkin. Mazmuniy-maqсадli yoki natijali darajalar, mezoniy darajalar, subyektlar jalb etilganligi bo'yicha darajalarni farqlashadi.

Internet-muhitda talabalar o'qish-bilim olish faoliyatini optimallashtirishning mazmuniy-maqсадli darajalari shaxsiy-kasbiy rivojlantirish maqsadida ularning informatsion kompetentligini rivojlantirish uchun ularning alohida shaxsiy xarakteristikalarining qobiliyat rivojlanganligining darajasi sifatida aniqlanadi. Darajalar muvyanlashtirilishi, ularning alohida voqe'liklari (masalan, internet-kompetentlik, AKTlar sohasida kompetentlik va b.) ajratilib ko'rsatilishi mumkin.

Mezoniy darajalar o'qish-bilim olish faoliyatining natijaliligini faoliyat natijalariga erishishda sarflanadigan vaqt, hatti-harakatlar va vaqtni hisobga olmasdan hamda vaqt, hatti-harakat va voqe'liklar sarfini birgalikda yoki alohida-alohida hisobga olib ko'rsatadi.

4.6.3. O'qitish jarayonini loyihalash

Kasbiy ta'limning masalalari o'qitish va mustaqil ta'lim yo'llari bilan yechiladi. O'qitish – bu ilmiy va kasbiy bilimlarni, kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallash, ijodiy qobiliyatlar va dunyoqarashni rivojlantirish bo'yicha o'qiyotganlarning faol o'quv-bilim olish faoliyatini tashkil etuvchi va motivatsiyalab rag'batlantiruvchi maqsadga yo'nalgan pedagogik jarayondir. O'qitish paytida o'qituvchi va o'qiyotganlarning o'zaro ta'siri sodir bo'ladi. uning samaraliligi ham o'qituvchi va ham o'qiyotganlarning g'ayratiga bog'liq. O'qitish natijasi kasbiy o'qitish pedagogining kompetentligiga bog'liq. Demak "Kasbiy pedagogika" fani "Kasb ta'limi" yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayyorlashda asosiy fanlardan birining vazifasini bajaradi. Mustaqil ta'lim – kasbiy rivojlanishning

asosiy yoʻnalishi va mutaxassisning raqobatbardoshligini taʼminlovchi eng muhim vositadir, mustaqil ishlash uning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oʻqishga ajratilgan vaqtning taxminan 60% gachasi mustaqil ishlashga moʻljallangan. Mustaqil ish – bu oʻziga xos tarzda tashkil etilgan faoliyat boʻlib, u oʻz strukturasiqa quyidagilarni qamraydi: mustaqil ishni aniq va tizimiy rejalashtirish; zarur boʻlgan ilmiy va oʻquv informatsiyasini izlash, ulardan zarurini tanlab olish, tahlil qilish, strukturlash va umumlashtirish; qoʻyilgan masalani yechish uchun tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlar metodlaridan foydalanish; topilgan yechimni taqdim etish, asoslash va himoya qilish; oʻz-oʻzini tahlil va nazorat qilish.

Oʻqiyotganlar mustaqil ishining keng tarqalgan shakllari – uy topshiriqlari, referatlar, kurs ishlari va h.k.

Jamiyat rivojlanib borgani sari loyihalashning koʻlami tobora kengroq yoyilmoqda. Yakkayu-yagona vositadan u taʼlimiy ideologiyagacha kengaymoqda. Bunga fan va taʼlim nisbatining oʻzgarishi jarayoni taʼsir etmoqda. Bugungi kunda taʼlim tizimi doirasida yangi ilmiy bilimlar olish qobiliyati tasdiqlanmoqda, bu esa yangi bilimni ishlab chiqarish jabhasi sifatida taʼlimning yangi ijtimoiy statusining shakllanishiga olib kelmoqda. Bu tadqiqot, tajribaviy-eksperimental, loyihaviy tabiatga ega boʻlgan oʻqitish usullarining keng ommaviy tarqalishini talab etadi. XXI asr pedagogikasi va didaktikasining ustuvor yoʻnalishi – bu shaxsga yoʻnalgan yondashuvdir. U zamonaviy dunyoda informatsiyaning juda katta oqimini oʻzlashtirish ehtiyoji bilan shartlangan va shaxs sifatida oʻqiyotganning ehtiyojlari va imkoniyatlarini albatta inobatga olishni talab qiladi. Kechagi kunda oʻqitishda hukmronlik qilgan qaysidir oʻrtacha oʻqiyotganga oriyentir olish bugungi kunda hech kimni qanoatlantirmaydi.

Yangi taʼlim paradigmasi doirasida oʻquv jarayonini loyihalash bilim egallashga yoʻnalgan oʻqitishdan farqli ravishda baʼzi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Anʼanaviy oʻqitishni loyihalashda loyihaviy faoliyat predmeti boʻlib ushbu oʻqitish mazmunining fragmenti va uning faoliyatiy-protsessual taʼminoti xizmat qilgan boʻlsa (boshqacha aytganda, maxsus strukturlangan oʻquv materiali va uni oʻzlashtirish usuli oʻqitish texnologiyasining mohiyatini keng maʼnoda tashkil etgan), shaxsga yoʻnalgan oʻqitishda loyihalash elementi boʻlib material fragmenti emas, balki hayotiy tajriba beruvchi shaxs hayotidagi voqeliklar xizmat qiladi, unda bilim uning bir qismini tashkil etadi. Oʻqitishni loyihalash oʻqituvchi va oʻqiyotganlarning hamkorlikdagi faoliyatiga aylanadi. Dialog bu yerda oʻquv mashgʻulotida rejalashtirilgan vaziyat sifatini emas, balki taʼlimda subyektlarning hayotiy faoliyati sifatidagi vazifani bajaradi. Oʻqitishning

mazmuniy va protsessual aspektlari orasidagi chegara yo'qoladi: jarayon (dialog, izlash, o'yin) shaxsiy tajriba manbaiga aylanadi. Shunday qilib, o'qitish o'zi uchun an'anaviy xos bo'lgan sun'iylikni yo'qotadi va insonning tabiiy hayotiy faoliyatiga yaqinlashadi. Bunga mos ravishda o'quv faoliyati ishtirokchilarining o'zaro ta'siri formallik va funktsionallikni yo'qotadi va shaxslararo, subyektlararo muloqot xususiyatlarini egallaydi. Shu sababli pedagog funktsioner sifatida emas, balki shaxs sifatida talab etiladi, chunki uning ichki shaxsiy dunyosi ta'lim mazmunining bir qismiga aylanadi.

Endi pedagogga ta'limning yangi paradigmasiga muvofiq yangi talablar qo'yiladi. Pedagogikaning ustalgan obyektini loyihalashda pedagog birinchi navbatda insoniy prioritetlarni hisobga olishi, ya'ni insonga – pedagogik tizim, jarayonlar yoki vaziyatlar ishtirokchisiga orientir olishi lozim.

Loyihalashda pedagogga loyihalanyotgan pedagogik tizimlar, jarayonlar, vaziyatlarni o'qiyotganlarning real qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish tavsiya etiladi. Pedagog loyihalash davomida rejalar, konspektlar va h.k.larga zarur tuzatishlar-o'zgartishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Loyihalanyotgan obyektlarning dinamikligi keyingi talab bo'ladi. bu ularning moslashuvchanlikka, loyihari realizatsiya qilish davomida pedagog unga o'zgartishlar kiritish, uni qayta qurish, uni murakkablashtirish yoki soddalashtirish imkoniyatiga va qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Zamonaviy ta'limiy paradigma o'qiyotgan o'qish jarayonida tanlash vaziyatiga qo'yilishi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi, hamda o'qib bilim olish o'qiyotganlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish lozimligini talab qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi ham o'qitish usulini tanlash erkinligiga ega bo'ladi.

O'qituvchining bevosita kasbiy faoliyatiga ham quyidagi qator talablar qo'yiladi:

– guruh o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini bilish (guruh o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlari aniqlash, ushbu xususiyatlarni diagnostika qilish mahorati);

– unumdidaktik bilimlar va mahoratlar (didaktik maqsadlarni bilish va ularni qo'yish mahorati; maqsadlarga erishganlik darajasini aniqlash mahorati; o'qitish metodlari, ularning imkoniyatlari va ularni qo'llashning xususiyatlarini bilish; o'qitish metodlari optimalligini baholash mezonlarini bilish; didaktik vositalarni qo'llash metodikasi va texnikasi

bo'yicha bilimlar va mahoratlar, o'qitishning har xil metodlari va vositalaridan birgalikda oqilona foydalanish mahorati; o'qish turlarini bilish; o'qish-bilim olish faoliyati strukturasi bilish; o'qitishni tashkil qilish shakllarini bilish);

– metodik bilim va mahoratlar (o'quv materialini mazmunini bilish; o'quv materialini strukturlash mahorati; mavzuning bilimiy va amaliy ahamiyatini bilish; mavzu bo'yicha masalalar va topshiriqlar, savollar va vazifalar tizimini tanlash mahorati; mavzu bo'yicha zarur illyustratsion materialni tanlash mahorati).

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'qitish qanday jarayonligini batafsil bayon qiling.
2. O'qitish samaraliligi nimalarga bog'liq?
3. Mustaqil ta'lim nimalarni ta'minlovchi eng muhim vosita hioblanadi?
4. Jamiyat rivojlanib borgani sari nima sababdan loyihalashning ko'lami tobora kengroq yoyilmoqda?
5. Yangi ta'lim paradigmasi doirasida o'quv jarayonini loyihalash bilim egallashga yo'nalgan o'qitishdan farqli ravishda qanday o'ziga xos xususiyatlarga egaligini batafsil bayon izohlang?
6. Endi pedagogga ta'limning yangi paradigmasiga muvofiq yangi talablar qo'yiladi Bu talablarni birma-bir aytib bering.
7. Loyihalashda pedagogga qanday amallar tavsiya etiladi?
8. Zamonaviy ta'limiy paradigma nimalar lozimligini talab etadi?
9. O'qituvchining bevosita kasbiy faoliyatiga qanday talablar qo'yiladi?

5- BOB. KASBIY O'QITISH METODLARI VA SHAKLLARI

Tayanch so'zlar va iboralar: ta'rif, maqsad, mazmun, natija, metod, usul, uslub, o'quv loyihalash, nazariy o'qitish, amaliy (ishlab chiqarish) o'qitish, kasbiy amaliyot, pedagogik texnologiyalar.

5.1. O'qitish nazariyasining asosiy tushunchalari

5.1.1. O'qitishning ta'rifi, maqsadi, mazmuni va natijalari

Muayyan individda bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishning tan olingan yo'li – o'qitishdir.

O'qitish – bu o'qituvchi va bilim olish subyektlarining hamkorlikdagi faoliyati yoki amallarining tizimi bo'lib, u o'quvchilarning o'quv jani dasturi tomonidan belgilangan insoniyatning obyektivlashtirilgan tajribasining elementlarini o'zlashtirishga yo'nalgan.

O'qitish mazmuni – muayyan mashg'ulotda tanlangan didaktik masalani yechish uchun (bilim olish subyektlari insoniyat tomonidan obyektivlashtirilgan tajriba mazmunining ma'lum qismini – o'rganish obyektini o'zlashtirish uchun) o'qituvchi va o'qiyotganlar bajaradigan amallarning majmuidir.

*O'rganish obyekt*i (o'rganilayotgan obyekt, o'rganilayotgan ma'lumotlar) – muayyan mashg'ulotdagi o'qitishda ta'lim olish subyekti o'zlashtirish uchun o'qituvchi tomonidan ajratib olib tayyorlangan insoniyat tomonidan obyektivlashtirilgan tajriba mazmunining bir qismidir.

O'quv informatsiyasi – o'rganish obyektini bayon qiluvchi informatsiyadir.

O'quv informatsiyasi – bu nafaqat verbal ma'lumotlar, balki amaliy o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'rganish obyektiga xos protsessual, operatsional ma'lumotlar, amallar va ularning strukturalaridir.

O'qitish subyekti – o'qiyotganlar (o'quv guruhi) o'qituvchi bilan birga, bu yerda o'qituvchi (o'qitish subyekti) o'qitadi (bilim olish subyektlari obyektivlashtirilgan tajribaning tanlab olingan elementlarini o'zlashtirishini boshqarish bo'yicha faoliyat), bilim olish subyektlari (o'quvchilar, talabalar) esa bilimlarni o'zlashtirishadi (o'rganilayotgan obyektini o'zlashtirishga yo'nalgan amallar yoki faoliyat)

Bilim olish subyekti – bilim olayotgan individ uchun o'qitishda o'qituvchining bevosita yoki bilvosita (dasturlar, metodik tavsiyalar, o'quv qo'llanmalar vositasi orqali) ishtiroki prinsipi ahamiyatga ega, chunki

aynan u bilim olish subyektining faoliyatiga ta'limda nazarda tutilgan natijalarning tizimiyligini kiritadi. Aynan o'qituvchining amallarida insoniyat to'plagan obyektivlashtirilgan tajribaning bir qismi mujassamlashgan, bu amallar bu tajriba elementlarini boshqarilgan holda o'zlashtirish jarayonlari haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan. Bilim olish subyekti obyektivlashtirilgan tajribaning bu qismini egallamagan, chunki buning uchun bunga mos psixologik-didaktik tayyorgarlik zarur, lekin o'qituvchining o'qitishga tayyorgarlik natijalarini kiritishi boshqariluvchi o'zlashtirishni yanada samaraliroq va maqsadga yo'nalganroq qiladi.

O'qitish maqsadi – bilim olish subyektida o'zlashtiriladigan faoliyat yoki uning elementlarini bajarish mahoratini shakllantirishdir, ularning majmui:

- qadriyatlarga yo'nalganligi (ehtiyojni qoniqtirish usulini tanlash uchun zarur bo'lgan bilimlar va inonishlar);
- faoliyatni maqsadga yo'naltiruvchi asoslar (faoliyatni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan bilim, nazariya va qonuniyatlar);
- o'zlashtirilayotgan faoliyat uchun potensial zarur bo'lgan amallarning maqsadga yo'naltiruvchi asoslari;
- faoliyatni rejalashtirishning intellektual ko'nikmalari;
- ularga mos operatsiyalarni bajarish bo'yicha amallar/hatti-harakatlar va ko'nikmalar tizimio'zlashtirilayotgan faoliyatni amalga oshirish mahoratini tashkil qiladi.

O'qitish natijalari – bilim olish subyekti psixikasidagi o'zgarishlardir, ular unga faoliyatning uning uchun yangi bo'lgan turini bajarish uchun sharoit yaratadi.

Bilimlarning faoliyatni o'zlashtirishdagi ahamiyati juda katta, chunki ular birinchi navbatda eruditsiyani ta'minlaydi, usiz esa faoliyat motivining shakllanishi mumkin emas. Motivni realizatsiya qilish usulini tanlash shaxsning qadriyatlarini tashkil qiluvchi huquqiy bilimlar va inonishlar asosida amalga oshiriladi. Istalgan faoliyatni ongli ravishda rejalashtirish uchun subyektga uning qonuniyatlarini bilish kerak bo'ladi. Amallarni bajarish uchun amallarning maqsadga yo'nalgan asoslarini bilish zarur. Bilimlar individda uning to'laqonli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarning kengayishiga ko'maklashadi.

Ko'nikmalar istalgan amal/hatti-harakatlar tarkibiga kiruvchi operatsiyalarni talab darajasida sifatli bajarish uchun zarur, chunki aynan operatsiyalarni bajarish individning rejalashtirilgan faolligini realizatsiya qiladi, inonish esa individning qadriyatlarga yo'nalishini ta'minlaydi.

Ko'nikma – ong tomonidan uzluksiz nazorat bo'lishini talab qilmaydigan darajada operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tarzda bajarishdir, bunda operatsiya onging uzluksiz nazoratsiz, aqliy amallar darajasida avtomatik tarzda bajariladi.

Bilimlar – individ tomonidan o'zlashtirilgan yoki bitib olingan verbal, obrazli, simvolik yoki operatsion (manipulyativ) ma'lumotlar; ular ixtiyoriy qayta tiklanadi yoki ulardan nutq yoki amallarda foydalaniladi.

Uddalash – tarkibiy amallar yoki faoliyatni o'zlashtirish darajasidir, u individga amallarni sifatning zarur bo'lgan darajasida anglagan holda bajarishi imkonini beradi.

Inonish – qaror qabul qilish yoki baholash uchun etalonlar sifatida subyekt tomonidan ongli ravishda qabul qilingan bilimlar va amallarni bajarish usullaridir.

5.1.2. O'qitish metodlari, usullari, uslublari va turlari

Pedagogik adabiyotning metodologik tahlili o'qitish "metodi", "usuli", "uslubini" atamaları bilan belgilangan tushunchalar yetarli darajada differensiallanmaganligini namoyon qildi.

"Metod" tushunchasining 200 dan ortiq ta'riflari mavjud. Bunday ta'riflarning ko'pligiga qaramasdan ularda bir umumiy ik bor: "metod – insonning anglangan ketma-ketlikdagi amallarining tizimi bo'lib, u mo'ljallangan maqsadlarga mos bo'lgan natijaga erishishga olib keladi. Demak, har bir metod anglangan maqsadni nazarda tutadi, usiz subyektning maqsadga yo'nalgan faoliyati mumkin emas".

Zamonaviy izohli lug'atlar, falsafiy, psixologik, pedagogik ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar "metod" va "usul" tushunchalarining bir ma'noli farqini bermagan, ko'p hollarda metod usul deb aniqlanadi va aksincha. Bu tushunchalarni farqlash uchun metodlarni atributiv tahlil qilishning maxsus metodikasini yaratishga to'g'ri keldi. Uning yordamida o'qitish metodi kashf qilinishi, o'qitish usuli esa – ixtiro qilinishi mumkinligi ko'rsatildi.

Kashfiyot – bu moddiy dunyoning ilgari noma'lum bo'lgan, obyektiv mavjud bo'lgan qonuniyatlar, xossalalar va voqealarni o'rnatishdir.

Ixtiro – bu istalgan jabhadagi yangilik hamda sezilarli farqlarga ega bo'lgan texnikaviy yechimdir.

Metod bilan shunday obyektiv o'zgarishlarni bog'lashdiki, ma'lum obyektga muayyan ta'sir qilinganda ushbu obyektlarda ular sodir bo'lishi mumkin. Usul esa buning uchun zarur bo'lgan vositalardan foydalanib ma'lum metodlarni qo'llashni realizatsiya qilish imkoniyatini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon qilingana muvofiq ravishda boshqa hamkorlikdagi amallarda bo'lmagan, bilim olish subyekting psixikasi, faoliyatidagi o'ziga xos o'zgarishlarga yo'nalgan o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi amallarini *o'qitish metodi* deb atash mumkin. Masalan, bilim olishni ta'riflarni yodlab olish va uni aniq qayta takrorlashga yo'naltirib (bitta yo'nalish), ta'lim olish subyektida tanqidiy tahlil qilish elementlarini yoki uni umumlashtirishni shakllantirib bo'lmaydi, vaholanki bu umumlashtirishdan yangi ta'riflar kelib chiqishi mumkin (ikkinchi yo'nalish). Demak, bu ikki yo'nalishni realizatsiya qiluvchi amallar tizimi obyektiv ravishda bir-biridan farqli bo'lishi kerak.

O'qitish metodi – bu bilim olish subyektlarining psixikasi va amallarida o'ziga xos o'zgarishlar vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan o'qituvchi va bilim olish subyektlarining hamkorlikdagi amallarining tizimidir, ular bilim olish subyektlari faoliyatning elementlari va nimstrukturalarini o'zlashtirishini ta'minlaydi.

O'qitish usuli – mavjud vositalardan foydalanish asosida tanlangan amallarni bajarishning tartiblashtirilgan majmui bo'lib, ular mashg'ulotda didaktik masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan o'qitishning metod va metodlarini realizatsiya qiladi.

Ba'zi mualliflar o'qitish metodlarini uslublarning majmui sifatida ta'riflanganliklari uchun, ushbu atama bilan belgilanadigan tushunchani aniqlashga faoliyatga yo'nalgan pozitsiyadan yondoshish zarur.

Uslub (mehnat uslubi) – talab qilingan (mehnat) operatsiyasini bajarishning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Shunday qilib, uslub – bu operatsion darajadagi tushunchadir. Bir xil operatsiyalarning o'zi esa har xil amallar va hattoki har xil faoliyatlar tarkibiga kirishi mumkin. Demak, bir xil didaktik uslublarning o'zi, o'qitish metodining mohiyatini aniqlamagan holda, o'qitishning har xil metodlarida foydalanishi mumkin.

O'qitish turlari – bu o'qitish usullarining guruhlari bo'lib, ular ulardagi xarakterli didaktik uslublardan foydalanish asosida birlashtirilgan. Bitta mashg'ulotda o'qitishning bir necha turlari yoki ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin, hatto o'qitishning bitta metodi har xil o'qituvchilar tomonidan o'qitishning har xil turlarida qo'llanilishi mumkin.

5.1-jadvalda o'qitishning ba'zi turlari va ularning har bir turi uchun didaktik uslublar keltirilgan.

O'qitishning ba'zi turlari va ularni belgilovchi didaktik uslublar

№	O'qitish turi	Xarakterli didaktik uslublar
1.	Informatsion-verbal	Informatsiyani faqat so'z orqali (verbal) bayon qilish
2.	Informatsion-mantiqiy	Informatsiyani bayon qilish tushuntirish, mantiqiy bog'lanishlarni ajratib ko'rsatish
3.	Bahsli	Informatsiyani bahslarda va seminarlarda muhokama qilish jarayonida o'zlashtirish
4.	Dasturlashtirilgan	Informatsiyani dozalariga bo'lish, informatsiyaning oldingi qismi o'zlashtirilganligi nazorat qilingandan keyin subyektning keyingi qismiga o'tishi
5.	Muammoli	Bilim olish subyektlari diqqatini faollashtirish va ularni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlardan foydalanish
6.	Vaziyatiy	Kasbiy muloqot hujjatlari yordamida ta'lim olish subyektlaridan qarorlarni qabul qilish va muloqotda rolli (fan ar aro) vondoshuvni talab qiladigan vaziyatlar: ishbilarmonlar o'yini, muayyan vaziyatlar va sh.k.larni yaratish
7.	Mashq (trenirovka) qildiruvchi	Ularini bajarish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida ma'lum operatsiyalarni takror-takror bajarish

Qisqacha xulosa

Islalgan o'rganilayotgan obyektini o'zlashtirish uchun bilim olish subyekti tomonidan faoliyat yoki amallar bajarilishini ta'minlash zarur, bu amallar: ushbu obyektida mujassamlangan faoliyatga adekvat bo'lishi; ular ushbu obyektidan vazifasi bo'yicha foydalanilganda qo'llaniladigan bo'lishi kerak.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "O'qitish", "o'qitish mazmuni", "o'rganish obyekti" iboralarining ta'rifini bering.
2. "O'quv informatsiyasi", "o'qitish subyekti" va "bilim olish subyekti" iboralarning ta'rifini bayon qiling.
3. O'zlashtirilayotgan faoliyatni amalga oshirish mahoratini nimalar tashkil qiladi?
4. "O'qitish natijalari" deganda nimalar tushuniladi va ular nimalar uchun sharoit yaratadi?
5. "Ko'nikma" va "uddalash" iboralarining ta'rifini bering.
6. "Bilimlar" va "monish" iboralarining ta'rifini bayon qiling.

7. “Metod” tushunchasining ma’nosini bayon qiling.
8. “Kashfiyot” va “ixtiro” iboralarini izohlang.
9. O’qitish metodi deb nimalarni atash mumkin?
10. “O’qitish metodi” va “o’qitish usuli” tushunchalarining qiyosiy tahlilini keltiring.
11. O’qitish turlarini va ular uchun xarakterli bo’lgan didaktik uslublarni aytib bering.

5.2. Kasbiy o’qitish metodlari va usullari haqidagi tushuncha

O’qitish jarayoni xarakteristikasidan shu narsa kelib chiqadiki, quyidagilar uning asosiy muammolarini tashkil qiladi:

- nima uchun o’qitish – o’qitish maqsadlari;
- nimaga o’qitish – o’qitish mazmuni;
- o’qitish jarayonini qanday tashkil qilish – o’qitishni tashkil qilish shakllari;
- o’qitish jarayonida nimalardan foydalanish – o’qitish vositalari;
- qanday o’qitish – o’qitish metodlari.

O’qiyotganlar o’zlashtirayotgan bilim, ko’nikma va uddalay olishlarning miqdori va sifati oxir-oqibatda o’qitish metodlarining samaradorligiga ham bog’liq.

Turli tasniflanishlarning mavjudligi bilimlarning differensiatsiyalashishi va integratsiyalashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi. Ular mohiyatining xarakteristikalariga atroflicha, kompleks yondoshish tobora aniqroq belgilanmoqda.

Kasbiy o’qitishda o’qitish metodlarining xarakteristikalariga bunday yondoshuv metodlarni uch asosiy guruhlariga bo’lishda realizatsiya qilingan:

- o’quv-bilim olish va o’quv-ishlab chiqarish faoliyatlarini *tashkil qilish* va *amalga oshirish* metodlari;
- o’quv faoliyatini *rag’batlantirish* va *motivatsiyalash* metodlari;
- o’qiyotganlar o’quv faoliyatining samaraliligini *nazorat* va *o’z-o’zini nazorat qilish* metodlari.

O’qiyotganlarning o’quv-bilim olish va o’quv-ishlab chiqarish faoliyatini *tashkil qilish* va *amalga oshirish* metodlari guruhi so’z orqali, ko’rgazmali va amaliy metodlarni qamraydi va ular o’qituvchi (ishlab-chiqarish ustasi) rahbarligida induktiv yoki deduktiv yoki reproduktiv yoki mahsuldor yo’nalishlarda mustaqil realizatsiya qilinadi.

O'quv faoliyatini *rag'batlantirish va motivatsiyalash* metodlari o'quv-bilim olish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini motivatsiyalash metodlarini hamda o'qishga qiziqishni rag'batlantirish metodlarini qamraydi.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari o'qiyotganlarning bilimi va malakasining darajasini og'zaki, yozma, testli va amaliy nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilishlarni o'z ichiga oladi.

Har bir metod boshqa metodlar bilan birga va ularning yordamida realizatsiya qilinadi.

Har bir o'qitish metodi ikki taraflama – pedagog faoliyati va o'qiyotganlar faoliyati nuqtai-nazaridan qaralishi lozim

*O'qituvchi (o'quv ustasi)*ning faoliyati quyidagi asosiy tipik komponentlarda tarkib topadi:

- maqsadni belgilash;
- o'qiyotganlar faoliyatining mazmuni va ketma-ketligini aniqlash (amallarni bajarishni mo'ljallangan asosni yaratish);
- o'qitish faoliyati;
- o'qiyotganlarning bilim olish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik;
- nazorat;
- xulosa chiqarish.

Qisqacha xulosa

Real o'quv jarayonida metodlarni u yoki bu klassifikatsiyaga kiritish emas, balki o'qituvchi ulardan o'qiyotganlarning bilish va o'quv-ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik qilish uchun ularning didaktik mohiyatini, ularni samarali qo'llash sharoitlarini, ulardan foydalanish mahoratini zgallashni chuqur bilishi eng ahamiyatli hisoblanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'qitish jarayoni xarakteristikasining asosiy komponentlarini bayon qiling.
2. Kasbiy o'qitishdagi metodlarning uch asosiy guruhini aytib bering.
3. O'qiyotganlar faoliyatini *tashkil qilish va amalga oshirish metodlar* guruhi qanday metodlarni qamraydi va ular o'qituvchi rahbarligida qanday yo'nalishlarda realizatsiya qilinadi?
4. O'quv faoliyatini *rag'batlantirish va motivatsiyalash metodlari* o'z ichiga qanday metodlarni qamraydi?

5. *Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari* nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Real o'quv jarayonida o'qituvchi metodlarning nimalarini chuqur bilishi ahamiyatli hisoblanadi?
7. O'qituvchi (o'quv ustasi)ning faoliyati tarkib topgan asosiy tipik komponentlarni sanab chiqing.

5.3. Kasbiy o'qitish metodlari va uslublarining xarakteristikalari

5.3.1. Informatsion-rivojlantiruvchi metodlar

Tushuntirish – o'qitishda eng keng qo'llaniladigan metod, u o'qituvchi asosiy ma'lumotlarni xabar qilishini, ularni misollar, o'quv-kor'gazmali qo'llanmalarni namoyish qilish, doskaga yozishlar bilan tasdiqlashini, o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish uchun ularga savollar bilan murojaat qilishini nazarda tutadi.

Tushuntirish o'rganilayotgan obyekt xossalariining mohiyatini, uning ichki strukturasi va boshqa obyektlar bilan bog'lanishlarini aniqlashga yo'nalgan bo'ladi. Agar o'qiyotganlar, ularning yangi mavzuga faol munosabatini qo'zg'atuvchi bilim olishga oid masalalarni anglasalar, maqsadga erishilgan bo'ladi.

Tushuntirishlarning bir necha turini farqlashadi:

- *genetik*. Tushuntirilayotgan obyekt shu holiga qanday qilib kelib qolganligi ko'rsatiladi;
- *sababiy*. Voqelikning vujudga kelish sabablari va uning boshqa obyektlar bilan bog'lanishlari o'rnatiladi,
- *funksional*. Obyekt funktsiya qilishining o'ziga xosligi ochib beriladi;
- *strukturaviy*. Obyekt elementlarining o'zaro bog'lanishlarini va o'zaro ta'sirini tushuntirishga yo'naladi.

Istalgan tushuntirish – voqelikning mohiyati, ma'nosini o'qiyotganlar tushunishini obyektivlashtirishga yo'nalganligi muhimdir.

Tushunish – ma'lumning noma'lum bilan, yangining ma'lum bilan bog'lanishlarini o'rnatish; to'g'ri tushunishni tuzish jarayonidir.

Tushuntirilayotgan narsani tushunish – tushuntiruvchi talqin qilayotgan asbtraksiyalar, belgilar, atamalar, so'zlar bilan berilgan ideal vaziyatni ongda yoki nutqda qayta takrorlashdir.

Tushuntirishning samaraliligiga ham o'qituvchi va ham o'qiyotganlar uchun taalluqli bo'lgan quyidagi shartlarga rioya qilinganda erishiladi:

1) o'qiyotganlarda yetarli darajada ta'sirchan motivlar bo'lishi kerak, ular o'qiyotganlarni faol bo'lishga, o'rganilganlarni amalda qo'llashga, intilishga, izlashga majbur qiladi;

2) o'qituvchi mashg'ulotda o'quvchilar yayrab/siqilmasdan o'tiradigan muhit yaratishi lozim, bunday sharoitda o'quvchilar s qilmaydi, tortinmaydi, bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikdan cho'chimaydilar;

3) o'qiyotganlar o'tilgan materiallarni erkin egallagan bo'lishlari kerak;

4) ular qiyoslash, eng asosiyini ajrata olish, isbot qilish va inkor qilish mantiqiy mahoratini hamda texnikaviy ko'nikma va sh.k.larni egallagan bo'lishlari kerak;

5) tushuntirishning til shaklini tanlash o'qituvchi uchun muhim hisoblanadi. U asosan qisqa jumladan va "agar", "u holda", "hammasi", "ha'zilar", "yoki" va sh.k. qisqa, ko'p qo'llaniladigan so'zlardan tarkib topishi kerak;

6) o'z o'rni va obrazlik (o'xshatish)dan foydalanishning ahamiyati katta; usiz yaxshi tushuntirish mumkin emas;

7) didaktik aksent/urg'u, ya'ni pedagogning eng asosiyini ajratib ko'rsata bilish mahorati, alohida rol o'ynaydi.

Tushuntirishning asosiy prinsipi – *"Zarur narsalarning hammasi va ortiqcha hech narsa"*.

Zarur narsalar:

– tushuntirish elementlarining ahamiyatliligi;

– ushbu elementlarni keyinchalik o'qiyotganlar amaliy faoliyatlarida qo'llashi;

– o'qiyotganlarning tushuntirilayotgan voqeliklar bo'yicha ehtimol tajribaga ega bo'lishi bilan aniqlanadi.

Hikoya – o'qituvchi monologi, nazariy holatlarni muayyanlashtirish uchun hodisalar faktlar, voqehklar haqida xabar berish.

Hikoyaning o'ziga xos xususiyati – bu pedagog nutqining iboraliligi, u o'zining baholash bo'yicha mulchazalarini bayon qilishidir.

Savol – so'z orqali ifoda qilish metodining asosiy ustublaridan biridir. Savolning ahamiyati shundaki, uning yordamida bilimdagi gumonsirash, ikkilanish noaniqliklarni bartaraf qilishga bo'lgan intilish hamda yangi, yanada to'liqroq va aniqroq bilimni olishga bo'lgan intilish ifodalanadi. Savol noma'lumni topishga bo'lgan talabga bog'langan, u bilimlikdan bilishga o'tish zaruratini ko'rsatadi.

Savollar klassifikatsiyasi quyidagi ko'rinishga ega.

Bilish funksiyasi nuqtai-nazaridan:

- bilishga oid;
- reproduktiv;
- muammoli.

O'qitish maqsadi bo'yicha:

– eng muhim savollar, bunda ularga javob o'rganilayotgan mavzuning bevosita ochilishiga xizmat qiladi;

– yordamchi (esga soluvchi) savollar, agar to'g'ri javob o'qiyotganni eng muhim javobni tushunishga tayyorlasa.

Tarkibi bo'yicha:

– oddiy;

– murakkab. Oddiy savollardan *va, yoki, agar, u holda* bog'lovchilari yordamida hosil bo'ladi.

Mantiqiy planda:

– ochiq, ya'ni bir ma'noli ma'noga ega bo'lgan va javobni erkin shaklda berishga imkon beradigan (masalan, yakuniy nazorat biletlaridagi savollar). Ochiq savollarning qo'yilishi javoblar strukturasi va mazmuniga bo'lgan o'zining talablarida kam miqdordagi noaniqlik bilan farqlanadi;

– yopiq, ya'ni javob beruvchini qat'iy chegaralovchi, bitta-yagona darak gap ko'rinishidagi ("*Ha*", "*Yo'q*") aniq, muayyan javoblarni talab qiladigan.

Ma'ruza (lotincha *lectio* – o'qish) – *materialni tizimiy ravishda og'zaki bayon qilish*. Metod sifatida informatsiyani o'qituvchi tomonidan talabalar auditoriyasiga bilvosita yoki bevosita uzatishga asoslangan. Ma'ruzaning *didaktik maqsadi* – o'quv materialini talabalar keyinchalik o'zlashtirishi uchun taxminiy asosni shakllantirishdir. Ma'ruzaning asosiy ustuni – uning nazariy holatlarining ilmiyligi, isbotlanganligi va argumentlanganligidir. O'quv texnologiyasi nuqtai-nazaridan deduktsiya, induktsiya va taqqoslash metodlari ma'ruzada faol ish beradi.

Ma'ruzani tayyorlashdagi *shartlarning* to'rt *guruhini* ajratishadi:

- ma'ruza strukturasi ishlab chiqish;
- ma'ruzaning har bir masalasi bo'yicha vaqtni optimal taqsimlash;
- ma'ruzani o'qishning didaktik vositalari bilan ta'minlash;
- o'qituvchining professionalizmi va unda natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi.

5.3.2. Reproaktiv metodlar

Mashq – bu ko'nikmalarni egallash va yanada takomillashganroq mahoratni egallash uchun qandaydir amallarni qayta-qayta bajarishdir.

Bu o'qitishning eng keng tarqalgan metodlaridan biri bo'lib, u bir vaqtning o'zida o'qitishning ikkita masalasini: mashqni bajarish uchun zarur bo'lgan o'qiyotgarning individual imkoniyatlarini, uning mustaqillik darajasini hisobga olish va amaliy kasbiy mahorat va ko'nikmalarning ma'lum tizimining mashqini olish amalga oshirish imkonini beradi.

Amaliy hatti-harakatlar mashqini olish bo'yicha mashqlar va intellektual mashqlarni farqlashadi.

Amaliy hatti-harakatlar mashqini olish bo'yicha mashqlar namunaviy kasbiy masalalarni yechish algoritmining mashqini olishga yo'nalgan, ya'ni bo'lajak mutaxassis kelajakda ularni o'zining funksional vazifalariga mos ravishda yechishi lozim bo'ladi.

Intellektual mashqlar mantiqiy mahorat va ko'nikmalarni hosil qilishga yo'nalgan. Bunday mashqlar davomida o'qiyotganlar matnlar, modellar, grafiklar, jadvallar, sxemalar ko'rinishida taqdim etilgan o'quv informatsiyasini tahlil va sintez qilishni hamda umumlashtirishni o'rganadilar.

Yuqorida sanab o'tilgan mashqlar o'zlarining *maqsadiy vazifalari* bo'yicha ikki guruhga bo'linadi:

- materialni o'rganish, mahorat va ko'nikmalarni egallash uchun tuzilgan mashqlar. Berilgan namuna, sxema, yo'riq bo'yicha bajariladigan tayyorgarlik, sinab ko'rish mashqlari ularning asosini tashkil qiladi;

- o'tilgan materialni mustahkamlash uchun tuzilgan mashqlar. Bunday nazorat mashqlari olingan bilim qay darajada chuqur o'zlashtirilganligini tekshirish uchun mo'ljallanadi.

Bunday mashqlarni ishlab chiqish quyidagi *algoritm* bo'yicha boradi:

1) namunaviy kasbiy masalalarni mashqini olish uchun mashqlarda bu mashqlarni bajarish metodikasi batafsil tushuntiriladi;

2) o'zida ishlarning ikki turini: algoritm bo'yicha va mustaqillik elementlarini qamragan mashqlar;

3) mustaqillik darajasi yuqori bo'lgan mashqlar, bunda mashqlar pedagogning qisqa yo'tig'i bilan bajariladi;

4) mahorat va ko'nikmalarni butunicha mustaqil ravishda hosil qilish uchun mashqlar;

5) ijodiy mashqlar – topshiriqlar.

O'quv materialini gapirib berish – o'qitishning ahamiyatli metodidir, chunki aynan u o'qiyotganga olingan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Gapirib berish yod bo'lib qolgan matnni mexarik ravishda qayta aytib berishga aylanib qolmasligi kerak. shu sababli kasb-hunar kollejida gapirib berish odatda so'zga chiqish yoki ma'ruza shaklida bo'ladi, bunda

urg'u o'quvchi qaysi informatsiyadan foydalangan bo'lsa, o'sha informatsiya haqida fikrini izhor qilishga qaratiladi.

5.3.3. Muammoli-izlanuvchi metodlar

Ular muammoli o'qitish davomida qo'llanadi hamda quyidagi ketma-ketlikdagi uslublar zanjiridan foydalanishni nazarda tutadi:

- muammoli vaziyatni yaratish;
- muammoli vaziyatni yechishga mumkin bo'lgan yondoshuvlarni jamoaviy muhokamasini tashkil qilish;
- muammo yechimining ratsional variantini tanlash;
- olingan natijalarni umumlashtirish;
- nazariy xulosalarni shakllantirish.

Ushbu guruhga taalluqli bir nechta metodlarni ko'rib chiqamiz.

Suhbat – o'qituvchi va talabalar dialogidir.

Suhbatlarularning *didaktik roli* nuqtai-nazaridan har turli bo'ladi.

1) *kirish*. Maqsadi ikkita: o'qiyotganlarda "yangi"ni bilishga hozirlik holatini uyg'otish va ularni yangi ish uchun tashkil qilish. Shu sababli suhbatda ham uning mavzusini aytish, ham o'quv vazifasini qo'yish, ham yangi material haqida ma'lumot berish va ham yangi materialga bog'liq bo'lgan o'qiyotganlar tajribasiga murojaat qilish va yangi atamalarni tushuntirish mumkin;

2) *suhbat*, u yangi informatsiyani beradi. U yangi informatsiya bilan to'ldirilgan, o'qiyotganlar tajribasiga tayangan gaplashish tafsifiga ega. O'qiyotganlar faol bo'lganlaridayaxshi samara beradi;

3) *mustahkamlovchi suhbat*. U ilgari o'zlashtirilgan material bilan ishlashga asoslanadi. Bu yerda faktlar, muammolar, qismlarning keng umumlashtirilishi, ilgari egallangan bilimlarning yangi informatsiya bilan birikishi nazarda tutiladi.

Evristik suhbat (grekcha *heurisko* – topayapman, ochayapman) – o'qitish metodi bo'lib, unda pedagog o'qiyotganlarga tayyor bilimlarni uzatmaydi, balki to'g'ridan-to'g'ri javobni o'z ichiga olmagan, mohirona tuzilgan savollar bilan o'qiyotganlarni ulardagi mavjud bilimlar hamda tasavvurlar, kuzatishlar, shaxsiy hayotiy tajriba zahirasi asosida yangi tushunchalar, xulosalar, qoidalarga kelishga majbur qiladi.

Evristik suhbat – evristik o'qitishning asosiy metodlaridan biridir. Bunday o'qitishning bosh mo'ljali kasbiy faoliyatning ijodiy masalalarini yechish madaniyatining metodologik darajasini rivojlantirishga yo'nalgan. Evristik o'qitish metodlarining ahamiyatli xususiyati shundaki, ular talabalarga muammoni mantiqiy yo'l bilan yechish mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lganda taklif etiladi.

Bahs (diskussiya) (lotincha *discussio* – ko‘rib chiqish, tadqiqot qilish) – qandaydir tortishuvli masalani muhokama qilish. Uni nuqtai-nazarlar har xil bo‘lishi va unda hamma ishtirokchilar ishtirok eta olishlari vaziyatini qidirish tavsiflaydi. U katta ahamiyatga ega, chunki talabalar muammoni o‘zlari qanday tushunishlarini bildiradilar; o‘zlarining nuqtai-nazarlarini izhor qiladilar; ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi dialogli muloqot ko‘nikmalari takomillashadi. Bahsda sheriklarga nisbatan shaxsiy – gumanistik munosabat namoyon bo‘ladi.

Bahslarning turlari:

1) *o‘z-o‘zidan vujudga keladigan bahs*, u o‘quvchilar guruhi muammoni yechishi davomida rivojlanadi;

2) *axloqiy bahs*, u yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, axloqiy kategoriyalarga (mehr-qahr, yaxshi ko‘rish-ko‘ra olmaslik, adolat-adolatsizlik) nisbatan o‘zlarining munosabati va nuqtai-nazarini shakllantirishga yo‘naladi, u yerda hal qiluvchi rolni faktlar va argumentlar emas, balki o‘qiyotganlarning o‘zlarining baholari, ular qadriyatlarining tizimi o‘ynaydi.

3) *o‘quv bahsi*, uning maqsadi – o‘qiyotganlar o‘z bilimlaridagi bo‘sh joylarni to‘ldirishdir. Bu – bahsning eng kam uchraydigan turidir, chunki unda birinchi navbatda ahamiyatga nafaqat argumentlar va baholar, balki ushbu mavzu bo‘yicha boy va aniq informatsiyaning mavjudligi ega bo‘ladi.

Aqliy hujum (g‘oyalari banki) (inglizcha *brainstorming*) – talabalarining intellektual – ijodiy va bilish qobiliyatlarini rag‘batlantiruvchi o‘qitish metodi. U muammoli – bilish masalasini ixtiro qilishni guruhiiy shakllantirishga asoslangan bo‘lib, bir necha:

- muammoli vaziyatni yaratish;
- g‘oyalarni generatsiya qilish;
- g‘oyalarni tahlil qilish, tekshirish, baholash va eng yaxshi g‘oyalarni tanlab olish *bosqichlar bo‘lishini nazarda tutadi*.

Metodda ikki elementlar g‘oyalarni taklif qilish va ularni muhokama qilish – birlikda bo‘ladi.

5.3.4. Tadqiqot metodi

Bu muammoli o‘qitish bo‘lib, u mustaqil o‘quv tadqiqotini nazarda tutadi. Uni o‘qiyotganlar individual ravishda yoki kichik guruhlarda laboratoriyalarda yoki bevosita ishlab chiqarishda bajaradilar, so‘ngra uning natijalari haqida o‘quv mashg‘ulotida doklad qiladilar va shu tarzda o‘rganilayotgan nazariy materialni asoslaydilar yoki tasdiqlaydilar.

Loyihalar metodiga tadqiqot sifatida qarash mumkin.

Bu metod talabalarning bilish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularda o'zlarining bilimlarini mustaqil konstruksiyalash mahoratini shakllantirish masalasini yechish imkonini beradi. Loyihani bajarish qo'yilgan masalani yechish uchun talabalardan rivojlangan tanqidiy fikrlashni, informatsion maydonda bemalol ishlash mahoratini, ilmiy bilimning turli jabhalaridan ma'lumotlarni jamlay bilishni talab qiladi. Talabalarda ishga ijodiy yondoshuv, tashabbuskorlik, ishini yaxshi tashkil qilish, saranjom-sarishtalik, sabrlilik kabi muhim shaxsiy-kasbiy sifatlar ishlab chiqilishi bilan loyihalar metodining samaraliligi aniqlanadi. Loyiha ustida ishlash talabalarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ya'ni loyiha bajarilgan sari ularning ishga qiziqishi va kirishib ketishi ortib boradi, ularga o'z tajribasida va boshqalarning tajribasida o'qish imkonini beradi, bu esa talabalarda qoniqish hosil qiladi, chunki ular o'z mehnatlarining mahsulini ko'radilar.

Bu metod – o'qituvchilar uchun ham ahamiyatlidir, chunki u pedagogga ko'p didaktik yondoshuvlardan foydalanish, pedagogik maqsadlarni hamma darajalarda qo'llab-quvvatlash va loyihaning hamma ishtirokchilari orasida pedagogik o'zaro ta'sirni shaxsan yo'naltirib turish imkonini beradi.

Talabalarning loyiha ustida ishlash jarayonida bir nechta *bosqichlarni* ajratishadi:

tashkiliy, bunda topshiriqni bajarish uchun mini-guruhlar shakllantiriladi. Uning xarakterli xususiyati – talabalar mini-guruhlarini chetdan o'qituvchini aralashtrmasdan o'zlari mustaqil ravishda shakllantiradilar.

loyihaning asosiy g'oyasini aniqlash va muhokama qilish, bunda ish guruhlarida boradi. talabalar yaratilayotgan loyihaning yakuniy natijasini bashorat qiladilar.

metodik aspektlarni muhokama qilish va loyiha ustida ishlashni tashkil qilish. Bosqich loyihaga sarflanadigan vaqtni auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlarga taqsimlash bilan bog'liq.

loyihani strukturlash. Bu bosqichda loyihaning har bir ishtirokchisi uchun ishning muayyan turlari ajratiladi;

loyiha ustida bevosita ishlash. Bu bosqichda hosil bo'lgan material ma'lum tarzda muayyan mahsulot ko'rinishida strukturlanadai va loyiha shakllantiriladi;

taqdimot (prezentatsiya). Bu bosqichda loyihani ishlovchilar dastlab taqdimot shaklini – og'zaki hisobot (og'zaki hisobot materiallarni

namoyish qilish bilan), yozma hisobot va h.k. – muhokama qilishadi va o`zlarining loyihasini himoya qilishadi.

yakuniy bosqich, bunda loyiha ustida bajarilgan ishlarning xulosalari chiqariladi, loyihani baholash va o`zlarini baholashlarining natijalari muhokama qilinadi. Loyihani *baholash* quyidagi ko`rsatkichlar:

- mazmunining chuqurligi;
- ishlovchi nutqining aniq-ravonligi;
- loyihani bajarishda talaba mustaqilligining darajasi;
- taqdimot paytida loyiha ishlovchilari namoyish qilgan bilimlarining chuqurligi;
- amaliy qismining sifati;
- loyihani shakllantirish

bo`yicha bajariladi.

Loyiha talabalar mustaqil faoliyatining mahsuli bo`lishiga qaramasdan, o`qituvchi ishining xususiyatlarini qayd etish lozim. Uning roli ayniqsa tayyorgarlik ko`rish bosqichida ahamiyatli, bu bosqichda u talabalarga ilmiy-metodik adabiyotlarni qidirishda yordam beradi hamda ularga yetishmayotgan informatsiyani taqdim etadi.

Talabalar loyiha ustida ishlashayotgan paytda o`qituvchi loyiha maqsadlarini qo`yishda yordam beradi, alternativ g`oyalarni taklif etishi, o`zining mo`ljallarini aytishi mumkin. U qayta bog`lanishni ta`minlaydi, talabalarni qo`llab-quvvatlab va rag`batlantirib turadi. Loyiha himoya qilinayotgan paytda, kuzatuvchi rolida bo`lib, keyin ekspert rolida xulosa chiqarishda ishtirok etadi.

5.3.5. Mutaxassislarining kasbiy mahoratini shakllantirishga yo`nalgan o`qitish metodlari

Instruktaj – kasbiy amaliy o`qitish metodi bo`lib, u bo`lajak amaliy faoliyat mazmuni va uning komponentlarini (mehnat naujasini, amallarni bajarish usullarini, mehnat predmeti va vositalarini) hamda mehnatni tashkil qilishni (zarur sharoitlarni yaratish, amallarni bajarish ketma-ketligini o`rnatish, texnologik qoidalarga va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni) bayon qilish va ko`rsatishni nazarda tutadi.

Masalalar metodi kasbiy o`qitishda muhim o`ringa ega.

Masala – bu maqsaddir, u ma`lum sharoitlarda beriladi, o`quv topshirig`i vositasida realizatsiya qilinadi, uni bajarish bilish akti amalga oshirilishini talab qiladi.

Ushbu metodning *maqsadi* – masalani faol qabul qilgan holda o`qiyotganlarda masalani yechish ehtiyojini uyg`otishdir.

Tekshiruvchi, o'quv kommunikativ, bilish masalalari bo'ladi. O'rta kasbiy ta'limda pedagogik amaliyotni hisobga olgan holda masalalarni predmetga oidligi bo'yicha quyidagi ikki turga bo'lishadi:

- *o'quv-predmetli*, ular nazariy o'qitish asosini tashkil qiladi;
- *predmetlararo*, ular amaliyot uchun zarur

Masalaning asosiy qiyinchiligi shundaki, uning talablarni qondirishini bilish uchun – aynan qanday amallarni bajarish kerakligida, qanday ma'lumotlardan foydalanish kerakligidadir.

Misollar va mashqlarning algoritmik tavsifidan farqli ravishda taxmin qilish, evristikaning zarurligi -- masalalarning farqlovchi va xarakterli xususiyatidir. Shu sababli, faqat masalalarni yechish bilan o'ylashga o'rganish, topqir bo'lish mumkin, misol va mashqlarni yechish/bajarish esa faqat "qo'lni o'rgatishga", fikrlashni rivojlantirishga emas. balki foydali ko'nikmalar shakllanishiga olib keladi.

Pedagogik masalalarni tahlil qilish (yechish) metodini qo'llash – pedagogik kasb-hunar kollejarining talabalari uchun oddiy holdir.

O'zi ravon shakllantirilgan pedagogik vaziyat bo'lgan holda, pedagogik masala tez va to'g'ri tahlil qilishni va operativ yechishni, vujudga kelgan vaziyatdan chiqish yo'lini qidirishni talab qiladi. Ushbu metod hayotiy va ishlab chiqarish jumboqlarini yechishda o'qiyotganlarda analitik ko'nikmalar rivojlanishiga imkon beradi; ularning ixtiyorida bo'lgan informatsiyadan to'g'ri foydalanishga ko'maklashadi; qaror qabul qilishda mustaqillik va tashabbuskorlikni ishlab chiqaradi; o'qiyotganlarda nazariy bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishda o'qituvchiga yordamlashadi.

Ishbilarmonlar o'yini – kasbiy faoliyatg o'qitishning yana bir metodi, u *o'quv-ishlab chiqarish masalalarini o'yin shaklida yechishni nazarda tutadi*, bunda o'qiyotganlar o'zlariga berilgan o'yin vaziyati sharoitida o'rnatilgan qoidalarga mos ravishda kasbiy funksiyalarni bajarish rolini olib, kasbiy faoliyatni imitatsiya qiladilar va jamoaviy o'zaro munosabatlarga kirishadilar.

Ishbilarmonlar o'yinlarining majburiy *elementlari va sharoitlari*:

- didaktik (o'quv) masalasining mavjudligi (mahoratlarning ma'lum doirasini shakllantirishga yo'nalganligi, bilimlarning ma'lum doirasini aniqlashtirish va tizimiyashtirish, fikrlashning ma'lum xossalarni rivojlantirish, shaxsning kasb uchun ahamiyatli bo'lgan sifatlarini shakllantirish);
- o'qiyotganlar bajarayotgan rol bilan bog'liq bo'lgan o'quv-ishlab chiqarish masalasining mavjudligi;

- kasb ta'limida nazarda tutilgan kasbiy tayyorgarlik darajasiga mos rollarning mavjudligi;
- rol maqsadlarining har xilligi (har bir rolga boshqa rollarga xos bo'lgan vazifalarga o'xshamagan ma'lum vazifalar yuklatilgan);
- o'yin (nizo) vaziyatining mavjudligi, o'yin o'sha nizoni yechishga yo'nalgan;
- qoida (faoliyat jabhalarining cheklanganligi, o'yin qoidalari buzilgani uchun "jazo tadbirlari"),
- o'yinning jamoaviy tavsifli bo'lishi, bu o'yin ishtirokchilarning tanlab olishgan rollariga muvofiq o'zaro ta'sirda bo'lishlarini nazarda tutadi;
- o'yinning musobaqa tavsifli bo'lishi, bunga ishtirokchilar faoliyatini individual yoki guruhiy baholash tizimi yordamida erishiladi.

Qisqacha xulosa

O'qitish metodlari o'qituvchi va talabalar faoliyatlarining o'zaro bog'langan usuli bo'lib, u o'qituvchiga qisqa muddatda o'qitish jarayonining kutilgan natijalariga erishish imkoniyatini beradi, o'quv motivatsiyasini oshirib, olingan informatsiyani xotiradi saqlab qolish bo'yicha amallar va operatsiyalarni tashkil qilib, o'quv informatsiyasini talabalar uchun qiziqarli qiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Informatsion-rivojlantiruvchi metodlarni birma-bir sanab chiqing va ularni sharhlang.
2. Tushuntirishning samaraligiga, o'qituvchi va o'qiyotganlar uchun taalluqli bo'lgan, qanday shartlarga rioya qilinganda erishiladi?
3. Tushuntirishning asosiy prinsipi – "*zarur narsalarning hammasi va ortiqcha hech narsa*". Zarur narsalar nimalar bilan aniqlanadi?
4. Bilish funksiyasi nuqtai-nazaridan, o'qitish maqsadi bo'yicha, tarkibi bo'yicha va mantiqiy planda savollar klassifikatsiyasini aytib bering.
5. Ma'ruzani tayyorlashdagi shartlarning to'rt guruhini bayon qiling.
6. Reproduktiv metodlarni aytib bering va izohlang.
7. Mashqlarni ishlab chiqish algoritmini bayon qiling.
8. Muammoli o'qitish davomida nazarda tutilgan ketma-ketlikdagi uslublar zanjirini birma-bir aytib bering.

9. Muammoli-izlanuvchi metodlarni sanab chiqing va har birini izohlang.

10. Talabalar loyiha ustida ishlash jarayonidagi bosqichlarni aytib bering va har birini izohlang.

11. Loyihani baholash qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha bajariladi?

12. Mutaxassislarning kasbiy mahoratini shakllantirishga yo'nalgan metodlarni bayon qiling va izohlang.

13. Ishbilarmonlar o'yinlarining majburiy elementlari va sharoitlarini aytib bering

5.4. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini nazariy o'qitish metodlari

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari ko'p jihatdan ular mazmunining xususiyatlari bilan aniqlanadi:

- strukturasi ko'p komponentligi, o'rganilayotgan obyektlarning turli-tumanligi;
- material hajmining kattaligi, bu o'qiyotganlarda o'z bilinlarini har xil sharoitlarda qo'llash mahoratini shakllantirish bilan bog'langan;
- mazmuni bo'yicha o'qiyotganlarning amaliy o'qishi bilan o'zaro bog'langanligi;
- amaliy va nazariy materiallarning organik birikkanligi;
- miqdoriy va sifaty bog'lanishlar, xossalarni laboratoriyali tadqiqot qilishni, xizmat ko'rsatish, rostdash va sozlash va sh.k.larni amaliy o'rganish usullarini talab qiluvchi material hajmining kattaligi;
- o'quv materialini mazmunini rivojlanayotgan texnika va texnologiyaga mos holatga operativ keltirish, "mahalliy" materialni aks ettirish zarurati.

O'qitish metodlari loyihalashda va relizatsiya qilishda bularning hammasini inobatga olish zarur.

5.4.1. O'qiyotganning o'quv-bilim olish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari

So'zli metodlar. Og'zaki bayon qilish. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'rganish jarayonida o'quv materialini og'zaki bayon qilish – *aytib berish-tushuntirish* kompleks metodni qo'llash bilan amalga oshiriladi, u o'quv materialini darak gap shaklida bayon qilish, batafsil tushuntirishlar, qiyoslashlar va solishtirishlar, asoslashlar, qonuniyatlarni chiqarishlar, masalalarni yechish va h.k.larni ham o'z ichiga qamraydi.

Og'zaki bayon qilishga bo'lgan *asosiy umumiy talablar*:

- mazmunning ilmiy ishonchliligi;

- mantiqiy ravshanlik va ketma-ketlik;
- o'qiyotganlar uchun tushunarlilik;
- isbotlanuvchanlik va inonarlilik;
- har bir bosqichda aniqlilik;
- shakli bo'yicha emotsionallilik va obrazlilik;
- o'qiyotganlar e'tibori va faolligini rag'batlantirish.

Materialni og'zaki bayon qilishning metodik uslublari:

- tushuntirish deduktiv va induktiv usullarining keng qo'llanilishi;
- mashg'ulotlarda o'qiyotganlar faoliyati turlarining har xilligi (sxemalar, grafiklar, epyuralar, jadvallar va b.larni tuzish); gaplarning ko'rgazmali vositalar (detallar, asboblar, namunalar, etalonlar va b.)ni namoyish qilish va slaydlar, video-filmlarni ko'rsatish bilan birga olib borilishi; o'qiyotganlar bilan mini-suhbatlar o'tkazilishi va sh.k.;
- materialni muammoli bayon qilish;
- solishtirishlar, umumlashtirishlar, nazariy asoslashlardan keng foydalanish;
- boshqa o'quv fanlari va amaliy o'qitish bilan predmetlararo bog'lanishlarni amalga oshirish.

Suhbat – o'qiyotganlarning o'quv-bilim olish faoliyatini tashkil qilish va boshqarishning savol-javobli metodidir. Bunday suhbat evristik deyiladi.

Bunday suhbatning didaktik mohiyati shundaki, o'qituvchi o'qiyotganlar oldiga savollar qo'yish va ular bilan birgalikda mantiqiy mulohazalar qilish yo'li bilan o'qiyotganlarni o'quv materialining mohiyatini tashkil qiluvchi ma'lum xulosalarga olib keladi. Bunda o'qituvchi o'qiyotganlarni ilgari olgan bilimlari, kuzatishlari, hayotiy va ishlab chiqarish tajribalarini qayta tiklash, qiyoslash va solishtirish, aqliy xulosalar chiqarishga undaydi. Jamoaviy suhbat umumiy qiziqish muhitini yaratadi, o'qiyotganlarning diqqati va qiziqishini oshiradi, ularning faol ishini rag'batlantiradi, bilimlar anglangan holda o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'rganishda evristik suhbatni qo'llash shartlari:

- o'quv materiali mazmunining mantiqan izchil va aniq bo'lishik;
- suhbatni o'tkazish o'quv ishining boshqa metodlari va turlari: tushuntirish, o'quv materiali bilan ishlash, o'qiyotganlarni mustaqil kuzatish – bilan birga olib borilishi kerak.

Suhbatni olib borishda uning mantiqiy reasiga qat'iy rioya qilish lozim. Savol va javoblar ketma-ketligi shunday bo'lishi kerakki, o'qiyotganlar uzluksiz ravishda mavzu rivojlanishi ketma-ketligini sezishsin.

Suhbatni xulosalar chiqarish bilan tugatish lozim o'qituvchi suhbat paytida muhokama qilingan savollar bo'yicha aniq ta'riflarni beradi.

O'qiyotganlarning darslik, o'quv qo'llanma va elektron manbalar bilan ishlashi. Pedagogika fani va amaliyoti tomonidan kitob bilan ishlashni o'rgatishning bir qator metodik uslublari: tez o'qish, konspektlash, eng asosiyini ajratish va o'qib chiqilganing rejasini tuzish, masalarni muhokama qilish, nazorat savollariga javoblar va h.k. – taklif etilgan Elektron darsliklar, Internet materiallari va b.alar bilan ishlashda ham ushbu uslublardan foydalaniladi. Lekin kasbiy materiallar: ishlab chiqarish, texnika, texnologiya va sh.k.larni yorituvchi manbalar bilan ishlaganda bu uslublarni to'lig'icha qo'llab bo'lmaydi. Ko'p hollarda bunday kitoblar va boshqa manbalar eng asosiy fikrni ajratish va o'qib chiqilganing rejasini tuzish imkonini beradigan mantiqiy izchillikka ega bo'lmaydi.

O'qiyotganlarning kasbiy predmetlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron manbalar bilan ishlashining asosiy uslublari – kasbiy materialni o'rganish bo'yicha topshiriqlarni bajari shdir.

Ko'rgazmali metodlar.

Eshirilgan – unutiladi,
Ko'rilgan – eslab qolinadi,
Bajarilgan – tushuniladi
Konfutsiy

Hissiyot organlari yordamida atrofdagi borliqni inson qabul qiladigan a'zolari orasida eng muhimi -- *ko'rishdir*. Atrofdagi dunyodan inson miyasiga kiradigan informatsiyaning 80% ko'rish organlari orqali kiradi. Bular qabul/idrok qilish jarayoniga ko'rish organlari bilan bog'liq bo'lgan o'qitish vositalarini, birinchi navbatda ko'rgazmali vositalarni, mohirona kiritish zaruratini taqozo qiladi.

O'qish jarayonida umumkasbiy va mutaxassislik fanlarida foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning hammasini shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin:

- *natural vositalar* (asboblari, priborlar, jihoz detallari va uzellari, materiallar, buyumlar va h.k.);
- *tasviriy vositalar* (plakatlar, modellar, maketlar, sxemalar, slaydlar, animatsiyalar, videofilmlar va b.l.).

Ko'rgazmali vositalarning funksiyalari turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda ular o'qituvchi tushuntirishiga illyustratsiya bo'ladi, boshqa hollarda esa – o'qiyotganlarda o'rganilayotgan predmetlar, voqelik yoki hodisalar haqida muayyan ko'rgazmali tasavvurlar hosil qilishi uchun vosita bo'ladi. Ko'rgazmali vositalar yangi informatsiyaning mustaqil manbai vazifasini o'tashlari mumkin.

Ko'rgazmali vositalardan o'quv jarayonida foydalanishda, ko'rgazmali vositalardan foydalanish *maqsad emas, balki maqsadga erishish vositasi* ekanligi haqidagi didaktik qoidadan kelib chiqish zarur. Shuning uchun o'qiyotganlarni kuzatilayotgan narsani yaxshilab ko'rib-o'rganib chiqish va tahlil qilish, undan zarur bo'lgan informatsiyani topib olish mahoratiga o'rgatish lozim.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish sifatini oshiruvchi samarali metodik uslub – bu nazoratdir. Ushbu maqsadda ko'rgazmali qo'llanmalar bilan mustaqil ishlashdan, ko'rgazmali eksperimentni o'tkazishdan, videofilmni ko'rsatish va h.k.dan oldin o'qiyotganlarga savollar ma'lum qilinadi, ular bo'yicha namoyish yoki mustaqil ish natijalari chiqariladi, ko'rib bilish (tanish), ajratish, taqqoslash, asoslash uchun maxsus topshiriqlar beriladi, ularni o'qiyotganlar ko'rgan narsalarini tahlil qilish asosida bajaradilar.

Nazariy o'qitishning amaliy metodlari. Asosiy amaliy metodlardan biri – *mashqlardir* (5.3.2 ga qarang). Kasbiy fanlarni o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlardan asosiy maqsad – o'qiyotganlarda olingan bilimlaridan amalda foydalanish mahoratini shakllantirishdir. Shu bilan birga mashqlar – o'qiyotganlarning bilim va mahoratlarini mustahkamlash va takomillashtirishning samarali usulidir.

Mashqlarning har xilligini uchta asosiy: reproduktiv, mahsuldor va ijodiy-izlanuvchi turlarga keltirish mumkin. Mashqlarni ushbu turlarga ajratish ma'lum darajada shartli tavsifga ega, chunki istalgan ijodiy-izlanuvchi turdagi mashq tarkibida reproduktiv va mahsuldor komponentlar ham bo'ladi.

Reproduktiv mashqlar. Ahamiyatli belgisi – bilimlar berilgan mazmunini qo'llash sohasining cheklanganligidir. Bular asosan berilgan obyektida tushunilganning mazmunini ajratish, tushunish va ifodalash bo'yicha masalalardir.

Bunday mashqlarning xarakterli turlaridan biri – hujjatlar, jihoz tuzilishi, materiallar va sh.k.larni o'rganishdir. Bunda o'qiyotganlarning bilish faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, birinchidan, shakl

o'rganilayotganining mohiyatini to'smasin va ikkinchidan, har bir mashq ma'lum fikrli yukni olib kelsin.

Mahsuldor mashqlar. Bunday turdagi mashqlarni bajarayotganda o'qiyotganlar olgan bilim va egallangan mahoratlaridan turli kombinatsiyalarda foydalanadilar, qo'yilgan masalalarning original yechimini mustaqil topishga o'rganadilar, bilimiy va amaliy tavsifga ega bo'lgan, ular uchun subyektiv yangi bo'lgan muammolarni yechish mahoratini egallaydilar.

Bunday mahoratlar, xususan, tizimiylashtirish bo'yicha mashqlar o'tkazilganda shakllanadi. Bunda o'qiyotganlar o'rganilayotgan predmet, voqelik, xossalari, usullar va sh.k.larni guruhlar va ninguruhlariga fikran taqsimlaydilar, ularning tur-xili belgilariga qarab ularni tasniflaydilar, solishtiradilar.

Namunaviy masalalarni yechish bo'yicha *namunaviy mashqlar*:

– *tanlashga oid* (texnologiyalarni, asboblarni, moslamalarni, ishlov berish usullarini va sh.k.larni);

– *solishtirish va baholashga oid* (ishlarni bajarish usullarini, u yoki bu jarayonlarni qo'llash samaradorligini);

– *bog'lanishlarni aniqlashga oid* (xossalarni, talablarni, voqeliklar orasidagi bog'lanishlarni va sh.k.larni);

– *har xil voqeliklar va jarayonlarni tushuntirishga oid*

Maxsus fanlarni o'rganishda texnologik jarayonlarni loyihalash bo'yicha mashqlar keng qo'llaniladi. Bunday mashqlarning asosiy didaktik maqsadi – o'qiyotganlarda birinchi navbatda amallarni bajarishga yondoshuvni, ularning asosiy prinsiplarini, namunaviy algoritmlarini, o'z-o'zini nazorat qilish usullarini texnologik rejalashtirishning umumlashgan mahoratlarini shakllantirishdir, ulardan foydalanib o'qiyotganlar o'zlariga ishongan holda muayyan texnologik jarayonni ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu turdagi mashqlarning tavsifiy xili – o'rganilayotgan texnologiyalar, protseduralar, mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar va sh.k.larning prinsiplarini tuzishdir. O'qiyotganlar bunda asosiyini ajrata olishlari, ikkinchi darajalilarga chalg'imasliklari, o'zaro bog'langan zvenolarni fikran tasavvur qila o'ishlari kerak.

Ijodiy-izlanuvchi mashqlar. Ular o'qiyotganlar fikriy faolligining yuqori darajasida o'tkaziladi.

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari uchun xarakterli bo'lgan ijodiy-izlanuvchi mashqlarning turlari.

Diagnostik mashqlar Bu mashqlarning asosiy didaktik mohiyati – o'qiyotganlar kasbiy fikrlashi “diagnostik komponentlarining”

rivojlanishidir. Ular bir necha bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda o'qiyotganlar nosozliklarni hamda namunaviy nosozliklar jadvallari, kartochka-topshiriq va sh.k.lardan foydalanib, kamchiliklar, nosozliklar, defektlarning turlarini aniqlaydilar. Ikkinchi bosqich – o'qiyotganlarda: “agar bunday bo'lsa, nima bo'ladi...”, “bu nimaga olib keladi...” va sh.k. turdagi vaziyatlarda aroyish olish mahoratini shakllantirish maqsadida bashorat qiluvchi masalalarni yechishdir. Diagnozga o'qitishning oxirgi bosqichi – talabalarning hujjatlardagi va texnologiyalardagi xatoliklarni izlab topish, texnik qurilmalardagi nosozliklarni izlash, ya'ni diagnostik masalalarni yechishda mashq qilishdir. *Konstruktorlik mashqlarini* ham izlanuvchi mashqlar qatoriga qo'shish mumkin.

Ular odatda o'qiyotganlarning mustaqilligi va kasbiy fikrlashi darajasini bosqichma-bosqich oshirishni nazarda tutuvchi ma'lum tizimda amalga oshiriladi

– mavjud texnologiyalar, konstruksiyalar va sh.k.larga o'zgartishlar kiritish bo'yicha masalalarni yechish;

– texnologiyalar, konstruksiyalarda yetishmovchi zvenolarning o'rnini to'ldirish bo'yicha masalalarni yechish;

– berilgan sxema bo'yicha texnologiyalar, konstruksiyalarni loyihalash;

– umumiy g'oya va berilgan talablar bo'yicha obyektlar, texnologiyalarni mustaqil loyihalash, konstruksiyalash.

Laboratoriya ishlari o'qitish metodi sifatida. Laboratoriya mashg'ulotlari laboratoriya ishlari va laboratoriya-amaliy ishlarga bo'linadi.

Laboratoriya ishlari odatda o'quv eksperimentlari bilan bog'liq. Bu – oliy va o'rta kasbiy maktabda o'qiyotganlar mustaqil ishining turlaridan biridir. Ularning maqsadi – nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, mustaqil eksperiment o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu ishlar o'z tarkibiga tajriba (eksperiment) uchun zarur bo'lgan priborlar, jihozlar, reaktivlar va b.larni tayyorlashni, tajriba o'tkazish rejasini tuzish, uni o'tkazish va bayon qilishni qamraydi. Tabiiy-ilmiiy va texnikaviy fanlarni o'qitishda keng qo'llanadi, bunda har bir laboratoriya ishi uchun nazariy kurs va laboratoriya ishlari orasida eng ratsional nisbat o'rnatiladi.

Laboratoriya-amaliy ishlari. Kasbiy o'qitishda laboratoriya-amaliy ishlari nazariy va ishlab chiqarish o'qitishlari orasida oraliq holatni egallaydi va nazariya va amaliyotni amalga oshiruvchi muhim vositalardan

biri bo'lib xizmat qiladi. Bunda bir tarafdin o'qiyotganlar bilimlarining mustahkamlashishi va takomillashishiga erishiladi. ikkinchi tarafdan esa – ularda ma'lum kasbiy mahorat shakllanadi.

Laboratoriya-amaliy ishlarning turlari:

– turli ishlab chiqarish. texnikaviy, texnologik, ekologik voqeiklar, jarayonlar. mehnat predmetlari (materiallar, xom-ashyo. tayyor mahsulotlarni kuzatish va tahlil (bayon) qilish;

– qurilma konstruksiyasini va mashina, mexanizmlar, priborlar, apparatlar. asboblari, dasturiy vositalar ishlashi va h.k.larni kuzatish va tahlil (bayon) qilish;

– qurilmani va nazorat-o'lchov vositalaridan foydalanish usullarini o'rganish;

– turli texnik obyektlarning nosozliklarini diagnostika qilish, rostlash, sozlash. ularga xizmat ko'rsatish usullarini o'rganish.

Laboratoriya va laboratoriya-amaliy ishlarni o'tkazishda topshiriq – yo'riq shaklida yozma instruksiyalash qo'llanadi. Ularda mavzu va ish maqsadi shakllantiriladi; ish bilan bog'liq bo'lgan nazariy ma'lumotlar qisqacha bayon qilinadi; ishini bajarish uchun zarur bo'lgan jihozlar, priborlar, asboblari va sh.k.lar ro'yxati keltiriladi; ishini bajarish tartibi bayon qilinadi va rioya qilinishi zarur bo'lgan ehtiyotkorlik choralarini ko'rsatiladi; ish natijalariga ishlov berish va ularni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

O'qitishning imitatsion (modellovchi) metodlari. Imitatsion metodlarning o'ziga xosligi – o'quv jarayonida real hayotning har turdagi munosabatlar va sharoitlarni modellashdir.

Ikkita imitatsion metod mavjud:

• *Muayyan vaziyatni tahlil qilish.* U yoki bu (salbiy yoki ijobiy) oqibatlariga ega bo'lgan real vaziyat beriladi. O'qiyotganlar qidirib topishlari, uni shakllantirishlari, ko'rilayotgan vaziyatda sharoitlar qanday bo'lgan, muammoni yechish uchun qanday vositalar tanlangan, ular ushbu sharoitga mos tanlanganmi va h.k.larni aniqlashlari kerak. Bu holda bajarilib bo'lingan amallar tahlil qilinadi

• *Vaziyat yechimini topish.* Yechimi topilmagan vaziyat modellanadi. O'qiyotganlar nafaqat muammoni shakllantirishlari, balki guruhlarga bo'linib, uni yechish variantlarini muhokama qilishlari kerak. Keyin yechimlarning "himoyasi", janoaviy muhokama tashkil qilinadi.

Imitatsion (modellovchi) o'qitish tizimining afzalliklari:

– o'qitishning (verballikdan farqli ravishda) *faoliyat tavsifidagiligi*, jamoaviy o'qish jarayonining tashkil qilinishi. Bunday faoliyatda muloqot, fikrlash, refleksiya shakllanadi.

– har bir o'qiyotganning operativ ravishda o'z-o'zini baholashi, o'z-o'zini nazorat qilishi asosida individuallikni rivojlantiruvchi vosita sifatida *guruh (jamoadan foydalanish*, chunki jamoaviy faoliyat har bir o'qiyotganga o'zining rivojlanganlik darajasi imkoniga yarasha muhokamalarda ishtirok etish imkonini beradi.

Muammoli o'qitish. Ushbu metod (aniqrog'i – metodik tizim) uchun quyidagilar xos: bilimlar va faoliyat usullari tayyor ko'rinishda berilmaydi, ularga rioya qilgan holda o'qiyotgan topshiriqni kafolatlangan ravishda bajarish mumkin bo'lgan qoida yoki yo'riqlar taklif etilmaydi. Material tayyor holda emas, balki izlash predmeti sifatida beriladi. O'qiyotganning izlanuvchan faoliyatini rag'batlantirish o'qitishning mohiyatini tashkil qiladi.

Bunday yondoshuv:

- ta'limning ijodiy shaxsni tarbiyalashga bo'lgan zamonaviy yo'nalish;
- zamonaviy ilmiy bilimning muammoli tavsifi;
- inson zamonaviy amaliyotining muammoli tavsifi;
- shaxs, inson psixikasi, xususan fikrlash, qiziqish va irodaning rivojlanishi (ular aynan muammoli vaziyatlarda shakllanadi) qonuniyatlari *bilan belgilanadi*.

Muammoli o'qitishning afzalligi – uning o'qiyotganlar ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi, o'qishga qiziqishi va h.k.larining rivojlanishiga bevosita yo'nalganligidadir.

Shular bilan birga u sezilarli kamchiliklarga ham ega: uni istalgan o'quv materialida qo'llab bo'lmaydi, uni faqat bir ma'noli bo'lmagan yondoshuvlar, baholashlar, talqin qilishlarga yo'l qo'yadigan o'quv materiallarida qo'llash mumkin; u ancha ko'p vaqt sarflanishini talab qiladi.

O'qitishning izlanuvchan-tadqiqot (masalali) metodi (5.4.1 ga qarang). Bu metod o'quv masalalarini qo'yishni bosqichma-bosqich tashkil qilishni, ularni yechish usullarini tanlashni, olingan natijalarni diagnostika qilish va baholashni nazarda tutadi. Bunday masalalarni strukturlash mantiqi har xil: oddiydan murakkabga, nazariydan amaliyga va aksincha bo'lishi mumkin.

Masalali o'qitishning mohiyati shundaki, o'qitish masalalar tizimi sifatida tuzilsin va quyidagilarni:

- *birinchi*dan, o'q yotganlarga taqdim etilayotgan masalalarning muammoliligini anglashda yordam berish (muammolilikni ko'rgazmali qilish);
- *ikkinchi*dan, (masalalardagi) muammolik vaziyatlarni yechishni o'qiyotganlar uchun shaxsiy-ahamiyatli qilish usullarini topish;
- *uchinchi*dan, ularni muammoli vaziyatlarni ko'ra bilish va tahlil qilish, muammo va masalalarni ajratib olishga o'rgatish

uchun vositalar (yo'riqlar, uslublar) ishlab chiqilsin.

O'qitishning masalali tizimida metodlarning ikki katta guruhini ajratishadi:

- *mantiqiy metodlar* – bu metodlarga tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, induksiya, deduktiya kabi mantiqiy qoidalar ko'pchilikni tashkil qiladi;

- masalalarni yechishning *evristik metodlari*, ular yechish jarayonining ehtimoli katta bo'lgan strategiyalarini beradi va bunda o'qiyotganlarning intuitiv fikrlashini va yangi g'oyalarni generatsiya qilishni rag'batlantiradi.

Loyihaviy o'qitish metodi. Loyihaviy o'qitishning markaziy zvenosi – *loyiha* – muammoni yechish yo'li (rejasi) bo'lib, u o'qiyotgan uchun muhim ahamiyatga ega. Uning o'ziga xos xususiyati – mavjud bo'lgan yechim va loyihalardan farqli bo'lishidir. Eng yaxshi, o'zining yechimini topishga intilish o'qitishning asosiy motivatsiyasini belgilaydi.

Agar bilimlar haqiqat va qarama-qarshilik sifatlariga ega bo'lsalar, informatsiya – istalgan tavsifdagi ma'lumotlardir, ular ko'pincha gapirayotganlarning fikrini ifodalaydi, ba'zan esa shubhali bo'ladi. Loyihaviy o'qitishda olinayotgan informatsiyadan bilimlarni yaratish va terib olish, ya'ni nafaqat tayyor bilimlardan, balki yarimfabrikatlardan (informatsiya ko'p hollarda shunday bo'ladi) foydalanish qobiliyati rivojlanadi. "Absolyut haqiqatlarni" uzatishdan o'qiyotganlar shaxsiy bilimlarini izlab qo'lga kiritish usullariga o'tish amalga oshadi.

Kontekstli o'qitish metodi. Bo'lajak kasbiy faoliyatning o'q yotganlar o'zlashtirayotgan predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirishga asoslangan o'qitish. Kasbiy bo'lajak konteksti o'qiyotganlarning o'quv faoliyatini shaxsiy ma'no bilan to'ldiradi, ularning faolligi, o'quv va kasbiy motivatsiyasining yuqori darajada bo'lishini belgilaydi. Kontekstli o'qitish o'quv-kasbiy va kasbiy modellar, jumladan o'yinli shakllarda amalga oshiriladi.

5.4.2. O'quv faoliyatini motivatsiyalovchi metodlar

Insonning istalgan faoliyati, jumladan o'quv faoliyati ham, bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi, ular ichida eng asosiysi – ehtiyojdir. Ehtiyojlar hatti-harakatlarning sabablarini qo'zg'aydi, ularni psixologiyada *motivlar* deb atashadi. Insoniy ehtiyojning asosi – bu bilish ehtiyojidir.

Bilim olishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani tarbiyalash ko'p jihatdan o'qish mazmuniga bog'liq. Faqat o'qiyotganlar ehtiyojlariga javob beradigan materialgina faol bilim olish faoliyatiga impuls beradi. SHuning uchun mashg'ulot o'tkazayotganda o'qituvchi, birinchi navbatda, o'qiyotganlar, ular nima uchun dasturning ushbu bo'limini o'rganishlari kerak, ular nima uchun dasturning ushbu bo'limini o'rganishlari kerak, ular aynan nimani o'rganadilar va o'zlashtiradilar, o'quv vazifasi va bo'lajak ishning natijaviy maqsadi qandayligini, aniq anglashlarini ta'minlashi kerak.

Lekin o'quv mazmuni bilim olishga ijobiy motivatsiya hosil bo'lishiga faqat asos yaratadi xolos. Bilim olishga bo'lgan motivatsiya pedagogik ta'sirlar tizimi ta'sirida shakllanadi. lekin birinchi navbatda u bevosita o'quv faoliyati jarayonida tarbiyalanadi. Motivatsiya vujudga kelishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun o'qiyotgan harakat qilishni boshlashi kerak.

Bunday “motivatsion aspektni” realizatsiya qilish usullaridan biri – o'qiyotganlar bilimlari va tajribasini faollashtirishni samarali tashkil qilish, muammoli vaziyatni yaratish. evristik suhbatni o'tkazish, o'rganilishi lozim bo'lgan voqelik, qonuniyat, usul kashf qilinishi tarixini o'qituvchi qiziqarli gapirib berishidir. Ushbu bosqichda o'qiyotganlar o'z ishlarining istiqbolini, uning oldin o'rganilganlar bilan aloqasini aniq anglashlari, uni sifatli bajara olishlariga inonishlari ham muhimdir.

O'qiyotganlarning “*aqliy ishtahasini*” hamda ularning mulohaza qilish, qiyoslash, solishtirish, o'zlarini baholashlarini muttasil rivojlantirish ham juda muhim hisoblanadi.

Mashg'ulotlar paytida “*muvaffaqiyat metodikasi*” deb nomlanuvchi metodikani qo'llash bilim olishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rivojlantirishga sezilarli ta'sir qiladi. Uning mohiyati shundaki, u o'qiyotganlarda muvaffaqiyatga, o'zining kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni to'xtovsiz qo'llab-quvvatlab turadi.

O'qiyotganlarni o'quv faoliyatiga muhim qo'zg'ovchilardan biri – baho, baholashdir. Lekin ko'p hollarda tajribasiz pedagog qo'lida u bilim olishga bo'lgan ehtiyojlar rivojlanishini uzoq vaqt tormozlashga qodir bo'lgan omilga aylanishi mumkin. Shuning uchun baholashdan

motivatsiyalash vositasi sifatida pedagogik ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim.

Bilim olishni motivatsiyalashni shakllantirish va rivojlantirishning yuqorida qayd etilgan uslublarni tizimiy qo'llash motivatsiyaning asta o'z-o'zini motivatsiyalashga o'tishiga olib keladi, bunda muvaffaqiyatli o'qish uchun o'qituvchidan sezilarli impuls olishga hojat qo'lmaydi.

Bilim olishga bo'lgan motivatsiyani tarbiyalash va rivojlantirish yo'llari haqida gap ketganda o'qiyotganlarga o'qituvchi, o'quv ustasi shaxsining, ularning pedagogik mahorati, obro'ining ta'sirini alohida ko'rsatish kerak. O'zining o'quvchilariga ular o'zlashtirayotgan kasbning ular uchun ham shaxs va ham ijtimoiy nuqtai-nazardan qanchalik muhimligini tushuntira oladigan, kasb haqida nafaqat ishonchli tarzda gapirib bera oladigan, balki ishini bajarish namunasini ko'rsata oladigan, yangilikni izlashga ergashtira oladigan, o'quv jamoasida ishchi muhit, namkorlik muhitini yarata oladigan o'qituvchilar bilim olishga bo'lgan ijobiy motivatsiya o'qiyotganlarda hosil bo'lishiga tezroq erishadilar.

Qisqacha xulosa

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari ko'p jihatdan ular mazmunining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Asosiy amaliy metodlardan biri – mashqlardir. Mashqlardan asosiy maqsad – o'qiyotganlarda olingan bilimlaridan amalda foydalanish mahoratini shakllantirishdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari ular mazmunining qanday xususiyatlari bilan aniqlanadi?
2. O'qiyotganning o'quv-bilim olish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlarini bayon qiling va izohlang.
3. Materialni og'zaki bayon qilishga bo'lgan umumiy talablar va metodik uslublarni aytib bering.
4. O'qiyotganlarning kasbiy predmetlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron manbalar bilan ishlashning asosiy uslublari nima?
5. Ko'rgazmali metodlarni bayon qiling.
6. Mashqlarning har xilligini qaysi turlarga keltirish mumkin?
7. Mahsuldor mashqlarning mohiyatini yoritib bering.
8. Namunaviy masalalarni yechish bo'yicha namunaviy mashqlar turlari nimalarga oid bo'ladi?

9. Ijodiy-izlanuvchi mashqlar turlarini va ularning har birining vazifasini aytib bering.

5.5. Kasbiy o'qitishda o'quv loyihalash metodlari

O'quv loyihalash – kasbiy kollejda o'quv jarayonining ajralmas qismidir, chunki:

– o'qish jarayoni o'qiyotganlar o'zlarining ta'lim mahsulotlarini yaratish va mahsuldor faoliyat tajribasini egallash asosida tuziladi;

– o'qiyotganlarning individual xususiyatlariga qarab o'qitishda differensiyalashning har xil shakl va turlarini amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi;

– o'qitish jarayoni hamkorlikda o'qish asosida tuziladi, u o'quv jarayoni hamma ishtirokchilarining faol hamkorlikdagi o'quv faoliyati uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, "haqiqiy" kasbiy ishlab chiqarish loyihalash jarayoni va o'quv loyihalash jarayoni qator farqliklarga ega, bu farqliklar birinchi navbatda qo'yilgan maqsadga bog'liq. Agar ishlab chiqarish loyihalashining maqsadi faoliyat natijasi sifatida loyihani yaratishda bo'lsa, o'quv loyihalashi birinchi navbatda o'qiyotganlarning qo'yilgan o'quv-kasbiy masalani yechishga mustaqil erishish usullari va uslublarini egallash bilim olish ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga yo'nalgan.

O'quv loyihalashning muhim farqlaridan biri -- ushbu jarayon xarakterining kompleksligidir, u o'qiyotganlar (o'qiyotganlar guruhi) funksional savollarni ishlab chiqishni, konstruktorlik, texnologik, ergonomik, iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va boshqa masalalarni bir vaqtda ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yondoshuv o'quv loyihalash paytida bir butunlik va garmonik xususiyatlarga ega bo'lgan obyektни yaratishga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'quv jarayoniga har taraflama faoliyatni kiritish o'qiyotganlarning individualligi, ularning qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlari namoyon bo'lishi uchun obyektiv imkoniyatlari yaratadi.

O'quv loyihalash masalalarining (ularni bajarish davomidagi faoliyatga qarab) quyidagi turlar ni ajaratishadi:

- *informatsion-tadqiqot masalalari*;
- *konstruktorlik masalalari*;
- *texnologik masalalar*.

Informatsion-tadqiqot masalalari Bu masalalar maqsadi-tadqiqot qilinayotgan obyekt yoki voqelik haq da zarur bo'lgan informatsiyani

yig'ish, uni tahlil qilish va umumlashtirishdir. Bu masalalar o'qiyotganlarning fikrlashini rivojlantirish, ularda fikrlash faoliyatining uslub va usullarini shakllantirishga yo'nalgan.

Bu masala strukturasi quyidagi *mulohazalardan* kelib chiqqan holda tuziladi:

a. Loyihalashning umumiy vazifasidan kelib chiqqan holda informatsion izlash predmetini aniqlash.

b. Uning asosiy sifatlari va belgilarini aniqlash.

c. Qiyosiy tahlil qilish uchun mezonlarni aniqlash.

d. Informatsiyani yig'ish va olingan informatsiyani anglash.

e. Olingan informatsiyani qiyosiy tahlil qilish.

f. Umumlashtirish.

Informatsion-tadqiqot masalalarini yechishning bunday pozitsiyasi o'qiyotganlar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va elementlar bo'yicha tahlil qilish va eng asosiyini ajratish mahoratini shakllantirish bilan bog'liq. Bundan keyin bajariladigan qiyosiy tahlil uchun mezonlarni aniqlash ushbu jarayonning natijasi bo'ladi. Bir butunlikni qismlarga ajratish; mazmunni shakldan ajratishga o'rganish; predmetning muhim va muhim bo'lmagan belgilarini aniqlash; asosiyini ikkinchi darajalilaridan ajrata olish; natijalarni turli belgili va grafikli shaklda qayd etish va h.k. mahoratlarini o'qiyotganlarda bosqichma-bosqich va elementlar bo'yicha shakllantirish zarurligini alohida qayd etish lozim.

Konstruktorlik masalalari. Masalalarning bu sinfi o'ylangan narsa shakli va mazmunining bir-biriga mosligi talablarini qondiradigan loyihalana yotgan obyektning modelini qurishga yo'nalgan.

Konstruktorlik masalasini yechish jarayoni badiiy va texnik konstruksiyalash jarayonining bir butunligi zaminida quriladi. Texnik konstruksiyalash obyektini uning funksional va moddiy asosida yaratishga yo'nalgan. Badiiy konstruksiyalash esa shakl hosil qilish qonuniyatlari: tartiblashtirilganlik, proporsionallik, garmoniklik, dinamiklik, rangli shakllantirish va h.k.larga mos holda predmetning maqsadga muvofiq shaklini, obyekt obrazini yaratishga yo'nalgan.

Izlanuvchi, tadqiqot qiluvchi metodlardan foydalanishga yo'nalgan bunday masalalar o'qiyotganlarning konstruktorlik qobiliyatlarini, fazoviy tasavvurini va fikrlashini rivojlantiruvchi muhim vositalardan biri bo'lib, o'qiyotganlarning intellektual, konstruktorlik-texnik, texnik-texnologik mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'nalgan.

Loyihalash jarayoni kontekstida ushbu masalalarning strukturasi quyidagi bosqichlar asosida tuziladi.

1. Oldingi bosqichda o'tkazilgan loyihadan oldingi tahlil asosida konstruktorlik masalasi (muammo)ni shakllantirish.

2. G'oyani shakllantirish – ideal (hayotiy) modelni yaratish.

3. Konstruktorlik masalasini yechishning mumkin bo'lgan variantlarini izlash va tahlil qilish (xomaki plan, eskizlar, sxemalarni tuzish)

4. Muayyanlashtirish va eng yaxshi yechimni shlab chiqish – loyihalananayotgan obyekt: texnikaviy hujjatning belgili modelini yaratish.

5. Tajribaviy namunani yaratish va uni aprobatiya qilish – loyihalananayotgan obyektning moddiy modelini yaratish va uni sinash.

6. Oldingi faoliyatni to'g'rilash va baholash.

Texnologik masalalar. O'qiyotganlarning informatsion, texnologik, materialshunoslik, tashkiliy, mantiqiy, ekspluatatsion, iqtisodiy, ekologik va boshqa masalalarni yechish bo'yicha ularning faoliyatini tashkil qilishga yo'nalgan.

Ushbu masalalarni yechishda o'qiyotganlarning faoliyati reproduktiv tavsifga ega bo'ladi. O'qiyotganlarga materialni tanlash, texnologik jarayonlar yoki konstruksiyalarni ishlab chiqish, jarayon guruhiy tashkil qilinganida rollarni taqsimlash, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni hisoblash va h.k.lar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechish, ya'ni faoliyatning qisman izlanuvchi va ijodiy carajalardagi masalalarni ham yechishga to'g'ri keladi.

Kursaviy loyihalash. Kurs loyihalari (kurs ishlari) kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlar talabalariga alohida, eng muhim o'quv fanlarining tarkibiy qismi sifatida topshiriq ko'rinishida beriladi. Kurs loyihasini bajarish jarayonida talaba ilmiy, texnikaviy, texnologik adabiyot bilan mustaqil ishlash, to'plangan tajribani umumlashtirish ko'nikmalarini va o'zining ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va tavsiyalar qilish mahoratini rivojlantiradi.

Kursaviy loyihalashning *maqsadi*

- o'quv fanini o'rganish jarayonida o'zlari egallagan nazariy bilimlarni mustahkamlash va rivojlantirish;

- texnologiya va unga mos instrumental vositalar variantini tanlash mahoratini rivojlantirish.

- talabalarning loyihachining metodik materiallarini ishlab chiqishning analiy ko'nikmalarini egallash;

- loyihaning informatsion, dasturiy, texnologik ta'minoti bilan birga uning hamma komponentlarini loyihalash operatsiyalarini bajarishda yechimlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish mahoratini egallash;

• loyihalashni taklif etilgan variantining maqsadga muvofiqligini iqtisodiy, ekologik va h.k. asoslash mahoratini mustahkamlash.

Bitiruv malakaviy ishi. Bitiruv malakaviy ishi talabalar oliy o'quv yurtida o'qishining yakuniy bosqichidir. Uning maqsadi:

– yo'nalish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini tizimiylashtirish, mustahkamlash va kengaytirish, ularni muayyan ilmiy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ishlab chiqarish masalalarini yechishda qo'llash;

– mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, loyihaviy ishlarni, nazariy va eksperimental tadqiqotlarni bajarish metodikasini egallash;

– real kasbiy loyihalar va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda iqtisodiy (jumladan resurs va energiya tejamkorligi texnologiyalarini), ekologik va boshqa talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish yechimlarini tanlash va asoslash metodlarini o'zlashtirish bo'ladi.

Shu bilan birga talabaning bitiruv malakaviy ishi ustida ishlashi uning kasbiy faoliyatining birinchi bosqichi va odatda uning birinchi kasbiy ishlanmasi bo'ladi.

Qisqacha xulosa

Umumkasbiy va mutaxassislik fanlarini o'qitish metodlari ko'p jihatdan ular mazmunining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Asosiy amaliy metodlardan biri – mashqlardir. Mashqlardan asosiy maqsad – o'qiyotganlarda olingan bilimlaridan amalda foydalanish mahoratini shakllantirishdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy kolleжда kasbiy loyihalash nima sababdan o'quv jarayonining ajralmas qismi ekanligini asoslab bering.
2. *Haqiqiy kasbiy ishlab chiqarish* loyihalash jarayoni va o'quv loyihalash jarayoni orasidagi farqliklarni izohlang.
3. O'quv loyihalash masalalarining qanday turlari mavjud?
4. Informatsion-tadqiqot masalalarining maqsadi nima? Bu masalalar nimalarga yo'nalgan?
5. Informatsion-tadqiqot masalalarining strukturasi qaysi mulohazalardan kelib chiqqan holda tuziladi?
6. Konstruktorlik masalalari nimaga yo'nalgan?
7. Konstruktorlik masalasini yechish jarayoni qanday zaminda quriladi? Bu zaminlar nimaga yo'nalgan?
8. Loyihalash jarayoni kontekstidagi masalalar strukturasi qaysi bosqichlar asosida tuziladi?

9. Texnologik masalalarni yechish nimalarga yo'nalgan?
10. Kurs loyihasini bajarish jarayonida talaba o'zining qanday ko'nikmalari va mahoratlarini rivojlantiradi?
11. Kursaviy loyihalashning maqsadlarini bayon qiling.
12. Bitiruv malakaviy ishining maqsadlarini aytib bering.

5.6. Amaliy (ishlab chiqarish) o'qitish metodlari

Bugungi kunda mehnat bozorida yoshlar mavaffaqiyatining garanti – bu ular kasbiy tayyorlanganligi darajasining sifati, kasbiy mahoratining darajasidir. Bu esa kasbiy ta'lim muassasalari oldiga o'qiyotganlarni amaliy (ishlab chiqarish) o'qitishni yaxshilash bo'yicha, uni amalga oshirish metodlarining samaradorligini oshirish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yinoqda. Amaliy o'qitish metodlari ko'p jihatdan ularning o'qish jarayonidagi o'rni bilan aniladi.

5.6.1. Amaliy o'qitish metodining o'ziga xosligi

Kasbiy ta'lim muassasasida o'quv jarayonining tarkibiy qismini sifatida amaliy o'qitishga o'qitish jarayonining hamma asosiy xarakteristikalari to'g'ri mos. Shu bilan birga amaliy o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular uning maqsadlarini aniqlashga yondashuvlarning spetsifikasini, mazmunini, shakllarini va metodlarini aniqlaydi.

Amaliy o'qitishning maqsadi. Amaliy o'qitishning asosiy maqsadi – o'qiyotganlarda muayyan kasb, mutaxassislik sohasida kasbiy mahoratni shakllantirishdir.

Bu asosiy maqsad amaliy o'qitish masalalarida muayyanlashtiriladi, ularga ushbu asosiy maqsadga erishish yo'llari, bosqichlari sifatida qarash lozim. Maqsadlar va vazifalar/masalalarning o'zaro bunday bog'liqligidan kelib chiqib, "kasbiy mahorat" tushunchasining mohiyatni yorituvchi quyidagi mezonlar – ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz:

– *ishni bajarish sifati* – texnologik talablar (shartlar)ning ish natijalarida bajarilishi; o'rnatilgan/belgilangan ko'rsatkichlar va normativlar, parametrlarga mosligi; barqaror ijobiy natijalarga erishish;

– *mehnat unumdorligi* – o'rnatilgan/belgilangan vaqt normalarini bajarish; vaqt omilini qadrlash qobiliyati va mahorati, ishni bajarish va mehnatni tashkil etishning tejamkor va unumdorli usullarini o'zlashtirishga intilishni shakllantiradi;

– *kasbiy mustaqillik* – yuqori sifat va mehnat unumdorligini ta'minlovchi ishlash usullarini mustaqil tanlash mahorati; ishlab chiqarish sharoitini mustaqil tushunish, to'g'ri qaror qabul qilish; ishda o'zini nazorat qilish va amallariga tuza ishlar kiritib berish;

– *mehnat qilish madaniyati* – o‘z mehnatini rejalashtirish qobiliyati va odobi; mehnat qilishning ratsional uslublari va usullari, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab ishlash mahorati; ishni va ish joyini ratsional tashkil qilish; mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

– *mehnatga ijodiy yondashish* – mehnat jarayoniga original yangilikni kiritish, mehnatni tashkil qilish va ishlash jihozlarini tashkillashtirish qobiliyatini rivojlantirish; ratsionalizatorlik va kashfiyotchilikka intilish;

– *mehnat faoliyatining ijodiy maqsadga muvofiqligi* – bajarilayotgan mehnat jarayonini iqtisodiy nuqtai-nazardan tahlil qilish, ishni bajarish jarayonida iqtisodiy nuqtai-nazardan optimal qarorni qabul qilish qobiliyati;

– *mehnat faoliyatida ekologik ma'lumot* – atrof-dagi odamlar, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlash qobiliyati.

Ushbu vazifalarni realizatsiya qilish o‘qituvchilar, ishlab chiqarishga o‘qitish ustalari o‘qitish faoliyatining va o‘qiyotganlar o‘quv faoliyatining mohiyatini tashkil qiladi. Amaliy o‘qitish mazmuni, metodlari va tashkil qilishning hamma masalalarini amalda ushbu ko‘rsatkichlar orqali ko‘rish zarur.

Amaliy o‘qitish metodlari (ham klassifikatsiyasi bo‘yicha va ham mohiyati bo‘yicha) nazariy o‘qitish metodlariga monand, amaliy o‘qitish jarayonida nazariy o‘qitishning ko‘p metodik uslublari ishtirok etishadi. Buni e‘tiborga olib, faqat amaliy o‘qitishga xos bo‘lgan metodlar: mehnat amallari uslublarning ko‘rsatish, mashqlar, o‘qiyotganlarning mustaqil kuzatishlari, yozma instruktorlash, ishlashning ilg‘or yuqori unumdorli va uslublari va usullari, mehnatga ijodiy yondashishni shakllantirish, hamda ba‘zi “amaliy o‘qitishning” ba‘zi “faol” metodlarini ko‘rib chiqamiz.

5.6.2. Mehnat hatti-harakatlari uslublarini ko‘rsatish

Bu metodning maqsadi – o‘qiyotganlar ongida mehnat amallari/hatti-harakatlarining aniq va ravshan obrazini yaratishdir, ishlashning mos uslublari va usullarini mashq qilib o‘rganishayotganda o‘zlarining hatti-harakatlarini o‘sha obrazlar bilan taqqoslaydilar.

Mehnat hatti-harakatlarining to‘liq va aniq obrazi o‘qiyotganlarning ongida birdaniga vujudga kelmaydi. Dastlab uning tasavvuri xotiraga umumiy ko‘rinishda yoziladi, so‘ngra asta-sekin uning detallari aniqlashtirilib boradi. O‘qiyotganlar ko‘rayotganlarini anglashlari, uning hamma batafsilliklarini tushunish uchun, ular vaqt davomida hatti-harakatning har-bir detalini/elementini alohida-alohida idrok qilishlari zarur. Shuning uchun usta bajarib ko‘rayotgan mehnat amallari/hatti-harakatlari, o‘z harakatining alohida-alohida elementlarini sekinlashgan

tempda, uslub yoki bir butun hatti-harakatni alohida bo'laklarga bo'lib, ular orasida pauzalar qilib, o'qiyotganlar diqqat-e'tiborini naqafat yakuniy natijaga, balki hatti-harakatlarining oraliq onlariga ham jalb etadi.

Ko'rsatilayotgan mehnat uslublarini idrok etayotganda o'qiyotgan bajarilayotgan hatti-harakatlarni nafaqat tushunishi, balki unga usta ko'rsatayotgan hatti-harakatlarni hamma iker-chikirlarigacha eslab qolishi kerak. Shu sababli mehnat uslublari va usullarini ko'rsatishni bir necha marta takrorlash zarur.

Uslublar ko'rsatilayotganda ko'rsatilayotgan metodik usublarning vazifasini aniq tushuntirish zarur. O'qiyotgan oxir-oqibatda mehnat hatti-harakatlarini bir butunlikda aniq va ravshan tasavvur qilish lozim. Shuning uchun mehnat uslublarini ko'rsatish normal ish tempi va ritmida boshlanishi va tugallanishi kerak.

5.6.3. *Mashqlar*

Ko'nikmalar va mahoratlar mashq qilish yo'li bilan shakllanadi, ushbu ma'noda ular amaliy o'qitishning asosiy metodi hisoblanadi. Mashq qilish deganda ularni ongli ravishda takomillashirish maqsadida muayyan hatti-harakatlarni ko'p qayta tayyorlash tushuniladi.

Mashqlar tizimi. Ishlab chiqarish o'qitishi jarayonida mashqlar ma'lum tizimda bajarilishi kerak. Mashqlar tizimi ularning o'quv maqsadlarining o'zaro bog'liqligi, ierarxiyasini, o'rganilayotgan mehnat hatti-harakatlari to'g'ri bajarilishini mashq qilishni, ular aniqligini, ishda ma'lum tezlikka erishishni, kasbiy mustaqillik shakllanishini va, nihoyat, mehnatga ijodiy munosabat shakllanishini nazarda tutadi. Bu maqsadlar murakkabligi bo'yicha asta-sekin va doimiy ravishda o'tib borishi kerak. Har bir keyingi maqsad albatta oldinisini saqlaydi va o'ziga qamraydi; har bir oldingi mashq keyingisini bajarishga tayyorlashi kerak. Bu o'qiyotganning kasbiy mahorat asoslarini o'zlashtirishda ketma-ketlikda oldinga siljishini ta'minlaydi.

Mashqlar klassifikatsiyasi. Mashqlarning turli turlarin ajratish ularning mazmuni va ularni o'tkazish metodlarining xususiyatlarini ko'rib chiqish uchun muhim. Mashqlar klassifikatsiyasiga ikki yondashuv – asos mavjud. Birinchisi – didaktik maqsadi bo'yicha: ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mashqlar; birlamchi mahoratlarini shakllantirish bo'yicha mashqlar; murakkab mahoratlarini shakllantirish bo'yicha mashqlar. Ikkinchisi – mazmuni bo'yicha: mehnat uslublarini bajarish bo'yicha mashqlar; mehnat operatsiyalarini bajarish mashqlari; mehnat jarayonlarini bajarish mashqlari; texnologik jarayonlarni boshqarish mashqlari. Mashqlarni didaktik maqsadi bo'yicha ajratishri amaliy

qo'llash nuqtai-nazaridan qabul qilish qiyinroq. chunki bunday mashqlarni ularni bajarish vaqti bo'yicha amaliy o'qitishning qaysi vaqt davriga kiritish lozimligini aniqlash juda qiyin. Chunki mahoratlar va ularning avtomatlashgan komponentlari – ko'nikmalarning shakllanishi parallel va uzluksiz boradi. Mashqlarni ularning mazmuni bo'yicha klassifikatsiyasi amaliy o'qitishning davriyligi ko'p darajada mos keladi, ularni ma'lum vaqt doirasida cheklash mumkin.

Mashqlarning bunday xarakteristikasidan kelib chiqib, amaliy o'qitishning butun jarayonini o'qiyotganlarda kasbiy mahorati shakllantirish maqsadida ketma-ket murakkablashib boradigan mashqlar jarayoni sifatida ko'rish mumkin.

Haqiqatda, kasbiy mahoratni egallash – bu yangi va yana yangi o'quv-ishlab chiqarish masalalarini yechishning uzviy ketma-ketlikdagi qadamli-bosqichlari yangi maqsadlarga erishishdir, bu esa mashqlarning eng muhim belgisi hisoblanadi.

Dastlab, uslub va operatsiyalarni o'rganishda – ishni bajarishda hattiharakatlar to'g'ri bajarilayotganligiga ishonch hosil qilish; keyin – amallarni aniq, tez bajarishga erishish; kompleks tavsifdagi (mehnat jarayonlarini boshqarish, texnologik jarayonlarni boshqarish mashqlari) ishlarni bajarishda amaliy o'qitishning yangi maqsadlariga erishishdir. Kasbiy mustaqillikni, ishlash madaniyatini, bajarilayotgan ish jarayonini iqtisodiy va ekologik tahlil qilish qobiliyatini, o'zining ko'p xususiyatlari va darajalariga ega bo'lgan ishga ijodiy munosabatni shakllantirish uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan maqsadlar bo'ladi.

Demak, mashqlarning ketma-ketligi haqidagi amaliy o'qitish jarayoni haqidagi tushuncha – mantiqiy xulosa emas, balki real didaktik voqelikdir.

Mashqlar va mustaqil ish. Mashqlar metodini ko'rayotganda “*mashqlar va mustaqil ish*” tushunchalarini farqlash lozim. O'qiyotganlarning mustaqil ishiga sezilarli darajada mustaqil tavsifga ega bo'lgan, ya'ni pedagogga bog'liq bo'lmagan, o'qiyotganning faoliyati sifatida ko'rish mumkin. Har xil namoyish bo'lishlarda o'qiyotganlar kasbiy mustaqilligining shakllanishi bunda yetakchi didaktik maqsad bo'ladi. Shunday qilib, o'qiyotganlarning *mashqlari va mustaqil ishi* bir butunlik va bo'lak-bo'lak nisbatda bo'ladi.

Trenajyorlarda mashq qilish. Ishlab chiqarish sharoitlari bunday mashqlarni real ishlab chiqarish sharoitida samarali tashkil qilish imkonini bermagan holda yoki bunday mashqlar o'qitish jarayonini arzonlashtirganda ishlash ko'nikma va mahoratlarini shakllantirish va takomillashtirishda trenajyorlar qo'llanadi.

Trenajyorda har bit vaziyat amallarning ma lum birkmasi, nazorat-o'lchov priborlarining ko'rsatkichlari va sh.k.lar vositasida beriladi. Agar trenajyorda qurilma, apparat, tizimning zarur bo'lgan hammani bajarishning iloji bo'lmasa, ularring ba'zilari og'zaki habar qilinadi.

Topshiriqni olgandan so'ng, o'qiyotgan dastlab normadan chetga chiqishliklar borligi yoki yo'qligini va ularning xarakterini aniqlaydi. So'ngra qurilma-trenajyorni boshqarish organlarini manipulyatsiya qilish yo'li bilan u priborlar ko'rsatkichlarining qiymatlarini o'zgartiradi, zarur bo'lgan qayta ulashlar, o'qirishlar va h.k.larni to tizim normaga kelmagunicha davom ettiradi.

Topshiriqni bajargach, u hamma hatti-harakatlarini batafsil asoslaydi. Trenajyorda mashqlar to o'qiyotganning amallari/hatti-harakatlari yetarlicha asoslangan, aniq va ishonchli bo'lmagunicha davom ettiriladi.

5.6.4. O'qiyotganlarning mustaqil kuzatishlari

Bu metod, asosan ularning mehnati mu'akkab jihozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarda kasblar va mutaxassisliklarga amaliy o'qitish jarayonida qo'llaniladi. Kuzatishni o'qiyotganlar mustaqil, lekin pedagog nazorati ostida va topshirig'i bo'yicha o'tkazishadi. Topshiriqda odatda mustaqil kuzatish tartib ko'rsatiladi, kuzatuv natijalarini shakllantirish bo'yicha yo'riqlar beriladi.

Kuzatuv oldidan o'qiyotganlarga yo'riqlar berayotganda usta o'qiyotganlar topshiriq mohiyatini, ular javob berishlari lozim bo'lgan savollarni, kuzatish tartibi/ketma-ketligini, vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni, ularni yengish usullarini, rioya qilinish lozim bo'zlgan xavfsizlik choralarini, yordam kerak bo'lganda kinga murojaat qilish mumkinligini, kuzatish natijalari qanday shakllantirilishini aniq tasavvur qilishlariga erishish kerak.

O'qiyotganlarning mustaqil kuzatishlariga rahbarlik qilayotganda usta ularga ma'lum onlarni kuzatish uchun ajratib olishda yordam beradi, kuzatishni lozim bo'lgan jarayon belgilariga ularning e'tiborini jalb etadi, o'qiyotganlarni bu belgilarni har xil obyektlar bilan solishtirishga undaydi, kuzatilayotgan voqelik va jarayonlarni o'qiyotganlarga ma'lum qonuniyatlar, qoidalar, talablar, normativlar va sh.k.lar asosida tushunishlariga ko'maklashadi.

5.6.5. Yozma instruktorga

Bu metodni qo'llash informatsiyaning mustaqil manbalari bo'lgan turli instruktiv o'quv natijalaridan foydalanish bilan bog'langan. Amaliy o'qitishda instruksion-texnologik (instruksion-texnologik) xaritalar va o'quv algoritmlari keng qo'llaniladi.

Instruktsion xaritalar o'quv operatsiyalarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Ular namunaviy ketma-ketlikni, qoidalarni, vositalarni, o'rganilayotgan operatsiyaning o'zlashtirilayotgan mehnat uslublarini bajarish nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish masalalarini yoritadi.

Texnologik (instruksion-texnologik) xaritalar kompleks tavsifdagi ishlarni bajarishda qo'llaniladi; ular texnologik ketma-ketlik, rejimlar, texnik talablar, o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish vositalarini yoritadi. Kompleks ishlarni bajarishning boshlang'ich bosqichlarida qo'llaniladigan instruksion-texnologik xaritalar, bundan tashqari, ishni bajarish qoidalari haqida instruktiv ko'rsatmalar va tushuntirishlarni o'ziga qamraydi.

O'quv algoritmlari jihozlarga hizmat ko'rsatish, ularni rostdash, nosozliklarni diagnostika qilish, murakkab jihozni rostdashga o'qitishda qo'llaniladi. Ularda turli texnik vaziyatlarda ishlarni bajarishning aniq qoidalari bo'ladi.

Yozma instruktorlash kabi bunday hujjatning mavjudligi har bir o'qiyotganga zarurat bo'yicha o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish jarayonida undagi yo'riqlarga, istalgan sharoitlarda qaytalab murojaat qilish imkonini beradi. Bu o'qiyotganlarga o'z ishini doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi, ustaning amaliy o'qitish jarayonini boshqarish bo'yicha imkoniyatini kengaytiradi.

Yozma instruksiyalash hujjatlardan pedagog o'qiyotganlarga kirish yo'rig'ini o'tkazayotganda ishni bajarish uslublari va usullarini ko'rsatayotgan va tushuntirayotganda qo'llanma olgan va tushitirayotganda qo'llanma sifatida, hamda o'qiyotganlar o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishlari jarayonida yo'riq sifatida foydalanishadi. Har bir o'qiyotganning ish joyida yozma instruksiyaning bo'lishi ulardan foydalanishni tashkil etilishida eng yuqori samara beradi.

5.6.6. Amaliy o'qitishning faol metodlari

O'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish jarayonidagi haqiqiy faollik – bu fikrlash, onglilik, ijodiy faollikdir. U o'qiyotganlar o'zlarining amallari/hatti-harakatlarini ko'rsatilgan namunaga mos ravishda anglab korrektilrovka qilishlarida, ijobiy natijalarga olib keluvchi faoliyat usullarini tanlashda, o'z mehnatini rejalashtirishda, xatolarni tahlil qilish va oldini olishda namoyon bo'ladi. O'qiyotganlarning ishlab chiqarish mehnatidagi faolligi – bu faoliyatning o'zlashtirilgan usullarini ratsionallashtirish, ishlab chiqarishdagi topqirlik o'zgargan sharoitlarda mohirona harakat qilish qobiliyatidir.

O'qiyotganlarda bunday qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni o'rgatuvchi ustalar (ko'p hollarda nazariy o'qitish

o'qituvchilari bilan birgalikda) o'qitishning "faol" metodlaridan, ya'ni o'qiyotganlarning faol fikrlashi. mahsuldor faoliyatini talab qiluvchi metodlardan foydalanishadi.

Masalan texnik sohalarda amaliy o'qitishning "faol" metodlariga, birinchi navbatda, quyidagi kabi *ishlab chiqarish-texnik masalalarni yechish* kiradi:

- ishlov berish, sozlash, roslash rejimlarini hisoblash;
- dasturiy boshqariladigan avtomatlashtirilgan jihoz uchun boshqaruvchi dasturlarni ishlab chiqish va sozlash:
- jadvallar, ma'lumotnomalar, diagrammalardan kerakli ma'lumotlarni topish;
- mashina, qurilma, agregatlarni kinematik va prinsiplial sxemalaridan foydalanib o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishning rejmlari va parametrlarini aniqlash;
- montaj sxemalarini ishlab chiqish;
- ishlov berish, yig'ish, sozlash va sh.k texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish.

Ijodiy tavsifga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarish ishlab chiqarish-texnik masalalarini yechishning yuqori darajasi hisoblanadi, masalan:

- mehnat sifati va unumdorligini oshiruvchi moslamalar va boshqa jihozlarni konstruksiyalash;
- usta taklif etgan yoki o'qiyotganlarning o'zlari mustaqil ishlab chiqishgan bir nechta o'quv-ishlab chiqarish ishlaridan eng ratsional texnologik jarayonni tanlash;
- ish vaqtini, materiallarni, energiyani va sh.k.larni tejovchi takliflarni ishlab chiqish.

O'qiyotganlar amaliy o'qitish jarayonida ular uchun xarakterli bo'lgan har xil texnologik jarayonlarning katta miqdoriga duch kelishadi. Ushbu ishlar uchun barcha texnologik jarayonlarni ishlab chiqishga o'qiyotganlarni o'rgatish amalda mumkin emas. Shuning uchun ustalar va o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – o'qiyotganlarda texnologik rejalashning umumlashgan mahoratlari bo'ladi, o'qiyotgan ulardan foydalanib, muayyan texnologik jarayonlarni o'ziga ishongan holda ishlab chiqa oladi.

O'qitishning keyingi bosqichi o'qiyotganlar amaliy o'qish davomida bajarishadigan mahsulotlarga ishlov berish, tayyorlash, jihozni yig'ish va montaj qilish jarayonlarini og'zaki yoki yozma bayon qilish bo'ladi. Bu o'qiyotganlarda texnologik jarayon haqida bir butun fikriy tasavvurlar

shakllanishiga, uni alohida elementlarga ajratish mahorati shakllanishiga ko'maklashadi

Texnologik xaritani o'rganish ishlarni bajarish jaryonlarini bayon qilish bilan bir qatorda o'qiyotganlarga oddiy tipik ishlarga texnologik jarayonlarni ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar beriladi, ularni o'qiyotganlar amaliy o'qitish mashg'ulotlarida bajaradilar.

O'qiyotganlarda tajriba ortib borishi bilan topshiriqlar murakkablashtirib boriladi, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish uchun obyektlar har xillashib boradi. Topshiriqlarni bajarish davomida o'qiyotganlarning diqqat-e'tibori juz'iy texnologik masalalardan ko'proq texnologik jarayonlarni ishlab chiqish uchun xarakterli bo'lgan umumiy masalalarga qaratilib boriladi. Bu o'qiyotganlarda texnologik jarayonlarni tuzishga bo'lgan umumlashgan yondoshuvlar shakllanishiga ko'maklashadi.

Texnologik jarayonlarni ishlab chiqishda fikrlash amallarining umumiy strukturasi bajarilayotgan ish xarakteridan qat'iy nazar ko'p kasblar, mutaxassisliklar uchun yagona – bir xil bo'ladi. Uni quyidagi bosqichlarga keltirish mumkin:

birinchi bosqich – boshlang'ich ma'lumotlarni tahlil qilish. Bu bosqichda ish bajarilish sifatiga qo'yilgan talablar, boshlang'ich/dastlabki materiallarning xarakteri, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish (yakka, partiyalab, ommaviy, o'zaro almashuvchanlik va h.k.), ish joyining texnologik imkoniyatlari (jihoz, uskunlar, texnik vositalar, mexanizatsiya, avtomatlashtirish, nazorat-o'lchov vositalari va sh.k.);

ikkinchi bosqich – texnologik jarayonni bajarish usullarini tanlash; belgilovchi, o'rnatuvchi, o'lchash va sh.k. bazalarni tanlash; detallar va instrumentlarni o'rnatib mustahkamlash; ma'lum holatda o'rnatish usullarini aniqlash (mexanik ishlov berish, chilangarlik, elektromontaj ishlari); joriy va yakuniy nazorat usullarini aniqlash va sh.k.lar;

uchinchi bosqich – birinchi va ikkinchi bosqichlarda olingan ma'lumotlar asosida texnologik jarayonni tashkil etish.

Texnologik jarayonlarni tuzishning umumiy prinsiplarini bilish va ularni qo'llash o'qiyotganlarning fikrlash faoliyatini tashkil qiladi, texnologik masalalarni yechishda oddiy hisoblangan eng yaxshi variantni izlashdagi adashishlarning oldini oladi, texnologik fikrlash mahoratini shakllantiradi.

Turli ishlab chiqarish vaziyatlarda qabul qilish bo'yicha maxsus mashqlar ham ishlab chiqarish o'qitishining "faol" metodlariga kiradi. Bunday mashqlar real sharoitlarda vujudga keladigan bunga o'xshash

vaziyatlarda o'qiyotganlarni amallar/hatt-harakatlarni to'g'ri bajarishga tayyorlaydi.

Mashq uchun u yoki bu darajada ish sharoitlarini imitatsiya qiluvchi (modellovchi) vaziyatlarni yaratish hamda muayyan ish joyida vujudga kelishi mumkin bo'lgan texnologik rejimning asosiy buzilishlari bo'lishi zarur. Bunday vaziyatlar *texnologik masalalar* deb nomlanuvchi topshiriqlarda berilishi mumkin.

Bunday topshiriqlarni o'rganib chiqib, o'qiyotgan buzilganlikni aniqlash usullarini, mumkin bo'lgan uning sabablarini aniqlashi, yechimni belgilashi va har bir muayyan holatda buzilishini bartaraf qilish bo'yicha yechimni belgilashi va amallarni bayon qilishi kerak.

Topshiriqlar o'qiyotganlarga ikki variantda: qo'yilgan savollarga javob bilan va javobsiz taklif etilishi mumkin. Birinchi holda mashqlar mohiyati – muayyan vaziyatlarni tahlil qilish va namunaviy texnologik vaziyatlarni o'rganish bo'ladi. Topshiriqlar bunday variantda o'qitishning boshlang'ich bosqichida qo'llaniladi va ular instruktajga yaxshi qo'shimcha bo'ladi. Ularning tajribasi ortib borishi bilan o'qiyotganlarni dastlab oddiy/sodda, keyinchalik esa ancha murakkab ishlab chiqarish vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishga jalb eta boshlash zarur.

Ishlashning ilg'or yuqori unumdorli uslub va usullariga o'qitish. Amaliy o'qitish amaliyotida mehnat qilishning yuqori unumdorli uslublari va metodlarining quyidagi samarali usullari shakllangan:

– mehnat qilishning ilg'or uslublarni ustaning o'zi shaxsaro ko'rsatib berishi va tushuntirishi;

– o'zlarining ish paytlarida ilg'or uslublar va metodlarning keraklilarini tanlab olishlari va ulardan foydalanishlari bo'yicha o'qiyotganlarning maxsus mashqlarini tashkil qilish;

– ilg'or uslublarni o'zlashtirgan o'qiyotganlarni ularni hali o'zlashtirmagan arga birlashtirish yo'li bilan o'zaro o'qishni tashkil qilish;

– ularning ish joylarini tashkil etish va jihozlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha mehnatni tashkil etish, yuqori natijalar beruvchi uslublar va usullarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yuqori malakali ishchi va mutaxassislarining o'qiyotganlar bilan suhbatlarini tashkil etish;

– o'qiyotganlarning yuqori malakali ishchi, mutaxassislarining ishlashlarini mustaqil kuzatishlari.

– ilg'or tajriba maktablari, mehnat qilishning ilg'or metodlari maktablari, texnologik xaritalar, informatsion byulletenlar, ilmiy-texnikaviy informatsiya materiallari va boshqalardan foydalanish

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Bugungi kunda kasbiy tayyorgarlanganlik darajasi sifatini oshirish masalasi kasbiy ta'lim muassasalari oldiga qanday yangi vazifalarni qo'yimoqda?
2. Amaliy o'qitishning maqsadini aytib bering.
3. "Kasbiy mahorat" tushunchasining mohiyatini yorituvchi mezonlar/ko'rsatkichlarni birma-bir bayon qiling.
4. Mehnat hatti-harakatlari uslublarini ko'rsatish metodining maqsadi nimadan iborat?
5. "Mashqlar tizimi" iborasining ta'rifini bering.
6. Mashqlar qanday klassifikatsiyalanadi?
7. "O'qiyotganlarning mashqlari va mustaqil ishi bir butunlik va bo'lak-bo'lak nisbatda bo'ladi. Nima uchun?
8. O'qiyotganlarning mustaqil kuzatishlari qaysi hollarda qo'llanadi?
9. Yozma instruktaj metodini qo'llash nimalar bilan bog'langan?
10. Texnik sohalarda amaliy o'qitishning faol metodlariga nimalar kiradi?

5.7. Kasbiy amaliyot

Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyot kasbiy ta'lim muassasalaridagi o'quv mashg'ulotining turi bo'lib, uning jarayonida amaldagi ishlab chiqarish sharoitida o'qiyotganlar o'quv dasturida belgilangan real ishlab chiqarish masalalarini bajaradilar. Tayyorlashning kasbiy yo'nalganligiga qarab ishlab chiqarish amaliyoti, pedagogik, texnologik, ekspluatatsion va h.k. deb ataladi. Ishlab chiqarish amaliyoti o'quv mashg'ulotlarining boshqa turlari bilan bir vaqtda o'tkazilishi mumkin yoki uni o'tkazish uchun o'quv rejada alohida davr ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti kadrlarni tayyorlashning integrallashgan turi hisoblanadi. Uni o'tayotganda o'qiyotganlar amalda ishlab chiqarish vositalari va texnologik jarayonlarni, mehnatni tashkil qilishni, korxonalar iqtisodiyoti va h.k.larni o'rganishadi. Ishlab chiqarish bazasi bo'lib o'quv muassasasi bilan bevosita hamkorlikda bo'lgan korxonalar, tashkilotlar xizmat qiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha asosiy talablar va topshiriqlar hajmi o'quv muassasasi tomonida ishlab chiqarish amaliyotining mufassal (hamma amaliyotlarni o'ziga qamragan) ishlab chiqarish amaliyoti dasturida belgilanadi.

Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotining maqsadi – o'qiyotganlar nazariy va amaliy o'qishda egallashgan bilim, ko'nikma va malakalarini

mustahkamlash va chuqurlashtirish. Kasbiy mutaxassislik bo'yicha zarur bo'lgan mahoratlar, ko'nikmalar va amaliy ishlash tajribasini egallashdir.

Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotning bosqichlari:

- dastlabki kasbiy mahorat va ko'nikmalarni olish uchun amaliyot (o'quv amaliyoti);
- yo'nalish profili bo'yicha amaliyot (texnologik, ishlab chiqarish);
- bitiruv ishi oldi (malakaviy) amaliyot.

Amaliyot hamma bosqichlarining mazmunini kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotning dasturi aniqlaydi; u o'qiyotganlar kasbiy mahorat va ko'nikmalar tizimini bir butun kasbiy faoliyat va birlamchi kasbiy tajribani Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq egallashlari jarayonining didaktik asoslangan ketma-ketligini ta'minlaydi.

Bazaviy korxonada (tashkilot, muassasa)da amaliyot o'tilishida o'qiyotganlar o'qishini korxonada mutaxassislari individual-brigadali o'qitish metodi bilan amalga oshiriladi. O'qiyotganlar amaliyotiga umumiy rahbarlik, ularning amaliyot obyektlari bo'yicha amaliyot dasturi bajarilishini ta'minlash uchun bir joydan boshqa joyga o'tishi, o'quv muassasasining o'qituvchisi (ustasi) tomonidan amalga oshiriladi.

Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyot bir necha bosqichlarda o'tadi. Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotning o'quv-tanishuv bosqichida tashkilot (muassasa) va uning strukturasi, o'qiyotgan ishlab chiqarish amaliyotini o'taydigan muayyan bo'limda yechiladigan masalalar haqida umumiy tasavvurlar beriladi. Ishlab chiqarish amaliyotini boshlashdan avval hamma o'qiyotganlar albatta ishlab chiqarish amaliyoti o'tadigan joy bo'yicha xavfsizlik texnikasi bo'yichasi instruktaj, hamda ichki tartib qoidalari va ish rejimining alohida xususiyatlari bo'yicha instruktaj o'tishlari kerak. Ishlab chiqarish amaliyot paytlari bo'yicha o'qiyotganlarni taqsimlash va butuni ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha rahbarlik tashkilot (muassasa)ning muayyan bo'limlarida amalga oshiriladi.

Hisobotni o'qiyotganlar ishlab chiqarish amaliyotini o'tish davomida dastur bo'yicha ishlarni o'rganib va bajarib borgan sari tuzib borishadi. u ishlab chiqilgan shaxsiy rejaga muvofiq ravishda tuzishi kerak. Unda o'qiyotgan shu ongacha o'rganib olgan maxsus fanlar bo'yicha o'zining bilimlarini, hamda ularning fanlar bilan aloqasini, ilmiy tadqiqotlarni mustaqil olib borish mahoratini, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini ko'rsatish kerak.

Hisobotga o'qiyotgan ishlab chiqarish kundalik daftari, uning ishlab chiqarish va jamoaviy faoliyatining xarakteristikasini ilova qilishi kerak.

Ishlab chiqarish amaliyoti tugagandan keyin talaba tayyorlagan hisobotini himoya qiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotining ta'rifini bering.
2. "Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotining maqsadi – bu
3. "Kasbiy (ishlab chiqarish) amaliyotining bosqichlarini uzviy ketma-ketlikda bayon eting.
4. Amaliyot hamma bosqichlarining mazmunini nima aniqlaydi?
5. Amaliyotning o'quv-tanishuv bosqichida qanday masalalar yechiladi?
6. Yo'nalish profili bo'yicha texnologik/ishlab chiqarish amaliyotida qanday vazifalar bajariladi?
7. Bitiruv ishi oldi (malakaviy) amaliyot bo'yicha hisobot qanday tuzilishi kerak?

5.8. O'qitish metodlarini tanlash

O'qitish metodlarining umumiy xarakteristikasida (klassifikatsiya asosi sifatida qabul qilingan) metodlarning har bir guruhi, har bir metod o'qitish jarayonida ma'lum funktsiyani realizatsiya qiladi, ularsiz o'qitish jarayonining optimal tashkil etilishini ta'minlab bo'lmaydi. O'qitish jarayonining har bir aktida doim bir nechta metodlardan birgalikda foydalaniladi. Ular pedagoglar va o'qiyotganlarning bir-birlari bilan o'zaro ta'sirini har taraflama tavsiflab, go'yo bir-biriga singib ketishadi. O'qitish jarayonida metodlar funktsiyalari va o'rniga qarashga bunday yondashuv ularni tanlash masalasini yechishda eng muhim shartlarning biri hisoblanadi.

O'qitish metodlarini samarali tanlashning boshqa sharti – bu ulardan optimal birgalikda foydalanishning mezonlarini kompleks hisobga olishdir. Metodlarning o'qitishning didaktik prinsiplariga mosligi bunday mezonlarning birinchisi hisoblanadi. Bu talabni realizatsiya qilish metodlarni tanlashni o'qitish jarayonini samarali tuzishning asosiy qonuniyatlariga mos bo'lishiga olib keladi, ulardan prinsiplarning o'zi kelib chiqadi.

Metodlarning o'qitish maqsadlari va vazifalariga, o'qiyotganlar tarbiyalanishi va rivojlanishiga mosligi keyingi mezon bo'ladi. Masalalar ushbu doirasini yechishda har xil metodlarni qiyosiy baholash yo'li bilan bu mezon realizatsiya qilinadi, bunda turli metodlarning imkoniyatlari har xilligi nazarda tutilgan. O'qitish metodlari har biri afzalliklarining rolini va

shu bilan birga imkoniyatlarining cheklanganligini anglash o'qish jarayonida pedagoglar ularning rollarini, bir taraflama yondashib, ularning rollarini oshirib yuborishdan tiyadi.

Metodlarni tanlashning uchinchi mezoni – bu o'qitish mazmunining o'ziga xosligiga mosligidir. Bir mazmun induktiv metod yordamida, boshqa mazmun deduktiv metod yordamida yaxshi yoritilishi mumkin. Biri izlanuvchi o'qib-o'rganishga imkon berishi, boshqasi bunday metodni qo'llashga imkon bermasligi mumkin va h.k. Muayyan mazmuni yoritishda har xil metodlarning imkoniyatlarini maxsus baholash zarur.

Metodlarning o'qish jarayonini tashkil qilish uchun tanlab olingan shakllarga mosligi ham metodlarni tanlash mezoni hisoblanadi, chunki ishlashning umumguruhiy, kichik guruhiy va individual shakllari o'qitishning har metodlarini talab etadi. O'qitish metodlarini tanlashda o'qib bilish jarayonining mantiqini e'tiborga olish kerak.

Mantiqiy umumlashtirish jarayoniga tushunchalarni shakllantirish, ularni tizimiylashtirish, o'quv fanlariaro bog'lanishlarni o'rnatish, hatti-harakatlar algoritmlarini aniqlash va sh.k. o'qiyotganlarning amallarni bajarish usullari mos keladi. O'qituvchi (usta) o'qiyotganlarning ushbu fikrlash jarayonlarini loyihalashda mashqlarni bajarish va boshqalar bo'yicha suhbatlar, o'qiyotganlarning mustaqil ishlarini tashkil qilish orqali rahbarlik qiladi.

Olingan bilimlar va mahoratlar haqiqiylikiga ishonch hosil qilish amaliy ishlar, laboratoriya va laboratoriya-amaliy ishlari davomida eksperimentlarni o'tkazish, hayotiy va ishlab chiqarish vaziyatlari va voqeiklarini nazariy tahlil qilish, bir voqeaning o'ziga bo'lgan turli qarashlarni sohshtirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'qitish metodlarini tanlashda quyidagi holatlardan kelib chiqish kerak: istalgan metod, mashg'ulotlarni istalgancha tashkil qilish zarur bo'lgan pedagogik samarani beravermaydi. agar ular, birinchidan, o'qiyotganlarning faollashishiga ko'maklashmasa, ya'ni ularni faol intellektual va amaliy faoliyatga undamasa va, ikkinchidan o'rganilayotgan materialning chuqur tushunilishi va anglanishini ta'minlamasa. Bu ikkala talab o'zaro bog'langan: o'qiyotganlar o'zlari o'qiyotganni yoki bajarayotganlarini tushunmasalar, anglamasalar, ular mashg'ulotda faol bo'lisha olmaydilar. Lekin ular o'quv jarayonida faol ishtirok etmasalar o'zlari bajarayotgan (aqliy va amaliy) amallarni tushuna va anglay olmaydilar.

O'qitish metodlari va uslublarni tanlashga qo'yiladigan talablardan biri – ularning turli tumanligidir. Lekin metodlarning har xil bo'lishi

maqsad emas. Turli metodlar o'zlashtirish jarayoniga har xil his qilish organlari: eshitish (tushuntirishlar, suhbat), ko'rish (ko'rgazmali narsalarni namoyish qilish, mehnat uslublarini ko'rsatish, nashriy va grafik materiallar bilan ishlash), muskullarni his etish (mashqlar laboratoriya-amaliy ishlar) ishtirok etishini talab qiladi. O'qitish metodlari diqqat rivojlanishiga, mustaqillikka, taxmin qilish va sintez qilish, ko'nikma va mahoratlar qabul qilinishiga turlicha ta'sir qiladi. Bularning hammasi o'qitish metodlarini optimal tanlashga kompleks, bir butunlikda yondashish zarurligini ko'rsatadi.

O'qitish metodlarini tanlashda ularni o'qiyotganlarning real o'qish imkoniyatlari bilan solishtirish zarur. Guruh tayyorligining yuqori darajasi mustaqil ishlar ulushi biroz ko'paytirilishi, hamda suhbat boshlanishidan oldin tushuntirish va hikoyalarni biroz ko'proq bo'lishni taqozo etadi. Aksincha, tayyorgarlik darajasi pastroq bo'lgan guruhlarda metodlarni tanlashning prinsipial boshqacha taktikasi: bu yerda suhbat, ko'rgazmalilik ko'proq, mustaqil ish ulushi biroz kamroq bo'lishi talab etiladi.

Ish kuni oxirida mehnat qobiliyatining pasayishi hordiqni chiqarish va o'qiyotganlar qiziqishini qo'llab-quvvatlash uchun metodlar ko'rgazmali materiallar har xilroq bo'lishini talab etadi. Demak, nafaqat o'qitish mazmuni, balki auditoriyadagi talabalar qobiliyati va hatto kun vaqti ham o'qitish metodlarini tanlashga ta'sir qiladi.

Va, nihoyat o'qitish metodlarini tanlashda pedagog maksimal o'quv-tarbiyaviy samara beradigan, o'zining pedagogik mahoratiga tayangan holda, o'zining imkoniyatlarini inobatga olishi zarur. O'qitish metodlarini tanlashning hamma qayd etilgan mezonlar o'zaro bog'lanishda va kompleks qo'llanilishi lozim. Ulardan hatto birini hisobga olinmaganda ularni tanlash protsedurasi bir butunlikda, yetarlicha samarali bo'lmaydi.

Shunday qilib, o'qituvchi, ishlab chiqarish o'qitish ustasi ixtiyorida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun pedagogik vositalarning cheklanmagan arsenali mavjud. Ko'p yo'l qo'yiladigan xatoliklar va ularning ishidagi kamchiliklar pedagogika ilmiy va ilg'or pedagogik amaliyot nimanidir yetarlicha yoritib bermaganligida emas, balki egallagan tajribadan habardor bo'lmaslikdadir. Bu, albatta, mavjud metodlar takomillashtirilishi kerakmasligi, prinsipial yangi yechimlar izlanishi kerakmasligini bildirmaydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Metodlarsiz o'qitish jarayonining tashkil etilishini ta'minlab bo'lmaydi. Buning sabab nimada?

2. Metodlarni tanlash masalasini yechishda eng muhim narsa nima?
3. O`qitish metodlarini tanlashning mezonlarini bayon qiling.
4. Mantiqiy umumlashtirish jarayoniga qanday amallar mos keladi?
5. Olingan bilimlar va mahoratlar haqiqiylikiga ishonch hosil qilish qanday amallar orqali analga oshiriladi?
6. Metodlarning o`qitish maqsadlari va vazifalariga mosligi qanday aniqlanadi?
7. "Bir mazmun induktiv metod yordamida, boshqa mazmun deduktiv metod yordamida yaxshi yoritilishi mumkin. Nima uchun?"
8. Pedagoglar tomonidan ko`p yo`l qo`yiladigan xatoliklar va ularning ishlaridagi kamchiliklarning asosiy sabab nimada?

5.9. Pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha

Oxirgi o`n yilliklarda ta`lim muhitida "*pedagogik texnologiya*" tushunchasi keng tarqaldi. Texnologiyaning zamonaviy tushunchasi ishlab chiqarish sohasidagi boshqa sohalarga keng tarqaldi. Bu aynan rivojlangan mamlakatlarda firmalarning alohida strukturalari – nou-xaularni ishlab chiquvchilar; mahsulot, materillar, ishlov berish usullari va h.k.larning yangi turlari ajralib chiqq boshlaganda paydo bo`ldi. Bu firmalar rivojlanayotgan mamlakatlardagi firmalar – ishlab chiqaruvchilarga o`zlarining ishlanmalarini ishlab chiqarish huquqi – litsenziyalarni sota boshladilar, bu litsenziyalarga ishlab chiqarish usullari, vositalari va sharoitlarining batafsil bayoni – ya`ni *texnologiyalar* qo`shilar edi.

Bundan keyin "texnologiya" ancha keng ma`noda qo`llanila boshlandi. Zamonaviy ancha keng ma`nodagi texnologiya tushunchasi nafaqat texnika, balki tsivilizatsiyaning boshqa yutuqlari bilan ham bog`langan. Masalan, kompyuter yoki informatsion texnologiya haqida gapirishganda, ular o`zlari bilan olib kelgan yangi imkoniyatlarni nazarda tutishadi. Ushbu ma`noda texnologiyalar haqida, tsivilizatsiya yutuqlari, mehnatda yangi samaralarga erishish nafaqat yangi texnika, balki ishlab chiqarish va faoliyatning yangi shaklda kooperatsiyalashishi va tashkil etilishi, mehnat madaniyati, to`plangan ilmiy-texnikaviy va madaniy potensial va h.k.lar bilan ham bog`langanligi aniqlandi. Asta-sekin texnologiya deganda murakkab reallik nazarda tutila boshlandi, u maqsadga yo`nalgan intilishlardan tarkib topadi.

Bugungi kunda "texnologiya" tushunchasini talqin qilishga ikkita yondashuv mavjud. Birinchidan, qadimiy tarixiy an`analarga rioya qiluvchilar – texnologiya "turli muhitlarni qayta ishlash uslublari va

asullari majmui' sifatida ko'riladi. Bunda muhit istalgancha, jumladan informatsion, pedagogik va h.k., bo'lishi mumkin deb qabul qilinadi.

Jamiyatni tashkil qilishning zamonaviy loyihaviy-texnologik turiga ko'proq mos keluvchi boshqa yondashuvda: "Texnologiya deganda metodlar, operatsiyalar va h.k.larning majmui tushuniladi. ularni uzluksiz ketma-ketlikda bajarish qo'yilgan masalaning yechilishiga ko'maklashadi". Bu ta'rifda shuni muhimki, unda texnologiya u yoki bu masalani yechishga yo'nalgan. Shuni ta'kidlaymizki, *qo'yilgan* – bu muayyan sharoitlarda berilgan maqsaddir.

Bu ta'rif aniqlashtirishni talab qiladi. Birinchidan, unda vositalar tushunchasi mavjud emas. Agar biz texnologiya haqida, masalan boltni kesib tayyorlash haqida gapirsak, faqat operatsiyalarning o'zi yetarli emas. Tokarlik stanogi, kesuvchi asbob, ya'ni *vositalar* ham zarur. Yoki informatsion texnologiyalarni kompyutersiz va dasturiy vositlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, operatsiyalar va uslublar ancha umumiy tushuncha bo'lgan *metodga* taalluqli. Uchinchidan, gap nafaqat metodlar va vositalar majmui haqida, balki ma'lum tarzda tartiblashtirilgan ularning majmui haqida, ya'ni aslida *tizim* haqida borishi kerak. To'rtinchidan, istalgan masala ma'lum muayyan traktlarda yechiladi. Beshinchidan, faoliyatni tashkil qilishning ma'lum *shakllari* zarur. Oltinchidan, qo'yilgan masalani yechish sifati – olingan natijaning sifati haqida mulohaza qilish uchun *mezonlar* zarur.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib texnologiyaning eng umumiy ta'rifini berish mumkin: *Texnologiya bu qo'yilgan masalani yechish shart-sharoitlari, shakllari, metodlari, vositalari va mezonlarining tizimidir.*

Texnologiyaning bu umumiy ta'rifidan pedagogik texnologiyaning ta'rifini kelib chiqadi: *pedagogik texnologiya – bu qo'yilgan pedagogik masalaning shartlari, shakllari, metodlari, vositalari va mezonlarining tizimidir.*

Har bir pedagog har kuni pedagogik texnologiyalarni realizatsiya qiladi, bunda *har bir pedagogik masalaga o'zining texnologiyasi bo'ladi.*

Pedagogik tizimlarni loyihalash va realizatsiya qilishda yangi 'texnologik yondashuv' deb nomlanuvchi yondashuv o'zida *prinsipial* yangilikni olib keladi.

Pedagogik loyihalash – bu pedagogik tizimlarning detallarini dastlabki ishlat chiqishdir. "Loyihalash" atamasi ham pedagogikaga texnik bilimlardan kirib kelgan. U yerda u keyinchalik naturada realizatsiya qilinadigan ilgari ilgangan loyihani yaratishni bildiradi.

Pedagogikani rivojlantirishning yo'llaridan biri sifatida pedagogik loyihalash va pedagogik texnologiyalarning g'oyalari ishlab chiqarib boshlandi, ular texnika va sanoat ishlab chiqarilishida qo'llaniladigan yondashuvlardan sezilarli darajada ko'chirib olingan. Loyihalash tufayli u yoki boshqa pedagogik tizim go'yo texnologikka aylanadi.

Umumiy holda *pedagogik tizim* ta'lim maqsadlari tizimi va pedagogik jarayonning hamma omillarining birligi sifatida loyihalash obyekti bo'ladi, u ushbu maqsadlarga erishishga ko'maklashadi.

Istalgan pedagogik tizimni loyihalashning o'quv-tarbiyaviy ishni oddiy, an'anaviy qabul qilingan loyihalashdan eng asosiy farqi shundaki bunda *diagnostika asosida pedagogik tizimning ta'limiy maqsadlari eng detallashtirilgan tarzda beriladi*. Bu maqsadlarning aniq va bir ma'noli bayon qilinishini, ularni aniqlash, realizatsiya qilinganligi darajasini o'lchash va baholash usullari berilishini bildiradi. Pedagogik tizimni loyihalash ishlab chiqilgan diagnostik protseduralar yordamida har bir o'quv mashg'ulotida muntazam ravishda ushbu detallashtirilib loyihalangan ta'lim maqsadlari erishilganligini nazorat qilish va baholash imkoniyatini nazarda tutadi.

Pedagogik tizimni loyihalashning keyingi vazifasi – bu ta'lim maqsadlarining ma'lum tizimi asosida mos **pedagogik texnologiyalarni** tuzishdir. Pedagogik tizimlarni loyihalashda texnologik yondashuvning asosiy g'oyasi shundaki, pedagogik jarayon o'zining tarkibiy komponentlari – mazmuni, shakllari, o'qish va o'qitish metodlari, detallashtirilib loyihalanganki, talab etilgan natija – loyihalangan ta'lim maqsadlariga kafolatlangan erishishga ko'maklashsin

Shunday qilib, texnologik yondashuv ma'nosida *pedagogik texnologiya – bu reglamentlangan (algoritmizatsiya) pedagogik jarayon bo'lib, u loyihalangan pedagogik maqsadlarga erishishni ta'minlaydi*

Yuqorida qayd etilganidek, har bir muayyan pedagogik masala o'zining texnologiyasida realizatsiya qilinadi. Shu bilan birga, pedagogik tizimlarni tuzishda u yoki bu yondashuvlarning umumlashgan bayoni sifatida, o'ziga yarasha "konstruktorlar" sifatida (ularning elementlaridan muayyan texnologiyalar tuziladi) namunaviy (umumlashgan) pedagogik texnologiyalar ham ko'riladi.

Pedagogik tizimlarning vazifasi, boshlang'ich ilmiy, pedagogik, didaktik, metodik konsepsiyalarga qarab; ishlab chiquvchilarning mo'ljallangan maqsadlari va h.k.larga qarab, namunaviy pedagogik texnologiyalar ko'p bo'lishi mumkin.

Ta'limda qo'llanilish sohasi bo'yicha namunaviy pedagogik texnologiyalar o'asida quyilagilarni ajratish mumkin:

– psixologiya strukturasi qarab quyidagi texnologiyalar ajratiladi va klassifikatsiyalanadi:

- *informatsion* (bilim, mahorat, ko'nikmalarni shakllantirish);
- *operatsional* (estetik va ahloqiy munosabatlarni shakllantirish);
- *o'z-o'zini rivojlantiruvchi* (shaxsning o'z-o'zini rivojlantiruvchi mexanizmlarini shakllantirish);
- *evristik* (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi);

– texnologiya ta'lim mazmunining xarakteri bo'yicha:

- *o'qitadigan va tarbiyalovchi, dunyoviy va diniy, umumta'limiy va kasbiy, hamda kasbga yo'naliruvchi, gumanitar va texnokratik;*

– o'qiyotganlar bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar klassifikatsiyasi:

- *orasi ochiq* (o'qiyotganlar faoliyati nazorat qilinmaydi, korreksiya qilinmaydi);
- *tsiklik* (nazorat, o'zaro nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish bilan);
- *yovilgan* (frontal);
- *yo'nalgan* (individual);
- *qo'lda bajariladigan yoki avtomatlashtirilgan* (avtomatlashtirilgan o'qitish vositalari yordamida);

– boshqarish stili bo'yicha:

- *avtoritar;*
- *didaktotsentrik* (bilim olish tarbiyalanishdan ustun);
- *shaxsga yo'nalgan* (ta'lim markazi – o'quvchi shaxsi);
- *va hekazo.*

Shunday qilib, "pedagogik texnologiya" shunday pedagogik fenomenki, u o'zida zamonaviy sharoitlarda ko'p masalalarni yechish imkoniyatini o'ziga qamraydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Yangi pedagogik texnologiyalar paydo bo'lishiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Bugungi kunda "texnologiya" tushunchasini talqin qilishga ikkita yondashuv mavjud. Ularni bayon qiling.
3. Pedagogik texnologiyalarni nimalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi?
4. Texnologiyaning eng umumiy ta'rifini aytib bering.

5. Pedagogik texnologiya nimalarning tizimi hisoblanadi?
6. Pedagogik loyihalash nima?
7. Istalgan pedagogik tizimni loyihalashning o'quv-tarbiyaviy ishni oddiy, an'anaviy qabul qilingan loyihalashdan eng asosiy farqi nimada?
8. Pedagogik tizimni loyihalashning vazifalarini aytib bering.
9. Pedagogik tizimlarning vazifasi nimalarga qarab ko'p bo'lishi mumkin?
10. Psixologiya strukturasi qanday texnologiyalar ajratiladi va klassifikatsiyalanadi?

6- BOB. KASBIY O'QITISHNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

6.1. O'qitishni tashkil qilish shakllari

O'qiyotganlar o'quv-bilish faoliyatining har xil turlarini tashkil qilish jarayonida o'qituvchi o'qitishning tashkiliy xususiyatlarini, ya'ni uning shakllarini hisobga olishi lozim.

Shakl – bu tashqi ko'rinish qiyofa, ma'lum tarzda o'rnatilgan tartib; mazmunning ichki tashkil qilinishi.

O'qitish shakli – o'quv-tarbiyaviy jarayon mavjud bo'lishining usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmunining qobig'i.

O'qitish shaklini o'quv jarayonining uning subyektlari, ularning funksiyalari hamda vaqtda o'qitish sikllari, strukturaviy birligining tugallanganligini tartiblashtirish mexanizmi sifatida aniqlash/ta'riflash mumkin.

Falsafiy ma'noda shakl – bu istalgan voqelikning mavjud bo'lish shaklidir. Undan farqli ravishda o'qitishni tashkil qilish shakli mustaqil didaktik kategoriya bo'lib, u bosh belgini saqlaydi – o'qitish jarayonini ichki tashkil qilish vazifasini bajaradi. Didaktikada mazmun o'quv materialini hisoblanadi. O'qitish shakllarining mazmunini tarixiy ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Individual o'qitish -- o'qitishning birinchi va eng qadimgi shaklidir. U quldorchilik va boshlang'ich feodalizm jamiyalarida birinchi maktablar paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan degan taxmin bor. U paytda o'qituvchi – us ozda o'quvchi – shogirdlar soni kam bo'lgan ularning yoshi va tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan, shu sababli alohida-alohida o'qitish maqsadga muvofiq bo'lgan. Individual o'qitish jarayoni boshma-bosh o'qituvchi va o'quvchi ishlaridan tarkib topgan. Eoshida o'qituvchi bevosita o'quvchi bilan birga ishlagan, keyinchalik o'quvchining o'zi topshiriqni mustaqil bajargan. Shu paytgacha individual o'qitishning mohiyati o'zgaragan, chunki har bir o'quvchi butun guruh uchun bir xil bo'lgan topshiriqni individual, ya'ni mustaqil bajaradi.

Individual o'qitishning muhimligi quyidagilarda ifodalana

- o'quvchining boshqa shuquvchilar bilan bevosita kontaktda bo'lmasligi uning o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitish mazmuni va sur'atini to'liq individuallashtirish imkonini beradi;
- u o'quvchi ishning borishi va natijalarini doimiy nazorat qilish imkonini beradi;
- o'quvchi ma'lum bilimlar, mahoratlar va ko'nikmalarni ular uchun optimal rejimda egallaydi.

O'qitishning individual shakli o'qish jarayonida o'qiyotganning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

O'qitishning individual shaklining afzalliklari bilan bir qatorda uning kamchiliklari ham mavjud.

Ular quyidagilar:

- u iqtisodiy nuqtai-nazardan foydali emas;
- pedagog ta'siri jabhasini keskin cheklaydi;
- o'qiyotganning boshqa o'quvchilar bilan hamkorligini nazarda tutmaydi.

Shu tufayli individual o'qitish XVI asrda tanqidga uchray boshladi.

Jamoaviy o'qitish g'oyasi adabiyot, san'at, arxitektura va fanning faol rivojlanishi, XVI-XVII asrlarda shaharliklarning ko'payishining oqibati sifatida vujudga keldi. Bu o'zgarishlar o'sha davrdagi ta'lim faoliyati jabhasini sezilarli kengayishini talab qildi va u o'qitish mazmuni, metodlari va shakllarining islohot qilinishida ifodalandi. Har bir o'qituvchida o'quvchilar sonining ortishi, har bir o'quvchini o'qitishga vaqt yetishmasligi pedagoglarni yangi materialni tushuntirishda o'quvchilarni birlashtirishga majbur qildi. O'quvchilarni sinflarga bo'lish, o'quvchilar bilan frontal ishlash shu tarzda paydo bo'ldi.

Frontal o'qitishda pedagog butun o'quv guruhining o'quv-bilish faoliyatini boshqaradi. Hamma bitta masala ustida, hamma uchun bir xil bo'lgan sur'atda ishlaydi. O'qitishning bunday shakli "o'rtacha" o'quvchiga mo'ljallangan. Sinf-dars tizimi sharoitida o'qitishning frontal shakli asosiy hisoblanadi.

O'qitish frontal shaklining an'anaviy bo'lib ketganligi asta-sekin o'qitishning innovatsion shakllarini izlashga olib keldi, natijada kichik guruhlarda o'qitishning guruhiy shakli va o'qitishning jamoaviy usuli vujudga keldi.

Jamoaviy o'qitish usuli (JO'U)ning belgilari:

- JO'U hamma ishtirokchilari uchun yagona umumiy maqsad mavjudligi, u olingan topshiriq uchun jamoaviy ma'suliyatni anglashda realizatsiya qilinadi;
- JO'Uning asosiy formulasi: "Hamma har birini o'qitadi va har biri hammani o'qitadi";
- dinamik juftliklarda yoki tarkibi o'zgaruvchi juftliklarda o'qish, u yerda har bir ishtirokchi "o'qituvchi" va "o'quvchi"; "etakchi" va "yetaklanuvchi"; jamoaviy ish "tashkilotchisi" va uning "oddiy ishtirokchisi" vazifalarini o'taydi;

- differensiallashgan topshiriqlarni tashkil qilish va ularni ham butun o'quv jamoasi birgalikda va ham alohida guruhlarda yechish;
- pedagog yetakchiligida jamoaviy ish ishtirokchilarining hamkorligi, o'zaro yordami. Bu yerda "hammaning har ishtirokchi va har bir ishtirokchining hamma haqida g'amxo'rligi" muhim rol o'ynaydi;
- o'zaro nazorat va o'quv topshirig'ining bajarilganligi uchun mos ijtimoiy bahori olish.

Sinf-dars tizimi – maktabda, kasbiy o'quv muassasasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish tizimi, unda o'qitish o'qiyotganlar tarkibi qat'iy belgilangan sinflarda (o'quv guruhlarida), qat'iy belgilangan dars jadvali bo'yicha, doimiy joyda (o'quv xonasida, auditoriyada) frontal olib boriladi.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiyni sinf-dars tizimining asoschisi deb hisoblashadi.

Sinf-dars tizimi bir necha xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, o'quv mashg'uloti o'qitishning asosiy shakli hisoblanadi. Har bir mashg'ulot bitta predmetga bag'ishlanadi. Ikkinchidan, sinf (o'quv guruhi)ni bir yoshdagi yoki taxminan bir yoshdagilar tashkil qiladi, butun o'qish davrida bu tarkib juda oz o'zgaradi. Uchinchidan, har bir sinf (o'quv guruhi) o'zining yillik o'quv rejasiga muvofiq ishlaydi. Bu o'quv rejasini maktabda (kasb-hunar kollejida) o'rganiladigan turli predmetlarni qamraydi. Bunda ularning har biri qat'iy belgilangan hajmdagi soatlar doirasiga joylashadi. Ma'lum predmetlarni haftaning ma'lum kunlarida o'rganish tartibi har bir sinf (o'quv guruhi) uchun haftalik dars jadvalida tuziladi. To'rtinchidan, darsni (o'quv mashg'ulotini) tashkil qiluvchi o'qituvchi bo'ladi. U o'qish jarayonini boshqaradi, o'quvchilar faoliyatini korreksiya qiladi, ularning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini va xulq-atvorini baholaydi.

Sinf-dars tizimining *afzalliklari*:

- iqtisodiy nuqtai-nazardan, individual o'qitishda nisbatan ancha foydali;
- o'quv-tarbiyaning tashkiliy aniqligi va uzluksizligini ta'minlaydi;
- o'quvchilarning majburiy o'quv va o'qishdan tashqari ishlarini uzviy bog'lanishini realizatsiya qiladi;
- yangi materialni o'zlashtirishga yordam beradi, u katta bo'lmagan portsiyalarda, rejalashtirilib va ketma-ketlikda sodir bo'ladi;

- bir nechta o'quv fanlarini bir-biriga parallel holda o'rganish imkonini beradi;
- ta'lim muassasasida o'quv-tarbiyaviy ishning ommaviy, guruhiy va individual shakllarini birgalikda tashkil etilishini ta'minlaydi.

Sinf-dars tizimining *kamchiliklari*:

- "o'rtacha" o'quvchiga yo'nalganligi;
- ta'lim mazmunining bir xilligi;
- o'qishni individuallashtirish prinsipini realizatsiya qilishga formal yondashuv;
- o'quvchilar oldinga siljishi sur'atining o'rtachalashtirilganligi;
- pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti "subyekt-obyekt munosabatida" tuzilishi.

Bu kamchiliklar sinf-dars tizimi mavjud bo'lgan hamma davrda pedagoglarni uni modernizatsiya qilish yo'llarini izlashga majbur qildi. Bu tizimni takomillashtirish yo'nalishida ko'p urinishlar bo'ldi – o'qitishning Lankaster tizimi, "Mangeym tizimi", "ustaxonalar tizimi", Dyuning eksperimental maktabi, loyihalar metodi va h.k.

Ma'ruza-seminar tizimi oliy o'quv yurtida o'qitishning asosini tashkil qiladi. unga talabalar bilan auditoriya mashg'ulotlari: ma'ruza, seminar mashg'uloti, amaliy mashg'ulotlari barqaror tizimining mavjudligi xarakterlidir. Uning asosiy vazifasi – bitiruvchilar nazariy tayyorgarligining chegaralarini kengaytirishdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "Shakl" va "o'qitish shakli" iboralarining ta'rifini bering.
2. "Individual o'qitish" iborasining ta'rifini bering.
3. Individual o'qitish muhimligini asoslab bering.
4. Individual o'qitish nimalarni hisobga olish imkonini beradi?
5. Individual o'qitishning qanday kamchiliklari mavjud?
6. Frontal o'qitishning mohiyatini tushuntirib bering. U qanday tashkil etiladi?
7. Jamoaviy o'qitish usulini belgilarini aytib bering.
8. Sinf-dars tizimi bir necha xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ularni bayon eting.
9. Sinf-dars tizimining afzalliklarini aytib bering.
10. Sinf-dars tizimining qanday kamchiliklari bor?

6.2. Kasbiy o'quv muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakllari

O'quv mashg'uloti – bu kasb-hunar kolleji va oliy o'quv muassasasida o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shaklidir, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida talabalarning o'zgarmas tarkibi bilan, qat'iy dars jadvali bo'yicha shug'ullanadi va o'quv dasturining muayyan alablarida belgilangan didaktik masalalarni yechish uchun har xil metodlardan foydalanadi.

O'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlari:

- o'quv mashg'uloti obyektiv mavjud bo'lgan quyidagi elementlardan tarkib topadi:
 - yangi materialni o'rganish;
 - o'tilganlarni mustahkamlash;
 - bilimlarni umumlashtirish va tizimiylashtirish;
 - mustaqil ishlash uchun topshiriqlar;
 - talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash;
- sanab chiqilgan strukturaviy elementlarning har biri o'quv mashg'ulotining bir qismi sifatida yagonalik va bir butunlik prinsiplariga javob beradi, ularning majmui esa o'quv mashg'ulotining strukturasi tashkil qiladi va o'qitishning mos metodlar va uslublaridan foydalanishni, o'qiyotganlar va o'qituvchining faoliyatlarini tashkil qilishni talab qiladi;
- o'qitishni tashkil qilishning asosiy shakli sifatida o'quv mashg'uloti o'qish jarayonining borishiga ta'sir qiladi, chunki u yoki bu o'quv mashg'ulotining strukturasi o'quv fani dasturiy materialining alohida mavzulari ustida ishlash vaqtiga, o'quvchilarning o'quv topshiriqari tizimiga; ularning auditoriyadan tashqari ishini tashkil qilishga; o'qiyotganlarda shaxsiy kasbiy sifatlar, kasbiy mahorat va ko'nikmalarning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ma'ruza. Ma'ruza o'quv informatsiyasini o'qituvchi tomonidan talabalar auditoriyasiga uzatishga asoslangan. Talabalar mavjud informatsiyani o'quv fani jabhasidagi bilimlardagi yangi faktlar, jarayonlar, voqealar, hodisalar haqidagi ma'lumotlarning majmui ko'rinishida oladilar. Tarbiyaviy – amaliy informatsiya ularni bo'lajak mutaxassislar amaliy faoliyatda foydali natijalarga erishishda kerak bo'ladigan ma'lum vositalar, metodlar va uslublar, texnologiyalarni qo'llash bo'yicha muayyan misollar bilan tanishtiradi.

Ma'ruza o'qitishni tashkil qilishning eng muhim shakllardan biri bo'lib, u mutaxassislarni nazariy tayyorlashning asosini tashkil qiladi. u –

ma'ruzachining auditoriya bilan ijodiy muloqoti, hamkorligi, hissiy o'zaro ta'siridir. Bu bilimlar asosini ularning umumiy ko'rinishida olishning juda tejamkor usulidir.

Ma'ruza:

- o'quv materialini talabalar keyinchalik o'zlashtirishlari uchun u yo'nalgan bilimlar asosini shakllantirishga;
- o'quv fani bo'yicha ilmiy bilimlar asosini tizimiylashtirishga;
- fanning muayyan jabhasidagi muammolar bilimlarning zamonaviy holati va rivojining istiqbolini yoritishga;
- talabalar e'tiborini o'quv fanining eng murakkab va muhim masalalariga qaratishga yo'nalgan.

Ma'ruzaning yuqorida sanab chiqilgan afzalliklari sababli o'qitish didaktik tsiklining bosh zvenosi sifatida ta'riflashadi, u ilmiy, o'quv-bilish va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi.

Ma'ruzaning *ilmiy funksiyasi* – talabalarga fanning zamonaviy holati, uning metodlari va mazmuni, prinsiplari, qonuniyatlari, uning asosiy g'oyalari va nazariyalari, undagi umumlashgan faktlar, voqeliklar, hodisalar haqidagi ma'lumotlarni uzatish hamda nazariyaning amaliyot bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatishdir.

Ma'ruzaning *o'quv-bilim olish funksiyalari*:

- o'quv rejasi va o'quv dasturining samarali va aniq bajarilishining ta'minlanishida;
- yangi informatsiya bilan muammoli-izlanuvchi metodlar orqali tanishish tufayli talabalar bilish jabhasining rivojlanishida;
- ma'ruzachi tomonidan qo'yilgan muammoni masalalarni yechishga yo'nalgan mustaqil izlash ko'rinishidagi talabalarning ilmiy ishini tashkil qilishda ifodalaydi.

Ma'ruzaning *tarbiyaviy funksiyasi* shunda ifodalanadiki, u talabalarning pedagogik pozitsiyasini, kasbiy qiziqishini, qadriyatlarini shakllantirishning muhim vositasi vazifasini o'taydi, chunki ma'ruzachi auditoriyadagi eshituvchilarga ma'lum hissiy ta'sir o'tkazadi. Ma'ruzachining bosh tarbiyalovchi vositasi – predmetni chuqur bilishi, bayon qilish stili va o'z mehnatiga bo'lgan munosabatidir. Ma'ruza tarbiyaviy ahamiyatning ko'rsatkichlari: talabalarning ishga tez kirishib ketishi, diqqat-e'tiborini o'qishga qaratishi, o'quvchi savollariga javob berishdagi faolligi va aksincha: beparvolik, talabalarning ma'ruzachi sha'niga noloyiq so'zlarni aytishi, ma'ruza mazmunidan qoniqmasligi, yomon davomat.

Ma'ruzaning bir necha turlarini farqlashadi.

An'anaviy (informatsion-bayoniy), informativ ma'ruza. Unda mazmun o'qituvchi tomonidan ilmiy voqelik va hodisalarni bayon qilish, tushuntirish sifatida tayyor ko'rinishda beriladi.

Muammoli ma'ruza qandaydir ilmiy yoki amaliy muammoni: uning paydo bo'lishi, yo'nalishi, yechish usuli hamda ushbu yechimning oqibatlarini illyustratsiya qiladi. Muammoli ma'ruzaning mazmunini talabalarning fikrlash faoliyatini tashkil qilish usuli belgilaydi. Bunday ma'ruzada bilimlarning bir qismini talaba tayyor bilim ko'rinishda oladi, boshqa qismini esa o'qituvchi rahbarligida o'zi izlab topadi, ya'ni informatsion va muammoli qismlar uzviy bog'lanishda bo'ladi.

Foydalaniladigan metodlar nuqtai-nazaridan ma'ruzalarning quyidagi turlarini farqlashadi:

ma'ruza-sulbat, ma'ruzaning bu turi Suqrot davridan ma'lum. U yuqori hissiyotlilik bilan, pedagog tabalar auditoriyasini ilmiy haqiqatlar ustida birgalikda fikrlashga jalb qilganida uning ishonarli ohangda gapirish bilan tavsiflanadi;

muayyan-vizuallashtirish. Bu yerda o'quv materialini o'qish mavzuni to'liq yorituvchi o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali materiallarni tushunarli qilib, batafsil izohlashga keltiriladi.

duai ma'ruza, u real kasbiy vaziyatni modelldaydi, nazariy masalalarni har xil pozitsiyadan ikkita mutaxassis (masalan, ikki ilmiy maktab vakillari nazariyotchi va amaliyotchi, u yoki bu konseps ya tarafdorlari va h.k.) muhokama qilishni nazarda tutadi. Bunday ma'ruza uni o'qituvchilar tayyorlashi nuqtai-nazaridan hamda o'quv informatsiyasini o'quvchilar idrok qilishi nuqtai nazaridan ancha murakkab bo'ladi. Bu yerda ma'ruzada ishtirok etayotgan har bir pedagogning obro'i jiddiy to'siqlik qiladi;

oldindan rejalashtirilgan xatolikli ma'ruza – u yuqori bosqich talabalarida katta qiziqish uyg'otadi, chunki u talabalariga yosh o'qituvchilar yo'l qo'yadigan real xatolarni ko'rish imkonini beradi; ekspertlar vazifasini o'tab, talabalar o'zlari sezgan xatoliklarni bartaraf qilish bo'yicha metodik tavsiyalarni tuzadilar. Ma'ruzaga mazmuniy yoki metodik tavsifdagi xatoliklarning ma'lum miqdori kiritiladi. ular talabalarga ma'ruzaning boshida yoki oxirida e'lon qilinishi mumkin. O'qituvchi uchun metodik qiyinchiliklar xatoliklarni tanlab olish, ularning ratsional nisbatini to'g'ri tanlash va ko'rsatish usullari bilan bog'liq. Talabalar uchun esa bir vaqtning o'zida faoliyatning bir necha turlarini: o'quv informatsiyasini idrok qilish va yozish, xatoliklarni tahlil qilish, informatsiyani umumlashtirishni bajarish qiyinchilik tug'diradi.

Elektron ma'ruza (slyd-ma'ruza) yoki qayta bog'lanish texnikasini qo'llaydigan ma'ruza. Matnli fayllar ko'rinishda shakllantirilgan elektron ko'rinidagi o'quv materiallarining to'plami bunday ma'ruzani tashkil qiladi. o'qiyotganda tushinarsiz bo'lgan joylarga ko'p marta qaytish, o'qishni o'ylab ko'rish, tahlil qilish bilan birga olib borish imkoni imkoni bo'ladi. Bundan tashqari, matnda matnning umumiy strukturasi ko'rish osonroq bo'ladi. O'qiyotganda matndan material mazmunini aniqlashtigandan so'ng qoladigan savollar, odatda, ancha chuqur, prinsiplial va mazmunli bo'ladi, chunki ular material jiddiy ishlab chiqilib, u anglanganidan so'ng vujudga keladi. Bundan tashqari dasturiy ta'minot hali ma'ruza davomida va ham uning oxirida o'quv materiali o'zlashtirilib borishini nazorat qilib borish imkonini beradi.

Seminar mashg'uloti (lotincha *seminarium* – поссадняк (rus)) – bu talabalarining o'qituvchi rahbarligida mavzuni, o'quv muammosini guruhiy muhokama qilishadigan o'quv jarayonining shaklidir.

Seminar o'quv kursining eng muhim va murakkab bo'lishlarini chuqur o'zlashtirishga yo'nalgan. Seminar mashg'ulotlari jarayonida talabalar materialni og'zaki va yozma bayon qilish san'atini egallaydilar, o'zlarining kommunikativ mahoratlarini rivojlantiradilar, kitob bilan mustaqil ishlashga o'rganadilar, ilmiy ishlarni shakllantirish ko'nikmalarini egallaydilar. Qo'yilgan muammoni muhokama qilish, qabul qilingan qaror va seminar ishtirokchilarini faoliyati bo'yicha talabalar o'zlarining subyektiv baholarini ifoda qilishlari seminar natijasi bo'lishi mumkin.

Seminarining o'ziga xos belgilari:

- hamkorlikdagi faoliyat prinsipining amalga oshirilishi;
- o'qituvchi va talabalar bevosita munosabatlarining shakllanishi;
- talabalar tayyorgarlik paytida o'quv muammosini yechish bo'yicha mustaqil izlash ishlarini olib borishlari;
- seminarida muhokama qilish uchun taklif etilgan masala va muammolarni o'rganishni individuallashtirish imkoniyati;
- ma'ruzaning prinsiplial nazorat holatlari bilan uzviy aloqaning saqlanishi, talaba nafaqat ma'ruza materiali asosida, balki o'zi mustaqil egallagan ma'lumotlari asosida yangi materiallarni bayon qilish.

Amaliy mashg'ulot – bu o'qiyotganlarning amaliy mahorat va ko'nikmalarini oshirishga yo'nalgan o'quv jarayonini qilishning shaklidir. Amaliy mashg'ulot laboratoriya ishi bilan birga mahorat va ko'nikmalarni hosil qilish va mustahkamlashga yo'nalgan mashg'ulot hisoblanadi.

Amaliy mashg'ulotlar o'qiyotganlarda kasbiy amaliy masalalarni yechish uchun olgan bilimlarini qo'llash ko'nikmalarini ishlab chiqishga yo'nalgan. Amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xosligi -- masalalarning xarakterida, o'qituvchi va o'qiyotganlarning (analitik, konstruktiv, loyihaviy) faoliyatini tashkil qilishdadir. Amaliy mashg'ulotda o'qitish metodi sifatida mashqlar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ishbilarmonlar o'yini, faoliyat mahsulini tahlil qilishlardan foydalaniladi.

Amaliy ishlarning mazmunini tanlashda muayyan o'quv fani bo'yicha kasbiy mahoratlar ro'yhatini va bitiruvchining malakaviy tavsifnomasini yo'riq qilib olishadi.

Laboratoriya ishi davomida o'qiyotganlar o'rganilayotgan nazariy holatlarni tasdiqlovchi tajribalar, o'lchovlar, elementar tadqiqotlarni mustaqil ravishda o'tkazadilar.

Talabalarning mustaqil shi. Muayyan o'quv fani doirasida talabalar o'quv faoliyatini tashkil qilish nafaqat auditoriya mashg'ulotlarida, balki undan tashqarida, mustaqil faoliyatda ham amalga oshiriladi.

Mustaqil faoliyat bir qator *funksiyalarni* bajaradi:

- *rivojlantiruvchi*, chunki aynan mustaqil faoliyat aqliy mehnat madaniyatini oshirishga, faoliyatning ijodiy turlariga qo'shilib ketishga, o'qiyotganlar intellektual qobiliyatlarining boyishiga ko'maklashadi;
- *informatsion-o'qitadigan*. Mustaqil ish bilan mustahkamlanmagan o'qiyotganlarning auditoriya mashg'ulotlaridagi o'quv faoliyati kam natijali bo'lib qoladi.
- *vo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi* funksiyalar, ular talabalarning o'qish jarayoniga "kasbiy tevlanish" beradi, u shu bilan tavsiflanadiki, mustaqil faoliyat jarayonida talabalarda nafaqat intellektual qobiliyat rivojlanadi, aqliy mehnat madaniyati oshadi, balki pedagogik fan rivojlanishining istiqbollari ko'rish mahorati ham shakllanadi;
- *tarbiyalovchi* funktsiya ham mustaqil faoliyatda namoyon bo'ladi, chunki mutaxassis shaxsi, uning kasbiy sifatleri mustaqil ish uchun u yoki bu turdagi topshiriqni bajarish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi;
- *tadqiqot* funktsiyasi, u talabalarni kasbiy-ijodiy fikrlashning yangi darajasiga olib chiqadi

O'qiyotganlarning mustaqil ishi o'quv jarayonining didaktik birligi sifatida, bir tomondan, o'quv topshirig'i, ya'ni o'qiyotgan bajarishi kerak

bo'lgan narsa, vazifasini o'taydi, ikkinchi tarafdan esa clinging topshiriqni bajarayotganda xotira, fikrlash, ijodiy tafakkur qilish vazifasini bajaradi.

Talabalarning tadqiqotchilik faoliyati. Talabalar o'quv faoliyatining turlaridan biri – bu tadqiqotchilik faoliyati bo'lib, unda:

- o'quv-tadqiqot;
- ilmiy-metodik;
- ilmiy-tadqiqot *ishlarini farqlashadi*

Kasb-hunar kolleji yoki oliy o'quv muassasasida o'qiyotgan talaba o'quv mashg'ulotlarida o'quv tadqiqot ishiga jalb etiladi: seminarlarga dokladlar tayyorlaydi; amaliy mashg'ulotlarda o'quv-tadqiqot masalalarini yechadi; uy vazifasi va mustaqil ishlarni bajaradi; referat ar yozadi.

O'quv-tadqiqot ishining *maqsadi* – talabalarda o'quv-tadqiqot mahoratini shakllantirishdir, bunda o'quv muammosini yechish sharoitida ilmiy metodning mos uslublarini qo'llash mahorati tushuniladi

Tadqiqot mahorati – bu pedagogik voqeliklarni kuzatish va tahlil qilish, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish; tadqiqotning dolzarb muammosini oldinga surish; bashoratni shakllantirish va uni isbot qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni turli metodlar bilan tekshirish; pedagogik eksperimentni o'tkazish qobiliyatidir.

Tadqiqot mahoratlarini rivojlantirish uchun pedagogik yo'nalgan kasbiy fikrlash muhim hisoblanadi, pedagogik voqeliklarni tahlil va sintez qilish, umumlashtirish uning natijasi bo'ladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "O'quv mashg'uloti" iborasining ta'rifini bering.
2. O'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiling.
3. Ma'ruza'ning mohiyati va qanday tashkil etilishini aytib bering.
4. Ma'ruza nimalarga yo'nalgan?
5. Ma'ruza'ning ilmiy funksiyasini izohlang.
6. Ma'ruza'ning o'quv-bilin olish funksiyalarini birma-bir aytib bering.
7. Ma'ruza'ning tarbiyaviy funksional nimalarda ifodalanadi?
8. Ma'ruza'ning qanday turlari mavjud? Ularning har birini batafsil izohlang
9. Muammoli ma'ruza nimalarni illyustratsiya qilad? Uning mazmunini nima belgilaydi?
10. Foydalaniladigan metodlar nuqtai-nazaridan ma'ruzalarning qanday turlarini farqlashadi?
11. Seminar nimalarga yo'nalgan?

12. Seminarning o'ziga hos belgilarini aytib bering.
13. Amaliy mashg'ulot nimaga yo'nalgan?
14. Amaliy mashg'ulotlar mazmunini tanlashda nimalar yo'riq qilib olinadi?
15. Laboratoriya ishi davomida o'qiyotganlar nimalarni va qanday o'tkazadilar?
16. Talabaning mustaqil ishi qanday funksiyalarni bajaradi?
17. Talabalar tadqiqotchilik faoliyatining turlarini izohlang.

7- BOB. KASBIY O'QITISHNING DIDAKTIK VOSITALARI

7.1. O'qitish vositalarining funksiyalari va xarakteristikalari

Zamonaviy o'qitish jarayonining texnokratikligi uning didaktik vositalaridan foydalanish bilan bevosita bog'langan.

O'qitishning didaktik vositalari bo'lib sensomotorli rag'batlantiruvchi bo'lgan predmetlar xizmat qiladi, ular o'qiyotganlarning his qilish organlariga ta'sir qilib, dunyoni bevosita va bilvosita bilishga ko'maklashadi. O'qitish vositalari o'qitish texnologiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning informatsion-predmetli ta'minoti hisoblanadi.

O'qitish vositalari mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar kabi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi hamda o'quv muassasasi o'quv-moddiy bazasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'qitish vositalari o'quv-tarbiyaviy jarayonning hamma boshqa komponentlariga bevosita ta'sir o'tkazadi. Masalan, yangi informatsion texnologiya yetarli darajada keng foydalanish o'qiyotganlar mustaqil faoliyatining har xil shakllarini nazarda tutuvchi loyihaviy, tadqiqot, muammoli metodlarini amalda keng qo'llashga olib keladi.

Ko'rgazmalilikni kuchaytirib didaktik yo'nalganlikni amalga oshirib, ular o'quv materialiga yo'nalganlikni ta'minlaydi, materialni o'rganish sur'atini tezlashtiradi. Didaktik vositalar nafaqat o'quv jarayonining o'ziga jalb qilishi – jozibadorligiga ta'sir qiladi, balki shaxs rivojlanishiga ham ko'maklashadi, chunki o'qiyotganlarga bilimlarni faol egallash imkonini beradi. bu bilimlarni real voqelikka ko'chirishga rag'batlantiradi.

O'qitish jarayonida didaktik vositalar quyidagi *funksiyalarni* bajaradi:

- *didaktik*, talabalar o'zlashtirayotgan bilim, amaliy malaka va ko'nikmalarning muhim manba'i hisoblanadi, ishlab chiqilgan material mustahkamlanishini, bilimlarni egallash va o'zlashtirish darajasini tekshirishni osonlashtiradi;
- *shakllantiruvchi*, chunki o'qiyotganlarning bilish qobiliyatlarini hamda hissiyotlari va irodasini rivojlantiruvchi vosita vazifasini bajaradi;
- *bilish*, chunki o'qiyotganlar borliqning ma'lum fragmentlarini bevosita bilib olishlariga xizmat qiladi.

O'qituvchilar uchun va o'qiyotganlar uchun didaktik vositalarni farqlashadi. Birinchisi ta'lim maqsadlarini samaraliroq realizatsiya qilish uchun o'qituvchi foydalanadigan predmetlar, ikkinchisi esa – o'qiyotganlarning individual vositalaridir.

Didaktik vositalarni tasniflash uchun asos sifatida, odatda, *hissiy modallikdan* foydalaniladi. Shu asosda vositalarning quyidagi *kategoriyalarini* farqlashadi:

1. darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa chop etilgan matnli vositalar;
2. oddiy vizual vositalar – original predmetlar, modellar, plakatlar, sxemalar, diagrammalar, grafiklar, xaritalar;
3. mexanik vizual vositalar – disklar, epidiaskop, proyektor, mikroskop, teleskop;
4. audial vositalar – magnitofon, radiopriyomnik;
5. audiovizual vositalar – televizorlar, kino va videokameralar, videomagnitafonlar, kompyuterlar;
6. o'qitish jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar – trenajyorlar; kompyuterlar, lingofonli jihozlar.

Vositalarning oldingi ikkitasi oddiy, statistik vositalarga (odatda qog'ozli tashuvchilarga), qolganlari – murakkab vositalarga kiradi, ularda dinamik komponentlar mavjud bo'ladi.

O'qitish vositalari didaktikaning umumiy qonunlari, o'qiyotganlarning o'quv informatsiyasini idrok qilishga bo'lgan tayyorgarlik darajasi va o'quv fanining o'ziga xosligini hisobga olgan holda loyihalanadi.

Darslik o'qitishning matnli vositasi sifatida

O'qitishning matnli vositalari – o'qiyotganlar uchun bilimlarning muhim manbaidir. Bilim olish faoliyatini tashkil qilishning asosiy vositasi va quroli – bu darslikdir. Darslikka bir qator talablar qo'yiladi (O'zR O va O'MTVning darsliklar haqidagi buyrug'i), ularga rioya qilish o'quv jarayonining muvaffaqiyatli tashkil qilinishini ta'minlaydi. U o'quv fani dasturiga mos kursning ilmiy asoslarini qamrab olishi kerak. Darslikda o'quv fanining asosiy mazmunidan tashqari olingan bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlar va mashqlar beriladi. Unda, o'quv jarayonining loyahasidagi kabi, o'qitishning mazmuniy va protsessual taraflari realizatsiya qilinadi.

Darslik o'qitishning maqsadi va mazmuni, didaktik prinsiplari hamda o'qitishning asosiy bosqichlari: masalaning qo'yilishi, informatsiyaning taqdim etilishi, umumlashtirish va tizimiylashtirishi, mustahkamlash va nazorat qilishni aks ettiradi.

Darslik materiali bilish dialektik metodining mantiqi va strukturasi va ilmiy tadqiqotning mohiyatiga mos bo'lishi kerak. O'quv fanining o'ziga xosligi, ular funksiyalarining har xilligi ham predmet mazmunini

tuzishda va ham ularni uzatish vositalarida mos farqlar bo'lishini talab qiladi.

Darsga qo'yiladigan asosiy talab – mazmunning bir butunligi va obzorligidir. Darslikning strukturaviy elementlari – bo'limlar, boblar, paragraflar – predmetli va mantiqiy strukturani yoritish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi va o'quv fanini yaxlit idrok qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Oxirgi paylarda elektron darsliklar tobora kengroq tarqalmoqda. Elektron darsliklar giperhavolalarga, grafikaga, animatsiyaga, diktor nutqiga, interaktiv topshiriqlarga, multimediali effektlarga imkon beradigan formatda bajarilmoqda.

Darslik bilan bir qatorda turli matnli o'quv qo'llanmalardan foydalanilmoqda.

O'qitishning vizual vositalari

O'qitishning *ko'rgazmali vositalari* deb an'anaviy nomlanuvchi original predmetlar, modellar, plakatlar, diagrammalar, grafiklar, xaritalar o'qitishning oddiy vizual vositalari hisoblanadi.

Ko'rgazmali vositalar odatda quyidagicha tasniflanadi

- 1) hajmiy qo'llanmalar (modellar, kolleksiyalar, priborlar, apparatlar va sh.k.);
- 2) nashriy qo'llanmalar (kartinalar, plakatlar, grafiklar, jadvallar va sh.k.).

Ko'rgazmali vositalar o'qitishning quyidagi funksiyalarini bajaradi

- o'zidek ko'rsatilishi qiyin bo'lgan voqealiklar va jarayonlar bilan tanishtirish;
- predmetning tashqi ko'rinishi bilan tanishtirish;
- voqelik yoki jarayon xarakteristikalarini taqqoslash yoki ularning o'zgarishlarini ko'rgazmali qilib taqdim etish;
- predmet tuzilishi, ishlash prinsipi va uni boshqarishni ko'rgazmali taqdim etish;
- fan tarixi va rivojlanishining istiqbollari bilan tanishtirish;
- detallarni tayyorlash, loyixalash va ekspluatatsiya qilish haqida ko'rgazmali tasavvur hosil qilish.

O'qitishda kolleksiyalar va modellar namoyish qilish materiallari sifatida sezilarli o'rin egallaydi.

O'quv kolleksiyasi – bu ma'lum belgilari yoki xarakteristikalari bo'yicha tanlangan va yangi materialni o'rganish uchun yoki o'tilgan

materialni takrorlash uchun yoki mustaqil ishlash uchun xizmat qiladigan predmetlar yoki moddalarning to'plashidir.

Kolleksiyalar o'qituvchi tushuntirayotganda ko'rsatadigan, ya'ni demonstratsion yoki mustaqil ish uchun tarqatma material ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ko'rgazmali vositalar sifatida qo'llaniladigan *o'quv modellari*:

- 1) ishlash prinsipini namoyish qiluvchi;
- 2) tuzilishi va ishlash sxemasini ko'rsatuvchi;
- 3) maxsulot yoki predmetning tashqi ko'rinishini takrorlovchi bo'lishi mumkin.

Birinchi turdagi modellar hamda yonib turgan indikatorli ishlovchi sxemalar kuchli hissiy va o'qitadigan effekt hosil qiladi. Uchinchi turdagi modellar katta gabaritli obyektlarni kichiklashtirgan masshtabda (mashinalar va mexanizmlar, binolar, qurilmalar) yoki juda kichik obyektlarni (molekulalar, hujayralar) kattalashtirilgan ko'rinishda namoyish qilish uchun mo'ljallangan.

Ko'p fanlarni o'qitishda *diagrammalardan* foydalaniladi. Diagrammalar qiyosiy va chiziqli bo'ladi. Qiyosiy diagrammalardan jarayonlar va xarakteristikalarni solishtirish uchun to'g'ri to'rtburchaklar, sektorlar yoki boshqa geometrik figuralar ko'rinishida foydalaniladi. Chiziqli diagrammalar funksional bog'lanishlarni grafik ifodalashda qo'llaniladi.

O'qitish vositalari sifatida *chop etilgan tarqatma materialdan* ham foydalaniladi – bir yoki ko'p marta foydalaniladigan o'quv informatsiyasining tirajlab ko'paytirilgan nusxalari har bir o'quvchiga beriladi, ular muayyan didaktik masalalarni samarali yechish va o'quv-tarbiyaviy jarayon hamma ishtirokchilarining mehnat unumdorligini oshirishga mo'ljallanadi.

Tarqatma material yangi ma'lumotlarni, yangi informatsiyani xabar qilish uchun, bilimlarni mustahkamlash va nazorat qilish uchun qo'llanadi.

Tarqatma material o'quv mashg'ulotlarini intensivlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi, unga chizmalarni, illyustratsiyalarni doskada bajarish uchun zarur bo'lgan vaqtni hamda talabalar ularni konseptga ko'chirishga sarflaydigan vaqtni tejash hisobiga erishiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'qitishning didaktik vositalari bo'lib nimalar hismat qiladi va ular nimaga ko'maklashadi?

2. O'qitish jarayonida didaktik vositalar qanday funksiyalarni bajaradi?
3. O'qitish vositalarining qanday kategoriyalarini farqlashadi?
4. O'qitish vositalari nimalarni hisobga olgan holda loyihalasadi?
5. "O'qitishning matnli vositalari" iborasining ta'rifini bering.
6. Darsga qo'yiladigan asosiy talab – bu ...
7. O'qitishning ko'rgazmali vositalari odatda qanday tasniflanadi? Ko'rgazmali vositalar sifatida qanday o'quv modellari qo'llaniladi?

7.2. O'qitishning o'quv-ishlab chiqarish vositalari

7.2.1. Ta'lim oluvchilar o'qitishning texnik vositalariga yondashishi

O'qitishning texnik vositalari (O'TV) – o'quv informatsiyasini tashuvchilari bo'lib, bu informatsiyani idrok qilish uchun maxsus texnik qurilmalar (kino-, videofilmlar, kompyuter dasturlari va h.k.) talab qilinadi. Ularga turli proektsiyalovchi va tovush beruvchi mexanik vizual, audial va audiovizual vositalar (kinoproektorlar, grafoproektorlar, magnitofonlar, videomagnitofonlar) va o'qitish jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar (trenajyorlar, lingofonli qurilmalar, elektron-hisoblash texnikasi) kiradi

Funksional vazifasi bo'yicha O'TVlarini quyidagilarga ajratishadi:

- *o'quv informatsiyasini uzatish texnik vositalari* (diaproektorlar, grafoproektorlar, musiqali markazlar, kinoproektorlar, videomagnitofonlar, EHM va b.);
- *bilimlarni nazorat qilish vositalari* (xaritalar, avtomatlashtirilgan nazorat qilish vositalari, biletleri, maxsus kompyuter dasturlari);
- *o'qitish va o'z-o'zini o'qitish trenajyorlari* (texnik qurilmaga e'ratilgan o'qitadigan dasturlar)
- *yordamchi texnik vositalar* (harakatlanuvchi tasmali sinf doskalari, plakatlar, xaritalarni siljituvchi qurilmalar, kompleks O'TVlarni masofaviy boshqaruvchi qurilmalar, radiomikrofonlar, elektron doskalar va sh.k.).

Burdan tashqari, o'zida turli vazifalarni qamrovchi *kombinatsiyalashgan texnik vositalar*: lingofonli qurilmalar, kompyuterli tizimlar va sh.k. mavjud

Har xil turdagi informatsion muhitlar, telekommunikatsiyalar (elektron aloqa, internetning informatsion resurslari, multimedia tizimlari) alohida guruhga birlashtiriladi.

Elektron va elektron tovushli o'qitish vositalari – bugungi kunda eng tarqalgan vositalardir. O'qitishning bunday vositalarini loyihalashga

bo'lgan boshlang'ich talablar o'quv fanining o'ziga xosligi va ma'lum o'quv vaziyatlarida namoyon bo'ladigan audiovizual qo'llanmaning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Diapozitivlar (slaydlar) o'rganilayotgan o'quv fanining xususiyatiga qarab moslamalarning keng doirasini qamrab olishi mumkin. Diapozitivdagi tasvirlar yaxshi idrok/qabul qilinadi, chunki bunga yorqin yoritish va ekranning katta o'lchamlari ko'maklashadi. Diapozitivlar foydalanishda yetarli darajada moslanuvchan bo'ladi, namoyish qilish ketma-ketligini o'zgartirishi yoki noto'liq ko'rsatish imkonini beradi.

Diafilmlar – o'qitishning statik ekran vositasi bo'lib, ular kadrlarning ma'lum ketma-ketligini nazarda tutadi. Diafilmlarning didaktik xossalari diafilmlarning har xil variantlarini: dominantli, illyustrativ, muammoli, yo'riq funksiyali, fragmentli yoki bir butun tuzish yo'li bilan – yaratishda realizatsiya qilinadi.

Trenajyorlar texnikaviy vositalarning alohida guruhini tashkil qiladi. Trenajyor (imitator) – bu o'qitishning texnik vositasi bo'lib, u o'quv-ishlab chiqarish jarayonida mehnat (ishlab chiqarish) sharoitlarini imitatsiya qilish imkonini beradi.

Trenajyorlar o'qiyotganlarda texnikaviy jarayonlarni boshqarish, texnik obyektlardagi nosozliklarning sabablarini aniqlash, murakkab hatti-harakatlarni bajarish va aroyishini olishning ishlab chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Hozirgi paytda uchuvchilarni, kema haydovchilarini, avtomobil haydovchilarini, energetik va kimyoviy-texnologik qurilmalarini boshqa ko'p kasblar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda har xil trenajyorlardan foydalanilmoqda.

O'rganilayotgan obyekt, voqelik jarayoni real sharoitda bir butunlikda ko'rishning iloji bo'lmagan holda trenajyor o'rnini hech nima almashtira olmaydi.

Yangi informatsion texnologiyalarga o'qitish vositalari tizimining elementlaridan biriga qaragandek qarash kerak. Oxirgi paytda o'qitish maqsadida kompyuterlardan keng foydalanilmoqda. Kompyuterli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun shuncha mos dasturiy-pedagogik vositalar bo'lishi zarur

O'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda ularning qo'llanilishini ta'minlovchi o'quv-metodik va yo'riq materiallarini yaratish zarurati vujudga keladi.

O'qitish vositalarining hammasi o'quv-metodik materiallari (darsliklar, o'quv qo'llanmalar) bilan birga yagona birlik – o'quv-metodik

majmuani tashkil qiladi, ular zamonaviy sharoitda yangi informatsion texnologiyalar bazasida ishlaydi.

7.2.2. Ta'lim oluvchilarning o'qitishning o'quv-ishlab chiqarish vositalariga yondashishi

O'quv-ishlab chiqarish vositalari amaliy (ishlab chiqarish) o'qitish o'quv-moddiy bazasining asosini tashkil qiladi, u o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va markazlarini, ularning jihozlarini, yordamchi xizmatlarni o'z ichiga oladi.

O'quv (o'quv-ishlab chiqarish) ustaxonalari kasbiy o'quv muassasasining tarkibiy qismi bo'lib, o'qiyotganlarni mos kasb bo'yicha ishlab chiqarish o'qitishi uchun mo'ljallangan.

O'quv ustaxonalarida mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish buyurtmalarini bajarish, aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha buyurtmalarni bajarish jarayonida o'qiyotganlarning kasbiy ko'nikma va mahoratlarni shakllantirish amalga oshiriladi. bundagi buyurtmalar, ishlar, topshiriqlar ishlab chiqarish o'qitishining dasturining talablariga mos bo'lishi kerak. Bu yerda o'qiyotganlar ish joyini ratsional tashkil qilish ko'nikmalarini egallaydilar. ishni bajarish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, asboblardan, moslamalar bilan tanishadilar; mehnat uslublarini, operatsiyalarini, kompleks tavsifli ishlarni bajarish bo'yicha boshlang'ich ko'nikma va mahoratlarni egallaydilar; ishlab chiqarish madaniyatiga, o'quv vaqtidan ratsional foydalanishga, mehnat xavfsizligi talablariga. ishlab chiqarish va texnologik tartibga rioya qilishga o'rganishadi

O'quv ustaxonalarida o'qiyotganlar ishlab chiqarish o'qitishining samaradorligi u yerda qulay o'quv-ishlab chiqarish muhiti yaratilganligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Bu qulayliklar:

- *moddiy-texnikaviy*: yetarlicha joy; jihozlar, asboblardan va moslamalar borligi, joylashtirilganligi va holatining sozligi; homi ashyo va materiallar bilan normal ta'minlanishi; jihozlarga o'z paytida va sifatli texnik xizmat ko'rsatilishi; mehnat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga mosligi;
- *sanitar-gigiyenik*: normal tabiiy va sun'iy yoritilganlik; o'quv ustaxonasi xonasi va holatining sanitar-gigiyenik talablarga mosligi; optimal harorat rejimi, havo almashinishi va ventilyatsiya; changlanganlik, gazlanganlik, shovqinning minimal ruxsat etilgan darajasi; sanitar-gigiyenik qurilmalar va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari bilan ta'minlanganligi;

- *estetik*: xona va jihozlarning dizayn talablariga muvofiq rangli bo'yoqlarga bo'yalganligi; ko'kalamzorlashtirilganlik; shakllantirish yechimi va mazmuni;
- *texnikaviy-pedagogik*: o'qiyotganlarning optimal mehnat rejimini qo'llab-quvvatlash; har bir o'qiyotganni normal jihozlangan ish joyi bilan ta'minlash; o'qiyotganlarning o'quv-ishlab chiqarish mehnatini brigadali tashkil qilish uchun sharoitlarni yaratish; mehnatni ilmiy tashkil qilish talablariga mos bo'lishi.

O'qiyotganlarning o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish o'qishi maxsus tashkil qilingan ish joylarida o'tadi.

O'qiyotganning ish joyi profil va kasb, mutaxassislikdan qat'iy nazar quyidagi *umumiy talablarga* javob berishi kerak:

- jihozning texnik sozligi, o'qiyotganlar ishining xavfsizligini ta'minlovchi vositalar – himoyalovchi to'siqlar, yerga ulangan simlar, o'z-o'zidan ajratgichlar, himoyalovchi qurilmalar, saqlagichlar va boshqa vositalarning mavjudligi;
- ish zonasining yetarlicha yoritilganligi, o'qiyotganning eng kam toliqtiradigan ishchi pozasi va eng tejamkor harakatlari uchun sharoitlarni ta'minlash;
- zarurat bo'lganda o'tirib ishlash uchun qurilmalar bilan ta'minlash; zarurat bo'lganda avariya signalizatsiyasi bilan yoki o'qitishning ishlab chiqarish ustasi bilan masofaviy aloqa qilish qurilmasi bilan ta'minlash;
- jihozga joriy texnik xizmat ko'rsatish, tozalash va yig'ishtirish qulayligi.

O'quv ustaxonasida ishlab chiqarish ustasi uchun ish joyi jihozlanadi, bu joyning ratsional tashkil qilinishi va o'qitishning zarur bo'lgan vositalari bilan jihozlanishi ko'p jihatdan usta pedagogik faoliyatining sifatini belgilaydi. Ustaning ish joyi uning o'quv-ishlab chiqarish jarayonining boshqarish bo'yicha o'z vazifalarini qulay sharoitda, tez va samarali bajarilishini ta'minlashi; ilmiy tashkil qilinishi, jihozlanishi va mazmuni bo'yicha namuna bo'lishi; o'qiyotganlarga jamoaviy instruktaj o'tkazish uchun normal sharoitlarni ta'minlashi kerak.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'qitishning texnik vositalari tarkibiga nimalar kiradi?
2. Funktsional vazifasi bo'yicha o'qitishning texnik vositalarini qanday turlarga ajratish mumkin?

3. Elektron va elektron tovushli o'qitish vositalarini loyihalashga bo'lgan talab nima bilan belgilanadi?
4. Diapozitivlar (slaydlar) nimalarning imkonini beradi.
5. Diafilmlar o'qitishning statik erkin vositasi bo'lib, nimalarni nazarda tutadi?
6. Trenajyorlar nimalarning imkonini berishini aytib bering.
7. O'quv-ishlab chiqarish vositalari nimaning asosini tashkil qiladi?
8. O'quv ustaxonalarida qanday jarayonda o'qiyotganlarning kasbiy ko'nikma va ma'orotlarini shakllantirish amalga oshiriladi?
9. O'quv ustaxonalarida o'qiyotganlar ishlab chiqarish o'qishining samaraliligi u yerda qulay o'quv-ishlab chiqarish muhiti yaratilganligiga ko'p jihatdan bog'liq. Shu qulayliklarni birma-bir sanab chiqing.
10. O'qiyotganing ish joyi qanday umumiy talablarga javob berishi kerak?

7.3. O'qitish vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi va ulardan kompleks foydalanish

O'qitish vositalaridan birortasi, alohida olganda, qo'yilgan o'quv masalalarining hammasini hal qila olmaydi. Bundan o'quv jarayoni o'qitish vositalari bilan kompleks ta'minlanishi va ulardan kompleks foydalanishligining muhimligi kelib chiqadi, ushbu tizimdan foydalanishda pedagog uni mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Komplekslilik o'qitish vositalarining optimal tizimini rejalashga, ishlab chiqishga, yaratishga va foydalanishga ilmiy yondashuvni aks ettiradi, ular o'quv mazmuniga mos ravishda, ajratilgan vaqt doirasida kasbiy to'liq va sifatli o'qitish uchun zarur.

O'qitish jaryonining o'qitish vositalari bilan kompleks ta'minlanganligining mezonni aniqlashda birinchi navbatda o'quv dasturlarining talablaridan kelib chiqish zarur. O'qitish vositalarining kompleksi dasturiy material asosiy mazmunning to'liq qamrashi kerak. Ushbu holatda komplekslilik shunda ifodaladiki, o'quv dasturining har bir mavzusi bo'yicha mazmunning har bir muhim masalasini o'rganish o'qitish vositalarining zaruriy optimal minimumi bilan ta'minlanishi kerak.

Komplekslilikning keyingi mezon – o'qitish vositalarining didaktik funksiyalari va imkoniyatlarini hisobga olishdir. Har xil o'qitish vositalari turli vazifalarga, turli didaktik funksiyalarga va imkoniyatlarga ega. Ushbu aspektda komplekslilik o'quv vositalarining ahamiyatli funksiyalari va

inkoniyatlarini hamda ularni qo'llashning tipik o'quv vaziyatlarini hisobga olib mos o'qitish vositalarini rejalash va yaratishni nazarda tutadi.

O'qitish jarayonini ta'minlashga kompleks yondashuv o'qitish vositalarining kompleksi o'qiyotganlarning o'quv faoliyatida pedagogning o'qitish faoliyatini realizatsiya qilishda ko'maklashishni talab qiladi.

O'qitish jarayoni uch asosiy: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. O'quv jarayonini didaktik ta'minlashda komplekslilik o'qitish vositalari orqali pedagogik jarayonning hamma asosiy funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'qish jarayonining o'qitish vositalari bilan jihozlashda iqtisodiy omilni hisobga olish zarur. Bunda, birinchidan, o'qitish vositalarining kompleksini rejalashga iqtisodiy asoslangan yondashuv nazarda tutiladi. Ikkinchidan, ularni ishlab chiqish, tayyorlash, sotib olish, arendaga olishda va sh.k.larda optimal sarf-xarajatlarda o'quv-tarbiyaviy masalalar muvaffaqiyatini yechilishini ta'minlasin.

Bundan tashqari, o'qitish vositalarini tanlashda ularga qo'yiladigan ergonomik, gigiyenik, ekologik talablar hamda ulardan o'qish jarayonida foydalanishda xavfsizlik talablarini inobatga olinishi zarur.

Ushbu omillar – mezonlarni kompleksda hisobga olish o'qish jarayonini o'qitish vositalari bilan jihozlashning komplekslilikini, o'quv-tarbiyaviy masalalarning samarali yechilishini ta'minlaydigan darajada ulardan kompleksli foydalanishni belgilaydi.

O'qitish vositalaridan samarali kompleks foydalanish ko'p jihatdan ularni qo'llashning *ratsional metodikasiga* bog'liq. Real o'qitish jarayonida bunday metodika o'qituvchi yoki ishlab chiqarish o'qitishi ustasi tomonidan aniqlanadi, bunda ular o'z tajribalari va pedagogik mahorati, o'quv materiali mazmuni, o'qiyotganlarning ahvoli, o'qitish jarayonining sharoitlari va boshqalardan kelib chiqishadi.

Shu bilan birga, ko'rgazmali qo'llanmalar, o'qitishning texnik va boshqa vositalaridan foydalanishning ba'zi umumiy shartlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mashg'ulotni o'quv-moddiy jihozlashga tayyorgarlik ko'rishga qo'yilgan tavsiya va talablarga qat'iy rioya qilish:
 - mashg'ulotda qo'llaniladigan ko'rgazmali qo'llanmalar, tarqatma materiallar va o'qitishning boshqa vositalari o'quv materialini aniq, to'liq va tushunarli o'rganishi qancha talab qilinsa, shuncha bo'lishi kerak. Mashg'ulotni o'qitish vositalari bilan haddan tashqari jihozlash zararli bo'ladi;

- mashgʻulotda foydalaniladigan har bir narsa (plakatlar, sxemalar, modellar, maketlar, detallar va jihozlarning usullari, topshiriq varaqlari va b.) oldindan tayyorlab qoʻyilishi, tekshirilgan boʻlishi va ulardan foydalanish tartibi boʻyicha joylashtirilishi va “qoʻ ostida” boʻlishi kerak.
- ishlaydigan qoʻllanmalar va oʻqitishning texnik vositalari (modellar, priborlar, jihozlar va ularning uzellari, elektrlashtirilgan stendlar, dasturiy oʻqitish uchun qurilmalar, videoapparatura, kompyuter jihozlari va b.) foydalanishdan oldin ishlatib koʻrilishi zarur;
- individual foydalanish uchun moʻljallangan oʻquv qoʻllanmalar (topshiriq varaqlari, taqatma material, dasturiy nazorat uchun jadval ar, laboratoriya – amaliy ishlarni oʻtkazish uchun va trenajyorlarda mashq qilish uchun topshiriq – yoʻriqlar, yoʻriq va texnologik xaritalar va b.) oʻqiyotganlarni toʻliq yuklash uchun yetarli boʻlishiga ishorah hosil qilish lozim,
- yaxshi koʻrilishi va eshutilishni taʼminlash (koʻrgazmali qoʻllanmalarining oʻlchamlari, ular namoyishi qilinadigan joy, tasvirlar va yozuvlarning ravshanligi, ekran oʻlchami, yorugʻlik eʼqimi, xonani yetarli darajada optimal qorongʻ ulatishi, tovush aniqligi va balandligi va b.);
- oʻqitish vositalarining asosiy didaktik funksiyalari va imkoniyatlari hamda oʻquv materialining mazmunini hisobga olgan holda foydalanishga moʻljallangan har bir oʻqitish vositasidan foydalanish maqsadi va oʻrnini aniq aniqlash;
- “oʻqitish vositalaridan foydalanish – birdan-bir maqsad emas, balki oʻqiyotganlar faoliyatning samaradorligini yanirishning pedagogik vositasi” degan pedagogik qoidaga rioya qilish
- oʻqitish vositalarini munazam qoʻllash oʻqiyotganlarda ular bilan ishlash koʻnikmasi va mahorati shakllanishiga koʻmaklashadi;
- oʻqiyotganlarning oʻqitish vositalari bilan ishlashning har xil shakllari va usullarini qoʻllash: kuzatish; oʻqituvchi, usta savollariga javoblarni illyustratsiyalash; yigʻish – boʻlaklarga ajratish; koʻrsatkichlarni olish; oʻzaro nazorat; dasturlashgan oʻqitish; texnik vositalar bilan ishlash; mashgʻulotlarni yozish va hisoblarni bajarish;
- oʻqitish vositalarni namoyon qilishni oʻquv ishlarining boshqa metodlar va turlari – tushuntirish, mashq qilish, oʻqiyotganlarning mustaqil ishi va boshqalar birga olib berish;

- o'qiyotganlar his qilish organlarining mumkin qadar ko'p qismini: ko'rish, eshitish, sezish va zarur bo'lganda – ta'm bilish va hid sezish organlarini namoyish qilinayotgan narsani idrok qilish jarayomiga jalb qilish.

Bu shartlarning realizatsiya qilinishi o'quv jarayonida o'qitish vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlashi mumkin.

Ko'rganimizdek kasbiy ta'limda butun o'qish jarayoni o'qitish vositalari va o'quv predmeti muhiti asosida loyihalanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. O'qitish vositalaridan birortasi, alohida olganda, o'quv masalalarining hammasini hal qila olmaydi. Bundan qanday xulosa kelib chiqadi?
2. Komplekslik nima uchun zarur?
3. O'qitish jarayoni o'qitish vositalari bilan kompleks ta'minlanganligining mezonini aniqlashda nimalardan kelib chiqish zarur?
4. Qaysi omillar mezonlarni kompleks hisobga olishni va ulardan kompleks foydalanishni belgilaydi?
5. Ko'rgazmali qo'llanmalar va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishning umumiy shartlarini bayon qiling.
6. Kasbiy ta'limda butun o'qish jarayoni qaysi muhit asosida loyihalanadi?

8- BOB. O'QIYOTGANLARNING BILIM, MAHORAT VA KO'NIKMALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

8.1. O'qiyotganlar bilimlarini muntazam nazorat qilish va obyektiv baholashning ahamiyati

O'quv mashg'ulotida o'qituvchining vazifalaridan biri – bu nazorat qilish funksiyasidir. O'qiyotganlarga ma'lum bilimlar tizimini taklif qilayotib, pedagog ularning o'zlashtirish darajasini aniqlashi zarur. Shuning uchun o'quv mashg'ulotining istalgan turida bilim, mahorat va ko'nikmalar nazoratning har xil turlari vositasida muntazam ravishda nazorat qilinib boriladi.

Nazorat (fransuzcha *controle*) – 1) berilgan maqsaddan chetlashishlarni va ularning sabablarini aniqlash maqsadida kuzatish; 2) boshqaruv funksiyasi, u qabul qilingan qarorlarning ishning amaldagi holatiga mosligi darajasini belgilaydi.

Pedagogik nazorat – o'qiyotganlar o'qishi va tarbiyasi natijalarini tekshirish tizimidir.

Nazorat maqsadlari:

- o'qiyotganlarning o'qishda erishgan natijalari darajasini tekshirish;
- o'qiyotganlarning shu paytgacha shakllangan bilim, mahorat va ko'nikmalarini umumlashtirish va mustahkamlash;
- shaxsan har xil o'qiyotganing o'quv – bilim olish va mustaqil ta'limi faoliyatining samaradorligi va natijaliligini baholash;
- o'qituvchining o'zining pedagogik faoliyatining natijalarini o'zi nazorat qilishi va baholashi.

Malakaviy maqsadlar – o'qiyotganlar kasbiy o'qitishda o'quv natijalarini hisobga olish va baholashning turli pedagogik va ijtimoiy funksiyalari bilan *tanishlar* va ushbu jarayonlarni maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun mezonlarni ishlab chiqishga *qodirlar*

O'qituvchi va o'qiyotganlar orasida to'g'ridan-to'g'ri va qayta bog'lanishlarni o'rnatish vositasi sifatida pedagogik nazorat bir necha funksiyalarni amalga oshiradi.

Nazorat qilish funksiyasi o'qiyotganlarning bilim, mahorat va ko'nikmalarini aniqlashdan iborat; bu – o'qitishning borishi va uning natijalarini doimiy monitoring qilib borishdir.

Tashkiliy funksiyasi o'qiyotganlar o'qish davomida olishgan bilimlari, mahoratlari va ko'nikmalarini mustahkam o'zlashtirishi va

takomillashtirishi bo'yicha kundalik ishlashi uchun sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Rivojlantiruvchi funktsiya o'qiyotganlarning bilim olish faolligini rag'batlantirish imkonini beradi.

Yo'naltiruvchi funktsiya o'qiyotganlar va o'qituvchining o'zi o'qitish maqsadiga qay darajada erishishganligi haqida ma'lumotni olishga yo'nalgan.

Metodik funktsiya o'qituvchini o'z fanini o'qitish texnologiyasini takomillashtirishning yangi usullarini izlashga undaydi.

Tarbiyalovchi funktsiya pedagogga o'qiyotganlarda o'z faoliyati natijalari uchun ma'nan ma'suliyatni his etishni tarbiyalashga yordamlashadi

Diagnostik funktsiya o'qiyotganlar nazorat tadbirlarini bajarayotganda, o'qituvchi esa nazoratga tayyorgarlik ko'rayotganda yo'l qo'ygan xatolari haqida ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi.

Bashorat funktsiyasi o'qiyotganlar nazorat tadbirlarini bajarishdan olingan natijalar asosida o'qituvchi qanday bashorat qilishi mumkinligini ko'rsatib turadi.

Pedagogik nazorat samarali bo'lishining asosiy shartlari:

- nazoratning atroflicha tavsifga egaligi;
- nazoratning tizimiyligi va muntazamligi;
- o'qituvchining o'qiyotganga nisbatan obyektivligi va yaxshi munosabatda bo'lishi;
- muayyan talaba shaxsining psixologik xususiyatlarini bilish asosida individual yondashuv.

Nazorat turlari:

- o'qish jarayonida ma'lumotni olish xarakteri bo'yicha:
 - *og'zaki*;
 - *yozma*;
 - *testli*;
- o'qitishning asosiy bosqichlaridagi o'rni bo'yicha:
 - *joriy*. U: semestr orasida amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'qish jarayoni va uning natijalarining sifatini aniqlaydi; o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish imkonini beradi; qoloq o'quvchilarni aniqlaydi; o'quv fanlarini o'qib-o'rganishda o'qiyotganlarning o'qish–bilim olish faoliyatini rag'batlantiradi;

- *oraliq*. Bu nazorat odatda har semestrda 2 marta o'tkaziladi, maqsad – o'quv fanining muayyan bo'limlari bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar sifatini aniqlashdir;
- *yakuniy*. U muayyan o'quv fani bo'yicha o'qishning yakuniy natijalarini tekshirishga yo'nalgan.

Nazoratning qayd etilgan hamma turlari har xil metodlar yordamida amalga oshiriladi

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Nima uchun o'quv mashg'ulotining istalgan turida bilim, mahorat va ko'nikmalar nazoratning har xil turlari vositasida muntazam ravishda nazorat qilinib boriladi?
2. "Nazorat" iborasining ta'rifini bering.
3. Nazorat maqsadlarini batafsil bayon qiling.
4. Malakaviy maqsadlarni aytib bering.
5. Nazorat qilishning tashkiliy funksiyasi nimalarni nazarda tutadi?
6. Nazorat qilishning rivojlantiruvchi funksiyasi nimaning imkonini beradi?
7. Nazorat qilishning yo'naltiruvchi funksiyasi nimaga yo'nalgan?
8. Nazorat qilishning metodik funksiyasi nimalarni izlashga undaydi?
9. Nazorat qilishning dialiktik funksiyasi qanday ma'suliyatni olish imkonini beradi?
10. Pedagogik nazorat samarali bo'lishining asosiy shartlarini aytib bering.
11. Nazorat turlarini birma-bir aytib bering va izohlang.

8.2. O'quv natijalari hisobga olish metodlari

Pedagogik nazorat metodlari – bu o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchi va o'qiyotganlar amallarining o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Ushbu metodlar yordamida pedagog, o'quv-bilim olish masalasidan kelib chiqib va o'qitishning mos vositalaridan foydalanib, o'qish natijalarini aniqlaydi va baholaydi.

Bu metodlarni ikki guruhga ajratishadi.

Reproduktiv faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari:

- 1) *reproduktiv predmetli* faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari. Bu metodlarning vazifasi – o'qiyotganlarning turli pedagogik voqe'larni farqlash, bilish hamda yo'riq bo'yicha amaliy kasbiy amallarni bajarish mahoratini aniqlashdir;

- 2) reproduktiv *so'zli* faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari. Bu metodlarning vazifasi – ma'lum o'quv matniga kam, strukturalangan, yodlab olingan materialni talaba so'zma-so'z aytib berish mahoratini aniqlashdir.
- 3) reproduktiv *predmetli-mantiqiy* faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari. Ushbu metodlarning vazifasi -- obyektiv ichki bog'lanish ar va ular orasidagi nisbatlarni ajratgan holda ba arilayotgan amallarni izohlash asosida o'rganilayotgan obyektlarning xossalarni talabalar aytib berishi mahoratini aniqlashdir.
- 4) *badiiy ijrochilar sifatida o'qiyotganlarning so'zli* reproduktiv faoliyatining natijalarini pedagogik tekshirish metodlari. Ushbu metodlarning vazifasi – ijrochilik manerasi, usuli va stiliga muvofiq badiiy yoki musiqali janrlar bilan o'qiyotganlarning tanishlik darajasini aniqlashdir.

Ijodiy faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari:

- 1) o'qiyotganlar ijodiy *predmetli* faoliyatining natijalarini pedagogik tekshirish metodlari. Ushbu metodlarning vazifasi – ijodiy faoliyatni mehnat vositalari bilan munosabatini aniqlash;
- 2) o'qiyotganlarning ijodiy *so'zli* faoliyati natijalarini tekshirish metodlari. Ushbu metod arning vazifasi -- algoritmlari noma'lum bo'lgan o'quv masalalarini o'qiyotganlarning yechishi, predmetlar ar bog'lanishlarni o'rnatishi, xulosalar chiqarishi mahoratini aniqlashdir;
- 3) o'qiyotganlarning ijodiy *predmetli – mantiqiy* faoliyati natijalarini tekshirish metodlari. Ushbu metodlarning vazifasi – o'qiyotganlarning o'zlarining bilimlaridan yangi vaziyatda foydalana olishlari, psixologik-pedagogik voqeliklar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni o'rnatish mahoratini aniqlashdir;
- 4) *badiiy ijrochi sifatida* o'qiyotganlar ijodiy faoliyatining natijalarini tekshirish metodlari. Ushbu metodlarning vazifasi – o'qiyotganlar badiiy yoki musiqali asarda o'zining shaxsiy stilini namoyish qilish mahoratini aniqlashdir.

Nazoratning barcha turlari va shakllarida olingan natijalar baho vordamida qayd qilinadi

Baho – o'quv fani bo'yicha dasturda belgilangan bilim, mahorat, ko'nikmalarni o'qiyotganlar o'zlashtirishi darajasini pedagog sharhli belgilar – ballarda hamda baholarda aniqlashi va ifodalashidir.

Baholash funksiyalari:

- *motivatsiyalovchi*, chunki aynan baho o'quv faoliyatining natijalari uchun o'qiyotganni rag'batlantiradi yoki jazolaydi;
- *diagnostik*, chunki baho o'qish natijasining sabablarini ko'rsatadi;
- *tarbiyalovchi*, chunki baho, ayniqsa o'z-o'zini baholash o'qiyotganning o'zini anglashini shakllantiradi;
- *informatsion*, chunki u o'qituvchiga va o'qiyotganning o'ziga dasturni o'tishning muvaffaqiyatliliigi darajasi haqida, shaxsiy ta'limiy yutuqlar, qobiliyatlarning rivojlanganligi haqida, bilim, mahorat, ko'nikmalarining shakllanganligi haqida ma'lumotlar beradi.

Baholash tizimi qator *prinsiplar* bo'yicha tuziladi: maqsadga yo'nalganlik, ta'sirchanlik, muntazamiylik, obyektivlik, talablarning bir xilligi, keng qamrovlik, differtsiialanganlik. Bilimlar anglanganligi, mustaxkamligi, chuqurligi prinsiplari alohida o'rin egallaydi. *Bilimlarning mustaxkamligi* nazariy va amaliy faoliyatda talaba o'zining o'qish davrida olgan bilimlari, amaliy malaka va ko'nikmalaridan samarali foydalana olishga qodirligini bildiradi. *Bilimlar chuqurligi* mustahkam o'zlashtirilgan qoidalar, tushunchalar, qonunlar, kasbiy faoliyat algoritmlarining miqdori bilan tavsiflanadi. *Anglaganlik* – bu psixologik-pedagogik voqeiklarning sabab-oqibat bog'lanishlari tushunish, qo'yilgan maqsadlar va vazifalarga mos ravishda nazariy materiallarni amaliyotda qo'llashdir.

O'quv jarayonida *pedagogik baholashning obykti* – o'qiyotganlar faoliyatidir.

Pedagogik baholashning *predmeti* – talabalar faoliyatining natijalaridir, ular tarbiyalilik va o'qimishlilik kabi sifat xarakteristikalarida ifodalanadi.

Oxirgi paytlarda ta'lim tizimida reyting nazorat va testli nazorat tobora keng qo'llanilmoqda.

Reyting nazorat – bu o'qiyotganlar o'quv faoliyatining individual sonli ko'rsatkichi bo'lib, u predmet bo'yicha talaba o'qish natijalari bo'yicha erishgan natijalarni tavsiflaydi.

Testli nazoratda uni o'tkazish paytida o'qituvchi va o'qiyotganning amallari aniq belgilangan: baholashning yagona mezonlari va me'yorlari mavjud; test nazorati o'tkazilayotganda o'qituvchi va o'qiyotganning vaqti tejaladi; o'qiyotganning o'qituvchiga nisbatan salbiy emotsiyasining ehtimoli ancha kam, chunki o'quvchi o'zining muvaffaqiyatsizligini o'qituvchining shaxsi bilan bog'lamaydi.

Umumiy holda o'qiyotganning og'zaki va yozma javoblari hamda pedagogik amaliyot bo'yicha mehnati baholanadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Pedagogik nazorat metodlari nimalarning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi?
2. Reproduktiv predmetli faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlarining vazifasini aytib bering.
3. Reproduktiv so'zli faoliyat natijalarini pedagog tekshirish metodlarining vazifasi nimada?
4. Reproduktiv predmetli-mantiqiy faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlari talablar nimalarni aytib berishlari mahoratini aniqlaydi?
5. Ijodiy faoliyat natijalarini pedagogik tekshirish metodlarini aytib bering.
6. "Baho" iborasining ta'rifini bering.
7. Baholashning qanday funksiyalari bor?
8. Baholash tizimi qator prinsiplar bo'yicha tuziladi. Ularni bayon qiling.
9. Reyting nazorat nimalar bilan tavsiflanadi?

8.3. O'quv natijalarini baholash

8.3.1. O'zlashtirishni og'zaki nazorat qilish va baholash

"O'quvchi -- o'qituvchi" faoliyatida suhbat. O'qituvchi va o'qiyotgan orasidagi verbal o'zaro ta'sir – har ko'rinishlarda kechadigan pedagogik amallarning asosiy bandidir. U ishtirokchilarning mos fikrlaridan bevosita voqif bo'lishlarni taklif etadi. Nutq, ma'noli harakatlari, imo-ishoralar suhbat ishtirokchilari kommunikatsiyani bir butun/yaxlit qabul qilish uchun sharoit yaratadi.

Ta'lim muassasi kontekstida dialog yoki suhbatning turli shakllarini ajratish mumkin. ularni asosiy vazifasi va maqsadining yo'nalishiga qarab quyidagi guruhlarga ajratishadi:

Dialog shakllari

Maqsad: maslahat

- maslahat suhbatlari
- qayta bog'lanish informatsiyasi
- yordam ko'rsatish va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida suhbatlashish

Maqsad baholash

- og'zaki imtihon
- baholash maqsadida suhbatlashish

Maqsad moslashuv

- mutaxassiskik bo'yicha suhbat
- maqsadni muvofiqlashtirish

Dialog shakllarining xarakteristikasi

Quyidagi dialog yoki suhbatni olib borishning alohida shakllari va ahamiyatga ega bo'lgan belgilari asosida qisqacha tavsiflari keltirilgan.

Dialog shakli	Xarakteristikasi, belgilari
Maslahat suhbatlari	Kasbiy yoki metodik savollar bo'yicha, odatda o'quvchi ehtiyoji bo'yicha, o'qituvchi maslahati, odatda strukturlanmagan
Qayta bog'lash informatsiyasi	Qo'llab-quvvatlash yoki tuzatish kiritish uchun qisqa dialog, odatda o'qituvchi tashabbusi bo'yicha, strukturlanmagan
Yordam ko'rsatish va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida suhbatlashish	Qayta informatsiyani olish va maqsadlarni muvofiqlashtirish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar orasida davomiy suhbat, strukturlangan
Og'zaki baholash/imtihon	Imtihon suhbatlari/o'zlashtirishni tekshirish/nazorat qilish maqsadida suhbat, imtihon vaziyati, qat'iy strukturlangan
Baholash maqsadida suhbatlashish	O'quvchining o'zlashtirishini baholash maqsadida suhbatlashish, bunda o'quvchi o'zini o'zi tahlil qilmaydi va baholamaydi, strukturlangan
Mutaxassilik bo'yicha suhbat	Kasbiy suhbat, o'zlashtirishni tekshirish maqsadiga ega emas, ko'pincha strukturlanmagan
Maqsadni muvofiqlashtirish	Suhbat, uning davomida o'qituvchi va o'quvchilar orasida keyingi faza uchun muayyan kelishuvlar qabul qilinadi, strukturlangan

Og'zaki imtihon, xususan, uning kognitiv jabhaga yo'nalganligi va ish bilan birga baho qo'yish maqsadida baholashga yo'nalganligi sababli, keyinchalik yordam berish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat o'zlashtirishni tekshirish (yoki nazorat qilish)ning kommunikativ doirasi sifatida aniqlanadi.

Strukturlangan suhbatlar

Obyektivlik va solishtiruvchanlik bo'yicha o'zlashtirishni tekshirish maqsadida o'tkaziladigan suhbat strukturlangan shaklda tashkil qilinadi.

Tekshirish (nazorat qilish) maqsadida o'tkaziladigan strukturlangan suhbatning fazalari

1-faza O'quvchi pozitsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - O'quvchining o'z-o'zini shaxsiy baholash (o'z-o'zini baholash varaq'i yordamida bajarilishi mumkin) - O'zining faoliyatini, o'zi erishgan natijani, o'zining xulq-atvorini o'zi baholashi
2-faza O'qituvchi pozitsiyasi	<ul style="list-style-type: none"> - O'quv vaziyatini tahlil qilish: O'quvchi nimanı o'lganadi? U qanday o'rgangan? O'quv guruhida u o'zini qanday tutayapti? - O'quvchini baholash (zarurat bo'lganda tashkil baholash uchun mo'ljallangan varaq yordamida)
3-faza Umumiy va farqlanadigan	<p>Bahs:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Muvofiqliklar nimalarda saqlanib qoladi? - Baholashdagi farqliklar nimada? - Farqliklarning sabablari nimada?
4-faza Amallarni bajarishning yangi maqsadlarini nuvofiqlashtirish	<p>Kuzatishning keyingi davrda amallarni bajarishning yangi maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan muayyan kelishuvlarni tuzish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Shaxsiy maqsadlarni muvofiqlashtirish - Shaxsiy aspektlar - Tashir qilish choralari

Yordam berish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat

Yordam berish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat – bu o'quv vaziyati haqida u tugagandan keyin yoki o'zlashtirishni tekshirish (masalan, dinamik kuzatish) paytida o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda mushohada (tahlil qilishidir. Suhbat maqsadi: amallarning keyingi maqsadlarini o'zaro kelishib olish, bu – bo'lajak o'quv amallarini optimallashtirish kerak. Suhbat davomida kelishilgan amallarini bajarish maqsadidan keyingi o'quv vaziyatlarini rejalashtirishda foydalanish mumkin.


Yordam berish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat quyidagi tamoyillarga rioya qilingan holda o'tkazilishi kerak

- o'qituvchining qiziquvchan pozitsiyasi prinsipi, iltifotli e'tibor, tinglashning boshqariluvchanligi;

- o'quvchiga tushunarli javob;
- befarq avtomatizmning va e'tibor tashqi tarafga qaralishining oldini olish;
- qaramog'idagilarni faollashtirish, qarorlarni qabul qilish va amallarni bajarish kompetensiyasini rivojlantirish;
- buyruqbozlik pozitsiyasida bo'lmaslik prinsipi, tan huquqlilik va sabr-qanoatlilik prinsipi;
- suhbatni strukturlash;
- obyektivlik va nazorat haqida muntazam o'ylash prinsipi.

Yordam ko'rsatish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat tashqi kuzatuv bilan o'z-o'zini baholashni bir-biri bilan solishtirib, ularni muvofiqlashtirish ayniqsa kuchli namoyon bo'ladi. Mos baholashlar orasidagi mumkin bo'lgan farqliklar esa o'quvchilarga maslahat berish uchun boshlang'ich punkt vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, yordam ko'rsatish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadida oldingi suhbatda kelishilgan yozma ishlar, kuzatishlar, hujjatlar, referatlar yoki amallarni bajarish maqsadlari suhbat uchun sabab bo'lishi mumkin.

O'quv amallari sifatining mezonlari



Shaffoflik prinsipidan kelib chiqqan holda, o'quvchilar bilan yordam ko'rsatish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbatdan oldin e'tibor berilishi lozim bo'lgan mezonlar shartlashib olinishi kerak.

Bunda o'quv omillari sifatining mezonlari yana boshlang'ich nuqta sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yordam ko'rsatish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbatning o'quv amallari sifatining mezonlariga bog'liqligi

Sifat mezonlari	Tekshiruv tavsifi/pozitiv namoyon bo'lish
Predmet o'byektga bo'lgan munosabat	Kasbiy to'g'rilik, komplekslilik
Maqsadga yonalganlik	Amallarni bajarish usullarining ishonarliligi, masalan, amallarni bajarishni tejalashtirishda yoki suhbatni olib borishda
Mustaqillik	Suhbatda qo'yilgan masalalarni o'qituvchi yordamisiz mustaqil yechish, suhbat paytida qo'shimcha informayiyani (jadvallar, kataloglar va b. lar) mustaqil olish
Subyektga/o'zini baholashga yonalganlik	O'zini ishonchli tutish, o'zining ishchanlik qobiliyatini real baholash
Itimoiy mansublik	Guruh a'zolariga nisbatan o'zini tutishini baholash

8.3.2. O'zlashtirishni yozma nazorat qilish va baholash

Vaziyat yozma sinf ishlari

Bunday sinf ishi o'quvchilardan o'quv vaziyati doirasida o'rganilgan mazmuni qo'yilgan masalani yozma ravishda yechish uchun qo'llashni talab qiladi.

Vaziyat yozma sinf ishlarini qo'yishda birinchi navbatda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- o'quv mashg'ulotida o'rganilgan mazmun bilan bog'lanish bo'lishi kerak.
- topshiriqlar mustaqil yechilishini ta'minlash kerak;
- o'rganishning alohida jabhalari, masalan, o'zlashtirishning kasbiy va umumta'lim jabhalari, orasida mutanosiblik kuzatilishi kerak.

Didaktik aspektlar

Huquqiy va pedagogik umumiy shartlarni e'tiborga olgan holda vaziyat yozma sinf ishlari quyidagi talablarni hisobga olishi kerak.

Vaziyat yozma ish amallar bajarilishining kasbiy vaziyatidan kelib chiqadi. Ya'ni bunday ish uchun boshlang'ich punkt – bu kasb uchun ahamiyatli bo'lgan masalaning qo'yilishidir. Ish doirasida tekshirilayotgan o'quv mazmuni hamda qo'yilgan masalalarning hammasi amallarni bajarishning ushbu vaziyatidan kelib chiqishi yoki unga bevosita bog'langan bo'lishi kerak.

Vaziyat yozma ish amallarni bajarishning sistematikasini aks ettiradi. Amallarni bajarish sxemasi, o'quv mashg'ulotlarida amallarni bajarishga

yo'naltirish prinsipi (rejalashtirish, o'tkazish, nazorat qilish) o'rganilgani kabi, yozma ishni bajarishda qo'llanilishi kerak. Amallarni bajarishning sxemasini o'z o'rnida va kasbiy to'g'ri qo'llash ishni baholash uchun mezon bo'lishi mumkin, masalan, rejalashtirish bo'yicha topshiriqni yozma yechish vositasida.

Vaziyatli ish vaqt bo'yicha cheklangan.

Kasbiy yo'nalgan sinf ishidagi kabi, vaziyatli ishning vaqt doirasi ham cheklangan bo'lishi kerak, lekin bu vaqt masala kompleksroq qo'yilishi tufayli uzoqroq bo'lishi mumkin.

Vaziyatli ish yordamchi vositalardan foydalanishni talab qiladi. Informatsiyani mustaqil olish – o'quvchilar amallar bajarish kasbiy kompetensiyasining ahamiyatli elementidir. SHu sababli, jadvallar, kataloglar yoki konspektlar kabi yordamchi vositalardan ishni o'tkazish paytida foydalanishga ruxsat etiladi.

O'quv amallari sifatining mezonlari

Vaziyatli yozma ish bilimlarni tekshirish uchun emas, balki amallarni bajarishni bilishni talab qiladi. Bu esa o'quv amallari sifatining mezonlari o'zlashtirishni tekshirishning bunday shaklida ham qo'llanilishi mumkinligini bildiradi. Lekin, yozma ishning o'ziga xos xususiyatlari (o'quvchining individual ishi odatda vaqt bo'yicha cheklanadi va sh.k.) tufayli o'quv amallari sifatining hamma mezonlarini ham tekshirish uchun qo'llab bo'lavermaydi. Xususan, vaziyatli ish yordamida o'ziga bo'lgan munosabatni va ijtimoiy mansublikni tekshirib bo'lmaydi yoki ishda cheklangan bo'ladi.

Amma “maqsadga yo'nalganlik”, “predmet/obyektga bo'lgan munosabat” va “mustaqillik”ning sifat mezonlarini tekshirish mumkin.

Vaziyatli ishning o'quv amallari sifatining mezonlari orasidagi bog'liqlik

Sifat mezonlari	Tekshirish xarakteristikasi
Maqsadga yo'nalganlik	Aniq – ravshan taqdim etilganligi, o'rinli taqdim etilganligi (masalan, muhimni muhim emasdan ajratish); kasbiy metodlar va ish uslublarini qo'llash
Predmet/obyektga bo'lgan munosabat	Muammo yoki topshiriq uchun ahamiyatli bo'lgan mazmuni batafsil va kasbiy to'g'ri taqdim etish
Mustaqillik	Guruhdoshlari yoki o'qituvchi yordamisiz mustaqil yechish, informatsiya manbasini ko'rsatgan holda informatsion materiallardan foydalanish, zarurat bo'lganda oraliq yechimlar gipotetik ravishda qabul qilinadi, bunda ish davom etadi.

Vaziyatni ishni formal tuzish

Vaziyatni ishni formal tuzish uchun har xil namunalardan taklif etiladi, ularning har biri o'zlarining afzallik va kamchiliklariga ega.

Juz'iy masalalarni kasbiy tizimiy tartiblashtirish.

Bunday yondashuvning afzalliklari:

- o'quvchi ar qiyalmasdan juz'iy masalalarni alohida mavzu sohalar bilan bog'lay oladilar;
- o'qituvchi tekshirishi osonlashadi.

Topshiriqlarni bunday tartiblashtirishning katta kamchiligi – predmetli-mantiqiy bilan amaliy yo'nalganlik orasidagi o'zaro bog'lanish yo'qolishi mumkinligidir. Kasbiy kundalikda kasbiy amaliy masalani yechishda ishchi xodim o'zining ish qadamlarini mavzularning kasbiy-tizimiy majmualariga muvofiq ravishda emas, balki ishlab chiqarish topshirig'i yoki rejalashtirish bo'yicha topshiriq talablariga muvofiq rejalashtiradi. Agar topshiriqlar noto'g'ri mantiqiy aspektlar bo'yicha taqsimlangan bo'lsa, u holda amallarni bajarish "boshdan oyoqqa" o'chirilib ketishi mumkin.

Predmet va amallarni bajarish nuqtai-nazaridan mantiqiy bo'lgan aspektlar bo'yicha tartiblashtirish. Predmet va amallarni bajarish nuqtai-nazaridan juz'iy masalalarni mantiqiy aspektlar bo'yicha tartiblashtirish kasbiy amaliyotdagi muammolarni yechish strategiyasiga yaqinlashib boradi.

Bundagi afzalliklar:

- juz'iy masalalarni yechishda amallarning aniqligi saqlanadi;
- amallarni bajarish haqidagi o'quvchi bilimni e'tiborga yaxshiroq olish mumkin;
- "maqsadga yo'nalganlik" sifa: mezonini aniqroq tekshirish mumkin.

Asosiy kamchiliklar:

- alohida juz'iy masalalar orasida tanlab olishlik yo'qotilishi mumkin;
- tekshirishga o'qituvchilarning mehnati ko'proq sarflanadi.


Vaziyatni yozma sinf ishlarini formal tuzish haqidagi qarorni o'qituvchining o'zi, har bir alohida holatda afzallik va kamchiliklarini solishtirib ham o'quv guruhini nisobga olib, qabul qilishi kerak. Ammo, unuman olganda, ishni predmet va amallar nuqtai-nazaridan mantiqiy bo'lgan aspektlar bo'yicha tuzish tavsiya etiladi.

Masalalar qo'yilishini operatsionallashtirish

Vaziyatni ishning asosiy muammosi – masalalar qo'yilishini operatsionallashtirishdadir, ya'ni asosiga qo'yilgan muammoning

nimmasalalarga qanday bo'linishidadir. Ushbu ish muammosining boshlang'ich qo'yilishida nimmasalalar kamchilik aniqroq qo'yilsa, u nimmasalalarga qanchalik ko'proq bo'linsa, o'quvchining amallarni bajarishdagi etsinligi shunchalik kamroq bo'ladi va natijada o'quvchilar amallarni bajarish strukturasi qanchalik sezishganliklarini tekshirish imkoniyati shunchalik kamroq bo'ladi.

Agar masalaning qo'yilishi juda keng tushunilsa, bu holda topshiriqni maqsadga muvofiq yechish uchun doim bir qancha variantlar mavjud bo'ladi va natijada yechimlarni solishtirish tobora qiyinlashib boradi va tekshirishga sarflanadigan mehnat ortib boradi. Bo'shroq talabalar esa erkin qo'yilgan topshiriqlarni bajarayotganda tezroq toliqadilar (ular uchun talab ancha yuqori hisoblanadi). Topshiriqlar erkin qo'yilishining keyingi muammosi talab qilingan taklab olishshik har doim ham ta'minlanilavermaydi.



Alohida predmetlar yoki amallarni bajarish haqida o'quvchilarga taqdim etiladigan imkoniyat orasidagi va (nim) masalalarni operatsionallashtirish darajasi va tanlash xususiyati orasidagi o'zaro bog'liqlik

Bu yerda o'qituvchiga o'quv guruhining tayyorgarlik darajasi va ishonchligini hisobga olib muammoli vaziyatni nimmasalalarga operatsionallashtirish taklif etiladi.

Maktab amaliyotida boshlanishida oddiy va ko'proq strukturlangan topshiriqni qo'llashdan boshlab, o'quv guruhlarini topshiriqlarning erkinroq qo'yilib, borishiga asta-sekin olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qish davomida o'quvchilar amallarni bajarish sxemalarini anglab boradilar va amallarni bajarishning zaruriy tizimiy usuliga ko'nikadilar.

Vaziyat yozma sinf ishini strukturlash qismlarga ajratish

Formal tuzilishidan qat'iy nazar, vaziyat yozma ish, faoliyatga yo'nalgan o'qitish strukturasi tayangan holda, qo'yidagi qismlardan tarkib topgan bo'lishi kerak.

Ko'rgazmali hol (muammoning qo'yilishi) masalani qo'yish

- Rejalashtirish
 - masalan, informatsiyani yig'ish
 - ish rejasini/amallarni bajarish rejasini tuzish
- O'tkazish amalga oshirish
 - masalan, chizmani tayyorlash
 - texnologik hisoblarni bajarish
 - sxemani tahlil qilish
 - dasturni ishlab chiqish
 - formulalarni ishlab chiqish
 - xizmat xatini shakllantirish
- Nazorat/tahlil
 - masalan, imtihon varag'ini ishlab chiqish
 - sarf-xarajatlarni hisoblash

Tashkil qilishning bu sxemasida faoliyatga yo'nalgan yondashuvning ahamiyatli elementlari hisobga olingan.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Dialogning qanday shakllari mavjud?
2. Dialog shakllarining xarakteristikasini batafsil bayon qiling.
3. Og'zaki imtihon qaysi jahaga yo'nalgan?
4. Tekshirish (nazorat qilish) maqsadida o'tkaziladigan strukturasini suhbatning fazalarini aytib bering.
5. Yordam berish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidagi suhbat qanday tumoyillarga rioya qilingan holda o'tkazilishi kerak?
6. O'quv amallari sifatining mezonlarini aytib bering.
7. Yordam ko'rsatish va rivojlanishga ko'maklashish maqsadidan suhbatning o'quv amallari sifatining mezonlari va bu mezonlar tekshiruv tavsifini bayon qiling.
8. Vaziyat ishning o'quv amallari sifatining mezon orasida qanday bog'liqlik mavjud?
9. Juz'iy masalalarni kasbiy tizimiy tartiblashtirishning qanday afzalliklari bor?
10. Predmet va amallarni bajarish nuqtai-nazaridan juz'iy masalalarni mantiqiy tartiblashtirishning afzalliklari va kamchiliklarini aytib bering.
11. Muammoning qo'yilishi masalasini qo'yishni rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat tahlil qilish bosqichlarini sanab chiqing.

II- QISM. KASBIY-TEXNIKAVIY TA'LIM PEDAGOGIKASI

9- BOB. KASBIY-TEXNIKAVIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING UMUMIY ASOSLARI

9.1. Ishchi kompetentlik

Oxirgi o'n yilliklarda "kompetentlik" konsepsiyasidan kasbiy-texnikaviy ta'limda keng foydalanilmoqda. Kompetentlik iborasining ta'rifi keng talqin qilinishini qayd etib, Martin Malder va uning hamkasblari (2007) kompetentlikni "insonning kasbiy repertuarida birlashgan bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlardan foydalanish qobiliyati" sifatida ta'riflashadi (o'sha joyda, 82b.). Ular quyidagilarni tasdiqlashadi: kompetentlik, uning ommabopligi tufayli Yevropa ittifoqida va undan tashqarida keng foydalanilmoqda. Kompetentlikni "o'z-o'zini boshqarib o'qib-o'rganish", "haqiqiy o'qib-o'rganish" va "bilimlarni yaratish" tushunchalari bilan tenglashtirishmoqda, hamda, shu bilan birga u o'qib-o'rganishning muhim maqsadlari va mazmuniga ham tegishli deb hisoblashmoqda, bunday o'qib-o'rganish esa talabalarning shaxsiy rivojlanishini tug'diradi va ularni jamiyatda samarali faoliyat olib borishga eng yaxshi tayyorlashi mumkin (Mulder, Weigel & Collins 2007, p. 68).

Kompetentlikka uchta qarama-qarshi yondashuvlar mavjud:

- *bixeviorist* (ishni muvaffaqiyatli bajaruvchilarni o'zlarining kamroq muvaffaqiyatli hamkasblaridan ajratuvchi sezilarli xulq-atvorli xususiyatlar ta'rifi);
- *patentlashmagan vosita* (kasbga bog'lanmagan holda ishdagi o'zgarishlarni tushuntiruvchi umumiy qobiliyatlarning identifikatsiyasi);
- *bilimdonlik* (aqliy resurslar: topshiriqlarni oldin bajaradi, ishning ko'zini biladi, muvaffaqiyatga erishadi).

Kasbiy-texnikaviy ta'limning eng muhim maqsadi "kompetentlikka ishlashni" biz inkor qilmaymiz, istalgan moyillikni amalga oshirish katta bilimni talab qiladi – bu tushunarli. Lekin "bilim" va "fikrlash" doim kontekstda bo'lishadi – ham xizmat ko'rsatishda – amaliy ekspertli bilimlar. Muvaffaqiyat isboti – kir yuvuvchi mashina – bu sohada olim bo'lish qobiliyati emas, balki – rozi bo'lgan mijoz va golf uchun kichik o'tzor maydon. Demak, kasbiy-texnikaviy ta'lim kontekstida "bilim" va "fikrlash" shu yo'sinda o'qitilishi kerakki, ular bir zumda miyaga kelsin va amaliy vaziyatlarda foydali bo'lsin. Bu kasbiy pedagogikani akademik

pedagogikadan sezilarli darajada farqlaydi. lekin murakkabligi undan kam bo'lmaydi.

Bu muhim, lekin ishning haqiqiy holatiga muvofiq, kompetensiya masalalari bo'yicha asoslangan, ro'yxatdagi takliflarni o'chirib emas, o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qila bilish ham o'ta muhim hisoblanadi. SHu bilan birga ishchi/kasbiy kompetentlik relevant va dolzarb ham bo'lishi lozim.

Kompetentlikda urg'u o'qitish jarayoniga emas, balki natijani baholashga qaratiladi.

Kompetentlik markaz bo'lgan joyda marka, o'qish jarayoni emas, balki baholangan natijalar bo'ladi (Tajna Weigel va boshqalar, 2007).

Unumdorlikni yaxshilab borish maqsadi bilan belgilangan malakaviy talablar strukturasi – talab etilayotgan kompetentlik darajasini belgilovchi:

- *kompetentlik darajasi 1 dan*, u har xil mehnat faoliyati diapazonini bajarishda nazariy bilimlar va ko'nikmalarni qo'llashni qamraydi
- *kompetentlik darajasi 5 gacha*, u ko'nikmalarni asosiy prinsiplarning keng diapazonida kontekstlarning keng va ko'p hollarda oldindan bilib bo'lmaydigan turli-tumanligidagi

5 ta darajani qamraydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Martin Maller kompetentlikka qanday ta'rifladi?
2. Qaysi sifatlari tufayli kompetentlik tushunchasidan Yevropa ittifoqida va undan tashqarida keng foydalanilmoqda?
3. Kompetentlikka uchta qarama-qarshi yondashuvlar mavjud. Ularni aytib bering va tahlil qiling
4. Kasbiy texnikaviy ta'lim kontekstda “bilim” va “fikrlash” qay yo'lida o'qitish kerak?
5. Kompetentlikda urg'u nimaga qaratiladi?
6. Ulug'vorlikni yaxshilab borish maqsadi bilan belgilangan malakaviy talablar strukturasi bayon qiling.

9.2. Ishchi kompetentlik, ekspertli bilimlar va malakali narsalarni qilish qobiliyati

Kasbiy-texnikaviy ta'limning eng umumiy maqsadi – bu tanlangan kasbiy jahhada ishchi kompetentlikni oshirishdir. Boshqa so'zlar bilan aytganda, kasbiy-texnikaviy ta'lim – bu mashg'ulotlarda narsalarni standartlar to'plami talablariga mos holatiga qanday keltirishni o'qitib o'rganib, odamlarga ekspert darajasiga rivojlanish imkonini taqdim

etishdir. Kasbiy-texnikaviy ta'limning asosiy natijasi – bu ekspertlar bilimi, ya'ni faoliyat jabhasi aniq aniqlangan ish jabhasida malakali mahsulotlarni ishlashga bo'lgan qobiliyat bo'lib, u kasbiy-texnikaviy ta'limni ta'limning ko'p sonli akademik shakllaridan farqlaydi. Ta'limning akademik shakllarida ta'limning asosiy maqsadi shundaki (bu baholashning ko'p shakllari bilan de-fakto aniqlangan), tushuntirish, tanqid qilish, nazariy mulohazalar qilish va o'zini oqlash holatida bo'la olish uchun, nima to'g'risidadir gapirish va yozish holatida bo'lishdir.

Endi biz *kompetentlik* bilan bog'langan ba'zi muammolarni ko'rib chiqamiz.

Amaliy bilimlar rivojlanishini tushunishdagi bir muhim dilemmani Govard Gardner oldinga surgan:

Ba'zi odamlarga o'zlari qilayotgan bajarayotgan ishni tushunish va tushuntirib bera olish qobiliyati yoqadi. O'ylayotib – narsalarni so'zlar bilan ifodalash – ularga o'qishda yordam beradi deb hisoblashadi. Boshqalarga esa, aksincha, o'zlari bajarayotgan ish haqida fikr yuritmasdan va o'zlari qilayotgan ishni birovga tushuntirib bermasdan, o'zlari jismoniy hatti-harakatli ekspertli bilimlar olishga qodir deb tuyuladi. Ular amalda, so'zlar yoki abstrakt tushunchalarda emas, balki "ish muhiti haqida o'ylaydilar". Birovlarga tushuntirish yoki gapirib berish ularning mayli emas, lekin lar, masalan, birovni mashq qildirmoqchi bo'lsalar, bu ularga to'siqlik qilmaydi. Siz bu usullardan qaysi birida o'qiysiz, bu sizning ixtiyoringiz.

(Gardner, 2010, p. 30)

Agar Siz ish joyiga borsangiz, usta yoki trener ular kimlardir numadir qilishga o'rgatishayotganliklariga absolyut qo'shilasiz. Bu hunar yoki texnika, masalan, baliq filesini kesish bo'lishi mumkin. Lekin, agar, Siz kollej sinfiga kirsangiz va sinf o'qituvchisidan uning maqsadi nimada bo'lganligini so'rasangiz, u Sizga modul mazmunini uzatayotganini va maqsad modul tugallanganidan keyin test o'tkazilishini aytadi.

Lorna Fitsdjon

O'qiyotganlar standartning ma'lum talablariga haqiqatda yetishishdimi yoki yo'qmi ekanligini bilish uchun, o'qiyotganlardan qaysidir biri, mezon talablaridan foydalanib, o'zlari nima qilayotganliklarini so'zlarda ifodalab berish holatida bo'lishi kerak. Lekin

o'quvchi uchun bu o'qish boshlanishida amalda zarur bo'linmasligi ham mumkin. O'qishni yangi boshlayotgan o'quvchi ham jarayonni yetarlicha bilmayligi mumkin. O'qib-o'rganish davomida o'quvchining ekspert bilimlari va o'ziga bo'lgan ishonch ortib borgan sari -- o'quvchining o'zi bajarayotgan ishda va atrofidagi voqeliklarda nimalar sodir bo'layotganini sezish qobiliyati ortib boradi. Albatta, bajarilayotgan ishning istiqboli, hozir bajarilayotgan ishni bayon qilish holatida bo'lishi kerak. Bu, kasbiy-texnikaviy ta'limning ba'zi, kasbga ish joyida ishlash ustunlik qilgan ba'zi o'qituvchilar uchun, qo'shimcha muammo bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy-texnikaviy ta'limning eng umumiy maqsadi – bu ...
2. Kasbiy-texnikaviy ta'limning asosiy natijasi – bu ...
3. Ta'limning akademik shakllarida ta'limning asosiy maqsadi nimada?
4. Amaliy bilimlar rivojlanishini tushunishda Govard Gardner qanday muhim bilimni oldinga surgan?
5. O'qiyotganlar standartning ma'lum talablariga haqiqatda yetishdini yoki yo'qmi ekanligini bilish uchun nima qilish kerak?
6. O'qib-o'rganish davomida o'quvchining ekspert bilimlari va o'ziga bo'lgan ishonch ortib borgan sari unda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

9.3. Ish beruvchilar real ehtiyojlarini qondiruvchi kompetentlik

Ularning mehnat resurslari lozim bo'lgan ko'nikmalar yo'qligi haqida inkoniyatlarni eshitingiz uchun ko'p ish beruvchilar bilan gaplashib chiqishning hojati yo'q. Masalan, qurilish sanoatining 2011 yil uchun obzori ish joylarini duradgorlar bilan to'ldirishda qurilish firmalari qiyinchiliklarga uchrashayotgan iklari haqida xabar qiladi (Abdel-Uoxeb, 2012). Ish bilan bandlik va ko'nikmalar Britaniya Komissiyasi (UKCES) yaqinda britaniya ish beruvchilarining kasbiy obzorining boshlang'ich natijalarini nashr etdi, undan shu narsa ko'rinadiki, hamma xizmatchilarning 5% o'zlarining ish joylarida yetarli tajribaga ega emas ekanlar. Ishga davogarlarning kasbiy bilim va ko'nikmalari yetarli bo'lmaganligi sababli vakant joylarning taxminan 16% ni xodimlar bilan to'ldirish qiyin bo'lmoqda

Kasbiy-texnikaviy ta'lim ish beruvchilarning real ehtiyojlariga javob berishga intilishi kerak. Bu istalgan kasbiy pedagogikaning muhim aspekti hisoblanadi, shu sababli kasbiy pedagogika mazmuni va undagi

vondashuvlarni yangilash aspekti potensial ish beruvchilarning bo'lajak ehtiyojlariga asoslangan bo'lishi kerak.

Niderlandiya va Germaniyadagi kasbiy-texnikaviy ta'lim va o'qitish "bilimlarga asoslangan" yondashuvga asoslangan, u yerda mazmun chuqur nazariy bilimlar, shaxsiy rivojlanish g'oyalari va fuqarolik ta'limini qamrab olgan. Bu mamlakatlarda "kompetentlik" ko'p o'lchamli konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi, uning yordamida odamlar ishdagi vaziyat ustida fikrlayotganlarida nazariya va amaliyotni birlashtiradilar. Unga resurslarni birlashtiradilar va "insonni bir butunlikda" ko'radilar va natijada o'zlarining bajargan amallaridan keyin talabalar va ishchilar bilimlarga asoslangan mehnat jarayonining bosh muvaffaqiyati – bilimlarni ishlab chiquvchilarga aylanadilar.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kasbiy – texnikaviy ta'lim qaysi talablarga javob berishga intilishi kerak?
2. Nima istalgan kasbiy pedagogikaning muhim aspekti hisoblanadi?
3. Kasbiy pedagogikaning mazmuni va undagi yondashuvlarni yangilash aspekti nimalarga asoslangan bo'lishi kerakligini bayon qiling.
4. Niderlandiya va Germaniyadagi kasbiy – texnikaviy ta'lim va o'qitish qanday yondashuvga asoslangan va u qanday ta'limni qamrab olgan? Bu mamlakatlarda kompetentlik qanday konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi?

10- BOB. KASBIY-TEXNIKAVIY TA'LIMDA SAMARALI O'QIB-O'RGANISH VA O'QITISH METODLARI

10.1. Umumiy holatlar

G'oyalarni o'qib-o'rganishning optimal usullarini izlab topishlari mumkin, ular bu o'qib-o'rganishda yordam uchun resurslar izlay olishsin va ... ular o'zlari uchun kerak bo'lgan va ancha murakkab maqsadlarni belgilay olishsin.

(Xetti, 2009, 37 b.)

Ko'p o'qituvchilar o'z predmetlarini biladilar va sevadilar, lekin ularning juda kam qismi qanday dars o'tish kerakligi haqda o'zlariga ishonadilar. Odamlar qanday o'qiyotganliklarini anglash uchun, uni ancha chuqurroq tushunish kerak.

Lorna Fitsjon

Kasbiy-texnikaviy ta'lim o'qitishdagi yaxshi muhit ham "o'qituvchidan" va ham ko'proq kasbiy o'quvchidan qayta bog'lanish uchun to'liq imkoniyatlarga ega, chunki u sodir bo'layotgan voqeelikni sezish uchun o'z-o'zini anglash va mahoratga ega bo'lish kasbiy o'quvchida tobora ortib boradi.

Kuzatib o'qib-o'rganishda Djon Xetti birinchi planga amaliyotda yuqori sifatli o'qitishning to'rtta o'ziga xos xususiyatini oldinga suradi:

- Istalgan foydali tajribaning natijasi bo'lgan o'rganish ushbu onga alohida e'tiborni qaratadi.
- O'quvchilar o'z xotiralarida ma'lum/muayyan, murakkab, amaliy maqsadga ega bo'ladilar. O'rganish vazifalari shunday tuzilganki, xotiradagi maqsadlar afzalliklarga ega bo'ladilar. Bu maqsadlar, o'quvchilar o'zlari tanlagan sohada ekspert bilimlari yuqoriroq darajaga rivojlanishiga imkon berish uchun, foydali bo'lishlari kerak.
- Qayta bog'lanish tushunarli va ko'p sonli. O'quvchilar salomlashishi va qayta bog'lanishni eshitishga ehtiyoj sezadilar. Qayta bog'lanish o'quvchilar uchun foydali bo'ladigan darajada yetarli darajada sifatli va miqdorda bo'lishi kerak.

- O'qituvchilar o'quvchilar o'z-o'zlarini tushunishlarini tan olishadi va o'rganish va strategiyalarini yaxshilashlari uchun ularni astoydil mashq qildirishga qodirlar.

Metodlarning quyidagi ro'yxati ba'zi kontekstlarda yaxshi tushunarli hisoblanadi. Ko'pchilik "amaliyotda o'qiydi" yoki "tajriba asosida o'qiydi", vaholanki ko'pchilik aks etilishini, qayta bog'lanishni va nazariyani birlashtirishadi. ular kasbiy-texnikaviy ta'limda samarali ekanliklarini asoslash uchun, ularning har biri bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan:

- Kuzatish orqali o'rganish.
 - Taqlid qilish yo'li bilan o'rganish.
 - Amalga oshirish/sinab ko'rish yo'li bilan o'rganish ("sinab ko'rish va hatto qilish")
 - Qayta bog'lanish yo'li bilan o'rganish.
 - O'qitish va yordam berish yo'li bilan o'rganish.
 - Muammolarni real yechish yo'li bilan o'rganish.
 - Talab/ehtiyoj/sarov orqali o'rganish.
 - Tanqidiy fikrlash va bilimlarni hosil qilish yo'li bilan o'rganish.
 - Eshitish. eshitilgan narsani rasshifrovka qilish va eslab qolish yo'li bilan o'rganish.
 - Eskizlarni tuzish va chizish yo'li bilan o'rganish
 - Aks ettirish yo'li bilan o'rganish
 - Mashq (trenirovka) qilib o'rganish.
 - Raqobatchilikda o'rganish.
 - Virtual muhit orqali o'rganish.
 - Modellashtirish va roll o'yinlar vositasida o'rganish.
 - O'yinlar (games) orqali o'rganish.
- Endi bu metodlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kuzatib o'qib-o'rganishda Djon Xetti (2009) amaliyotda yuqori sifatli o'qib-o'rganishning to'rtta xususiyatini birinchi planga olib chiqqan. Kuzatib

nechta

olib chiqqan?

Ularni batafsil bayon qiling.

2. Amaliyotda yuqori sifatli o'qitishning turtta xususiyatini birma-bir aytib bering.

3. Kasbiy-texnikaviy ta'limda samarali o'qib-o'rganish metodlarini birma-bir sanab chiqing.

10.2. Samarali o'qib-o'rganish va o'qitish metodlari

10.2.1. Kuzatish orqali o'rganish

Boshqalarni kuzatish yo'li bilan ishni qanday bajarish yoki qanday bajarmaslik kerakligini o'rganish o'qib-o'rganishning keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Inson rivojlanishiga madaniyatlararo nuqtai-nazardan qarab, Rogoff (2007) quyidagilarni tasdiqlaydi: uy va ish bir-biridan ajralmagan joylarda, bolalar hayotiy ko'nikmalarni bevosita kuzatish va ishtirok etish vositasida o'rganish holatida bo'ladilar, bunda tajriba "uzatiladi".

Kasbiy-texnikaviy ta'limda o'qituvchi mahoratning qisqa tajriba namoyishini (unga o'quvchilar taqlid qilishga intilishlari mumkin – uni ko'radilar ham) boshqa tajribaga asoslangan metodlarning katta miqdori bilan, ular amaliyot va sinab ko'rish va xato qilish metodlariga imkon beradi, birlashtirishga intiladi; bunday metoddan tez-tez foydalaniladi (Hetland, Winner, Veenema&Sheridan, 2007). Oxir-oqibatda foydali kasbiy pedagogika o'qitish va o'qib-o'rganish metodlarining saralangan qo'shilmasi qachon va nima uchun eng yaxshi yoyilishi kerakligiga nisbatan yo'riqlarni beradi.

10.2.2. Taqlid qilish yo'li bilan o'rganish

Aristotel yozishiga ko'ra, imitatsiya – odamlar o'qib-o'rganishining birinchi yo'li hisoblanadi. Imitatsiya hamma insonlarda qayd etilgan. tadqiqotlar tufayli hujjatlashtirilgan. Psixolog Alberg Bandura 1977 yilda birinchi bo'lib ijtimoiy o'rganishning atroflicha/har taraflama nazariyasini taklif etdi. O'qitishning ijtimoiy nazariyasi tajribaning muhimligini tan olgan holda, u bilimlarni mustahkamlaydi, uning fanga qo'shgan tayanch hissasi – *g'oya* bo'lib, u "xususiy shaxslar kuzatish vositasida o'qib-o'rganishadi va so'ngra boshqalarga taqlid qilishadi" deydi. Kasbiy o'qitish uchun tayanch band – bu eksperiment o'tkazish va sinab ko'rish va xato qilish metodi vositasida hamda imitatsiya orqali o'qib-o'rganishga ruxsat berish o'qib-o'rganish orasida balans bo'lishidir.

Kuzatish va taqlid qilish yo'li bilan o'rganishda kuzatilgan narsani realizatsiya qilishga intilish ishtiyoqi tug'iladi. Taqlid qilish yo'li bilan ekspert (usta)dan o'rganish o'zining afzalliklariga ega bo'lgan holda, nusxa olinayotgan/taqlid qilinayotgan xususiy shaxs o'quvchi/shogirdning o'zining tajribasiga yaqinroq xususiy shaxs o'quvchi nimadan

qiyalayotganini yaxshiroq tushinishi mumkin (Lave and Wenger, 1991). Bu holda taqlid qilib o'rganishda tushuntirish va yo'riqlar ham bo'ladi.

Lekin buning xavfli tomoni ham bor. Talabalar bunda o'rganishning o'rniga diqqatni ko'proq "taqlid qilishga" qaratishlari mumkin.

Ham kuzatish va ham taqlid qilishning bo'lishi shogirdlikda eng asosiy hisoblanadi.

10.2.3. Amalga oshirish yo'li bilan o'rganish

Kasbiy o'rganish bo'yicha amaliyotning besh xil turi:

1. *"Ko'nikish"*: yangi narsani birinchi marta qilishda hatti-harakatlar bajarilayotgani qanday his etilganligi haqida hech qanday xotira qolmaydi, muskullarda xotira bo'lmaydi. Uzoq vaqt davomida amal bajarilganda a'zo uni qanday his etishi kerakligining shablonini o'rnatadi.

2. Muskullar hatti-harakatining *"avtomatlashtirilishi"*, bu holatga erishmaguncha golfchi noaniq harakatlar qiladi, uning harakatlari ham yetarli darajada avtomatlashmagan bo'ladi. Qachon o'quvchi hatti-harakatning har bir elementi uchun ong fikrlashi talab etilmasa, buning uchun ko'p vaqt davomida mashq talab qilinadi, ko'nikmalar avtomatlashgan holga yetishgan bo'ladi. Ko'nikmasi avtomatlashgan holga yetilgan golfchi to'pgacha bo'lgan masofa va shamol tezligini hisobga olib, unga miyasida ishlov bersa ham, u o'zining hatti-harakatini kuzatmaydi. Amaliyotning bu davrida vaqt, aniqlash va diqqat talab etiladi (Ericsson, 2002).

3. *"Qattiq qismlarini chiqarib tashlash"* amallar/hatti-harakatlar istalinayotgan natijaga olib kelmagan holda, o'quvchi o'zining amallaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi, jarayonning qaysi joyida xatoga yo'l qo'yanini anglaydi (Perkins, 2009).

4. *"Improvizatsiya"* avtomatlashtirilgan hatti-harakatlar barqarorlikka erishishi va unda kreativlik yetisimasligi mumkin.

5. *"Real voqeilikda uni bajarishi"* ko'nikmalar real vaziyatlarda tekshiruvdan o'tgandan keyin, ular raqobatbardosh darajasiga yetishishi mumkin.

Xulosa: yaxshi o'qitish, bu tavsiyalar har birining maqsadini o'quvchilarga tushuntirib, bu amallarning har birini o'quv jarayoniga kiritadi.

"Oldindan o'ylab, mo'ljallab qilingan amal" tajriba davomiyligi va idrok qilingan bilim va ko'nikmalar mahoratiga qaraganda operatsiyalar mahoratliligi bo'lishi muvaffaqiyati va amalda kuzatilayotgan unumdorlik uchun eng tayanch hisoblanadi (Ericsson, 2008) va unumdorlikning tajribaviy darajalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha juda muhim bo'lishi

mumkin (Li, 2011). Oldindan o'ylab, mo'ljallab bajarilgan amal diqqat-e'tiborni muayyan masalalarni yaxshilashga qaratadi. Anders Eriksson o'ziga bevosita qayta bog'lanishni, muammoni yechish uchun kerak bo'lgan vaqtni va bahoni va qayta yana takrorlash imkoniyatini ham kiritish lozimligini taklif etadi.

Maykl Erot amalga oshirishning boshqa elementini kiritdi. Uning "yetarli vaqt" vaziyatning to'lib-toshganligi g'oyasi (Erot, 2000), biz o'qib-o'rganishimizdagi fikr yuritish, usulimizga vaqt qanday ta'sir qilishini tushuntiradi.

Vaqt tanqisligi odamlarni ancha intuitivroq yondashuvni qabul qilishga majbur qiladi, tajriba asosida intuitiv ravishda o'rnatilgan amallar, odamlarga ishni tezroq bajarish imkonini beradi. To'lib ketgan kontekstlar ham odamlarni o'z diqqat-e'tiborini tanlab-tanlab yo'naltirishga va o'ziga kelayotgan informatsiyaga tezroq ishlov berishga majbur qiladi. Tezlik bilan interpretatsiya qilish va qaror qabul qilish sharoitida, metajarayonlar ko'zga tashlanmagan nazorat va qisqa muddatli reaktiv fikrlash bilan cheklanadi. Vaqt bemalol bo'lganda esa, metajarayonlarning roli ancha murakkablashadi, o'z-o'zini anglashdan tashqariga kengayadi va muhokama qilinayotgan jarayon va unga qanday ishlov berilishi haqidagi muammolarni o'ylab, bularga mos bilimlarni izlab, uning tannarxi haqida o'ylab va h.k.

Erout, 2000, 24 b.

Kasbiy o'qituvchilar amallar qanday qilib eng samarali bo'lishi, masalan, faoliyat vaqt bo'yicha komponentlarga aniq-ravshan yo'riqlar berish holatida bo'lishlari kerak.

Agar Siz o'quvchi bilan 1:1 o'rgatishni tashkil qila olmasangiz (ommaviy o'qitish tizimida Siz unday qila olmaysiz), tadqiqotlar keyingi eng yaxshi yo'l – qayta bog'lanish ekanligini ko'rsatadi; Siz talabalar yoniga qanday o'tirayapsiz va ular bilan birga qanday ishlayapsiz, ular nimalarni qanday qilishayotganini kuzatasiz va ular bilan birga ishlaysiz.

Salmi Diketts.

10.2.4. Qayta bog'lanish orqali o'rganish

O'quvchi-shogird rivojlanishida qayta bog'lanish asosiy mexanizm vazifasini o'taydi. Shu bilan birga qayta bog'lanish bahoni shakllantiruvchi markaziy element ham hisoblanadi (Uilson, 2012).

Ta'limda qayta bog'lanish quyidagi to'rtta elementdan tarkib topadi:

1. O'lchanadigan belgi amaldagi darajasidagi ma'lumotlar.
2. O'sha belgining nazorat darajasidagi ma'lumotlar.
3. Ikkita darajani solishtirish va ushbu ikki daraja orasidagi farq haqidagi informatsiyani generatsiya qilish mexanizmi.
4. Ushbu farq/uzilishni o'zgartirish uchun informatsiyadan foydalanish mumkin bo'lgan mexanizm (Black and William, 1998, 48 b).

O'qituvchining ishi – o'quvchilar ishlarining natijalarini yaxshilaydigan o'zlarining xulq-atvorlari moslashishini kafolatlashda yordam beradigan foydali qayta bog'lanishni ishlab chiqishdir.

Bular:

- baholash bo'yicha mulohazalar yaratishda o'qituvchilarga ayon bo'lgan resurslar;
- sifatli qayta bog'lanish berish nimani bildirishi;
- sifatli qayta bog'lanish qanday yo'sinda yo'lga qo'yilishi;
- o'quvchilar qayta bog'lanishni qanday tushunishlari.

Qayta bog'lanishning yuqorida qayd etilgan hamma metodlar bilan integratsiyasi muhim hisoblanadi. O'qitishning maqsadi – bostqalarning yordamisiz, o'zlari uchun qayta bog'lanishni o'quvchilarning o'zi yarata oladigan bo'lishlaridir.

10.2.5. O'zaro biroz gaplashib olish vositasida o'rganish

Ish joyida biroz gaplashib olish, ba'zan "namiqqan" ancha sovuq gaplashish ham deyiladi. u o'qib-o'rganishning muhim aspekti hisoblanadi (Baker, Jensen & Kolb, 2005).

Yaxshi kasbiy o'qituvchilar har xil bosqichlarda o'quvchilar orasida boy suhbatlashishlarni loyihalashga ongli ravishda intiladilar; bunda seminarda o'quvchilarni yuqori darajali malaka oshiruvchilarni, yosh va yoshi ulug'ni, ishini endi o'rganayotganini va ekspertni, ular bir-birlari bilan gaplasha oladigan qilib, yonma-yon joylashtirishadi.

Juda murakkab o'quvchilar haqida aks-sado rivojlanishini murakkab bo'lmagan usulda motivatsiyalash – qatama-qarshi narsaga o'xshaydi. Biz ular bilan 1.1 gaplashamiz; biz operatsiyalar haqida so'raymiz; bizning normal natijamizni ish beruvchi sifatida gaplashamiz, biz

ularni doim quyidagidek undaymiz: "Siz qanday o'ylaysiz, ish qanday ketayapti?", "Siz qanday fikrdasiz, Siz nimanidir boshqachasiga qilmoqchimisiz?", "Siz nima deb o'ylaysiz, Siz buni keyingi gal berganingizda, shunday narsaning o'zi sodir bo'lishi kerakmi?" Bu ochiq so'rov va odamlarga o'zining tajribasini tadqiqot qilishga haqiqatda yordam berishga intilish va ularga o'zlarining javoblarini taqdim etish haqida.

Éndi Smit.

Ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha bir muayyan markazda Siz o'quvchilar yuqori malakali ustalar va texnik xodimlar bilan yonma-yon ishlab, asta-sekin ularning ko'nikmalarini egallashayotganliklarini ko'rasiz. Ular suhbat davomida ushbu odamlar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladilar; ular bir-birlari bilan o'zaro ta'sirda bo'ladilar; ular o'zlarining muammolari haqida gaplashadilar. Keyin kollejga qaytishganda ular amaldagi prinsiplarni chuqurroq tushunishadi, bu esa amaliyotni mustahkamlaydi ...

Richard Pring.

Suhbatlashish nuqtai-nazaridan so'rov roli birinchi darajali ahamiyatga ega. Ta'limiy yo'riqlarda o'qituvchi o'quvchilar o'rganilayotgan yangi mazmun bilan qaysi darajada tanish ekanliklarini hamda uni qaysi darajada tushunganliklarini aniqlash uchun savollar beradi (Mgkitalo, 2005). Samarali o'quvchining repertuarida ham so'rov ma'lum rolni o'ynaydi. So'rov jarayoni ahamiyatli muhokamaga undash yo'li bilan ham refleksiv fikrlashni soddalashtiradi va shu bilan birga, intellektual savollarni tuzish soha bilimlarining va metakognitiv ko'nikmalarning ma'lum darajasini talab qiladi (Choi, Land & Turgon, 2005). O'qituvchilar o'quvchilarga savollarning uch turini o'rgatishi mumkin.

1-savol. Tushuntirish yoki ishlab chiqish haqida – o'quvchi g'oyaning oqibatlarini to'liq o'ylab chiqmagan bo'lishi mumkin. Ularning javoblari noaniq, noto'liq yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin.

2. Qarshi dalil – o'qituvchi va o'quvchida bir-biriga qarama-qarshi dalil bo'lganda. So'rovning bu turi o'quvchida "bilish nizosini" uyg'otadi, bu ularning pozitsiyasini battar kuchaytiradi yoki o'zlarining g'oyalarini qaytadan ko'rib chiqtiradi.

3. Kontekstli – yoki istiqbolga yo‘nalgan savollar – o‘quvchi javobida hech qanday noto‘g‘ri joylari yo‘q. savolning bunday turi o‘quvchini mu‘ammodagi har xil istiqbollarni ko‘rib chiqishga rag‘batlantiradi.

10.2.6. O‘qish va yordam olish/berish yo‘li bilan o‘rganish

O‘quvchilarning o‘zlari o‘qish va bir-birlariga yordam berish yo‘li bilan o‘zlari o‘qishlari mumkin Djin Leyv va Etenn Venger (1991) ‘amaliyot hamjamiyati’ konsepsiyasini rivojlantirishdi. u umumiy yoki o‘zaro bog‘langan faoliyat olib boruvchi odamlar guruhiga taalluqli. Ular amaliyotchilar hamjamiyatida ishtirok etish orqali o‘z identikligini qurishda o‘zlarining “shakllanishlari” jarayonini ushbu linza orqali o‘rganadilar.

O‘qib-o‘rganishga hamjamiyatda “ishtirok etish” sifatida qaraydigan vondashuv o‘rganishga “rivojlanish, munosabatlarning uzluksiz qayta tiklanadigan to‘plami” sifatida qaraydi (o‘sha yerda. 50 b.) Istalgan hamjamiyatga yangi qo‘shilganlar oxir-oqibatda “eski taymer” bo‘lishadi (o‘sha yerda, 56 b.) va ular bunga qayta ko‘rib chiqishning uzoq davom etgan jarayoni vositasida yetishishadi (o‘sha yerda. 51 b.). Lave va Wenger quyidagilarni nazarda tutishadi mahorat ustaxona egasida emas, balki amaliyot hamjamiyatini tashkil qilishda yotadi. Bu o‘quvchilar asosan boshqa o‘quvchilar bilan bo‘lgan munosabatlari orqali o‘qib-o‘rganishlarini bildiradi: “tasdiqlanmagan informatsiya mavjud ..., qayerda hamkasblar yoki deyarli hamkasblar orasida bilim almashinisa, o‘sha yerda bilim juda tez va samarali tarqatiladi” (o‘sha yerda, 93 b.). ‘O‘qiyotgan hamkasblar’ o‘qitish metodikalari va o‘qitish strategiyalaridan foydalanishga murojaat qilishadi, ularning yordamida o‘qiyotganlar, o‘qituvchining bevosita aralashuvisiz, bir-birlaridan o‘qib-o‘rganishadi.

Hamkasbidan bilimlar egallanishim realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan yana qo‘shimcha afzalliklar mavjud, ular:

- hamkorlikka aloqasi bo‘lgan o‘quv faoliyati natijalarining rivojlanishi – bu komandada ishlash va o‘qib-o‘rganadigan hamjamiyat a‘zos sifatida shakllanishdir;
- o‘quvchilar savol va javob berishda ishtirok etishlari uchun yaxshi imkoniyatlar yaratiladi. bunda javob va savol berishda o‘qituvchi bevosita ishtirok etmaydi;
- boshqalarga mavzu xabar qilinayotganda amallarning ko‘pligi va o‘rganishning ushbu joyida va hamkasblarini tanqid qilish tajribasining kattaligi;

– xususiy shaxslar o'zlarining o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan o'zlarining ehtiyojlarini yaxshiroq identifikatsiyalab rejalashtirish.

10.2.7. Muammolarni real yechish orqali o'rganish

Muammolarni real yechishga urinish yo'li bilan o'qib-o'rganish ekspert bilimlarini hosil qilishning eng samarali vositalaridan biri bo'lishi mumkin. "Muammoga tayanadigan o'quvchi" muammoni yechishda o'sib boradi. Bunda kasbiy-texnikaviy ta'lim kontekstida bilimlarni hosil qilish usuliga intuitiv ravishda murojaat qilinadi (Savery and Duffy, 1995).

Muammoni real yechish istalgan kasbiy pedagogikaning yadrosi hisoblanadi. Lekin kasbiy-texnikaviy ta'limning tabiatiga qarab va u bor bo'lgan kontekstlarda, u har xil shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu esa tajribali qayta bog'lanish va o'quvchini ifodalash uchun strukturlangan jarayonlarni talab qiladi.

10.2.8. So'rov/ehtiyoj orqali o'qib-o'rganish

So'rov/talab/ehtiyoj orqali o'qib-o'rganish real muammolarni yechish orqali o'qib-o'rganishning bir qismi bo'lishi mumkin. Lekin shu bilan birga uning o'zining ma'nolari ham bor. Masalan, "so'rov/talab/ehtiyoj" yondashuvidan o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga bo'lgan falsafiy yondashuvni bayon qilishda tez-tez foydalaniladi, masalan maktabda u bolalar uchun falsafa sifatida ma'lum (Xeyns, 2008).

So'rov/ehtiyoj yondashuvi odatda ta'lim sohasining tabiiy-ilmiy fanlarida talabalarga ilmiy tushunchalarni ancha chuqurroq o'rganishga imkon beruvchi usul sifatida qo'llaniladi. Xususan u o'qiyotganlarga o'zlarining bilimlarini epistemologiya (yoki "ilm xarakteri") linzasi orqali o'tkazish holatida bo'lish imkonini beradi, u "biz bilganimizni qanday bilamiz?" va "biz nimanani aniq bilamiz?" deb so'raydi – mohiyati bo'yicha bu savollar nazariya va amaliyot orasidagi munosabatlarga taalluqli savollardir (Sandoval, 2005).

